

Qir ustidagi ayol

14.07.2017



Tog'larga sel keldi. Keng o'zanlar o'rtasida ko'z ilg'ar-ilg'amas kumush kamardek yaltirab oqib yotgan Surxon shovqin-suron bilan shovullab kelgan loyqa suvni bir seskanib bag'riga oldi. Pishqirgan suv o'zamlardan toshib, qay bir chaqqon dehqon daftar chizig'idek egat tortib qo'ygan paykallarni ham yuvib ketdi. Havo birdan sovidi. Jahl otiga minib, pishqirib oqayotgan Surxonni yoqalab, Robiya xolaning hovlisi tomon kuyov navkarlar o'tganda poyonsiz osmon o'rtasida hayron yiltillab turgan quyosh ham qayoqqadir g'oyib bo'ldi.

Robiya xola bir umr faol bo'lib o'tgan: birgad bo'lgan, deputat, delegat bo'lgan, hamisha el ustida, elning oldi bo'lib yurgan, hech topmaganda ham shapaloq bilan yuz qizartib, katta-kichikning izzatiga yetgan ayol edi. Kuyovning oyoqlari ostiga lovullab turgan xonatlas bilan oqlik to'shab, poyondozni qo'shqavat qildi. Egniga buxorochoa zarbop to'n soldi. Dasturxonida anqoning tuxumidan bo'lak hamma narsa bor edi. Hammasi ko'ngildagidek bo'ldi, faqat kunchiqarda paydo bo'lgan qoramtir bulut hamma yoqqa sarg'imtil soya tashlab olgani yuragini siqdi. Kelin kiyinayotgan xona bilan qudalar o'tirgan xona o'rtasida yugurib yurarkan, har zamon – har zamon osmonga qarab qo'yardi. Aksiga olib, qora bulut muzaffar qo'shindek tobora shiddat bilan osmonni egallab borardi. Qayerdadir qarg'alar ham qag'illadi. Shohistaga otasi duo berayotgan payt birdan shamol turdi. Qiz ota duosini olib, yon-atrofi rang-barang shoyi tasmalar, sharlar bilan bezatilgan mashinaga o'tirguncha shamol bolasini izlayotgan telba onadek uvillay boshladi. Bir pasda yer-u osmon chang-to'zon bilan qoplendi. Bir qadam narida turgan narsani ko'rishning iloji yo'q edi. Birin-ketin yo'lga chiqqan mashinalar kuppa-kunduz kuni tungi chiroqlarini yoqib olishdi. Oradan bir

chovgum suv qaynaydigan fursat o'tmay, shatir-shutur yomg'ir yog'a boshladi, izidan qor uchqunladi. Kelin kuyovning uyiga yetib kelganda hamma yoq oppoq qor edi:

– Bu Aziz momo! – dedi kelin-kuyov o'tirgan mashinani boshqarib kelayotgan o'rta yashar kishi. – To'qson, bir kunimcha yo'qsan, der ekan. Haqiqatan ham to'qson kunlik qishda shu qahrning o'ndan birini ko'rganmidik? Lekin chatoq bo'ldi. Hamma narsa uyg'onib qolgan edi. Bu yil bodom yili bo'ldi, deb yurgan edik hammamiz.

– Bir yil bodom yemasangiz, yemabsiz, aka! – orqada kelinning yonida o'tirgan yanga kuldi. – Eng muhimi, Aziz momo kelinning yo'liga poyondoz to'shadi.

Haydovchi peshoynadan yangaga birrov hayron va norozi qarab qo'ydi-da, so'ng o'ziga o'zi aytayotganday so'zlandi:

– Ha-a... Elning rizqi edi-da...

Kuyov tomon mashinani qiy-chuv bilan kutib oldi. "Aziz momo"ning kutilmagan qahridan shoshib qolgan katta-kichik oyoq ostida loyga aylanayotgan ola-chalpoq qor ustida diydirashib, kelin-kuyov o'tirgan mashinani o'rab olishdi. Mashina eshiklari birin-ketin ochilib, haydovchi, kuyov, kuyovjo'ra mashinadan tushdi. Kelin yanga esa o'zlari tomondagi eshikning tutqichiga mahkam yopishib, kelinga qo'l uzatgan kuyovning yo'lini to'sdi:

– Oldin haqini bering!

Kuyov cho'ntagidan besh-oltita ming so'mlik chiqardi.

Yanga ishva bilan bosh chayqadi:

– Bu kam!..

Bu safar kuyovning yonida turgan jo'rasi cho'ntak kavlab, yangaga pul uzatdi:

Yanga pulga qarab, mazax qilganday kuldi:

– Yaxshi yigit, men sizdan saqich puli so'rayotganim yo'q. Men kelin olib keldim, xo'rozqand emas.

Kelin xijolat tortib, yangasining biqiniga qattiq turtdi. Yanga bir siltanib, yana eshik tutqichiga yopishib oldi:

– To'g'ri-da, qo'lidan kelgan yigit uylansin!

Kuyov oq-sariqdan kelgan rangpargina yigit edi, duv etib qizardi.

Kuyovjo'ra mashina eshigiga engashib, yangaga piching qildi:

– O'zingizning narxingizni ham ayting, yanga, ko'tara savdo qilamiz.

Atrofda yengilgina kulgi ko'tarildi. Poyonдоз ushlab, kelinning tushishini kutib turgan ayol pastki labini tishlab, yerga qaradi: "Yashshamagur, qudaning izzatini qilmadi!"

– Quruq qoshiq og'iz yirtadi, yigit! Qo'lingdan keladigan ishni gapir! – qarzdor bo'lib qolishni istamagan yanga ham kuyovjo'rani masxara qildi.

Yigitlar qiyqirib yubordi: "Tamom bo'lding, Hamdam!"

Hamdam, aftidan kuyovjo'raning ismi shunday edi – nimadir demoqchi bo'lib unga tomon yurayotgan edi, kuyovning imosi bilan ikki yigit uni qo'ltig'idan tutib, nari olib ketishdi.

Kuyovning o'zi cho'ntagidan bir dasta pul chiqarib, yangaga berdi. Yanga pulni zanjirlari yaltiroq sumkachasiga solib, mashina eshigini ochdi. So'ng g'olibona pastga tushib, tor kiyimdagi kelishgan qaddi-qomatini ko'z-ko'z qilgancha davraning qoq o'rtasidan kesib o'tib, darvoza oldiga borib turdi. Yigitlar Hamdamning biqiniga turtishdi.

– Zo'r narsa ekan! Ko'tara savdo qilsang, pulingga kuymas ekansan.

Hamdamning quyuq qoshlari chimirildi:

– Izimdan itdek ergashtirmasam, otamning o'g'li emasman.

U shunday deb olov aylanayotgan kelin-kuyovni tomosha qilib turgan "yanga"ga tikildi. Biroz o'tib "yanga" uning o'tli nigohlarini his etdimi, yalt etib, unga qaradi. Hamdam dastlabki g'alabadan sevinib ketdi. Qoshlarini chimirib turgan xushro'y juvonga ma'nodor tikilib, ko'zlarini qisib qo'ydi. Juvon avvaliga hayron bo'ldi, so'ng yigitning oshkora shilqimligidan qahrlanib, zarda bilan yuzini burdi. Ammo Hamdamning o'z "mashg'ulot"ini to'xtatish niyati yo'q edi. Juvon ham qiziquvchanlik tufaylimi, qahrini bosa olmaganidanmi, yana unga qaradi. Hamdam esa kulib, yana ko'z qisdi. Yanga endi astoydil qahrlandi, unga butunlay orqa o'girib, kelinni ham kutib turmasdan, hovliga kirib ketdi: "Tarbiyasiz!"

Tantiq yanga qaysidir ma'noda haq edi. Hamdam olti qizdan so'ng tilab-tilab olingan Tilovmurod, aytgani qonun, istagani muhayyo, ushlagani o'ziniki bo'lib o'sgan yigit edi. Yanganing u uzatgan pulni masxara qilib, yana sensirab gapirgani uning hamiyatiga tegdi. To'yxonaning o'zidayoq bu oyimchanning kimligidan tortib, telefon raqamigacha aniqlab oldi.

– Biz endi boja bo‘lamiz, – dedi kuyovning yelkasiga ma’noli qoqib.

Ahmad oshnasining fe’lini yaxshi bilar edi. Nimaga sha’ma qilayotganini darrov tushundi:

– Oshna, sen bunday gaplarni qo’y. Eri juda yaxshi yigit. Buyog’i biz bor. Bir ahmoq xotinning kaltafahmliгинi deb...

Hamdam uzr so‘rayotganday qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, kuldi:

– Oshna-a!.. Oshnachilik o‘z yo‘liga, lekin har kimning o‘z hisob-kitobi bor. Bilasan, men qarz bo‘lib yurishni yomon ko‘raman. Ayniqsa, ayol kishidan!..

* * *

To‘y kuni yoqqan qor shu kuniyoq erib ketgan bo‘lsa-da, hali havoning zahri sinmagan, hamma joy zax va nam, allaqachon yo‘lga chiqqan qish nimasinidir unutib qoldirgani uchun ortiga qaytgan besarishta xotindek ivirsib yurardi.

Ular yuzochdidan tushga yaqin qaytishdi. To‘yda ishlatilgan stol-stullar ayqash-uyqash bo‘lib yotgan hovlida hech kim yo‘q edi. Ayvon derazasida turgan telefon dunyoni boshiga ko‘tarib jiringlab yotardi.

– Nozima, anavini ol, o‘zini yeb yotibdi, – tugun ko‘tarib oshxona tomon ketayotgan Robiya xola keliniga buyurdi. – Bobong qayerga yo‘qolgan...

– Allo-o, eshitaman, – Nozima derazadan telefon go‘shagini olib, qulog‘iga tutdi. – Da-a!

– Nozimaxon, o‘zingizmi?

– Ha, menman. O‘zingiz kimsiz? – u javobni eshitmasdan ovoz egasini tanidi. – Biron ishingiz bormidi?

– Bir ahvol so‘ray, dedim sizdan. To‘y tashvishlari bilan charchamadingizmi? Yana... Sizdan uzr so‘ramoqchiman. Kecha biroz kayfim bor edi. Odobsizlik qilgan bo‘lsam, kechiring.

– Shundaymi? Ha, mayli, sog‘ bo‘ling.

– Nozimaxon, bilasizmi, men ba‘zan to‘ylarda qo‘shiq aytaman. Kecha yangi qo‘shiq o‘rgandim. Bir eshitib ko‘ring, – yigit shirali ovozda qo‘shiq xirgoyi qila boshladi. – “Qalbimda oh urar, ohlarim

unsiz, senga talpinaman kechayu kunduz. Balki sen yasharsan, jonginam, mensiz. Men qanday yasharman dunyoda sensi-iz?.." Qalay, yoqdimi?

Tugunlarini joylashtirib, oshxonadan chiqqan Robiya xola unga qaradi:

– Kim ekan? Kimni so'rayapti?

O'g'irlik ustida qo'lga tushgandek, Nozimaning rangi oqarib ketdi. Hamon quloqlariga bosib turgan go'shakka:

– Siz aytgan odam bu yerda yashamaydi. Sizga noto'g'ri telefon berishibdi, – dedi, so'ng qaynonasiga yuzlandi. – Normurod degan yigitni so'rayapti.

Bir oz vaqt o'tib, telefon yana jiringladi. Bu safar Nozima ayvon ichkarisida edi. Indamay telefonning simini uzib qo'ya qoldi. Xonasiga o'tayotib, devordagi baland toshoynaga qaradi: sarvdek qaddi-qomat, shuncha to'y tashvishlaridan keyin ham lovullab turgan qoshu ko'z, tim qora sochlar ko'nglini to'ldirdi: "Qandingni ur, Nozi! Ikki bolali bo'lsang ham, bir ko'chaga chiqsang, izingdan o'n yigit yuragini changallab qoladi". Beixtiyor kuyovjo'ra aytgan qo'shiqning so'zlari yuragidan qaynab chiqayotganday bo'ldi: "Men qanday yasharman dunyoda sen-si-iz?.." Shu qo'shiq xirgoyisi bilan kiyim almashtirdi. Tor-tanqis kiyim-bosh, turli tasmalar iskanjasidan ozod bo'lgan tanasi yengil nafas oldi. Keng-mo'l paxtalik ko'ylagini kiyib, divanga cho'zildi. Oyoqlarini uzatgandan so'ng juda charchaganini his qildi. Bir qarashda yordamchi ko'p: ovsinlar, amma-xolalar, jiyanlar! Ammo hech bir ish Nozimasiz bitmaydi. "Nozi, dasturxon kerak!", "Nozi, sochiq kerak", "Nozi, mehmon keldi", "Nozi!.." U shu katta xonadonning bekasimi, cho'risimi, harqalay hamma narsaning joyini faqat u biladi va faqat u topib berishi kerak. Albatta, qaynonasi turganda unga bekalik tegarmidi? U xizmatkor, maoshsiz ishlaydigan, hech qachon rahmat eshitmaydigan xizmatkor! Ayniqsa keyingi kunlarda unga juda alam qildi. Qaynonasi kenja qizining sepiga bor bisotini to'kib soldi. Eshikdan kim kelsa, qizining sepini bir-bir ko'rsatib maqtanadi: "Borgan joyida tili qisiq bo'lib yurmasin. Bizda faqat o'g'ilni o'ylashadi. Axir qiz ham farzand, birovning eshigiga boradi. Esi bor ota-ona qizga o'g'ildan ikki baravar ko'proq qilishi kerak": Bu gaplar, uning ismi qo'shib aytilmayotgan bo'lsa-da, suyak-suyaklaridan o'tib ketaverardi. "Ha, uning onasi buncha sep qilmagan. Qayerdan ham qilsin, o'zi oddiy muallima bo'lsa... Buyog'i jo'jabirday jon, har yili bir bolasini uylaydi".

Nozima anchadan beri olmos ko'zli uzuk bilan zirakka pul yig'ib yurgan edi. Bu jamg'armaga ba'zan eri ham ulush qo'shib turardi. Ozgina qolgan edi, yozda ta'til pulini olsa, bo'ldi edi. To'ydan uch kun avval eri "Sen picha shoshmay tur. Pulingni o'zim qilib beraman", deb bor pulini onasiga chiqarib berdi. Uning tili tanglayiga yopishib qoldi. Onasi o'g'lini alqab-alqab, o'zidan ozroq pul qo'shib, qayinsinglisiga xuddi u orzu qilganday olmos ko'zli uzuk bilan zirak olib keldi. Yana "Iching kuyib, o'li!" deganday ona va qiz biri olib, biri qo'yib, xaridlarini unga ko'rsatib, maqtanishardi: "Tovlanishini

bir ko'ring, har qirrasida yuz xil rang bordek go'yo!". Nozima harchand o'zini beparvo tutishga urinmasin, uddasidan chiqa olmadi. Tomog'iga nimadir tiqilib, ikki chekkasidagi tomirlarda issiqqina nimalardir vijir-vijir qilib, ko'zlari tomon oqib kela boshladi. U zo'rg'a "Ha-a, ha, yaxshi, juda chiroyli ekan!" dedi-yu, ortiga burilib yotog'iga chiqib ketdi. Biroz hovri bosilgach, o'zini urishdi: "Arzimas bir taqinchoq uchun o'zingga achchiq gap sotib olishning nima keragi bor? Hozir bir nima deydigan bo'lsang, sening ham onang qilsin edi, deyishi aniq. Siz qizingizga mening necha yildan beri yig'ib yurgan pulimga qilayapsiz. Bu pul men uchun onamning sutidek halol edi, desinmi? Nima foydasi bor?"

Ayniqsa erining bezdek bo'lib, pulni indamay onasiga chiqarib berishi unga juda alam qildi. O'zi bu erkak qachon unga yolchitib biron narsa olib bergan?! Odamlarning eri xotiniga ota-onasidan yashirib pul bersa, bu!.. Qachon bo'lsa, mo'ltirab onasining ko'ziga qarab turadi.

Bir achchiq bilan bolalarini yetaklab, onasinikiga ketib qolay, dedi. Yana shaytonga hay berdi. Yaxshiyam ketmagan ekan, biroz charchagan bo'lsa ham to'y bahona qancha qarindosh-urug'larini ko'rdi, yedi-ichdi, o'ynab-kuldi. Kuyov tomon ham zo'r to'y berdi. Kuyovjo'rasi tushmagur ko'zi bilan yeb qo'ymadi, qo'ymadi.

Endi ko'zi ilingan ekan, kimdir yelkasiga qattiq turtadi, cho'chib ko'zini ochdi. Boshida qoshlari norozi chimirilgan eri turardi:

– Turib, onamga qarashsang bo'lmaydimi? Yetmishga kirgan kampir muzlab, idish-tovoq yuvib yotibdi, sen bo'lsang, yalpayib!..

Xona ancha salqin edi, ustiga hech narsa olmay yotib qolgan ekan, biroz mizg'iganigami, eti junjikdi. Erining yuziga bir qarab, kerishib oldi. So'ng o'rnidan turib o'tirdi:

– Buncha vahima qilasiz? Qiz tug'ib, qiz uzatgan boybicha ishlaydi-da. Ichingiz achiyotgan bo'lsa, o'zingiz yuving o'sha idish-tovoqlarni.

– Hey-y! O'zingdan ketma, xotin! – xotini janjal istab turgan bo'lsa-da, o'zini bosdi. – Choy-poy qil, mehmon keldi.

– Uf-f! – Nozimaning rostakamiga jahli chiqib ketdi. – Yana mehmonmi? Bu uyda tinchlik bormi o'zi? Kechagi mehmondorchilikning joyini tozalab ulgurmasingdan yangisi kirib kelaveradi. To'yib ketdim hammalaringdan!

– E-ey! Menga qara! – Sardorning jahli chiqib ketdi. – Senga o'zi umuman odam isi yoqmaydi. Yesang, yotsang, sollanib ko'chama-ko'cha yursang! Kun bo'yi telefonga osilib, onang bilan g'iybatlashsang! Dangasa!

– Onamni tinch qo'ying, onamga til tekkizmang!

– Onang bilan qo'shmozor bo'li! – Sardor jahl bilan xonadan chiqib ketdi.

Nozima ancha vaqt o'ziga kelolmay o'tirdi. Zarda bilan to'shakka cho'zilib ham oldi, ammo uyqusi buzilib bo'lgan, charchog'i ham bir qadar yozilgan edi. Hech kim uni yo'qlab kelmasligiga ko'zi yetgach, o'tirib-o'tirib o'rnidan turdi-da, oshxonaga o'tdi. Qaynonasi javrab-javrab qozon kavlar, eri piyola artar edi. U beixtiyor eshik ortida turib qoldi: "Mayli, bolam, mayli. Ikki bolasi bor. Indama. Bir kun ro'zg'or o'ziga qolsa, odam bo'p qoladi". "E-e, shumi? Hech qachon o'zgarmaydi. O'zgarsa, shuncha yildan beri o'zgarardi-da. Siz o'lib ketsangiz, bu eshikdan na bir oshnam, na bir qarindoshimni olib kira olmasam kerak. Chivinini qo'rishga erinadigan jonivor. Shu ikki bola siyaman desayam baloga qoladi. Go'dakkinalar qo'rqqanidan sizning oldingizga keladi. O'zining bolasi yoqmagan odamga siz bilan mening mehmonim yoqarmidi?". "Mayli, bolam, mayli. Hozircha o'zim bor. Men o'lib ketsam, mehmonlaringni restoranlarda kutaverasan. Topmay o'tirgan joying yo'q". "E-e, ona, qirqqa kirsam ham shuningizni haydab, boshqa uylanaman". "Tavba de-e! Gulday bolalaringning boshiga o'gay ota, o'gay ona zulmini solmoqchimisan? Xotining hali yosh, birov to'qqizida bosh bo'lar, birov o'ttizida ham yosh bo'lar. Bo'ladi-da. Qilmaydi emas, qiladi. Bir itfe'li bor, bir umr hamma narsadan norozi bo'lib yuradi. Biroz noshukr, shuncha yil yashab, bundan keyin ham bir umr yashashi kerak bo'lgan uyga hech mehr qo'ymadi. Faqat "onamnikiga" deb turadi. Shunisiga dog'man, bolam, mayli, insof-tavfig'ini bersin!"

"Ha-a, uylan! Iloyo, uylan! Men ham sening yuvindingga zor bo'lib o'tirganim yo'q. Ikki bolamni oydingda oyog'im bilan boqaman. Shu bolalarning ust-boshidan ham qizg'anib, yig'ib yurgan pullarimni singlingga hadya qilib yubording. Ablah!", u shartta ortiga burilib, hovliga chiqdi. Namxush havo lovullab qizib ketgan yuzlariga urildi. O'pkasi to'lib, yig'lagisi keldi. Hovlining adog'iga qarab yurdi. Qaynonasi uni derazadan ko'rib qoldi, shekilli, chaqirib qoldi.

– Nozima-yuv!

"Xuddi hech narsa bo'lmaganday, hech narsa demaganday!"

– Ha? – norozi to'ng'illadi u.

– Soat to'rt bo'ldi, bolalar ham bog'chada ilhaq bo'lib o'tirishgandir. Shularni olib kel, bolam.

Qaynonasi har doim shunday qiladi. Bir umr elni boshqargan ayol-da. Tulki! Bir gap aytsa, e'tirozga o'rin qoldirmaydigan qilib aytadi. Hozir "Kelin degan ham shuncha yotadimi?" deganda, haqqi bormi-yo'qmi, bir bobillab, xumordan chiqardi. Bu "bolalaringni olib kel" deyapti.

Bunga nima deydi? Bola o'ziniki bo'lsa! U indamadi, lekin baribir iziga qaytmadi. Indamay hovlining adog'iga o'tdi. U yerda qaynotasi yaxshi ko'radigan joy bor. Bolta o'tmaganidan ko'p yillardan buyon daraxtlar orasida ko'ndalang bo'lib yotgan o'rik tanasi. Qaynotasi ko'pincha o'sha yerda o'tirib chekadi, hovlini tomosha qiladi, nevaralariga o'yinchoqlar yasab beradi. Bu yerni Nozima ham yaxshi ko'radi, hovlini yig'ishtirib, supurganda, shu yerni ham supurib qo'yadi. Quyuq daraxt shoxlari orasidan bu yerda o'tirgan odam ko'rinmaydi, ammo u yerda o'tirib, ham bog'ni, ham hovlini bemalol tomosha qilish mumkin. Uning biroz eti junjikdi, bog'ning ichi salqin edi, yoqalarini ko'tarib, qo'llarini ko'kragi ustiga qovushtirib oldi. Ko'ngli juda g'ash edi. Erining gaplari quloqlari ostidan hech ketmasdi. "Ablah!" To'ydan oldin ham xafa qilgan edi: "Buncha yopishding shu brilliantga! Brilliant taqib yurgan boyvachchaning qizimisan?!"

Yuziga tarsaki tortib yuborganday bo'ldi. Bularning har gapi ikki boshli to'qmoq. To'qmoqning bir uchi uning boshiga tegsa, bir uchi, albatta, onasining boshiga mo'ljallangan bo'ladi. To'g'ri, uning onasi olmos tugul, yoqut ham taqmagani. Lekin, onasining yo'li boshqa, zamoni boshqa. Sakkiz bola bilan qanday ham o'ziga qarardi sho'rlik? Bu esa shuncha oylikchining ichida yashayapti. Ozigina erkinlik berishsa, hamma narsa olishi mumkin. Ammo qaynonasi hammaning pulini hisob-kitob qilib, hali ta'mir boshlab yuboradi, hali gilam ko'tarib keladi, hali sigir savdo qiladi. Uning kichkinagina maoshi ham shu katta-katta xarajatlar ichida qumga singan suvdek singib yo'q bo'lib ketadi. Shu xarajatlardan qisib-qimtib yig'ib yurganini!

– Nozi, Nozima-yuv-v!

Qaynonasi yana uvillay boshladi. "Uf-fl!.." Aftidan boqqa kirib ketganini ko'rgan, shekilli. U indamay o'rnidan turib, darvoza tomon yurdi. Endi bormasa, qo'ymaydi.

...Bolalarning oldidagi kosachalarning ovqatlarini bidonga yig'ayotgan bog'cha opa uni ko'rib, g'alati bo'lib ketdi. Xijolat bo'lganini sezdirmaslik uchun kulib, o'zini oqlashga tushdi:

– Hammasi deng, boyvachchaning bolasi. Bog'chaning ovqatini yemaydi. Yemasanglar, yemanglar, dedim. Tovuqlarim bir mazza qilsin.

Ayolning yaltoqlanishi g'ashini keltirdi. Bir gap qilib, chaqib olay, dedi-yu, yana indamadi. Yo'lda o'g'lidan so'radi:

– Nima ovqat berishgan edi?

O'g'il burnini jiyirdi:

– Guruchli ovqat. Guruchlarining orasida cho'plari, toshlari ham bor. Yegimiz kelmadi.

– Men yedim, qornim rosa ochqab ketgan edi. Hammasini yeb qo'ydim, – dedi qizchasi onasining maqtovidan umidvor bo'lib.

– Qanday yeding, cho'plari, toshlari bo'lsa?

– Cho'plariniyam yeb qo'ydim. Men cho'plarni ham yeya olaman, – yana maqtandi qizcha.

“Shuginalarimni tovuqlarga beriladigan xo'raklarga teng qilib ishlayman. Topgan pulim kimlarning kuniga yaraydi”.

Yonlaridan g'izillab o'tgan mashina yo'l o'rtasidagi ko'lmak suvini shaloplatib, ularning ustiga sachratib o'tib ketdi. Yap-yangi xalatiga loyqa suv chaplandi. Yana erini yozg'irdi: “Besh daqiqalik yo'l! Mehmonlarining og'ziga qarab o'tirmasdan, bolalarni mashinada olib kelsa bo'lardi! Yo'q, u onasini xafa qilishi mumkin emas. Xotini, bolalari nima bo'lsa, bo'lsin. Onasining dili ranjimasa, bo'ldi!”

Qaynonasi mehmonlarini kuzatib bo'lgan shekilli, qo'llarini beliga tirab, darvoza oldida turgan ekan.

– Bog'chaga ketgan-ketmaganingni bilmay, endi o'zim borsammi, deb turgan edim.

Bolalar momosiga yopisha ketdi.

– Momo-a! Ammam keldimi?

– Ammam uydami?

– Endi ammangning uyi boshqa yoqda. Endi o'sha yoqda yashaydi.

– Nega, nega?! Nega ammam bizni tashlab ketadi? Men ham ammamnikiga boraman! – Sanjar yerga cho'nqayib o'tirib olgancha, yig'lay boshladi.

– Tur-e, tentak! – Nozima bolasining qilig'idan achchiqlanib, kostyumining yelkasidan tortdi. – Tur, bor, kiyimlaringni almashtir!

Sanjar o'rnidan turib, onasiga yopishib, yumdalay ketdi:

– Hammasi sizni deb bo'ldi. Siz ammamni yomon ko'rardingiz, u shuning uchun ketib qoldi.

– Nima? Nima deding?! – Nozima o'g'lining yuziga qars etkizib, tarsaki tortib yubordi. Bola muvozanatini yo'qotib, chayqalib ketdi. Qo'rqqanidan boshini bilaklari orasiga yashirib, o'tirib oldi. Nozima uni bir tepib, hovliga o'tib ketdi: “Yuzing qursin, senday bolaning!”

Robiya xola turgan joyida taxtadek qotib qoldi: “Bu kelin chindan ham quturibdi”. Sanjarning mittigina vujudiga har zarba tekkanda xuddi o‘zining yelkalariga qamchi tushgandek bir seskanib, izillab yig‘lab qolgan bolani bag‘riga olguncha qaltirab qoldi:

– Hay, esi yo‘q bolam-a, nima qilasan onangga gapirib? Shu ammang yo‘q bo‘lib ketmaydimi? Senga amma nima kerak?

Boshqa nima ham desin? Bir narsa desa, bu kelinning hamisha tuguni tayyor. Onasi ham beo‘y xotin. Hech qachon, “Ikki bolali bo‘lding, endi sabrli bo‘l” demaydi. “Kel, bolam, tor qornimga siqqan, keng uyimga ham sig‘asan” deydi. Buyog‘i o‘g‘il ham to‘nini teskari kiyib turibdi. Hozir bir narsa desa, hech o‘ylab o‘tirmaydi: “Ona, oldini qaytarmang, ketsa, yo‘qolsin. Qachongacha shunday yashash mumkin? Unga na siz yoqasiz, na biron qarindosh-urug‘im. Faqat men bo‘lsam. Men ham tilsiz-jag‘siz, kunduzi pul topib, kechqurun idish-tovog‘ini yuvi-ib o‘tirsam! E-e!.. Charchab ketdim, ona!”

Ayvonda yana telefon jiringladi. Kimdir simini ulab qo‘ygan shekilli. Yana Nozima to‘g‘ri keldi. Darvoza oldidagi mojaroning qahri bilan o‘qdek uchib xonasiga o‘tib ketayotgan edi, atrofga xavotir bilan bir qarab olib, qo‘rqibgina go‘shakni oldi:

– Allo, eshitaman.

Go‘shakdan qo‘shiq eshitildi:

– Endi men ko‘nglimni uzolmayman, hijronli kunlarni cho‘zolmayman...

Zim-ziyo ko‘ngil uyining darchasidan bir qatim nur sizib kirganday bo‘ldi. Atrof yorishib ketdi. Huzur qilib chuqur nafas oldi, ammo bu qo‘shiqni oxirigacha eshita olmaydi. Afsus... U bir so‘z demay, go‘shakni o‘rniga qo‘ydi. Bolalarini ergashtirib, xonasiga kirib ketgan qaynonasining eshigiga kibrli qahr bilan bir qaradi-da, telefonning simini uzdi. So‘ng hovliga chiqdi. G‘arbga qarab og‘ib borayotgan bahor quyoshi ham uning kayfiyatiga monand besaranjom hovliga mayin nur sochib turardi. Oshxonaga kirib, yuvuqli-yuvuqsiz idish-tovoqlar uyulib yotgan stolning yonboshiga osig‘lik turgan peshbandini olib, oldiga bog‘ladi. Gaz o‘choqda bir chovgum suv qaynab turgan ekan. Hamma idish-tovoqlarni avval ishqorlab, so‘ng issiqqina toza suvda yuvib-artib, taxmonlarga joyladi. So‘ng stollarni, gaz o‘choqni yaltillatib artib, oshxonani ham supirib chiqdi. Hovlini supirib boshlaganda, eri uydan chiqib, stol-stullarni bir chetga taxlay boshladi.

Quyosh so‘nggi nurlari bilan ufqni lola rangga bo‘yaganda bedapoyaga o‘rnatilgan qozon-o‘choqlardan qolgan kul izlarini aytmasa, hovli yana osoyishta holiga qaytgan edi. Eru xotin birga ishlashgan bo‘lsa-da, bir-biriga bir og‘iz ham gap tashlamadi, bunga har ikkalasida ham zarracha rag‘bat, xohish yo‘q edi. Nozima har-har zamon qandaydir intiq xavotir bilan telefon turgan ayvon

derazasiga qarab-qarab qo'yardi. "Ishqilib, birontasi yana telefonni ulab qo'ymasin-da. Bu yigit meni qiz bola deb o'yladimikin? Topgan qo'shiqlarini qarang". Shunday xayollar bilan g'imirsib yurib, ba'zan eriga ko'zi tushib qolar, uning uyulgan qovoqlarini ko'rib, yana asabi buzilardi: "Ha, hamma mening erimdek soqov qarg'a emas-da! Onam ham o'lsin, "boy-boy" deb shularga berdi. "Boy" emish, qachon qarasang, "voy-voy". Shuning ham ko'ngli bor, deb, biron narsa qilib berishning o'rniga, "Hali oylik olmadingmi?" deb o'tirishadi". Bolalarning usti-boshi, bog'chasi-ku, to'liq uning yelkasida. Maosh tekkan kuni indamay bolalarini bozorga olib chiqadi-da, bosh-oyoq kiyintirib qaytadi. Qaynonasi urishmaydi-ku, lekin bir to'ng'illaydi: "Bolalarning eski-tuski ichida katta bo'lgani yaxshi, ko'z-po'z tegmaydi. Hali katta bo'lishsa, kiyaverishadi". Ba'zan o'zicha xijolat ham bo'lib qo'yadi: "Bolam, ro'zg'or degan hech to'lmaydigan g'or bo'larkan. Bir umr er-u xotin tashib-tashib to'ldira olmagan edik. Endi Sardor bilan sen qo'shilding. Xarajat-u orzu-havaslar ham shunga yarasha ortdi. Mayli, bolam, Shohistani uzatib, eson-omon egasiga topshirib olaylik, keyin topganimiz o'zimizniki. Yeymiz-ichamiz. Qimmatbaho kiyimlar olamiz. Sanatoriylarga boramiz", deb qoladi. Nozima bu gaplarga sira ishonmaydi. Shu kampir tirik tursa, hech qachon eshkakni ularning qo'lga berib qo'ymaydi. Hali u, hali bu harajatni o'ylab topaveradi. Har yili nimadir quradi, keyin o'zi faxrlanib yuradi.

"O'shanda ham bir narsa chiqib qoladi", deb to'ng'illaydi Nozima. Kampir esa kuladi: "Tirik odamning orzu-havasi tugarmidi? Bir kun o'lib ketsam, men tejab-tergab qurdirgan bu hovli-joylarda mazza qilib yashaysizlar. O'shanda meni eslamaysizlar ham". "Kim avval o'lishi yolg'iz Allohga ayon. Odamzod bugunini o'ylab yashashi kerak", yana to'ng'illaydi u. Uning bu uydagilarning ra'yiga qaramay qo'yganiga ko'p bo'lgan. Boshida hammaning ko'ziga qarab turardi. Ichi yig'lab tursa ham, jilmayib yurardi. Bu juda og'ir edi. Shu yaponlar bir umr tabassum bilan, tavoze bilan yurib, qiynalib ketsa keragov, deb o'ylar edi o'z holiga o'zi achinib. Shu ming'ir-sing'ir kampir bilan shu qozon-tovoq umrbod bo'yniga tuzxalta qilib osilganini anglab yetgan kun juda siqilib ketdi: "E-e, bor-e!" dedi va yuzidagi tabassumni keraksiz buyum misol ilib otdi. Bu yoqda onasi ham bir narsa desa: "Bolam, kambag'alman deb, xo'rlashlariga yo'l qo'yma. Hech ikkilanmay qaytib kelaver. Qo'lingda diploming bo'lsa, bolalaringga o'zim qarayman. Hech zamonda xor bo'lmaysan", der edi. Odamzod gapi qo'r yeyishini, atrofdagilarning nozik joyini bilsa, istasa ham o'ng gapini ayta olmay qolar ekan. Bu miyang'i kampir esa nevaralarini juda yaxshi ko'radi, chin to'lganda bir toshmasa, jim!.. Hatto o'g'liga ham bir og'iz bir nima demaydi. Shunday bo'lgach, uning o'zini yig'ishtirib olishga harakat qilishi shartmi? O'zi umuman olganda, hayot uning uchun juda yoqimsiz mashg'ulotga aylandi: na uyda ro'shnolik bor, na ishda! Odamlarning uyi g'urbatxona bo'lsa, ishga borib, ko'nglini yozib, yayrab keladi. Bularning maktabi ham jinnixonaning o'zi! Hamisha yuragi zirqillab, ishga boradi, bir amallab darsini tugatgach, yana yuragi zirqillab, uyga qaytadi.

Odatda to'y o'tkazganlar ishga chiqqanlarida to'y dasturxonidan qatlama-patir, qand-qurs, issiq-sovuq ichimliklar deganday, bir tugun qilib borardi. U ham hech bo'lmasa o'zining "tilchi"lariga ulbul qilib boray, dedi-yu, yana yuragiga sig'madi. U ishga borganda, o'qituvchilar xonasida hech kim yo'q edi. Gir tevaragiga qing'ir-qiyshiq o'rindiqlar terib chiqilgan katta xonaning o'rtasida beo'xshov qo'qqayib turgan uzun stolning boshida, unga yopilgan siyohrang yopinchiqqa bir zum tikilib turdida, jurnalni ham olmasdan xonadan chiqdi: "Ishga chiqdim, deb o'rinbosar xonimga bir og'iz aytib qo'yay".

Qabulxonada kompyuterga tikilib o'tirgan kotib yigit uni ko'rib, sapchib o'rnidan turdi:

– Keling, opa!

Nozima ovoz chiqarmasdan direktorning xonasiga ishora qildi: "Shu yerdami?" Kotib esa o'rinbosarning xonasini ko'rsatdi: "Bu yoqda". "Uff!.." Bir umr shunday!.. Qachon qarasang, birga o'tirishadi. Muammongni ham, uzringni ham birga eshitishadi!"Indamay ortiga burilgan edi, ichkaridan "Ki-im?" degan shang'illagan ovoz eshitildi. Kotib "Ilojsizman" degandek unga bir qarab, ichkariga tovush berdi:

– Nozima opa kelgan edi.

– Kirsin.

Opa – eti qochgan qop-qora yuzining yarmini yaltiroq gardishli ko'zoynak yopib olgan o'rinbosar ayol, xonaning to'rida bir uyum qog'ozlar ortida chiroyli finjonda bug'lanib turgan xushbo'y qahva xo'plab o'tirardi. Qahva shunchalar totlimidi yo hamsuhbatidan biron shirin so'z eshitganmi, uning ko'zlari masrur suzilib turardi:

– Kel, Nozima!

Opadan quyiyoqda o'tirgan direktor unga qarab ham qo'ymadi, indamay qahvasini ichaverdi: "Xonimchasidan qo'rqdi!"

– Keldim, – bemahal kirib qolganidan xijolat bo'ldi u. – Ishga chiqdim, deb bir og'iz aytib qo'yay, degandim.

– Yaxshi, to'ylarni o'tkazib olgan bo'lsang, endi g'ayrat qilib ishla. Bugun maktabimizga vazirlikdan odam kelarkan, – uning ko'zlariga sinovchan tabassum qalqdi. – Bir chiroyli dars o'tib bermaysanmi?

Nozimaning rangi o'chib ketdi: "Hatto konspekt ham yozgani yo'q. Ko'rgazma haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Bir haftadan buyon to'y tashvishlari bilan yurib, jurnallar ham to'ldirilmagan.

Bu... narxini oshirish uchun jo'rttaga qarmoq tashlayapti. Yalinib, jilpanglashini istayapti!" U zo'rg'a qahrini ichiga yutdi. Hamon iljayib turgan Opaning ko'zlariga iltijo bilan qaradi:

– Roziman, faqat boshqa safar! – birdan ich-ichida nimadir uzilib ketganday bo'ldi. Na o'zining, na atrofdagilarning hurmatini qila olmagan bir yengiltak ayolning oldida chorasiz, ojiz odamga aylanganidan uyaldi. – Bir haftadan beri to'y tashvishlari bilan yurib...

– Aybini bo'yniga oladi ham, yaxshi! – boyadan beri gapga qo'shilmay o'tirgan direktor unga qahr bilan bir qarab, chaqib oldi.

Nozima indamadi.

"Opa" ma'nodor tanglay qoqib, bosh chayqadi:

– Mayli, boraver.

Qabulxonada g'aznabonga duch keldi:

– Berdiqulova! Kak raz sizni izlab yurgan edim. Siz to'ylab yurgan kunlaringizda biz uchta komissiyani kuzatdik. Bugun yana komissiya kelar ekan. Ikki ming so'mdan sakkiz ming so'mga qo'l qo'ying.

U uzundan-uzoq ro'yxatning boshi-oxiriga qarab ham o'tirmadi: "Kafanliklaringga buyursin!" G'aznabon ko'rsatgan joyga indamay imzo chekdi.

– E-e, rahmat opa! Hamma sizday mard bo'lsa ekan. Arzimagan ikki ming uchun yotib yoqalashadi-ey odamlar...

Birinchi soati 7"ga edi. Bu sinfga hamma o'qituvchilar hayiqibroq kiradi. Chunki bu sinfga faqat badavlat odamlarning bolalari yig'ilgan. Ularga har yili eng yaxshi sinfxona, eng muloyim va tajribali o'qituvchilar ajratiladi. Ammo o'sha yaxshi o'qituvchilar ham ularga hech qachon oshiqcha gap qila olishmaydi, aksincha ota-onasidan qo'rqib, ba'zilar durustroq sovg'a-salom umidida ularga ochiqdan ochiq xushomad qilishadi. Chunki hokimning ham, prokurorning ham, bozorqo'mning ham bolasi shu sinfdi. Bu bolalar uchun duppa-durust bir muallimni badnom qilish yoki oradagi tafovutni unutib, yaltoqlanib tashakkur bildirar darajada qimmatbaho sovg'a keltirish hech gap emas. Nozima esa ulardan sira qo'rqmaydi, sovg'a ham kutmaydi, olib kelishganda ham olmagan: "Ordona qolsin!" Faqat bir parcha bolalarning egnidagi eng so'nggi urfdagi qimmatbaho kiyimlarga qarab, ichi yonib ketar edi. O'zi kamxarj oilada o'sgan edi, endi boy oilaga tushib ham o'quvchilaricha kiyina olmasa. Sinf uni odatdagidek shovqin-suron bilan qarshi oldi, ularning savollarga ko'mib tashlashlari uchun jindekkina bahona kerak:

- Malim, to'y yaxshi o'tdimi?
- Shohista opa chiroyli kelin bo'ldimi?
- Nechta mashina keldi?
- Kuyov chiroyli yigit ekanmi?

Nozima sinf jurnalini ko'ksiga bosgancha bir og'iz bir narsa demasdan qoshlarini chimirib, doska yonida bolalarning tinchishini kutib turaverdi.

Do'stona muloqotga erisha olmasliklariga ko'zi yetgan bolalar asta-sekin tinchib qoldi. Shunda ham orqa partada o'tiradigan bir-ikki betamiz, "Nega kayfiyating yo'q, a?", "Seni kimdir xafa qilganga o'xshaydi, ayt, kim xafa qildi?" deb bir-birlariga piching otishdi.

Nozima bu pichinglarni eshitmaganga oldi: "Nima ham deydi bu betamizlarga?!"

Dars boshlandi.

- Xo'sh, o'tgan darsda qanday mavzu o'tilgan edi?
- Men aytay, – o'rnidan sapchib turdi birinchi partada o'tirgan bozorqo'mning o'g'li.
- Qani, Mirzayev?
- O'tgan darsda to'y bo'lgan edi, – u javobni do'ndirgandek mutlaqo jiddiy ohangda gapirdi.

Sinfda duv etib, kulgi ko'tarildi.

Faqat Nozima kulmadi.

– O'tir, Mirzayev, yana bir marta shunday qoniqarsiz javob bersang, bahoing jurnalga ham tushadi. Xo'sh, sizlarning eslaringdan chiqqan bo'lsa, men sizlarga qarashib yuboraman. To'ygacha bo'lgan darsimizda "Ravish" mavzusida gaplashgan edik. Qani, Jahongir, – hali yuzidagi mamnuniyat ifodasi tarqalmagan bozorqo'mning o'g'lini doskaga chiqardi. – Ravish deb nimaga aytiladi? Ikkita gap tuzib, tarkibidagi ravishni topib ber.

Jahongir biroz kalovlanib qoldi:

- Malim, men bu mavzuga o'tgan darsda tayyorlanib kelgan edim. Bugun esimdan chiqib ketdi.

– Kecha o'qigan narsamiz bugun yodimizdan chiqib ketsa, o'qiganimizdan nima foyda? Siz shunday o'qishingiz kerakki, o'rganganlaringiz bir umr esdan chiqmasin. O'tir, ikki! – u jurnalga ham “2” qo'yib qo'ydi.

– Sayfiddinov, – endi prokurorning o'g'lini doskaga chiqardi – qani, ravishning qoidasini sen ayt-chi!

Bola biroz yerga qarab turdi-da, so'ng muqarrar jurnalga tushadigan “2”ning oldini olmoqchi bo'ldimi, o'zicha isyon ko'tardi:

– Malim, men huquqshunos bo'lmoqchiman. Menga ravishning qoidasi umuman kerak bo'lmaydi.

– Juda yaxshi, Sayfiddinov, sen huquqshunos bo'laver. Ammo shuni bilib qo'yki, huquqshunoslik institutiga topshiradigan shahodatnomangda o'zbek tili fanidan ham baho bo'lishi kerak. Bu baho esa shu fandan olgan bilimingga qarab qo'yiladi. Ravishni bilmaysanmi, o'tir, “ikki”!

Sinfga suv quygandek jimlik cho'kdi. Har doim kimnidir masxara qilishga shay chehralarda qovoqlar uyuldi, qoshlar chimirildi: “Shoshmay tur, hali ko'rasan!”, “Xudoga shukr, mendan so'ramadi”, “Bugun haqiqatan ham kayfiyati yo'q. Eri bilan urishganmi?”, “Direktordan gap eshitgan bo'lsa kerak”...

– Xo'sh, darsga tayyorlanib kelgan biron odam bormi? Yo'q! Demak, qolganlarga og'zaki “2”, yanagi darsda bu bahoni to'g'irlashlaring kerak. Aks holda, bu “2”lar jurnalga tushadi. Endi, yangi mavzuga o'tamiz...

Nozima bu sinfning unga nisbatan “chegara”ni bosib o'tishiga hech qachon yo'l qo'ymagan. Bolalar ham hamisha haddini bilishardi. Bugun Nozimaning ruhiyatidagi tushkunlik, bolalarning kayfiyatidagi bahoriy ko'tarinkilik to'qnashib, ana shunday dilxiralikni keltirib chiqardi.

Katta tanaffusda hovliqib Mastura dugonasi keldi.

– Opa shu yil bir to'yib sumalak yemadim, debdi. Navro'zda ham o'tirmagan edik. Sumalak qilinar ekan, har bir kishidan yigirma ming so'mdan yig'ishtirishmoqchi. Qo'shilasanmi?

– O', tavba, – Nozima yoqasini ushladi. – Yigirma mingdan yuz o'qituvchining puli ikki million bo'ladi. Ikki xalta un yuz ming bo'lsa, qolgan bir million to'qqiz yuz ming so'm pulni nima qilar ekan bu yeb to'ymaslar?! Birovning haqqidan hech hazar qilishmaydi-ya, noinsoflar!

– Qo'ysang-chi, osmondan tushganday gapirasan-ey. Axir sumalak bir kecha-kunduz qaynaydi. Kechki payt bazm dasturxoni yozilar ekan. Tandir, kabob, kola, fanta, deganday.

Bazmni eshitib, Nozimaning battar orqasi tutdi:

– Qo’y, dugona! O’sha davrada o’tirib, yana bir marta xo’rlanishni sira ham istamayman.

– Nozima, qo’ysangchi! Men o’sha katta og’iz boylar bilan ularning laganbardorlariga umuman e’tibor qilmayman. Mushtdekkina qornim bor, bir bo’lak pishloq bilan bir likop salat yesam ham to’yib qolaman. Keyin mazza qilib o’ynayman. Sen bunday bo’lma. Hamma narsadan kir axtaraversang, o’zing ham kirlanib qolasan.

Nozima chuqur xo’rsindi:

– Men boshqacha bo’la olmayman, beixtiyor o’sha boyvachchalarga, ularga alohida tashilayotgan sergo’sht, yog’li-yog’li taomlarga qarayveraman. Ularning to’rda o’tirib olib, bizning rizqimizni ye-eb, yana bizga bepisandlik bilan qarab o’tirishlarini ko’rgani ko’zim yo’q. Hatto, ularning dasturxoniga qo’yiladigan idish-tovoqlar ham biznikidan boshqacha, qimmatbaho bo’ladi.

Aslida Nozima yuz karra haq edi. Bu maktabda odamga erining martabasi, usti-boshiga qarab muomala qilishar edi. Shunga qarab muallimlar guruhlariga bo’lingan. Amaldor, puldor kishilarning xotinlari bir guruh, dunyoni suv bossa to’pig’iga chiqmaydigan yoshlar bir guruh, Nozima bilan Masturaga o’xshash o’rtamiyonalar bir guruh. Shubhasiz, hamisha, har qanday davraning to’ri, e’tibori boyvachcha xonimlarniki edi. Direktor va o’rinbosar opa, yana bir-ikki yoshi o’tib qolgan “zakunchi” muallimalar ham ularning yonida edilar. Ularga hammani muhokama qilish, hammaga tanbeh berish huquqi berilgan. Hamma ulardan qo’rqadi, hamma ularga xushomad qiladi. Bir kuni Nozima to’rtta uzuk taqib kelgan edi. Eri Ichki ishlarda qandaydir katta lavozimda ishlaydigan toshkentlik oyimcha uni atay yoniga chaqirib, tanbeh berdi:

– Nozimaxon, bu nima yurish? Hamma yog’ingiz tilla bo’lib ketibdi-ku. Bu yer to’yxona emas, maktab! Siz esa otarchi emas, o’qituvchisiz, – ayolning chimirilgan payvasta qoshlari, kishiga o’qdek qadaluvchi surmali ko’zlari, baqbaqalari ham zeb bo’lib turgan ajinsiz oppoq yuzlari, xullas, butun turqi tarovatidan chak-chak etib, zahar tomib turardi. Nozima beixtiyor uning kattakon olmos ko’zlari lovullab turgan ziragi bilan uzugiga qaradi.

– Bunday uzuklar kimda yo’q, balki menda bir hovuchi bordir. Bor, deb, borimizni barmog’imizga ilib, o’quvchilarning oldida yaltir-yultir qilib yurishimiz shartmi?

Ayolning qahrli ko’zlari olmosdan ham o’tkir edi, Nozima qip-qizil yoqut ko’zlari baqrayib turgan uzuklar taqilgan qo’llarini tizzalari orasiga oldi. Uning noo’rin kattachiligidan qahri keldi, ammo o’zi necha yillardan beri intilib yeta olmagan taqinchoqlar quloq va barmoqlarida yaltillab turgan ayolga o’tkazib biron narsa deya olmadi.

O’sha kungi muloqotdan so’ng necha payt o’ziga kela olmay yurdi. O’sha “tergov” esiga tushsa, haliyam mazasi qochadi.

...– Yo‘q, dugon, men bu bazmga qatnashmayman.

– Qatnashsang, qatnashmasang, oylikdan yigirma ming ushlab qolaveradi. Undan ko‘ra qatnashaylik. Yeb-ichib, o‘ynab-kulib...

– Men baribir qatnashmayman.

Uning bunchalar kayfiyatsiz ekanligiga dugonasi hayron bo‘ldi:

– Nima bo‘ldi? Yana qaynonang bilan jiqillashib qoldingmi?

– E-e... yo‘q! O‘z-o‘zimdan siqilib ketayapman.

– Sen o‘zing tilchi bo‘lsang, boshqalarga nisbatan tarbiyaviy narsalarni ko‘proq o‘qiysan. Shukr qilishni o‘rganish kerak. Nima deydi, hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, g‘urbat izlaganga, g‘urbatdir dunyo. Boshingda ering bo‘lsa, bolalaring bo‘lsa! Qasrdek uy-joying bor. Qaynonang ham yomon xotin emas.

– Jonimga tegib ketgan hammasi. Ming yaxshi xotin bo‘lsa ham har kun peshonangdan bir kishi qarab tursa, to‘yib ketasan. Har kuni bir xil hayot: ish-uy, uy-ish, supur-sidir, pishir-kuydir, yuv-chay, dars, konspekt – jonimga tegdi hammasi. Hech tinmaysan, lekin hech biring ikki bo‘lmaydi. O‘rni kelganda, bir o‘quvchingcha kiyina olmaysan.

– E-e, qo‘y-e! – dugonasi uni astoydil urishdi. – Bugun chap yoning bilan turib kelgansan, shekilli. Shukr qil, dugon. Qanoatda gap ko‘p. Mana men, diq-diqlab erimni Rossiyaga jo‘natdim, endi yeganim ichimga tushmaydi. Yuborayotgan pullariyam ko‘zimga ko‘rinmaydi. Ayniqsa, kechqurun ovqat mahali bolalarimning ko‘ziga qarashga uyalaman. Hammasi sog‘ingan. Pulimiz oshib-toshib yotmasa ham bosh egamiz bor edi, bag‘rimiz butun edi. O‘ylab qarasam, erimning qorasiyam qora tog‘ ekan. Endi “Sog‘mikin? Tinchmikin?” deb diqillab umrim o‘tayapti. Bir qo‘ng‘iroq qilib qolsa ham dunyo topgan tentakdek suyunib qolamiz.

– Lekin erim pul topaman, deb Rossiyaga ketsa, men sira xafa bo‘lmas edim!..

Darslari tugagach, ikki dugona birga chiqishdi. Ayni peshin bo‘lgani uchunmi, havo isib ketgan, “Aziz momo”ning uch kun oldingi qahridan nom-nishon qolmagan. Biroz kechikibroq gulga kirgan bodomlar yana to‘y sarguzashtlarini, qo‘shiqchi kuyovjo‘rani yodga soldi. Mastura yotoq mebeli olgan ekan. “Bir ko‘r-chi”, deb uyiga boshladi. Choqqina hovlidagi sokinlikka havasi keldi:

– Qanday mazza! Uyingda oshiqcha odam yo‘q. Xohlasang, yotasan, xohlasang, turasan. Qaynona-qaynota emas, erimni ham ko‘rgim kelmayapti. Bizning uy-shtab! Birovini kuzatsang, ikkinchisi “assalomu alaykum” deb kelib turadi. Shunday charchab ketdim-ki! Bolalarim qo‘shnining bolasini

ergashtirib kelsa ham yoqmaydigan bo'lib qolgan. Qani, ikki xonaligina uyim bo'lsa!.. Yotsam, tursam, o'zim istagan ishni qilsam!.. Birov mening kun tartibimni tuzib bermasa!

– Buning hech iloji yo'q. Bandalarining kun tartibi bir umrlik qilib Alloh tomonidan tuzib qo'yilgan bo'ladi. Masalan, tong otadi, birov “tur” demasa ham, o'zingning ehtiyojlaring uchun turasan. Qorning ochadi, ovqat qilasan. Ovqat qilish uchun masalliq kerak, masalliq topish uchun esa qayerdadir ishlash kerak. Xullas, o'sha qaynona-qaynota bo'lmasa ham, tirik ekansan, tirikchiligingni qilaverasan.

– Baribir!.. Hech bo'lmasa, birovning nazoratida emas, o'zing uchun, o'z ixtiyoring bilan qilsang, u boshqacha bo'ladi.

– Qo'y-e, dugon, dushmanlaring haqida gapirganday gapirma.

Masturaning mebeli juda chiroyli ekan. Qo'shnisi bolalarini bog'chadan olib kelib berdi, u ovqat qildi. Hech uyiga qaytgisi kelmadi, shu yerda kechgacha qolib ketdi. Qaynonasi bilganini qilsin, o'g'lining qayta uylangisi kelib yotgan bo'lsa, ovqatini ham o'zi qilib yesin. Bolalarni qaynotasi olib keladi.

Ertasi kuni birinchi soatdan direktor chaqirtirayotgani aytishdi. Kecha aytgan gapi yodiga tushib, ko'ngli behalovat bo'ldi: “Menga komissiya olib kirmang”, deb durustroq iltimos qilsam bo'lar ekan”.

Odatdagidek, direktor Opaning yonida ekan. Har doimgidek salomiga alik ham olmadi. Opa esa birdan bobillab ketdi:

– Ey, sen nima qilib yuribsan? Butun boshli sinfga “2” qo'yishga nima haqqing bor? O'zingga ham baho qo'ygansanmi? Butun sinfdan biron bolaga “2” dan ziyod bilim bera olmagan muallimning bahosi “1” bo'ladi, bildingmi? Senlarning shuncha komissiyalaringga pesh bo'lib yurganim kamlik qilganday, endi prokurorning oldida tik turib, so'roq berishim kerak.

Nozima ko'zlarini chaqchaytirib, og'zidan tupuk sachratib baqirayotgan Opaga qarab, qo'rqib ketdi. 7 “a” ga qo'yilgan “2” lar anchadan so'ng yodiga tushdi:

– Opa, u sinf... – sinfning uni qanday masxara qilganini aytib, o'zini oqlamoqchi edi, Opa gapini bo'ldi:

– Oldimga tush, seni prokuror chaqirayapti!

Uning oyoqlaridan joni chiqib ketganday bo'ldi, lekin birdan qaysarligi tutdi:

– Mening darsim bor, bolalarni tashlab keta olmayman.

– Hey! – sumkasini qo'ltig'iga qisib, oldinga tushgan Opa ortiga qarab, bir o'shqirdi. – Oldimga tush, deya pman senga!

Endi taysallashning foydasi yo'q edi. Sinfxonaga kirib, sumkachasini olib chiqdi.

Prokuror – sochlariga oq oralagan, lekin lo'ppi yuzlaridan hali qirqqa ham kirmagani ko'rinib turgan yoqimtoygina kishi ekan. Yam-yashil gilam to'shalgan keng xonasida nozik hidli farangi atirning xushbo'y isi kezib yurardi.

– Xo'sh, muhtarama Berdiqulova siz bo'lsangiz kerak-a? – birinchi bo'lib unga qo'l uzatdi, qo'llari ham yumshoqqina edi. – Qani, o'tiringlar-chi? Ahvollar yaxshimi? Bizning bolalar sizni qiynab qo'ymayaptimi?

– Yo'g'-e, Abdurashid aka, sizning bolalaringizdek bola bormi maktabda? Sizning bolalaringiz maktabimizning faxri-ku. Ular buni emas, bu no'rin talabchanlik bilan bolalarni qiynab yuradi ba'zan, – uning o'rniga jag'i-jag'iga tegmay yaltoqlana ketdi Opa. – O'ziyam qilgan ishidan pushaymon, kechirim so'ragani keldik.

Prokuror opaga mamnunlik bilan bir qarab qo'ydi-da, yana Nozimaga yuzlandi.

U yonboshda turgan temir shkafni sharaqlatib ochdi-da, qora yelim qog'ozga o'rog'lik mushtumday narsani olib, Nozimaning sumkasiga solib qo'ydi.

– Siz... nima qilayapsiz? – hayron bo'ldi Nozima.

– Kecha yigitlar bir ayolni ushlagan ekan. O'sha ayolning sumkasidan chiqdi bu qora ajal. Ko'rsangiz binoyiday ayol... O'zini qamoqqa olishdi, buni ashyoviy dalil sifatida olib qo'ygandim.

– Men uni nima qilaman?

– Siz?.. – kuldi prokuror. – Hozir ikkita militsionerni chaqirib, sizni tekshirib ko'rishlarini so'rayman. Sumkangizdan manovi match chiqadi. Opangiz esa jinoiy harakatni asoslab yozilgan bayonnomaga qo'l qo'yadi. O'qituvchi, ayol, ona ekanligingiz inobatga olingan taqdirda ham sizning barcha orzularingiz, kelajagingiz barbod bo'ladi

– Ie, men!.. – Nozima shoshib sumkasiga yopishdi.

Prokuror uni ohistagina nari surib qo'ydi, uning qo'llari juda baquvvat edi:

– Shoshmang! – keskin buyruq berdi u, so'ng sumkaga solingan tugunchani olib, yana temir shkafiga soldi. – Endi o'tiring, mana sumkangiz.

Nozima sehlrangandek bo'lib o'rindiqla cho'kdi. Prokurorning o'tkir nigohlariga dosh bera olmay, yerga qaradi.

– Lekin men bunday qilmayman. Men har qanday insonning orzusini hurmat qilaman, qo'limdan kelgancha o'sha orzusiga yetishishiga yordam beraman, hech bo'lmasa, halaqit bermayman. Bolalarimizning ota-onalariga qiladigan eng zo'r sovg'alari bu ularning baholaridir. Mening o'g'lim yetti yildan beri biron marta "4" baho olib ko'rmagan edi, o'zicha menga qizil shahodatnoma sovg'a qilishni orzu qilib yurgan ekan. Sizning kayfiyatsizligingiz bir murg'ak qalbning beg'ubor orzularini chilparchin qildi.

– Yo'q, Abdurashid aka, uni to'g'irlaymiz. Yangi jurnal olib, qaytadan yozib chiqamiz, – shoshib-pishib topag'onlik qildi Opa.

Prokuror Opaga qaramadi ham.

– Xo'sh, murabbiy sifatidagi mana shu harakatingizni nechaga baholash mumkin? Qani, o'zingizga ham baho qo'ying-chi? Siz o'qituvchisiz, siz bolaning qalbida yangi orzular tug'ilishiga sababchi bo'ling, bor orzular tomiriga bolta urmasdan. Shunday o'qituvchilar bor – kattaning bolasi deb, faqat xushomad qiladi, natijada bolani taltaytirib yuboradi. Yana bir toifa o'qituvchilar bor – amaldorlarning bolalariga ota-onasining havosi bilan burni ko'tarilgan deb, nafratlanib qaraydi. Xushomad ham, nafrat ham kerak emas. Bola – kimning farzandi bo'lishidan qat'iy nazar – o'quvchi. Unga siz bilimdan avval mehr bering. U bilan, men o'qituvchiman, deb, masofa saqlab gaplashmang, aksincha, do'st bo'ling. Men juda qattiqqo'l prokurorman, lekin bolalarimga dilkash do'stman. Qizim ham men bilan bemalol sirlasha oladi. Agar men huquqshunos bo'lmaganimda, albatta yaxshi o'qituvchi bo'lar edim.

Xonaga yoqimsiz jimlik cho'kdi. Anchadan so'ng bu jimlikni yana prokurorning o'zi buzdi.

– Ha, yana bir gap: o'quvchim prokuror otasiga shikoyat qilibdi, degan xayolga bormang. Men kechagi darsning tafsilotlarini yana bir "2" olgan bolaning otasidan eshitdim. Kattachilik qilib, idorasiga chaqirdi, deb ham o'ylamang. Prokuror Berdiqulovani urishgani kelibdi, degan xayolga borishlaridan saqlandim. Endi boraveringlar...

– Uzi, ming bor uzi, – Opa qo'lini ko'ksiga qo'yib, qayta-qayta kechirim so'rardi. – O'zim boshida turib hammasini to'g'irlataman, o'g'lingizga ham o'qituvchining xato qilganini tushuntiraman. Faqat siz bizdan xafa bo'lmasangiz bo'ldi.

– Rahmat... – Nozima boshqa hech narsa deya olmadi. Xonadan chiqayotib, burchakda qaqqayib turgan oppoq temir shkafga qo'rqibgina bir qarab qo'ydi, so'ng sumkachasini qo'ltig'iga yanada mahkamroq qisib oldi.

Opa maktabga borguncha javrab bordi:

– Xudoga shukr qil, Sayfiddinov zolotoy odam. Boshqa bo'lganda, javobgarlikka torttirib yuborishi hech gap emas edi. Prokuror uchun bir odamning taqdiri nima degan gap? Ko'zingga qarab yursang bo'lmaydimi? Senga qilmasa, eringgami, akanggami, bir tuhmatni yopishtiradi. Ming pushaymon bo'lasan, ammo keyin foydasi yo'q. Sayfiddinovni chaqirib gaplashasan, kechirim so'raysanmi, xushomad qilasanmi, nima qilsang, qil, lekin ko'nglini top. Yangi bir jurnal beraman. Ertadan boshlab, 7 "a"ning jurnaliga o'tirasan. Hammasini birma-bir ko'rib chiqasan.

Boshqa payt bo'lganda, hech bo'lmasa, o'z huquqini da'vo qilib, o'zini taroziga solib ko'rardi. Ammo bugun... Opaning yoshi o'tib qolgan bo'lsa-da, juda tez-tez yurar, uning dakkilarini indamay eshitib borayotgan Nozima unga yetish uchun izidan deyarli yugurib borardi. Shu shoshqin holatida ham ko'z o'ngidan boyagini sumkaga kirib chiqqan yelim qog'ozga o'ralgan tuguncha sira ketmas, qo'ltig'iga mahkam qisib olgan sumkchasini damba-dam ushlab-ushlab qo'yardi.

Shuncha o'ylasa ham anglay olmadi: Bu odam kim edi? Jon og'ritgan do'st bo'lmas, deyishadi. Uning ko'ngliga solgan qo'rquv yuraklarini tilka-pora qilib tashladi. Bu do'stning ishi? Ammo unga hech narsa qilmadi, na urishdi, na so'kdi. Faqan tushuntirdi. Murabbiylardek. Murabbiy, lekin sabog'i juda achchiq murabbiy edi u. Gapning indallosini aytganda, prokuror batamom haq edi. Uning bu bolalardan nafratlanishi ham rost. Shuning uchun ham ularning erkaliklari, hazillari juda malol keladi. Shuning uchun ham ular bilan do'st bo'la olmaydi. Ularning bola ekanligini unutgan edi Nozima. Eng katta xatosi ham shu edi.

* * *

Olloqul aka tabiatan bo'yni bo'sh odam. Uning otasi shunday edi. Otasi biroz qotaysin, deb armiyaga yubordi, institutda o'qitdi. Lekin sut sog'uvchi onasidan keyin kolxoz raisining so'zini yerda qoldirolmay, xotini birgad bo'lib ketdi-yu, besh yil o'qib, erishgan kasbini esdan chiqarishga majbur bo'ldi. Bir umr xotinning yetovida yurdi, uning xizmatini qildi. Onasi hech qo'ymas edi: "Xotiningni izidan qolma, menga "falonchining kelini ana unday, mana bunday" degan gaplar kerak emas", derdi. Aslida shu odam bo'lmasa, Robiya xolaning birgad bo'lib, bir nimalarga erishishi ko'p dushvor edi. "Dadasi, traktor kerak", "Dadasi, bu kecha suv navbatimiz ekan, quloqning boshidan ketmang", "Dadasi, kombayn kerak"... Avvaliga uzukning ko'zidek ayolini har joyda har kimga sarg'aytirmaslik uchun yurdi, keyin yoshlari o'rta bo'lgach, "horimasin, tolmasin", deb yurdi. Xullas, brigadirlikning nomi Robiya xolaniki bo'lsa ham, bor tashvishi Olloqulboyniki edi. "Er emas, yugurdak" deb kulganlar ham bo'ldi. Lekin ko'pchilik "Gulday xotinni vaqti-bevaqt yolg'iz qo'ymagan ma'qul-da. Shu birgadning oti Robiyaniki bo'lsa ham, daromadi Olloqul boynikiga kirgandan keyin yuraversin-da", der edi.

Haliyam shu. Nima gap bo'lsa, shu ayolning og'ziga qarab turadi. Robiya xola unday emas, bunday dedimi, tamom, u aytganday bo'ladi. O'sha kuni Robiya xola kun bo'yi yo'q bo'lib ketdi. Vaqt asrdan oshganda shoshib yetib keldi. Yuz-ko'zlaridan shodumonligi ko'rinib turardi.

– Ha, lotareyanga moshin chiqdimi, kampir? – dedi Olloqulboy yaxshi bir gap umidida.

– Moshindan ham zo'r narsa chiqdi, dadasi.

– Nima gap? Odamning ichini qizitmay, tezroq aytasang-chi?

– Haj!.. Dadasi, bugun hokimiyatga borgan edim, navbatlaringiz keldi, tayyorgarliklaringizni ko'raveringlar, dedi. Qarang, biz baribir Allohning suygan bandalari ekanmiz, oxirgi farzandni ham uyli-joyli qilib, egasiga topshirgandan so'ng, navbatimiz yetib turganini qarang. Allohga shukr, ming shukr!

Olloqulboy ham masrur jilmaydi:

– Ha, Allohga shukr, bo'lmasa sen namozingni o'qi, men borib bolalarni olib kelay. Yo'l-yo'lakay momosi bilan kelisharmikin, deb indamay o'tirgandim.

Bu yangilik kechki ovqatning ustida hammaga e'lon qilindi:

– Endi, bolalarim, oxirgi qarzdan ham qutuldik, kenja qizni egasiga topshirdik, – odatda bunday vazifalar Robiya xolaning zimmasiga tushardi, bu safar ham ich-ichidan toshib kelayotgan quvonchni oilasiga o'zi yetkazishni istadi, – Anchadan beri orzu qilib yurgan edik. Bolalarning hammasini joylashtirsak, hajga boramiz, deb. Mana, hammalaringni uyli-joyli, diplomli, kasbli-hunarli qildik. Endi, Sardorboy o'g'lim, otang bilan menga teginmaysan. Ro'zg'orning aravasini o'zing tortasan. Biz, nasib etsa, kelgusi yil hajga boramiz. Besh yil avval ariza tashlab qo'ygan edim. Borib uchrashsam, keyingi yilga navbatimiz kelib turgan ekan. Rosa suyundim. Alloh nasib qilgan bo'lsa, umrning qolganini toat-ibodatga bag'ishlayman.

Sardor negadir shoshib qoldi, biroz rangi o'chdi. Aftidan uning ham ro'zg'ordan boshqa qandaydir rejalari bor edi. Ammo ona hajga boraman, deb turganda, nima deydi? "hajda nima bor? Mana bu yerda o'tirib, mening oilamni boqing", deya olmaydi-ku. "Eh, tinchimagan kampir!.. Har kun bir narsa o'ylab topib turadi". Ammo Sardor sir boy bermadi. Og'zidagi luqma tomog'iga tiqilib qolayozdi, bir amallab yutdi.

Nozima indamadi: "Bu uyda hamisha kimningdir orzu-havasi uchun yashash, ishlash kerak. Endi butun oila haj safariga, hoji to'ylarga pul yig'adi!"

Robiya xola yon-atrofidagilarga qarab, aytgan gapi hech kimga ma'qul tushmaganini ko'rdi. Ochig'i, dili og'ridi, nimalardir alam qildi. Bolam deganing ham bekor ekan. Bir umr bola-chaqa deb yashadi, yelkasidan ro'zg'or xalta tushmadi. Eru xotin ikki qizni to'rt qizning sepi bilan uzatdi, to'rt o'g'ilga to'rt uy qurib berdi, to'rt mashina olib berdi. Endi qarigan chog'ida ham topganini shularga yedirib-ichirib o'tirsa!..

Yeb o'tirgan ovqatiga pashsha tushgandek ko'ngli xijil bo'ldi. U tabiatan juda qaysar edi, o'g'lining befarqligi kayfiyatini tushirgan bo'lsa, hamon ko'ngli quvonchiga bir mahram izlardi. Xonasiga kirib, katta akasiga qo'ng'iroq qildi.

– Akajon, meni tabriklang.

– Ha, tinchlikmi?

– Men hajga ketayapman. Bugun deng, tavakkal qilib, hokimiyatga borsam, shundaygina navbatim kelib turgan ekan. Tayyorgarligingizni ko'ravering, kelgusi yil boruvchilar ro'yxatining boshida turibsiz, deyishdi, – u yangilikni aytar ekan, yana hayajonlandi, yurak yutib, ikkinchi tomondan. “O'-o'o'!” deganday hayratli quvonchlarga to'la xitobni kutdi.

– Ha-a, yaxshi, – akasining ovozdagi sovuqqina ohangda na quvonch, na xayrixohlik bor edi.

Robiya xola shu yerda akasiga yoqmagan mavzuga nuqta qo'ysa bo'lar edi, ammo u o'zini to'xtata olmadi:

– Cholu kampir bir yillik nafaqamizni yig'sak, bermalol yetar ekan.

– Yaxshi!

Shu bilan “yangiliklar” tafsiloti ham, ehtiyoji ham tugadi. Yaxshi ko'rgan o'yinchog'ini sindirib qo'ygan boladek shumshayib qolgan Robiya xola og'ringanini bildirmaslik uchun gapni yangaga, bolalarga burdi:

– Yangam ham yaxshi yuribdilarimi? U kishiga gap yo'q, shu yoshida tinib-tinchimaydi.

– Ha-a, xudoga shukr. Qo'y endi, desam ham, “Bolalarni joylashtirib bo'laylik”, deydi. Bo'lmasa, oltmishdan oshgan ayolning ikki joyda ishlashi osonmi?

Aka xotinining fazilatlari haqida gap boshlagach, ochila qoldi.

Robiya xola ijirg'andi: “Bularning xotinini maqtab tursang, sendan yaxshi odam yo'q. Ey, ko'ngil uchun, “O'-o'! Malades, singlim. Zo'r ish bo'пти, tabriklayman. Alloh yo'lingni ochgani rost bo'lsin”,

deb qo'y! Bir og'iz xayrixohlik shunchalar qimmatmi?"

Ertasi kuni onasining yoniga bordi. Bolaligi o'tgan qadrdon hovli-joy yillar o'tishi bilan to'kilib, xuddi kekxa onasi kabi mung'ayib, yerga qapishib borayotgan bo'lsa ham, Robiya xolani hamisha ohanraboday chorlab turar, darvoza oldidagi kichkinagina xonada qachon borsa, tikish mashinasining yonida nimanidir tikib o'tiradigan kampir onasini ko'rganda ko'ngli kengayib ketganday bo'lardi. Borishi bilan "Charchadim, onajon" deb o'zini onasining karavotiga tashlar, onasi esa tikishini davom ettirardi. U yotgan joyida onasiga gap berar, dardu hasratlarini aytar, onasi "Ha, hmm" deb ishini qilaverar, bekordan bekor uning vaqti o'tib ketaverar, kekxa onasi esa bu vaqtda nimanidir bitirar edi. Ba'zan Robiya xolaning achchig'i kelar edi: "Shu yoshingizda ikki bukilib, tikish qilishning nima keragi bor?". Onasi uning qahriga parvo ham qilmaydi: "Bu mashina mening oltmish uch yillik dugonam. Hovli supira olmasam, yer chopra olmasam, shu mashina bilan vaqt o'tganini bilmayman. Kecha Xolbibini kelgan ekan, qizining sepiga deb, yettita yelpug'ich berdim. Bechora xursand bo'lib, yana o'nta tikib berasiz, deb, o'ttiz besh ming so'm berib ketdi. O'n besh ming qo'shdim-da, bir qop un olib keldirdim".

"Voy, ona-ey, saksonga kirib ham, shu bolangizning nonini ko'taring. Siz zerikkaningiz uchun emas, non tashvishi bilan tikish qilasiz".

"Unisiyam, bunisiyam. Men ham shularning dasturxonidan non yesam, qarab o'tiramanmi?"

Robiya xola bu munozarada ko'pincha onasiga yon beradi. Nima bo'lganda ham onasi haq. Bu kampir sakkiz bola tug'ib, qatorga qo'shgan. Hammasi o'qigan, toparmon-tutarmon, lekin biron-tasi yilda bir marta bir qop un yoki ikki kilogina go'sht olib, onamning ko'nglini olay, demaydi. Hammasining o'z tashvishi o'ziga ziyoda. Robiya xolaning o'zidan qiyos, hali to'y qiladi. hali uy qiladi. Ba'zan yolchitib onasining ko'nglini ololmayotganidan kuyinib ketar edi: "Onajon, ro'zg'or aravasi juda og'ir ekan, diq-diq tinmayman, lekin hech o'zimdan orttira olmayman. Iltimos, siz o'lmay turing, o'zimdan ortib, sizga nimadir qila oladigan kunlarga yetgunimcha, o'lmang. Maylimi?"

"Mayli", der edi kampir tishsiz og'izlarini kamshaytgancha kulib, xuddi qachon o'lish uning ixtiyorida ekandek.

Endi qarasa, u o'zidan orttirib, onasiga nimadir qilgunicha, onasining o'zi ketmasa ham, havaslari, ehtiyojlari tugab borar edi: "Yo'q, yog'li ovqat yeya olmayman, ichimni surib yuboradi", "Yo'q, juda shirin ekan, kerak emas", "Yo'q, sun'iy kiyim badanimga yoqmaydi. Menga paxtalikkinasi yaxshi..."

Xullas, bu kampirga endi ko'p narsa kerak emas edi. Shunday bo'lsa-da, Robiya xola iltimos qilaveradi: "Onajon, o'lmay turing". Boisi, bu dunyoda bemalol dardini ayta oladigan yagona inson shu kampir edi.

Kampir har doimgidek tikish qilib o'tirgan edi. Xonadan achchiq ter va rutubat hidi anqib turardi. Robiya xolaning hayfi keldi: "Qarisang menday bo'l, qora yerday bo'l", deganlari shu-da. Qanday ozoda ayol edi onaginam. Endi... o'tirgan joyida ham non, ham ko'ngil topadi, lekin vaqti bevaqt hovli adog'idagi hammomga birgina borib, yuvinib kela olmaydi".

Robiya xola ko'nglidagi tugunlarini bir-bir yechib, avval yangiligini aytdi, so'ng o'g'lidan, akasidan hasrat qildi: "Ko'ngil uchun, e-e, zo'r bo'пти", deb qo'ymadi-ya". Kampir uning gaplarini eshitib, na suyundi, na kuyundi, oldidagi tikishdan ko'zini uzmay:

– Ha, binoyi bo'пти, – deb qo'ydi.

Shu bilan ancha vaqt jim qoldi. Tikayotgan narsasining nimasidir yoqmadimi, igna tagidan chiqarib olib, goh u yog'ini ag'darib, goh bu yog'ini ag'darib tekshirdi, so'ng chokini so'kishga tushib ketdi. Kampirning bu harakati Robiya xolaning yuragini siqib yubordi.

– Uf-f, ena-ey! Oyda-yilda bir kelaman. Shunda ham "ha bolam, darding nima?" deb so'ramasdan, tikishingizga yopishib yotasiz-a? Nimaga keldim o'zi?

– Qulog'im bekor, hamma gapingni eshitib o'tirgan bo'lsam, nimaga o'pkalaysan, – momo qizining ko'zlariga qaradi. – Kechagina "dod-voy" qilib qiz chiqarding. Hajning xarajati kattagina deyishadi-ku. Bir ro'zg'ordan ikki kishi ketmoqchi bo'lsalaring, qanday eplaysizlar? So'radingsmi, necha so'm kerak ekan?

Xarajatni eshitib, kampirning rangi gezarib ketdi:

– Eh-he! Bu axir bir qop pul, degani emasmi? Shuncha pulni bir o'zingning hoji bo'lishing uchun sarflamoqchimisan? Atrofingda qancha beva-bechora, kasalmand-kamxarj odamlar bor. Tentak puling ko'p bo'lsa, shularga bo'lib ber. Ana, senga hojilik savobi. Voy-voy, bolam-ey, esing yo'q ekan-ku sening. O'n olti yoshimdan beri tiq-tiq ro'zg'orning tashvishi bilan tinmayman, qaynona-qaynota, qayinsingil, qayinuka, er, bolalar!.. Yoshlikda namozni o'rganishga vaqt topmadim, qariganda yodlay olmadim, xullas, shunday katta savobdan bebahra qoldim. Yaqinda bir o'qimishli otinchadan so'radim: "U dunyoda odamning ro'za-yu namozlari so'ralar ekan, men endi nima javob aytaman?" dedim. Haligi otincha "Momo-yov, bir odam hech bir foydali ish qilmay, butun umrini joynamoz ustida o'tkazishi mumkin, yana birov bola-chaqa tashvishi bilan o'sha ibodatni qila olmasligi mumkin. Mening bilishimcha, o'sha bola-chaqa tashvishi bilan yashab, namoz o'qiy olmagan inson jannatga ko'proq haqli. Chunki u o'zini o'ylamadi, farzand o'stirdi, erining, bolalarining xizmatini qildi, umrini joynamoz ustida o'tkazgan odam esa faqat o'zini o'yladi, jannatga tushish niyatida faqat namoz o'qish bilan mashg'ul bo'ldi va bu mashg'ulotidan o'zidan o'zga hech kim manfaat ko'rmadi, dedi.

– Ena-a! – uning kampirni eshitgisi kelmay qoldi.

– Nima, ena! – kampir o'qimagan, omi ayol bo'lsa ham, hech gapini oldirmagan qaysargina edi. – To'g'risiyam shu-da. Odam faqat o'zini o'ylamasligi kerak, umringdan bir kun qolgan bo'lsa ham, odamlarga foydang tegsin. Ilgari bir odam haj uchun yiqqan pulini ilojsizlikdan harom o'lgan molning go'shtini bolalariga yedirib o'tirgan qo'shnisiga “Mening hajim shu bo'lsin” deb, in'om qilib yuborgan ekan. Hayitdan so'ng do'konida kovush yamab o'tirsa, bir tanishi kelib, “E-e, hoji, siz qanday qilib bizdan oldin keldingiz? Siz ham biz bilan baravar haj qilib yurgan edingiz-ku”, debdi. Shunday qilib, yamoqchi uyda o'tirib, hoji bo'lgan ekan. Nahotki sening bir yamoqchicha aqlu farosating, himmating yo'q bo'lsa?!

Robiya xola angrayib qoldi. Odam keksayganda shunday beshafqat, beandisha bo'lib qoladimi yoki onasining kayfiyati yo'qmidi, bir dalda, tasalli, olqish umid qilib kelgan Robiya xolani it olgan tulkiday tit-pit qilib tashladi. Onasi allakimlardan eshitib, chala-chulpa qilib aytib bergan rivoyatlarni u ham o'qigan, biladi. Ammo yamoqchi bilan uning vaziyati butunlay boshqa-boshqa. Shuncha farzandni tug'ib-o'stirib, ulg'aytib, hammasini uyli-joyli qilib, nahot o'zining bir yillik daromadiga o'zi arzimasa? Shu uzoq umri davomida u ham necha kishiga yamoqchi qilgancha yaxshilik qilgandir. Ammo o'zi, o'z oyog'i bilan Allohning uyiga borib, uning muborak baytida sajdaga bosh qo'yishni orzu qildi. Buning uchun birovdan bir so'm so'ramadi, bir so'm tilamadi, lekin uning orzusi hammaga, hatto tuqqan onasiga ham malol keldi! Lekin u onasiga hech narsa demadi, aytganlaringiz ma'qul ham demadi, noma'qul ham demadi, kelin yozgan dasturxonga ham qaramadi. Ko'ngliga kelganlarni gapirib-gapirib, yana tumtaygancha tikish mashinasining ustiga muk tushib olgan onasining yonida biroz shumshayib o'tirdi-da, so'ng o'rnidan qo'zg'aldi:

– Xo'p, men boray.

– Yaxshi bor, Olloqulni so'ra.

“Yiqqan pulimni bir qop qilib, rivoyatdagi yamoqchiga o'xshab, shu kampirga olib kelib bersam!.. Kampir uning yarmini ovi yurganda ham dovi yurmaydigan kenja o'g'liga bersa, yarmini bir uy bola-chaqa qilib qo'yib, o'zi ichkilikdan bo'shamaydigan ukasiga bersa!.. Go'yo birining ishyoqmasligi, ikkinchisining nafsini tiya olmaydigan piyonistaligi uchun Robiya aybdor! O'g'li bilan keliniga yomon ko'rinib, yemay-ichmay, bir tiyinlab yig'sa-yu, o'lib yiqqanini bir ishyoqmas bilan piyonistaga berib, “Mening hajim shu” deb o'tiraversa. Alloh ham so'rar, kimga berding, nimaga berding, deb? Voy, enam tushmagur-ey, mening ham bolasi ekanligim yodidan chiqib ketgan, shekilli!”

Kechga yaqin onasining qishlog'ida yashaydigan singlisi keldi. U ham allaqachon yangilikdan xabar topgan edi. Robiya xola bunisining ham bir narsa deb dakki berishidan qo'rqib, indamay turgan edi, singil opasini bag'riga bosib, qutlay ketdi:

– Iloyo, niyatlaringizga yeting, opajon. Shuncha yil tuproq kechib, kesakka surinib, oftobda jizziqday kuyib, shu bola-chaqa deb bir kun orom nimaligini bilmadingiz. Endi o'zingizni ham, oxiratni ham o'ylaydigan vaqt keldi. Go'r, go'r, tanho go'r, ishonmasang, borib ko'r, deyishgan. Bir kun o'lar bo'lsangiz, hech kim sizga qo'shilib go'ringizga kirmaydi, Munkar-Nakirning gurzisiga boshini tutib bermaydi. Shunday ekan, niyat qildingizmi, pulini topdingizmi, halolingiz bo'lsin: boring, ko'ring, farzingizni ado etib keling.

Robiya xolaning ko'ngli bo'shashib ketdi. Kutilmaganda qo'shilishib quvonadigan bir mehribon topganidan hamma xo'rliklari yodiga tushib, ko'zlari namlandi, baqirib yig'lab yuborgisi keldi:

– Bilmasam, biri u deydi, biri bu deydi. Bu yoqda onam, u yoqda akam...

– E-e, opajonim, hech kim bilan ishingiz bo'lmasin. Birovidan bir so'm so'rayotganingiz yo'qmi? Bo'ldi-da. Kecha yangam bilan gaplashgan edim. Ikki yilda ikki to'y qilish oson emas, bilaman. Ammo bola o'stirayotgan ona tomog'idan, kiyim-boshidan qiyib, bir so'm, ikki so'm yig'ib yurishi kerakmidi? Cho'ntagida bir so'm puli yo'q, bir boyning qiziga sovchi qo'ydi. Ular rozi bo'lishgach, shoshib qolishdi. To'y to'liq qarz-qavola bilan o'tdi. To'yni ham boy qudaga kulgi bo'lmaslik uchun juda katta qilib yubordi. Uyam mayli, lekin qarzlardan qutilmasdan qizga non ushatishning nima keragi bor edi? "Yaxshi joydan chiqdi" emish. Hozir o'g'il uylantirishdan qiz chiqarish qiyin bo'lib ketgan. Qudalar "Mebelni tuzuk qilsin, bir umrlik buyum" deyishibdi. "Falon do'konda bir yaxshi mebel ko'rdik, o'shani borib bir ko'rishsin" debdi. Endi qanday qilib bo'lsa ham o'sha mebelni olish kerak. Bularning esa bir tiyini yo'q. Yangam "Robiya hajga borib yurguncha, jiyanining mebelini ko'tarsin. Ana haj! Duo qilamiz. Savob bo'ladi" dedi. "Yangajon, mebelni qiz tuqqan boybichcha qiladi. Shu yoshingizda o'n sakkiz yoshli qizday bo'lib yaltir-yultir kiyinib yurguncha, avval boshdan g'amlab qo'ying edi", deyin dedim-u, akamdan baloga qolaman, deb indamadim.

Robiya xola xo'rlangan boladek yerga qaradi, negadir o'zini juda behol his qildi. O'pkasi to'ldi, singlisi yana bir og'iz gapirsa, yig'lab yuborardi:

– O', tavba! Boy topsa, qulluq bo'lsin, kambag'al topsa, qayerdan olding, deganlari shuda? Men sho'rlik o'z pulimga hajga bormoqchi bo'ldim-u, baloga qoldim. Biri u deydi, biri bu!..

Singil yupatdi, dalda berdi:

– Hech kimga qaramang, hech kimning gapiga quloq solmang. Pul sizniki, uni istagan joyingizga ishlatasiz.

– E-e!.. – endi u hajga borayotganligi uchun quvonish o'rniga xijolat torta boshlagan edi.

Kechga yaqin Olloqul aka ko'chadan tajang holda kelib, ayvonga kirib ketdi. Telefon turadigan tokchaning oldida biroz g'imirsib turdi-da, so'ng hovliga chiqib, Sardor bilan kelinga baqirdi:

– Qaysi biring telefonning simini uzib qo'yaverasan, men ulab sarsonman, bir pas o'tib qarasam, yana uzilib turgan bo'ladi.

Taxta supaga joy tashlayotgan Nozimaning qovog'i uyuldi:

– Kimdir o'ynataverdi, ulanib tursa, faqat telefonga chopib yurish kerak.

Bu gapni eshitib, o'g'li bilan o'ynab o'tirgan Sardor sergak tortdi:

– Kim, qachon o'ynatadi? Opridelitel-ku, nomerini bermaysan-mi, o'ynatmasday qilib qo'ymaymanmi?

Nozima indamadi.

Olloqul aka supaga tashlangan ko'rpachaga borib, o'tirdi.

– Kampir, kami ko'stingni ayt, erta sahar bir bozorlik qilib kelay. Toshkentdan mehmon keladi.

Hamma yalt etib, xabarchining og'ziga qaradi. Bu xabar hech kimga yoqmagan edi. Bu xonadon eskidan karvonsaroy edi, birov ketsa, ikkov kelib yotardi. Robiya xola ishda bo'lsa, ko'zi ojiz qaynona bilan bolalarning o'zi kutib, o'zlari kuzatib o'tirishaverardi. Endi Robiya xolaning belidan mador ketib, supir-sidir, pishir-kuydirdan chiqib qolgandan buyon odatdagi betashvish kunlarda ham tumtayib yuradigan kelinning ko'zlariga qaraydigan bo'lib qolgan. Kelinga esa odam yoqmaydi. Buni nafaqat qaynona, qaynota ham, er ham, hatto qo'shnilar ham biladi.

– Kim kelar ekan, – hammaning nomidan Robiya xola so'radi.

– Jumanazar akaning yaqin odami ekan. Asli tojikistonlik, lekin ko'p yillardan buyon Toshkentda ishlar ekan. O'sha odamning amakilari Termizda qamoqqa tushib qolibdi. Shulardan xabar olib turish uchun sud o'tib bo'lguncha sizlarnikida turib tursin, dedi. Necha kundan beri telefon qilaman, hech tusha olmayman, deydi. Oxiri Eshquvvatga qo'ng'iroq qilib, shu Olloqul bor bo'lsa, menga bir telefon qilsin, debdi, – Olloqul aka anqayib turib qolgan keliniga qaradi. – Ikkinchi telefonni uzib qo'yuvchi bo'lmanglar.

Kelin odatdagiday na "ha" dedi, na "yo'q", indamay nari ketdi. Robiya xola og'ir bir so'lish oldi. "Sudi o'tguncha! O'h-hu, u sud qancha vaqtda o'tadi! Bir necha oylab ko'riladigan ishlar bo'ladi. Shuncha vaqt begona birovni uyda saqlash... Bu uyda o'zim oshiqchaga o'xshayman ba'zan. Endi bu kelin o'zini osib qo'ysa kerag-ov..." Ammo eriga sir boy bermadi:

– Binoyi, dadasi. Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan. Odam bor joyga odam keladi-da. Jumanazar akaning bizga qancha yaxshiliklari o'tgan, shu odamning orqasidan bolalarimiz oliy ma'lumotli bo'ldi, – u bu gaplarni Jumanazar akadan juda minnatdor bo'lgani uchun emas, kelinining qovoq-tumshug'ini biroz ochish uchun aytayotgan edi, ammo kelin uni eshitmadi ham, zipillab ichkariga kirib ketdi.

– Kampir, Qalandar degan advokatni taniysanmi?

– Taniyman, enamlarning mahallasida yashaydi. Ilgari milisada ishlar edi, milisadan urilgandan so'ng advokat bo'lib ketdi. Uni nimaga surishtirayapsiz?

– Jumanazar aka, o'sha odam bilan gaplashib beringlar, deyapti. Sudlanayotgan odamning advokati ekan o'sha Qalandarboy deganlari.

– Dadasi, o'zi nimaga qamalgan ekan, – xolaning ko'ngliga xavotir tushdi. Bu tojikistonliklar hech tek yurishmaydi. Bir yomon ishga aralashib qolmaylik yana...

– Bilmasam, telefonda bijillatib o'tirmaysan-ku. Tuhmat, dedi, egasi kelsin-chi, surishtiramiz-da. Vahima qilaverma.

– Qiziqsiz, dadasi. Bilishimiz kerak-da uyimizdan kimga joy berayotganimizni. Boshqa davlatning odami ekan, davlatga qarshi biron ish qilganmi? Qora dori bilan qo'lga tushganmi? Ishqilib bu afg'on bilan tojik ham boshga bitgan balo bo'ldi.

Xotinining tergayverishi Olloqul akaga yoqmad, hali o'zi bir tayinli gap bilmaydigan odamlar haqida nima ham deya oladi:

– Kampir, o'zingni bos. Kim bo'lsa ham, har kim o'z ishi uchun o'zi javob beradi. Oq qo'yni ham, qora qo'yni ham o'z oyog'idan osadilar.

– Ha, shunday bo'lsin-da. Ishqilib, odamgarchiligimiz qimmatga tushmasa bo'ldi. O'rmonga o't ketsa, ho'lu quruq baravar yonishini ham unutmang. Kim bilan gaplashgan, kim bilan yurgan, kimning uyidan boshpana topgan, degan gaplar ham bo'ladi.

– Uf-f! Qonimga tashna qilma, kampir. Nima qilay? Jumanazar akaga nima deyin? Bolalaring o'qishga kelganda men kerak edim, endi kerak bo'lmay qoldimmi, desa, necha pullik odam bo'lasan?

– E-e, qo'ying, eski yaralarimni tirnamang. Mening bolalarim o'qishga o'z bilimi bilan kirdi. U kishim o'rtada turib, pul ishlab oldi, xolos.

– Nima bo'lganda ham o'sha pulni yalinib-yolvorib, o'zing olib borib bergansan. U sening oldingga kelib, "Shu pulni bersang ham berasan, bermasang ham, berasan", deb turib olgani yo'q!

Shu bilan munozaraga nuqta qo'yildi. Holbuki uni istagancha cho'zish mumkin edi. Ammo qancha cho'zilmasin, Robiya xolaning alami bosilmasdi: "Esiz, o'li-ib topgan shuncha pulim! Ol, insof bilan ol! Yo'q, bu kishim alifni kaltak deguvchilardan ham, mening bolalarimdan ham bir xil oladi. Esi bo'lsa, aralashganiyam yo'qdir. Bor-yo'q qilgan ishi bizdan pul shilish bo'lgan!.."

U bu gaplarni ming marta, baqirib-baqirib aytgan, ammo foydasi nima? O'zi qo'sh qo'llab olib borib bergan pullarni birov qaytarib berarmidi? Endi araz-durazlarni bir chetga qo'yib, u kishimning mehmonini kutib olish kerak. Nevaralar ham hali zamon o'qishga borishi kerak, balki endi yordami tegib qolar. Bu tojikistonliklar nima karomat ko'rsatishgan ekan? Ishqilib, xudo beobro' qilmasin.

Jumanazar akaning odami qirq yillik qirg'indan qolgandek ozg'in, rangi zahil, katta-katta ko'zlari ich-ichiga kirib ketgan, sochlari qansharigacha to'kilib ketganidan yuzining yarmi peshonadan iboratdek ko'rinadigan o'rta yoshdagi kishi edi. Kelgan vaqti ayni peshin edi, izn so'rab namozni o'qib oldi. Boshidagi do'ppisiga, yo'l xaltasidan chiqargan ixchamgina joynamoziga qarab, Robiya xolaning ko'ngli biroz taskin topdi: "Mo'mingina odamga o'xshaydi". Yana qo'rqib ketdi: "Vahobiylardan bo'lmasin yana!".

...Oshdan so'ng dasturxonga issiqqina choy bilan qand-qurs, ikki-uch xil murabbo qo'yildi. Robiya xola eriga, "Ovqatdan keyin qarindoshlari qanday ayblov bilan qamalganini so'rang", deb tayinlagan edi. Mehmon oshni tuzuk yemadi. Olloqulboy xotini tayinlagan gap butunlay yodidan chiqib ketganday, mehmonga choy quyib, bamaylixotir o'zi ham ho'rillatib choy ho'plab o'tirardi, oxiri Robiya xola dasturxonni tartibga keltirish bahonasida eri tomonga o'tib, erining biqiniga yaxshilab bir turtdi. Olloqulboy kutilmagan zarbadan cho'chib, xotiniga qaradi: "Ha?". Xotin unga javoban qovog'ini uydi. Olloqulboy shundan so'ng topshiriq yodiga tushdimi, gap boshlashga majbur bo'ldimi, mehmonga yuzlandi:

– Qani, mehmon, yaqindan tanishaylik. Kimsiz, nima tashvishlar bilan yuribsiz? Bizlardan qanday yordam kerak?

Choynakning qopqog'iga bog'langan ola ipni goh eshib, goh bo'shatib o'tirgan Robiya xolaning butun vujudi quloqqa aylanib, mehmonga qaradi. Mehmon nimagadir biroz ikkilandi, choydan bo'shagan piyolasiga tikilib, ancha vaqt jim qoldi. Uzoq davom etgan yoqimsiz sukunatdan so'ng, chuqur xo'rsindi:

– Shu-u... aka, yo'q joydan og'ir savdolarga qolib ketdik. Tog'amning uch o'g'li birikib, bir "Kamaz" olib edi, shu moshin bilan Rossiya, Qozog'iston tomonlarga yuk tashib, ro'zg'or qilishar edi. Oxirgi marta "Limon bor" deb, buyurtma berishibdi. Yuk ortilib bo'lgach, mijozlar "Qutilarning tagida

anavindan bor. Eson-omon olib borsang, bir umr yeb o'tishingga yetadigan haq olasan. Birov yarimga sotadigan bo'lsang, bola-chaqang bilan qirib yuboramiz", deyishibdi. Jon shirin, ortida hayoti garov bo'lib, bola-chaqa qolayapti, majbur bo'lib yo'lga chiqibdi. Surxondaryoda qo'lga tushishibdi. Sakkiz yuz yetmish kilogramm geroin ekan...

Mehmon yerga qarab gapira-gapira, gapi tugaguncha yerga singib ketganday bo'ldi. Mezbonlarning ham nafasi ichiga tushib ketdi.

– Sakkiz yuz yetmish kilogramm, deysizmi? – anchadan so'ng qo'rquv va hayratga to'la ko'zlari katta-katta bo'lib ketgan Olloqulboy mehmondan qayta so'radi.

– Ha.

– Axir bu salkam bir tonna, degani-ku! Buncha zahar bilan butun boshli mamlakatni giyohvand qilib tashlash mumkin-ku.

– Shunday.

– Siz o'zingiz o'sha tog'avachchalaringizning "majbur bo'lishgani"ga ishonasizmi? Balki ular hamtovoqlardir, – ich-ichini yondirib borayotgan alanga bo'g'ziga tiqildi, butun dunyosi yonib ketganday bo'ldi. "Bu xotinning ko'ngliga solgan ekan-da, kechadan beri jovillaydi-ya". – Endi, mehmon, hech kim shuncha pullik "mol"ini birinchi uchragan haydovchiga, buning ustiga "olmayman", deb turgan begona bir odamga majburlab topshirmaydi. Bu bir "Kamaz" pulni daryoga oqizish bilan baravar-ku, axir.

Mehmon xuddi o'zi aybdorday boshini yanada quyiroq egdi:

– Men u bolalarni yaxshi bilaman, aka. Birga o'sganmiz, birga haj qilib kelganmiz. Ular hoji odamlar. Majbur qilishmasa, bu ishni bo'yinlariga olishmas edi.

Bu bahona hech kimga ma'qul tushmadi: "Hoji odamlar" emish, Robiya xolaning-ku, tamom mazasi qochdi. Mehmon esa yerga qaragancha, gapida davom etdi: "Kelishga keldi. Endi muddaosini aytmasa, bo'lmaydi!"

– Endi, birodarlar, xudo yo'lga bir ko'mak so'rab keldim. Yigitlar hali yosh, hali onalarining ko'zlari tirik, bu yog'i bola-chaqa, deganday. Bir tuhmatning qurboni bo'lib ketmasin, deyman-da. Bu shahar kichkinagina shahar, bu yerda hamma bir-birini taniydi, bir-birining so'zini yerga tashlamaydi. Qarindoshlar "Chiqmagan jondan umid. Bir borgin", deyishdi. Advokati ham qarindoshlarning bir kelib menga uchrashsin, debdi.

“Obbo, Qalandar mesh-ey! Bekorga odamlar unga “mesh” deb ot qo’yishmagan ekan-a. Shuncha zahri qotilni yashirib ketayotgan odamlarni muqarrar o’lim kutayotganini qonundan umuman bexabar kishi ham yaxshi biladi. Bu bo’lsa, umidvor qilib, “qarindoshlaring uchrashsin”, debdi. Nafsing qursin. Bular qo’rqmaydi ham, hazar ham qilmaydi. Indamasang, o’likning kafanligini ham yechib olishadi”, Robiya xola eriga qaradi: “Ko’raverasiz endi”.

Olloqulboy yerga qaradi. Iloji boricha mehmonning ko’nglini og’ritmaslikka urindi:

– To’g’ri, mehmon, Termiz kichkina shahar. Advokatingiz yangangizning onasi bilan bir mahallada turadi. Uchrashtiramiz, xafa bo’lmang-u, ammo bu vaziyatda Xudodan boshqa hech kim yordam bera olmaydi, deb o’ylayapman. Salkam bir tonna narkotik! Men hali buncha narkotik olib yo’lga chiqqan odamlarni eshitmaganman. Ularga eng og’ir jazo – o’lim jazosi berishlari aniq.

Mehmon keskin bir shahd bilan boshini ko’tarib, mezbonning ko’zlariga norozi tikildi:

– Aka! O’lim Xudoning ishi. Bandasi bandasining jonini olishga haqqi yo’q.

Olloqulboy noo’rin gap aytib, mehmonning ko’ngliga tegib qo’rganidan xijolat tortdi. Robiya xolaning achchig’i keldi, ammo mehmonning izzatini qilib, ko’nglidagilarni ichiga yutdi: “Millionlab kishini og’ulab, zaharlash, yo’ldan urishga bandasining haqqi bormi? Bu og’u qanday baloi ofat ekanligini Termizda yashaganing-da, bilar eding! Afg’ondan o’tgani ham, Tojikistondan o’tayotgani ham shu yerda bir to’xtab, bir qism zaharini pullab ketadi. O’zi ham u bir umr dalada yurgan ayol, ammo shu bolalarini o’ylab bir umr yurak hovuchlab yashadi. Bir kunda yigirma marta uyiga qo’ng’iroq qilar edi: “Mansur maktabdan keldimi?”, “Mahmud nima qilayapti?”, “Sardor repititordan keldimi? Telefonga chaqiring, bir gaplashay”. Kechqurun uyga qaytgach, uxlab yotgan bolalarini bir-bir hidlab chiqar edi, xuddi qoradorining hidini biladiganday. Ularning xonalarini, g’aladon, sumkalarini, cho’ntaklarini titkilashdan sira erinmas edi. Qo’shnisining xalqaro tanlovlarga qatnashib yurgan o’g’li giyohvand bo’lib qolganini eshitib, battar yuragi yorildi. Hech kimga gap bermaydigan Uldona chevarning o’g’li ham giyohvand bo’lib qolibdi. Qaynonasining aytishiga qaraganda, Mahmuddan uch-to’rt marta pul olgan ekan. Mahmud qarzini qistasa, shu arzimagan pul uchun muncha turg’alading, yur, shu pulingning haqqiga bir mazza qildirib kelaman, deb fohishaxonaga olib bormoqchi bo’libdi. O’shanda Mahmud endi to’qqizinchi sinfda o’qir edi. Bu gapni eshitib, Robiya aqldan ozay, dedi. Nima qilishini bilmas edi. Borib, Uldona bilan gaplashay, desa, o’g’li qasdlashib bolalarimni giyohvand qilib qo’ysa-chi, deb qo’rqdi. Bir chora qo’llamasa, chevarning bekorchi o’g’li ertadan kechgacha darvozalarining oldiga qo’yilgan yog’och o’rindiqdan tushmaydi, o’tganning o’rog’ini, ketganning ketmonini olib, hammani gapga tutib o’tiraveradi. Shu ko’chadan ko’chib ketmasa, bu falokatdan qutilishning iloji yo’q edi. Shahardagi sharoitlardan bahramand bo’laylik deb, qishloqning shaharga tutash hududidan yer olib, kenjasiga atab uy ko’targan edi. Endi ming pushaymon yeyapti, o’sha adir ustidagi pastakkina kelinlik uyi ming marta afzal edi.

Uchinchi o'g'li har erta stadionda yuguraman deb uydan chiqib ketadigan odat chiqardi. Tabiatan tanbalroq bo'lgan bolaning yarim kechasigacha televizor ko'rib, yana soat beshda turib, stadionga ketishi unda shubha uyg'otdi. Bir kun ertalab turib, o'g'lining izidan stadionga bordi. Hamma joyini yantoq bosib yotgan stadionda hech kim yo'q edi. Tiramohning muzdek shabadasi yuzlariga urildi, u bor budidan ayrilgan notavon kimsadek hayron turib qoldi, ko'zlariga ishonmay yana alang-jalang atrofga qaradi. Yo'q, hech kim yo'q edi. Bu stadionda yaqin orada biron odam shug'ullanmagan. Unda uning bolasi qani, qayerda? Har tong u qayerga borib yuribdi? Har kun uni uyqudan voz kechishga nima majbur qilayapti? "Narkotik!" Xayoliga kelgan fikrdan o'zi ham qo'rqib ketdi. "Ha, narkotik, faqat shu narsa odamni shu darajada devona qilishi mumkin. Uni kimdir yo'ldan urgan. Tuni bilan xumor qilib chiqadi-da, tong otishi bilan o'sha narkotik sotuvchining oldiga yuguradi. Oh, sho'rim qurib qoldi-ya mening. Ahmoq bo'lmasam, to'rt o'g'ilning taqdirini bir ko'r kampirga ishonib, o'zim ertadan kechgacha dalada yuramanmi? Endi nima qilaman? Qayerdan axtaraman bu sho'rpeshona, shumtaqdir bolani?"

Stadiondan uyiga yetib kelgunga naq bir yil vaqt o'tib ketganday bo'ldi. O'zicha oyoqlari yurayotganday edi, ammo hech yo'li unmas, uylariga yetib bora olmas edi. Bir amallab yetib kelganida tomoqlari qaqrab, ranglari oqarib ketgan edi. Uning ahvolini ko'rib eri hayron bo'ldi:

- Senga nima bo'ldi? Qayerdan kelayapsan?
- Sobir... Sobirimiz yo'q.
- U yugurishga ketgan, nimaga buncha hovliqasan?
- Stadionga borib keldim. O'g'lingiz u joyga hech qachon bormagan.
- Qayerga boradi bo'lmasa?
- Bilmadim, dadasi...

Shu payt temir eshik "g'iyq" etib ochilib, Sobir kirib kelmaganda bu ayolning holi nima kechishi birgina Xudoga ayon edi. Biroz horg'in holatda gunohkorona iljayib kirib kelgan o'smir savollarning tagida qolib ketdi.

- Sening biron gapingga ishonmayman. Sen narkomanlarga qo'shilgansanmi, bir balong bor, – tinmay javrayotgan ona oxirgi gapini aytdi. – Bo'ling, dadasi, buni narkodispenserga olib boramiz. O'sha yerda haqiqatni aniqlaymiz.
- Mayli, boraveraman, lekin men haqiqatan ham stadionda yugurib yurgan edim. Faqat bu stadionda emas, 9-maktabning stadionida yuguraman.

– Nega?

– Chunki... U yerda sharoit juda yaxshi.

– Yo'q, meni aldayapsan.

O'g'il har qancha tavallo qilsa ham ishonmadi. Shu kuni tonggi yig'ilishga ham bormay, shaharning narigi boshidagi narkologiya dispanseriga borishdi.

Dispanserning bir qarashda nihoyatda saranjom-sarishta hovlisi rang-barang gullarga to'la, daraxtlarga shakl berilgan, biron joyda ko'ndalang yotgan biron cho'p ko'rinmaydi, lekin daraxtlar orasidan ko'rinib turgan osmon bu joyning gardishli qopqog'idek, hovli nihoyatda dim, boshdan oyoq qandaydir qo'lansa hid anqib yotardi. Ayniqsa qarshingizdan chiqaveradigan ko'zlari ma'nosiz ola kiyimli bemorlar odamning yuragini siqib yuborardi. Hali ish kuni ham boshlanmagan ekan. Bosh shifokorni picha kutishga to'g'ri keldi. Bu odamning ularga ozroq qarindoshlik joyi bor edi.

Olloqulboy bilan Robiya xola shunday joyda bola ergashtirib yurganidan xijolat bo'ldi, ammo bosh vrach zarracha ham hayratga tushmadi. Xuddi ularni anchadan beri kutib yurgandek yoki har kun kutib-kuzatadigan bemorini qarshi olayotgandek bamaylixotir xayrixohlik bilan qarshi oldi. Ular ancha vaqt gapni nimadan boshlashni bilmay, u yon-bu yon qarab turishdi. Eridan biron sado chiqavermagach, ichi siqilib ketgan Robiya xolaning o'zi gap boshladi:

– Do'xtir bova, ming bor uzr, faqat aybga buyurmang. Bizga yordam bering-u, lekin bizning bu yerga kelganimizni zinhor birov-yarimga ayta ko'rmang. Shu o'g'limizning yurishlari bizga hech yoqmayotir, bir tekshirtiraylik, deb keldik.

– Bemalol, opa, doim xizimatingizga tayyormiz, – bosh vrach qo'ng'irog'ini bosgan edi, qabulxonada o'tirgan qiz kirdi. – Norimxol, bu yigitni Anna Sergeevnaga olib bor, tekshirib ko'rsin, – so'ng yana mehmonlariga yuzlandi. U mijozlarining safi shunday dovuqli odamlar hisobiga kengayganidan xursandga o'xshab ko'rindi. – Siz, opa, sira g'am yemang. Bu yerga qanday odamlar kelmaydi. Tagida "Mercedes", yurganda yer titraydi, minbarga bir musht urganda, ming kishilik auditoriya qalqib ketadi, lekin yolg'izgina o'g'il giyohvand. Bechora qon yig'lab keladi: "Yordam bering, jon uka!" Albatta yordam qilamiz. Bu bizning vazifamiz, ammo Falonchiyevning o'g'li unday, Falonchiyevning o'g'li munday, degan gapni hech qachon aytmaymiz.

Eshik ochilib, eni-bo'yi baravar semiz rus ayol kirdi, uning ortida nimagadir rangi o'chib ketgan Sobir iljayib turardi. Hamma ayolning og'ziga tikildi.

– Ergash Ahmedovich, vsyo chistiy.

Ergash Ahmedovich negadir ishonqiramadi:

– Da? Xorosho proveryali?

– Da.

So'ng bosh vrach "gap tamom" deganday noiloj o'rnidan turib, qo'llarini ikki tomonga yozdi:

– Hech gap yo'q ekan-u, vahima qilib yuribsizlar. Ammo hali suyunishga vaqt erta, o'g'lingiz endigina o'n beshga kiribdi. Oldinda butun boshli umr bor. Qirq besh yoshgacha odam giyohvand bo'lib ketishi mumkin. Doim hushyor bo'ling.

Robiya xola ko'chaga chiqishgach, eriga qaradi:

– Hay, menga qarang, bu qarindoshingiz o'g'limiz giyohvand chiqmaganiga xafa bo'lib qolganga o'xshadi-ya?

Olloqulboy yelka qisdi:

– Qo'y-e!

Sobir kuldi:

– Bitta yog'li mijozga ega bo'ldim, deb suyunib o'tirgan edi-da. Essiz...

– He, yuzing qursin sening, – Robiya xola o'g'lining yelkasiga bir mushtladi. – Odamning yuragini yording. O'zing yuguradigan stadiongga olib borasan bizni.

– E-ey, ena, qo'yasizmi, yo'qmi? U yerda bir qiz bor. Biz... do'stmiz. Stadiondan darvozasining oldi ko'rinib turadi. Har kun men yugurgani boraman, u ko'chasiga suv sepib, supurgani chiqadi. Bor gap shu.

Olloqulboy kulib yubordi.

– He-e, ota o'g'il, shunday sarson bo'lib yurguncha, aytmaysanmi, belgisini qili-ib qo'yardik. Gaplashib yuraverarding, vaqti kelganda to'yni qilib, olib kelib berardik.

– Sizga gap bo'lsa! – onasi bunga ham rozi bo'lmadi. – Har qanday gapni gapiravermang. Oldin bilaylik, u qanday qiz, kimning qizi?

Va ertasi kuniyoq o'g'lining tanlovini bekor qildi: "Qo'y, bolam. Ular bizga to'g'ri kelmaydi. Ota-onasi ma'qul odamlar ekanku-ya, ammo akasi giyohvand bo'lib qolgan ekan. Boshqa gaplashma, ko'ngliga umid solma. O'zing ham xayolingni har narsaga chalg'itmay, o'qi, bolam. Shu yoshingda o'qishni tashlab, qizga ergashib yursang, uyat bo'ladi, maylimi, o'g'lim?"

Sobir noiloj bosh irg'adi: "Xo'p".

Ammo o'sha danakday qizdan voz kechishi qiyin bo'ldi. Buni ona yurak-yuragi bilan his qildi va shukr qildi: na bilagidan, na belidan bir ushlamagan qizga shuncha o'rganib qolgan ekan, agar dori-poriga o'rganib qolganda, nima qilar edim?

Shuning uchun ham dorifurushlarni juda yomon ko'radi. U otasini o'ldirgan odamni, hatto onasini o'ldirgan odamni ham kechirishi mumkin. Odamzod jahl ustida ne bir jinoyatlarga qo'l urishi, xatolarga yo'l qo'yishi mumkin, deb hisoblaydi. Lekin og'ufurushlarni sira kechira olmaydi. Ularni kechirishning o'zi jinoyat deb hisoblaydi.

Bir tonna og'uni ortib ketayotgan odamlarni himoya qilish uchun yurt oshib kelgan kishiga ayol boshi bilan bu narsalarni tushuntirib o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi. To'g'ri, o'g'illarini bir amallab katta qilib olishdi, ammo nevaralar bo'y cho'zib borayapti, har o'g'ilda ikki-uchtadan o'g'il bor. Ilgari eskilar qiz o'stirish qiyin, deyishar edi. Hozir o'g'il o'stirish qiyin bo'lib borayapti. "Hizbut tahrir" degan baloi ofat chiqqan. Uyam ko'proq yigitlarni yo'ldan urarmish. Xullas, sal faromush qolsang, ne bir umid bilan o'stirgan bolangni ilib ketuvchilar ko'p.

Joy-ku, berishadi. Odamgarchilik. O'zi bir chimxo'r mardumga o'xshaydi, yeganda ot-u tuyani yermidi? Ammo oti yomon. Bir tonna narkotik bilan qo'lga tushganlarning qarindoshlari shularning uyida yotdi, degan gap yomon. Odamlar darrov to'qib-bichishadi: "Bir gapi bo'lsa kerak-da!"

Ertasi kuni Robiya xola o'g'lining mashinasida mehmonni advokaturaga olib borib, Qalandar meshga uchashtirib qo'ydi. Mesh gap nimadaligini eshitgach, uzoq hayron bo'ldi, bir hamshaharlariga, bir mehmonga qaradi. Oxiri so'radi:

- Kechirasiz-u, Olloqul aka, bu kishilarning sizga qanday tanishligi bor? Bular tojikistonlik bo'lsa...
- Bu kishi Toshkentdan, institutda domulla. Bir domulla xeshimiz bilan birga ishlashar ekan. Shu odam orqali bizni izlab topibdi. Begona shaharda bir boshpana, deganday...
- Ha, yaxshi, yaxshi! – so'ng mehmonga sinovchan tikildi. – Siz institutda ishlaysizmi?

Robiya xola ularning yonida ortiq turishni istamay, oshig'ich xo'shlashib qo'ya qoldi:

– Biz juda shoshib turgan edik, sizlar bafurja gaplashib, ishlaringizni bajaraveringlar, so'ng mehmonga yuzlandi. – Ishingiz tugagach, uyga o'tavering. Uyda odam bo'ladi.

Kechki ovqat mahali mehmonning oldiga ham kirmadi. Dasturxonlarni Sardordan kirgizib yubordi, ko'rgisi kelmadi o'sha domullani, hovlida shiqirlatib oftoba ko'tarib yurishi ham g'ashini keltirdi. Televizor qarab uxlab qolgan ekan, eri bir mahal yoniga keldi:

– Hay, uxlab qoldingmi?

– Ha, nima qilay bo'lmasa? Mehmoningizga ham alla aytib, uxlatib qaytdingizmi?

– Go'rda uxlaydi. Joyini solib, qaytdim, u namozga tutindi.

– Uf-f!.. Xudoning o'zi kechirsin, lekin shu odamning namozi menga malol kelyapti.

– E-e, shoshma, gapning buyog'ini eshit, – Olloqulboy xotinining yoniga o'tirib olib, shivirlab gapira ketdi. – Mesh undan ming dollar pora so'rabdi. Iltimos, shu pulni siz olib borib bersangiz, deydi.

– O'h, joning qursin-ey! – Robiya xola ham o'rnidan turib ketdi. – Nima bo'lsa, siz bo'ling. Geroin tashuvchilarni qutqarish uchun chet el valyutasida pora taklif qilgan, deb qamalib keting. Lekin u kishim "O'lim Xudoning ishi" deb hammadan norozi bo'lib, namozini o'qib o'tiraversin. Voy, pismig'-ey, uning oldida nima gunohingiz bor edi-ku, o'ziga atalgan qopqonga sizni itaradi.

– Qopqonmi, yo'qligini hech kim bilmaydi hali.

– Lekin qopqon bo'lishi mumkin deb o'ylayapti. O'zini asrab, sizni ro'baro' qilayapti. Bir taqvodor, hoji odam uchun bu ish gunoh emasmi? Iflos! O'zining axlatiga o'zi botib o'lsin. Hali siz bolalaringizga keraksiz, endi otasi qamalgan, degan nomga teng bo'lamizmi? Mehmoningiz o'tirsa, tinchgina o'tirsin. Kovushini to'g'irlab qo'ymayin yana!

– Bu meshniyam qara-da, kampir! Bularning otilishini bilib turib, shuncha pul so'rabdi, o'likdan kafan tilaganday... Qoyil-ey, yuz ham eshakning terisidan qalin bo'lsa kerak. Qanday so'raydi, qanday oladi, so'ng qanday hazm qiladi?

Erining yosh boladek hayratlanaverishi ham g'ashini keltirdi:

– Voy-voylayvermang, oladiyam, qiladiyam. Chiroqni o'chirib, tezroq yoting.

Oradan ikki kun o'tib, ertalab chiqib ketgan mehmon bir ayol bilan uch bolani yetaklab keldi:

– Opa, ming bor uzr, bular shoshilinch Tojikistonga o'tadigan bo'lib qolishibdi. Bir ko'rib o'taylik deb Termizda to'xtashibdi. Jumanazar aka ham boraveringlar deb manzilni bergan ekan, boshlab kelaverdim.

Robiya xola hech qachon bunchalar xudbin, bezbet odamni uchratmagan edi. Haftalab to'y berib, uy-hovli to'ldirib o'rin solib ham shu qadar mehmondan bezor bo'lmagan edi. Ammo bu odam!..

Uning ichi yonib ketdi, ammo sir boy bermadi:

– Bemalol, mehmon kelsa, bosh ustiga, – borib ayolga quchoq ochdi. – Kelavering, singlim. Charchamadingizmi? Qani, ichkariga.

Hoji xushnud jilmaydi.

– Qani, bolalarim, momoga salom beringlar-chi?

Hojining ayoli ochiqqina ekan. Kechki ovqatdan so'ng erkaklarning oldida o'tirishga iymandimi, Robiya xolaning yoniga chiqdi. Ichi hasratga to'lib ketgan ekan:

– Qaysi bir nokaslar uchun bekorga sarson bo'lib yuribdi. Bu kishim juda qiynalib o'sgan, otasi o'lib, qaynonam boshqa er qilib ketgan, bular to'rt bola bir kekxa kampirning qo'lida qolgan. Institutda o'qib yurganimizda bir safar kursdoshlar bilan uylariga bordik. Oldi ayvon ikki xonaligina cho'pkori uy va xuddi ertaklardagidek qarib ketgan qoqsuyak kampir. Uy qattiqroq shamol essa ham g'ichir-g'ichir chayqalaverar ekan. O'sha oqshom ko'nglini ochdi: shu qoqsuyak kampir bilan cho'pkori uydan bo'lak hech narsam yo'q, menga tegasanmi, dedi. U kursimizdagi eng aqlli, eng tarbiyali yigit edi, uni hamma qizlar yaxshi ko'rardi. Men unga turmushga chiqdim. Biz juda baxtli edik, lekin hayotdagi eng arziyashti ehtiyojlarga ham juda qiynalib yetishdik. Bizni qo'llab quvvatlovchi, yordam beruvchi hech kim yo'q edi. Ilm qilib, uylar olib, obro'-e'tibor topgach, bir kun onasi paydo bo'ldi. Tog'alar kelib ketadigan bo'ldi. Bizlarni ham qo'yarda-qo'ymay uylariga olib ketishdi. Itining yalog'i ham tillo edi, desam, ishonavering. Ammo u tillolar biz uchun xuddi behishtning oshidek, ko'rmoq bor-u, yemoq yo'q. Bu kishim ularni tuhmat bilan yotibdi. O'sha narkotiklarni majbur bo'lgani uchun mashinasiga yuklagan, deyishganiga ishonib yuribdi. Men sirayam ishonmayman. Uch aka-uka bir "Kamaz"ni taksi qilib, bunchalar boyib ketishi sirayam mumkin emas. Bu yigitlar bir umr shu ish bilan shug'ullanib kelgan. Xotinlarini ko'rsangiz, o'zlari bir pullik ayollar, "bolalarni ingliz tili bo'yicha repitorga bergan ma'qulmi, angliyskiy bo'yicha borgani ma'qulmi", deb o'tiradigan, o'qimagan, omi ayollar, ammo dimog'idan qurt yog'ilib turadi. Bolalarini Toshkentga propiska qildirish uchun bizni izlagan ekan. Bo'lmasa, bu tog'alarni bir umr tanimay, bilmay o'tib ketgan bo'larmidik.

– Tanimay o'tsanglar, biron narsa yo'qotarmidinglar?

– Aksincha, shularni taniganimiz uchun tinchligimizni yo'qotdik. Onamning tobi yo'q ekan, bolalar ham ta'tilga chiqishgan, bir borib kelay, degandim. Ikki ko'zim orqamda deng, qand kasallari bor, borgan joyimizga yoqmasam ham bir ko'rib o'tmasam bo'lmaydi, deb kelaverdim.

– Yo'g'-e, kelavering. Bir kecha boshpana berib, ko'nglingizni topa olgan bo'lsak, bo'ldi. Bizning uyga kimlar kelib ketmagan, lekin sizga ochig'ini aytsam, eringizning o'sha tog'avachchalarini himoya qilib yurishi menga avval boshdan yoqmagan.

Ayolgina erta tongda uzr so'ray-so'ray, yo'lga tushdi.

Robiya xola g'alati bo'lib qoldi.

Sud yana bir hafta cho'zildi. Hukm o'qilishiga ikki kun qolganda ikki yuz ming dollar so'rabdi. Hoji o'sha kuni uyga kelmadi.

– Qishlog'iga pul axtarib ketdi. Uyma-uy yurib bo'lsa ham aytilgan pulni yig'ib kelaman, deb ketdi, – dedi Olloqulboy.

– Ikki yuz ming dollari nima balo? Shuncha pulni qayerdan topadi? Bu mesh ham butunlay esini yeb qo'yibdi. "Limonning ichidan chiqqan heroin" deb televizordan ming marta ko'rsatdi. Bu jinoyatni butun dunyo eshitdi. Endi kim o'sha jinoyatni qilgan odamlardan pora olib, o'limdan asrab qola oladi? Bu hech bir aqlga sig'maydigan ish-ku! – jig'ibiyron bo'lardi Robiya xola. – Bu hojiningiz aniq hamtovoq ekan, yo'qsa, shuncha pulni topa olaman, deb yo'lga chiqmas edi.

Hoji ertasi kuni shomdan keyin keldi, uning qo'li bo'm-bo'sh edi. "Olib kelib, meshga topshirib kelganmikin? Shuncha pulni-ya? Nahotki bu tog'avachchalar omon qolsa?"

Hoji suddan xuddi o'zi otishga hukm qilingandek faromush bo'lib qaytdi. Ruhsizgina so'rashib, tahorat olgani ketdi. So'ng uzoq namoz o'qidi.

Olloqulboy bilibmi-bilmaymi, unga o'zining so'zlari bilan tasalli bergan bo'ldi:

– Ha, o'lim Xudoning ishi.

Hoji ham zarda bilan shu gapni qaytardi:

– Ha, taqsir, men ham shunday deyman, o'lim Xudoning ishi.

– Ha, inim, Allohning amri bo'lmasa, ko'zingizdan bir kiprik uzilmasmish. Alloh peshonaga soladi, bandasi ko'taradi. Xudoning ishi-da, – dedi Robiya xola ham ko'ngil ko'targan bo'lib. Hojining qovoq uyganini ko'rib, achchig'i keldi: "Tavba, Alloh qiladi, bandasi bir-biridan ko'radi".

Hoji erta sahar ketayotib, mezbonlardan rozi-rizolik so'radi. Toshkentdagi uyining manzilini, telefon raqamlarini berdi. Shu kungacha bu odamning saxti-sumbatidan ozoru bezor bo'lib o'tirgan Robiya xola uning aftoda siyog'iga qarab, beixtiyor rahmi kelib ketdi: "Soddalik ham yomon ekan-da". Hoji esa uning "Xafa bo'lmay keting, inim. Yaxshi-yomon gaplar qilgan bo'lsak, uzr", degan gapiga "Men albatta o'sha limon ortgan mijozlarni topaman", deb javob qildi. Negadir Robiya xolaning ko'zlariga yosh qalqdi.

* * *

Kulrang kostyum-shim kiyib, qalin sochlarini orqaga tarab olgan baland bo'yli oliftanamo yigit direktorning oldiga bir kirib chiqdi-yu, maktabning bir kunlik dars jadvalini o'zgartirib tashladi. Teatrqa hech kim kirmay qo'ygan emish. "Siz bir ma'naviyati boy insonsiz. Siz rejamizni bajarishga yordam bermasangiz, kimdan umid qilishimiz mumkin", debdi. Kimning nima dardi bo'lsa, maktabga yopishadi. "Shuncha o'qituvchi, shuncha o'quvchi bor!.." deydi hammasi. Xuddi shuncha mo'r-malax beko-or yotganday! Direktorning ham biror manfaati bordirki, osongina rozi bo'ladi. "Yetmishga o'ttiz qilamiz" degan bo'lsa, bo'ldi-da. Ha, cho'ntakka kiradigan pul turganda bolalarning savodxonligini o'ylarmidi? Direktor darrov yig'ilish chaqirib, e'lon qildi: "Hamma bola ming so'mdan pul olib kelsin. Soat o'nda boshlang'ich, soat o'n birda beshinchi sinfdan yettinchigacha bo'lgan bolalar, soat o'n ikkida yuqori sinflar boradi". "Tamom, demak, shu kun maktabda dars bo'lmaydi".

Sinfi bor o'qituvchilar bolalarini olib, birin-sirin teatrqa ketishdi. Nozima yuqori sinflar teatrqa ketgach, uyga qaytdi. Kechasi bilan yog'ib chiqqan yomg'irdan so'ng havo tozalangan, dov-daraxtlar nim yashil to'n kiygan, moviy osmonda suzib yurgan ukpar-ukpar oq bulutlar yoniga chorlayotganday edi. Rostdan-da, uning uyga borgisi kelmayotgan edi! Bahor, butun dunyo o'zgarayapti, yangilanayapti. Faqat uning hayoti o'sha-o'sha! Hech o'zgarmaydi. Uy-ish, ish-uy. Yetti yildan beri supurib-sidirib, tozalab oxiriga yetolmagan uy-joyi. Suqma qoshiqday har ishga aralashib turadigan qoqbosh qaynonasi, lapashang, sho'rtumshuq eri! "Uf-fl! Ulardan qanchalar charchadim, qanchalar bezor bo'ldim! Qaniydi, bir joylarga bosh olib ketib, yangidan hayot boshlashning iloji bo'lsa! O'shanda hech qachon yolg'iz o'g'ilga, kenja o'g'ilga turmushga chiqmas edi. Ayniqsa eriga o'xshab, har gapda ota-onasining og'ziga qarab turadigan, o'zining mustaqil fikri bo'lmagan lapashang yigitga!"

Muyulishdagi zulukday qop-qora mashinaga suyanib turgan do'ppili yigit ko'ziga tanish ko'rindi. Yigit ham xuddi uni kutayotganday Nozimaga qarab turardi. Esladi: kuyovjo'ra! Bu yoqimtoy yigitning oshkora shilqimliklari biroz hamiyatiga tekkan bo'lsa ham ko'nglida yoqimli bir tuyg'ular uyg'otgan edi. Uch kun qayta-qayta qo'ng'iroq qilib holi joniga qo'ymagan yigitning birdan jimib ketganiga avval hayron bo'ldi, so'ng o'z-o'zidan xavotirlana boshladi. Hozir ham do'ppida turganini ko'rib, ko'nglida eng yaqin odamlariga nisbatangina his etish mumkin bo'lgan g'alati bir tuyg'uni tuydi. U mashina to'g'risiga kelgach, yigit yo'l chetidagi ariqchadan sakrab, uning yoniga o'tdi. Mung'ayibgina salom berib, ko'rishish uchun qo'l uzatdi. Siniqqina ovozda ahvol so'radi.

– O‘zingiz yaxshimisiz? Tinchlikmi? – u qancha urinsa ham ko‘nglidagi xavotirni yashira olmadi.

– Amakimning o‘g‘li... – yigit yerga qaradi. – Birga katta bo‘lgan edik. To‘rt kun avval Rossiyadan mayyitini olib keldik, kecha yetti edi...

– Qanday qilib?

– Hech narsani aniqlay olmadik. Begona yurt!.. Indamay olib kelaverdik. Qo‘li gul usta edi.

Eshigining oldida mashinalar qalashib yotardi. Pul ishlab, xususiy ustaxona ochaman, mashina olaman, deb, chillasi ham chiqmagan kelinni tashlab, Rossiyaga ketib qoldi. Ketayotgan kuni ham kun bo‘yi mashina sozlagan. Necha kishi “Mening mashinamni ham sozlab bering, keyin ketasiz”, deb yalinib qolgan. Bu bo‘lsa, “Hoy, birodarlar, qo‘limda biletim bor, meni tinch qo‘yinglar”, deb chala-chulpa yuvinib, aeroportga chopgan. Hamma “ajaliga shunchalar shoshgan ekan-da”, deyapti. Onasi bechora, “Bolam, boriga shukr qil, shunday kasbing bor, rizq-nasibang o‘z oyog‘i bilan kelib turibdi. Ketma”, deb qancha yalindi. U “Ona, mening hunarim – mening imkonim. Bunday imkoniyat bilan chet ellarda qo‘sh qavatli ustaxonalarga egalik qilish mumkin. Iltimos, mening yo‘limni to‘smang”, dedi. Ona sho‘rlik “Musulmonchilik astachilik bilan-da, bolam. Bo‘ladi, asta-sekin. Mayli, ro‘zg‘orga bir tiyin berma, topganingni yig‘ib, ustaxona qur, mashina ol. O‘zingdan orttirguningcha, ro‘zg‘orni o‘zimiz qilib turamiz”, dedi. “Yo‘q, yo‘q”, deb ketib qoldi. O‘tgan hafta birga ketgan o‘rtog‘i “Mazasi yo‘q”, deb qo‘ng‘iroq qilibdi. Amakim bilan yetib borgunimizcha, joni uzilibdi. Shuncha olis yo‘llardan o‘z oyog‘ing bilan kelish qiyin, tobut ko‘tarib kelish undan ham qiyin ekan. “Har ehtimolga qarshi, dori-darmonga kerak bo‘lib qolar”, deb besh-olti so‘m olib chiqqan edik. Yo‘qsa...

– Bechora...

– Sizni ham izlay olmadim, o‘zim bilan o‘zim bo‘lib qoldim. Xafa bo‘lmadingizmi?

– Yo‘g‘-e, nega xafa bo‘lishim kerak? – Nozima boyadan beri o‘rtadagi chegarani unutib, shuncha noo‘rin hazillar qilgan butunlay begona yigitning og‘ziga tikilib o‘tirgani yodiga tushib qoldi. – Meni izlashingiz umuman shart emas.

Yigit yerga qarab, chuqur xo‘rsindi. Bir zum tin olib, so‘ng Nozimani mashinaga taklif qildi:

– Yuring, uyingizga olib borib qo‘yaman.

– Yo‘g‘-e, – astoydil rad qildi Nozima. – Ozgina qoldi, o‘zim ketaveraman.

– Hali ancha bor-u. Iltimos, yo‘q demang, ko‘chalarangizning boshiga olib borib qo‘yaman-u, ketaveraman. Yo‘lim ham o‘sha yoqqa edi. Xo‘p, deya qoling. O‘zim juda siqilib turibman, hech

o'zimga kela olmayapman. Sizni ko'rib, sal ko'nglim yozildi. Yuring endi...

Nozima bir zum ikkilanib qoldi. Ich-ichida nimadir "Bor, bor!" deb, mashinaga chiqishga undab turardi. Bir mashinaga, bir qarshisida oyoqlariga yiqilguday bo'lib turgan xushsurat yigitga qaradi. Borar manzili ham uzoq edi. Uyam ariqchadan sakrab o'tdi...

Did bilan bezatilgan mashina salonida xushbo'y atir hidi dimoqqa urildi.

– Mashinamni undan boshqa hech kimga ko'rsatmas edim. U mening mashinamda yurishni yaxshi ko'rardi. Endi shu mashinani unga sovg'a qilib yubormaganimga armon qilaman. Agar shunday qilganimda, u Rossiyaga ketmasmidi?

Yigitning jigariga atalgan samimiy mehri, totli iforlar kezinib yurgan yumshoqqina mashina, yo'l chetida "zip-zip" etib, ortda qolib ketayotgan nim yashil dunyo – hamma-hammasi Nozimaga tobora yoqib borardi. Uylariga buriladigan muyulish bir pasda ko'rina qolganidan xafa bo'ldi: "Buncha tez!.."

Yigit muyulishga yaqinlashganda mashinasini ohistagina yo'l chetiga to'xtatib, orqaga burildi:

– Mana, uyingizga ham yetib keldik... Biron joyga borib, bir-bir piyoladan choy ichsak-ku, yaxshi bo'lar edi. Ammo siz... rozi bo'lmaysiz-da.

Nozima bosh chayqadi:

– Buning hecham iloji yo'q. Rahmat, sog' bo'ling.

So'ng shoshib mashinadan tushdi-da, ortiga ham qaramasdan tez-tez yurib ketdi. To ko'chalariga burilguncha uni boshdan oyoq kuzatib turgan o'tli nigohni his etganidan oyoqlari necha bor chalishib, o'zi qora terga tushib ketdi. Hayajondan yuragi gup-gup urar, har qancha urinmasin, yo'li unmas, to'rt qadam naridagi uyiga yeta olmas edi. Darvoza oldida qaynotasiga to'qnashib ketishiga sal qoldi:

– O', pirim! Nimaga buncha hovliqib yuribsan? – dedi Olloqul bobo hayron bo'lib.

– O'zim... – xijolat bo'lganidan biron tayinli javob ham topa olmadi.

Xonasiga kirib, eshikni ichkaridan ilgaklab oldi-da, o'zini karavot ustiga tashladi: "Bunchalar kelishgan, bunchalar yoqimli yigit ekan-a!.."

Ancha vaqt ko'chalik kiyimlarini ham yechmasdan shu ahvolda yotdi. Yotib-yotib zerikdi. Ko'ngli ko'zlariga iltijo bilan boqib turguvchi o'sha xushsurat yigitning suhbatini qo'msadi: "Bir aylanib

kelsam bo'lar ekan. Nimagayam shu g'urbatxonaga shoshdim. Bu yerda mening hech kimga keragim yo'q".

Kechqurun Mastura qo'ng'iroq qildi. Qaniydi, yuragiga sig'may borayotgan kechinmalarini unga aytishning iloji bo'lsa edi! Noiloj, bo'g'ziga tiqilib turgan hissiyotlarini ichiga yutib, undan ahvol so'radi:

– Tomosha yaxshi bo'ldimi?

– Nima desam ekan? O'quvchi qizlarning rolini o'ttizga kirgan aktrisalar ko'kraklarini larsillatib o'ynab yotibdi. Maktab formasini kiydirib, sochiga bantik taqdirgani bilan o'ttiz yashar ayol o'n to'rt yoshli qizaloqqa aylanib qolmaydi-da. Erkaklarimiz rosa kulishdi: "Shunday o'quvchilarimiz bo'lsa, juda qiyin bo'lar edi, dars o'tolmas edik" deb.

– Nomardlar! Teatrda rol bo'lish ham maktabda dars bo'lishday gap-da. Kim rejissyorga yaqin bo'lsa, necha yoshda bo'lishidan qat'iy nazar rol olaveradi-da.

– Shunday bo'lgach, bu teatrga kim kiradi?

Oradan uch kun o'tib, yo'l chetida to'xtab turgan tanish qora mashinani ko'rib, ko'zlari yonib ketdi. O'zidagi bu holatdan o'zi uyaldi. Xuddi ko'rmaganday yerga qarab o'tib ketmoqchi bo'ldi. Ammo qarshisida paydo bo'lgan yigit hamma "reja"larini barbod qildi.

– Assalomu alaykum. Ahvollaringiz yaxshimi? – u hali salomiga alik olib ulgurmasdan ko'rishgan qo'lidan ushlab, mashina tomon tortqiladi. – Yo'lim shu yoqqa edi, yuring, uyingizga tashlab o'taman.

– Yo'q, o'zim boraveraman, – yuragi bo'g'ziga tiqilgudek gupillab urib yotgan bo'lsa ham astoydil rad qildi Nozima. – Siz ovora bo'lmang.

– E-e, ovorasi bor ekanmi! Yuring endi, yanga!

Nozima noiloj qoldi, u o'zini rad qilsa ham, qo'lini qattiq siqib olib "yanga"layotgan yigitni rad eta olmadi.

Ular mashinaga o'tirishgach, yigitning kayfiyati ko'tarilib ketdi:

– E-e, rahmat. Endi yanga, ikki og'iz suhbatingizga ko'ngil ketdi. Xo'p desangiz, bir ajoyib joy bor, to'rttagina gurning qilib qaytamiz. Qarang, havo qanday yumshoq, atrof go'zal. Men esa o'zimni qo'ygani joy topa olmayapman. Uyga ham borgim kelmayapti. Iltimos...

Uning ham sira uyga borgisi yo'q, ammo hammaning oldida oshkora ko'z qisgan begona yigit bilan allaqayerlarga borish...

– Yo'q, to'xtang! To'xtating, deyaipman sizga!

Yigit mashinani yo'l chetiga ohista to'xtatib, orqa o'rindiqqa o'girildi: ko'zlarida ming yillik gina.

– Nima bo'ldi sizga? Shunchaki, ko'ngil ikki og'iz suhbatingizni istagan edi, xolos. Olma emassiz-ku, og'zimga solib, yeb qo'ysam, – u astoydil xafa bo'lgan edi.

Nozima yerga qaradi.

– Yo'qmi? – so'radi yigit.

– Birov-yarim ko'rib qolsa... Bu yerda hamma bir-birini taniydi.

– E-e, Nozimaxon, siz bilan kimning necha pullik ishi bor? Xo'p, desangiz, shunday bir joyga olib boramanki, u yerda sizni hech kim tanimaydi. Juda go'zal joy, mazza qilasiz. Garantiya! Yarim soat vaqt ajratsangiz, bo'ldi. A-a? Rozimisiz?

Nozima xavotir bilan atrofga qaradi. Birovning mashinasida bu xil o'tirish yurishdan ham shubhali edi.

– Bo'pti, qo'ymadingiz siz ham!

– Bu boshqa gap! O, yest! – yigit gazni bosdi, mashina chiyillab o'rnidan qo'zg'aldi. Bir zumda oldindagi mashinalarni quvib o'tib, shahar tashqarisiga chiqdi. Temir yo'l yoqalab ketadigan xilvat yo'lda ancha yurishgach, bir tepalikdan o'tib, ko'm-ko'k ko'l bo'yida joylashgan mo'jazgina dala hovliga yetib kelishdi. Yoshi o'tib qolgan soch-soqoli o'siq bir odam, aftidan qorovul bo'lsa kerak, Nozimaga bir qarab qo'yib, darvozani ochdi. Yigit u bilan quchoqlashib ko'rishdi:

– Biron narsangiz bormi, tog'a?

Tog'a xushnud jilmaydi:

– Hamma narsa bor. Xo'jayin hozirgina mehmonlari bilan chiqib ketgan edi. Mehmonxonaga kiravering, hozir dasturxon tuzayman.

Yigit kuldi:

– Sal ertaroq kelsam bo'lar ekan, dadamni kelinlari bilan tanishtirib qo'yardim.

Tog'a jilmayib, o'choqxona tomon ketdi, Nozimaning qovog'i uyuldi. "Bu bola nima deb o'ylayapti? Telefon raqamimgacha aniqlagan-u, ikki bolam borligidan bexabarmikin?"

Ular uzun yo'lakdan o'tib, keng, hashamdor mehmonxonaga kirishdi. Ularning izidan patnis ko'tarib kirgan tog'a bir pasda dasturxonning ustini to'ldirib tashladi.

– Ovqat ham suzaymi?

– Yarim kosadan.

O'rtadagi stol judayam uzun va enli edi. Yigit Nozima o'tirgan o'rindiqning yoniga joylashdi.

– Sizdan uzoq bo'lib ketmayin. Qani, tezroq iching, ko'l bo'yiga olib tushaman. Qayiq bor, istasangiz, qayiqda aylanamiz.

Xonadagi shohona jihozlar, stol ustidagi anvoyi noz-ne'matlar, yonida tavoze qilib turgan xushkalom yigit – barcha-barchasi uning xizmatiga shay ekanligi Nozimaning ko'nglini to'ldirdi: "Qanday yaxshi!"

– Ha, aytmoqchi, siz mening ismimni bilasizmi? Shuncha qo'shiq aytdim, shuncha hasrat qildim, lekin ismimni aytmabman. Ismim Hamdam. Otam suv xo'jaligida ishlaydi, onam ham otam bilan birga ishlaydi. Oltita opam bor, sizga o'xshaydiganini topa olmaganim uchun haligacha uylanganim yo'q.

U ismini aytayotgan payt Nozimaning qo'lini ushladi va keyin qo'yib yubora olmay qoldi. Nozima ham indamay yerga qaradi. Hamma-hammasi unga juda yoqib turgan edi.

– Bo'ldi, ortiq chiday olmayman, – u shahd bilan Nozimaning belidan ushlab, bag'riga tortdi. – Men sizsiz yashay olmayman, – yutoqib uning yuz-ko'zlaridan, bo'yinlaridan o'pa ketdi. Avvaliga "voy" degan Nozima xuddi shunga ilhaq bo'lib turganday yigitning qaynoq bag'riga singib ketdi. Hamdam esa uni dast ko'tarib, to'rda eshigi ichkariga ochiladigan xonalarning biriga olib kirdi. Bu derazasiga qalin darpardalar tutilgan, o'rtada pushtirang choyshab yopilgan ikki kishilik divan yastanib yotgan yotoqxona edi...

– Nozima, nega bunchalar chiroylisiz? – anchadan so'ng ehtiroslar qongach Nozimani savolga tutdi. – Shu paytgacha sizsiz qanday yashagan ekanman, bilmayman. Ammo bilganim shuki, endi sizsiz menga hayot yo'q.

Baxtdan sarmast Nozima ko'zlarini yumdi, u bu lazziyatli onlarning yanada uzoqroq cho'zilishini, terdan ho'l bo'lib ketgan peshona sochlarini barmoqlari bilan tarab, namchil yuzlaridan ohistagina o'pib, erkalab yotgan yigitning quchog'ida yanada ko'proq qolishni istar edi. Ammo...

– Hamdam, – dedi u qoʻrqibgina, – nega taqdir bizni oldinroq uchrashtirmadi. Masalan, men turmushga chiqqunimcha... Bilasiz, mening erim, bolalarim bor.

– Buning nima ahamiyati bor? Biz shunday qilamizki, eringiz bizning uchrashishimiz uchun oʻzi sharoit yaratib beradi.

– Qanday qilib?

– Masalan, men uning eng yaqin doʻstiga aylanaman. Istagan paytingiz men bilan istalgan joyga borishingiz mumkin boʻladi.

Yoʻq, Nozima istayotgan narsani Hamdam tushunmadi. “Qaniydi... Qaniydi ular yetti yil avval uchrashishganida, shu kelishgan, oʻktam yigit yoʻllarini poylab yurganida va bir umr faqat uniki boʻlib qolganida! Bir umr!”

Birdan uyi yodiga tushib, yuragi siqildi. Hamdam ham burchakdagi televizor ustida turgan soatga koʻzi tushib, “Oʻh-hu-u!” dedi-yu, shkafdan bir sochiq olib yarim yalangʻoch holda tashqariga yugurdi. Bir pasda qaytib kelib, Nozimaning qoʻliga ham bir sochiq tutqazdi: “Qoʻshni eshik – vanna. Tez boʻling, yana uyingizga kirgizmay qoʻyishmasin”.

Ular yoʻlda deyarli gaplashishmadi. Orqa oʻrindiqning nimqorongʻu burchagiga tiqilib olgan Nozima mashinani uchirib borayotgan Hamdamni bir narsa deb chalgʻitishdan qoʻrqar edi.

Hamma uyda, bolalarni allaqachon bogʻchadan olib qaytishgan edi. Qaynonasi qovoq-tumshuq bilan salomiga zoʻrgʻa alik oldi. Qaynonasining odati shunday, uncha-munchaga gapiravermaydi. Xafa boʻlsa, qovoqlarini uyub olib, indamay yuraveradi, ish ham buyurmaydi, qilmading ham demaydi. Eri esa ostona hatlar-hatlamas, zahrini sochdi:

– Oʻsha maktabingda yotib qolsang ham boʻlardi! Oʻ, uying borligi yodingdan chiqib ketdimi?

Nozima achchiqni achchiq kesar qildi, uyam eriga bobillab berdi:

– Men oʻynab yurganim yoʻq. Ertaga vazirlikdan komissiya kelarkan, hujjatlarimni tartibga soldim.

– He-e, oʻsha komissiyangga qoʻshib!..

– Iltimos, ochman, charchaganman. Asabimni buzmag, – u erini yoʻlidan nari surib qoʻyib, kiyimlar turadigan shkafning yoniga oʻtdi. Shkafdan uyda kiyadigan koʻylak-lozimini olib, erining chiqib ketishini kutdi. “Xuddi begonalardek. Koʻnglimda zarracha ilqlik yoʻgʻ-a...” hayron boʻldi oʻz-oʻziga. Sardor oshkora zarda bilan chimirilib turgan xotiniga bir oʻqrayib, tashqariga chiqib ketdi.

Nozimaning ko'ngli xavotirga to'lib turgan bo'lsa ham, juda baxtiyor edi. Ayni paytda dunyoda uning kayfiyatini buza oladigan kuch yo'qdek edi. Kiyimini almashtirib, o'ringa cho'zildi. Qo'llarini boshining tagidan o'tkazib, mazza qilib kerishib oldi. Hech kim hech narsa demasa, so'ramasa, indamasa, yotsa, yotaversa o'z xayollari bilan!.. Xonani asta-sekin qorong'ulik egalladi, kun botib borardi. Derazadan chiroqning yorug'i tushdi. "Chiroqni yoqishdi". Eshik g'iyq etib ochildi. Nimadandir hayiqib o'g'li kirdi:

– Ona, ovqat suzarkansiz?

– Bo'pti!.. – jerkib javob berdi u. "Otasining o'zi!"

Bola nimanidir so'ramoqchi shekilli, ostonada mo'ltayib turib qoldi:

– Bor, boraver. Nimaga serrayib turibsan? Hozir boraman, dedim-ku.

– Ona!

– Ha-a? Yana nima?

– Men uchta harf o'rgandim, – bolaning ko'zlari yolqinlanib ketdi. – Men sizga "Ona" deb yozib beraymi?

Nozima shundagina bolaning qo'lidagi daftar-qalamni ko'rdi.

– Uf-f! Boshimni og'ritma. Bor, "ket", degandan keyin ketavermaysanmi? – "O'ttiz ikki harfni bilgan otang nima karomat ko'rsatayapti-ki, sen uch harfni bilib, tog'ni endirib berarmiding?"

Bola yig'lab yubormaslik uchun pastki labini tishlab, bir zum ostonada turib qoldi, so'ng indamay ortiga burilib ketdi.

Nozima o'rnidan turdi, nimagadir badani junjikdi. Issiq xalatini kiyib, boshiga ro'mol tang'ib oldi. Uzun ayvondan o'tayotib, telefon apparati turgan deraza tokchasiga bir qarab qo'ydi. Yuragi g'alati hislar bilan orziqib ketdi. Keyin shoshib, oshig'ich bir xavotir bilan atrofga qaradi. Qarshisidagi eshikdan qaynonasi chiqib keldi. Nozima ko'nglidagi o'ylar oshkor bo'lib qolganday yuzlari duv etib qizardi.

Qaynonasi qozonni to'ldirib, mastava qilgan ekan. Hammaga bir-bir kosa suzib, dasturxonga qo'ydi. Guruchlari ezilib, bo'tqaga aylanayozgan mastavani ko'ngli tortmadi, ammo eri "Qayerda qorin to'yg'azib kelding?" deb to'ng'illamasligi uchun o'ziga ham bir cho'michgina suzib, xontaxta yoniga cho'kdi.

– Men bunday ovqat yemayman. Menga tuxum qovurib berishsin! – birinchi boʻlib oʻgʻli kosasini nari surib qoʻydi.

– Menga ham tuxum! – qizi ham qoshigʻini xontaxtaga bir urib, oʻzi orqaga surilib oʻtirdi.

Momoning kayfiyati tushib ketdi. Ularni erkalab, insofga chaqira boshladi:

– Yoʻq, bolajonlarim, ertalab ikkitadan tuxum yegan edilaring. Bugunga boʻladi. Yana yesanglar, ogʻirlik qiladi, kasal boʻlib qolasizlar. Kim ovqatini oxirigacha ichib qoʻysa, ertaga men bilan ammanikiga boradi.

Momo ovqatining narxini oshirib yubordi:

– Rostdanmi, aldamaysizmi?

– Bogʻcha-chi?

– Bir kun bogʻcha sizlarsiz yashab tura qoladi.

– Ur-re!

Bolalar kosalariga yopishib ketdi.

Nozima kosasini qoʻllariga ushlab olgancha ishtaha bilan chalpillatib ovqat yeyayotgan qaynonasiga qarab gʻashi keldi: “Xuddi boli bordek!” Kampir ovqatini oxirigacha ichib, keyin koʻrsatkich barmogʻi bilan kosaning girdini sidirib oldi. Soʻng oʻrtada turgan tuzlamaning suvidan miriqib simirdi. Shoʻr suv koʻngil xumorini oxirigacha qondirmadimi, katta bir pomidor olib, erinmasdan poʻstlogʻini shilib, soʻng butunicha ogʻziga tashlab qoʻydi. Nozimaning “dod” deb yuborishiga bir bahya qoldi, lekin “uf” tortishdan oʻzini tiya olmadi. Kampir yalt etib, avval keliniga, soʻng nevaralariga qaradi. Bolalar indamay ovqat yeyishar edi. Unda “uf” nima uchun? Keliniga bu uyda koʻp narsalar yoqmasligini momo yaxshi biladi. Oʻziyam ochiq aytgan, “onamnikiga borsam, shu uyga sira qaytgim kelmaydi”, deb. Onasining uyi bilan ora yarim soatlik yoʻl. Ertalab ketib, kechgacha dunyo-dunyo gʻiybat qilib, mehri qonib, qaytib kelishi mumkin, ammo u uch kunsiz qaytmaydi. Onasining uyiga boradigan boʻlsa, maktabdagi ishlar ham bimalol boʻlib qoladi.

Bunchalar yoqmas ekan, nega turmushga chiqding? Seni ilgarigi zamonlardagidek qilib, parangi chachvonda chimildiqqa kirgizib, keyin ering bilan koʻrishganing yoʻq-ku. “Qachon qarasangiz, kulib salom beradi, shu qizni bir surishtiring”, degan edi oʻgʻli, “koʻz ostiga olganing boʻlsa, ayt” deganda. Qizning qarmogʻi kulib qaragani-da. Oʻzi qarmoq tashlab, tegib oldi. Endi!..

Kampir qancha o'ylasa ham kelinining oshkora g'ijinishining sababini topa olmadi. Ichi qizidi, yana indamadi. Ke-e, qo'y! Yana bir narsa desa, shusiz ham sovugan oshdek ko'ngilni yaxlatib turgan ro'zg'or zahar-zaqqumga aylanib ketishi mumkin.

Ikkinchi bo'lib, Sardor kosasini bo'shatib, non bo'laklari bilan kosa girdidagi ovqat yuqlarini sidirib yeyishiga qaraganda, qorni to'ymagan. Kelin esa indamay kosasini ermak qilib kovlash bilan ovora. Kelin bo'lib tushgan kundan buyon odati shu. Dasturxon boshiga bir o'tirilgandan so'ng, biron bir zarurat uchun o'rnidan turish uning uchun o'lim bilan barobar. Dasturxon yozib bir o'tirdimi, tamom. Keyin faqat dasturxon yig'ish uchun turishi kerak. Endi kelin bo'lib tushgan kunlari Sardor uchalalari o'tirishgan edi. Qo'lsochiq kerak bo'lib qoldi. Sardor "lip" etib turib, sochiq olib keldi. Kelin sochiqqa qo'lini arta-arti gapirdi: "Dasturxon boshida qayta-qayta turishni juda yomon ko'raman". Sardor unga tushuntirdi o'zicha: "Sen bu ishni yomon ko'rma, sevib qil. Axir sen kelinsan. Aks holda senga ham, boshqalarga ham qiyin bo'ladi". "Hecham-da, menga hech qachon qiyin bo'lmaydi. Men faqat o'zim yoqtirgan ishlarni qilib o'rganganman. Boshqalarga qiyin bo'lsa, o'zidan ko'rsin", dedi kelin. O'shanda Robiya xolaning og'zi ochilib qolgan edi. Sardor ham nima deyishini bilmay qoldi. Bir narsa desa, bir haftalik kelin, hali qarab-qarab husniga, hidlab-hidlab bo'yiga to'ymagan. Demasa... Demadi. Demay qo'ya qoldi.

Kampir o'g'lining kosasiga qo'l uzatdi:

– Ke, bolam, yana bir cho'mich suzib kelayin.

Sardor onasining qo'lini nari surib qo'ydi-da, bo'shagan kosani to'q etkizib, Nozimaning oldiga qo'ydi.

– Egasi suzib keladi.

O'rta sovuq jimlik cho'kdi. Nozima bir zum kosasiga qarab turdi-da, xuddi haqorat qilingandek, chimirilib o'rnidan turdi. O'zining ham, erining ham kosasini olib, oshxonaga chiqib ketdi.

– Ona, buningiz hech qachon odam bo'lmaydi.

Kampir indamadi.

Shu payt eshikdan kosa ko'tarib kirgan Nozima zahrini ichiga yutib keta olmadi:

– Sizga odam emas, hali sochiq, hali qoshiq uzatib turadigan robot kerak.

Robiya xola yalt etib eriga qaradi. Kelinning bu odobsizligi eng avvalo qaynotasiga nisbatan behurmatlik edi. Olloqul aka esa indamay allaqachon bo'shagan kosasiga engashdi. Sardor

tishlanib, xontaxtaga musht urdi. Nozima esa hech narsa bo'lmaganday ovqat suzilgan kosani dasturxonning bir chetiga qo'ydi-da, indamay chiqib ketdi.

Kechasi er-xotin jiqqamusht bo'lib urishdi.

– Lash-lushlaringni yig'-da, ertaga ertalab uydan chiqib yo'qol. Kechqurun kelganimda qorangni ham ko'rmayin! – qat'iy talab qildi Sardor.

– Sizning ham qorangizni ko'raman, deb o'lib turganim yo'q. Haydamasangiz ham ketmoqchi bo'lib yurgandim. Hammalaringdan to'yib ketdim. Shu uyni ham, shu uyda yashovchilarni ham hech qachon ko'rmasam, deb orzu qilaman.

– Orzuingga yetgin, iloyim. Lekin bolalar men bilan qoladi.

– Tushingizni suvga ayting. Bola har qanday vaziyatda ona bilan qolishi kerak.

– Hali sen onamisan?! Shu bolalarga hech onalik mehri berdingmi? Bir ishtonini bulg'asa, o'zingni osib qo'ygudek bo'lar eding-ku. Ularni onam katta qildi-ku, ko'rnamak! Ona! Ona emish bu kishi.

– Har narsa deb laqillayvermang, aliment to'lamaslikning yo'lini axtarayapsizmi? Aliment ham to'laysiz, bizga alohida uy ham olib berasiz. To'qqiz oy qornida ko'tarib yurgan, ko'krigidan sut bergan kim?

– E-e, it ham tug'averadi. Senga bola kerak emas. Shu bolalarni deb besh-olti so'm pul undirsang, uy oldirsang! Olib ketsang ham, sen ularga qaramaysan. Onangga osib qo'yasan. Bechora bolalar aka-ukalaringning bolalaridan tayoq yeb, xoru zor bo'lib o'sishadi.

– Mening onam bilan jiyanlarim o'gay onachalik zulm o'tkazishmas. Men tirikman-ku.

– E-e, bor-e! – Sardor yostig'i bilan yoping'ich ko'rpasini olib, mehmonxonaga chiqib ketdi: "Turqingni ko'rmay. Senday ahmoq bilan yashagandan ko'ra bir umr yolg'iz o'tganim afzal. Bunga ish yoqmasa, odam yoqmasa! Bir umr hammadan norozi!"

Ammo Nozima ketmadi. "Ketaman," deb eri bilan bab-baravar tillashgan bo'lsa ham, onasining qo'sh kelinli tor-tanqis uyiga ikki bolasini yetaklab kirib borishni o'ziga ep ko'rmadi. Sal narsaga "kelaver, bolam", deb turadigan onasiga ham uch kishi bo'lib, ko'chib borsa, yoqmasligi tayin. Qani alohida uyi bo'lsa! Ikki xonaligina boshpana bo'lsa ham mayliydi. Erta-yu kech shu qaynota-qaynonaning qovog'iga qarab, ularning mehmonini kutib yashash joniga tegdi. Bolalari bog'chaga qatnaydi, o'zi yanayam ko'proq dars oladi. Topgani o'ziniki, nima istasa, shuni oladi. Qachon qayoqqa borishni xohlasa, o'sha yoqqa boradi.

Afsuski, o'sha ikki xonali boshpana ham yo'q.

Erta bilan turib, hech narsa ko'rmaganday hovli supurdi, oftobalarni iliqqina suv bilan to'ldirib qo'ydi, nonushta hozirladi, lekin erining yoniga kirmadi.

Sardor ham shakarob qilib suv sepib, supurilgan hovlida g'imirsib yurgan xotinini ko'rib, ko'ngli taskin topganini his qildi. Bu ayoldan qanchalar ko'ngli qolgan, u bilan orani ochishni qanchalar istayotgan bo'lmasin, ayni paytda uning bolalarni yetaklab, hovli-joyini huvullatib, hamma ishni keksa onasiga tashlab ketib qolishidan juda qo'rqar edi. Ammo ich-ichidan xotinining "qolgin" deb yalinsa ham ortiga qaramay ketib qoladigan kunlarini kutib yashardi. U baribir ketadi. Ketsin, faqat o'zi xohlab, o'zining aybi bilan ketsin, toki bir kun kelib, bolalaringni yetim qilding, deya Sardorning yuziga hech kim ta'na qilmasin. Ketsin, Sardor uni ahddidan qaytarishning ilojini topolmay qolsin. Shunda hammaga yaxshi bo'ladi. Sardorning ham vijdoni qiynalib yurmaydi.

Nozima yengilgina nonushta qildi-da, qaynonasiga "Bolalar turishmadi, bog'chaga bobosi olib borar", deb ishiga jo'nadi. Na kecha haydab solayotgan er bir narsa dedi, na "o'laman sattor, ketaman", deb yotgan Nozima bir narsa dedi.

"O'zi, o'zi ketsaydi! Oyoqlariga yiqilsam ham ortiga qaramasdan, bolalarga ham etak silkib ketib qolsaydi!.."

"Ikki xonaligina boshpanam bo'lsaydi, shularning basharasini ko'rmay erkin yashasaydim!.."

Bir zamonlar ikkalasining ish joyi boshqa-boshqa tomonlarda bo'lsa ham Sardor har ertalab Nozimani maktabiga olib borib qo'yardi. Keyin-keyin "Benzinim kamroq edi", deb uzr so'raydigan bo'ldi. Bora-bora har kim o'z yo'lga, o'z holicha ketadigan bo'ldi.

Nozima endi muyulishga yetganda eri mashinada "g'uv" etib yonginasidan o'tib ketdi. Hali ancha barvaqt bo'lishiga qaramay ko'cha to'la odam, hamma qayergadir shoshgan, beg'am, betashvish dunyo ertalabki bahor epkinidan rohatlanib, bahor gullari bilan bezangan yam-yashil libosini ko'z-ko'z qilib yotar edi. Nozima turmush tashvishlaridan, uyidagilardan har qancha bezgan bo'lsa ham, ularga xiyonat qilishni sira xayoliga keltirmagan edi. U boshqarilishdan, kuzatilishdan, nazoratdan, bir xillikdan, xullas, yana ko'p narsalardan juda charchagan edi. U onasining uyidagidek erkinlikni qo'msar edi. O'zi istagan payti yotsa, istagan payti tursa, istagan ishini qilsa... Yo'q, onasining uyida ham shu ish, shu tashvishlar. Joyi kelsa, onasi ham unday qilma, bunday qilma, deb tanbeh beraveradi. Ammo onasining uyidagi yumushlar ham, onasining dakkilari ham unga sira malol kelmaydi. Qaynonasining esa yaxshi gapi ham yoqmaydi. Ayniqsa, gap talashib qolishsa, bolalarini olib ketib qolmasin, deb tilyog'malik qilishga o'tib olsa, ko'ziga to'ng'izga o'xshab ko'rinadi. Butun a'zoyi badaniga tamaki, ter va o'tkir atirlarning omuxta hidi o'rnab ketgan eri bilan yaqinlik qilishga sira toqati yo'q. Uning yonida ko'ngli ayniydi va buni yashirib ham o'tirmaydi. Ochiqdan ochiq

burnini jiyirib, “Yuvinib yursangiz bo’lmaydimi?” deyaveradi. Ba’zan rad qilingan er haftalab joyini bo’lak qilib, durust gaplashmay yuradi. Uning rashkini qo’zg’atish uchun kech keladi. Nozima erini bilmasa ekan, o’z xotinining ko’nglini topa olmagan erkakka o’ynash yo’l bo’lsin. “Bilganingni qil”, deb ikki kishilik keng karavotda mazza qilib yotaveradi. Keyin ona-bola o’rtasida g’o’ng’ir-g’o’ng’ir munozara boshlanadi: “Ona, shuningizning javobini beraman. To’ydirib yubordi”. “Qo’ysang-chi, bolam. Ikki bolaning uvoliga qolma. Hamma xotin bir xotin. Yana birovni olsang ham shu g’alva, shu tashvish. Bolalaringning boshiga o’gay ona zulmini solganing ziyoda bo’ladi, xolos. Tinchgina o’tir”.

Shundayam qaynonasiga ko’ngli ilimaydi. Chunki kampir uni emas, bolalarni o’ylab, o’g’lini murosaga chaqirayapti. Hech qachon “Hoy, o’g’lim. Shuyam odam bolasi. Undayam ko’ngil bor. Jonidan biron issiq-sovuq o’tgan joyi bordir. Bir ko’nglini so’ra, nimadan norozi, nima istaydi? Bir joylarga aylantirib kel. Yosh narsa, ko’ngli yoziladi”, demaydi. Qachon qarasang, “Bolasi bor!”, “Bolalar bor!”. Go’yo dunyoda boladan boshqa hech narsa yo’qdek. Faqat bola, bola!

“Ba-app!” etgan signal tovushidan cho’chib tushdi. Yuragi orziqib, tovush kelgan tomonga qaradi. Yaraqlatib yuvilgan zulukdek mashinada Hamdam “bopladimmi?” degandek iljayib turardi. Yuzlari lov etib yonib ketgan Nozima yuragi unga tomon potirlab turgan bo’lsada, bosh irg’ab, salom bergan bo’ldi-da, yo’lida davom etaverdi.

“Ie, bu nima qilgani?!” Hamdam mashinadan sakrab tushib, Nozimaning izidan qichqira boshladi:

– Hey, yanga! Yanga-a!

Nozima to’xtadi: “Ha, qaynim? Muncha shovqin qilasiz?”

– Maktabingizda ishim bor edi. Yuring, olib borib tashlayman.

Nozima yon-veriga qaradi. Baxtiga o’tib-qaytayotganlar orasida birona ham tanish uchramadi. Hamdamning aytganini qilmasa, “Yanga, yanga”lab bo’lsa ham mashinasiga sudrab kirgizadiganday ko’rindi. Bu yoqda ko’ngli qurg’ur ham “Bor, bor, hech kim yo’q-ku!” deb turardi.

– Ie, nega bunday qilasiz, yanga? – mashinaga o’tirgandan keyin ham Hamdam o’pkalanishni qo’ymadi. – O’zi tongni zo’rg’a ottirgan edim. Yuragim yorilib ketay, dedi-ya.

– Bilmasam, o’zingiz shunchaki ko’cha tomosha qilib turgandirsiz, deb o’ylabmiz-da, – nozlanib kuldi Nozima.

– Ha, yondirasiz, kuydirasiz, kul qilasiz!

– Hay, menga qarang, Hamdambek, ikkinchi munday qilmang. Men oilali ayolman. Beobro' bo'lib qolishim mumkin. Xo'pmi?

– Ilojini topolmasam-chi?

– Iltimos, Hamdam. Mening o'rnimga opangiznimi, singlingiznimi, qo'yib ko'ring. Yaxshi ish qilmayotganimni ana shunda tushunarmidingiz... – bu gaplarning hammasi shunchaki yo'lga, o'zining narxini oshirish uchun aytilayotganini Nozima ham, Hamdam ham yaxshi bilardi.

– Yaxshi, tushundim ham deylik. Ammo bu bilan nima o'zgaradi? – peshoynadan Nozimaga tikildi.

– Uchrashib tursak, buning nimasi yomon. Kecha... yomon bo'ldimi? Odam dunyoga bir marta keladi, jonim, to'rt kunlik dunyoning lazzatlaridan foydalanib qolish kerak. Eringiz masalasiga kelsak, unga kim borib, suyunchi so'rayapti. Ozigina hushyor bo'lsak, olam guliston.

Uning bahosi juda tushib ketdi. To'rt kunlik dunyoning ko'ngil ochar ermagi!..

– Hamdam, siz meni kim deb o'ylayapsiz? – beixtiyor o'zini oqlay boshladi u. – Kecha o'zim ham bilmaganman bu holatga qanday tushib qolganimni. Endi meni tinch qo'ying.

– Yanga-a! – Hamdam ovozi balandlatib po'pisa qilgan bo'ldi. – Arazlayvermang, endi. Agar yana bir narsa desangiz, maktabingizga kiranman-da, hamma o'qituvchilarni yig'ib, "Men Nozimani sevama-an!", deb baqiraman. Har kun ertalab eshigingizning oldida, tushdan keyin maktabning oldida mashinamni ko'ndalang qilib turaveraman.

– Xo'p, xo'p, o'ylab ko'raman. Mashinani to'xtating! – ular maktabga yaqinlashib qolgan edilar.

– Faqat qisqaroq o'ylang, o'y odamni qaritadi. Buning ustiga juda sog'inganman. – Hamdam xushnud holda mashinani chetga olar ekan, Nozimaning qo'lga kichkinagina qog'ozcha uzatdi. – Bu yerda mening qo'l telefonim yozilgan. Vaqt topib, menga telefon qiling, qachon, qayerda uchrashishimizni kelishib olamiz. Sizga ajoyib sovg'am bor.

Nozima shoshib qog'ozni oldi-da, buklab-buklab sumkasining eng ichki cho'ntagiga soldi, o'zi mashinadan tushdi-yu, xayr-ma'zurni ham nasiya qilib, urra qochdi.

"Bu yigit meni qo'ymaydi. Endi nima bo'ladi? Shaharning yarmi erimning qarindosh-urug'i. Birontasi ko'rib qolsa!.. Bo'ldi, endi gaplashmayman".

Turib-turib yuragi hapqirdi:

"Nima sovg'a olgan ekan-a? Tilla bo'lsa kerak. Albatta, tilla! Shunday yigit arziyas atir-patirni sovg'a deb yurarmidi? Qanaqa tilla ekan? E-e, kerak emas, tilla-pillasi. Endi gaplashmayman."

Darsni qanday o'tganini bilmadi. Journallar "5" va "4" baholarga to'lib ketgan edi. Katta tanaffusga qo'ng'iroq chalingach, yengil nafas oldi: "Yigirma daqiqagina o'z xayollarim bilan qola oladigan bo'ldim-a". Bolalar sinfdan chiqib ketgach, sumkasidan sekingina haligi qog'ozchani oldi: "Yirtib tashlayman". Ammo qog'ozdagi raqamlar bir qarashdayoq yuragiga yozilib qolgan edi: "Baribir qo'ng'iroq qilmayman. Yo'q, qo'ng'iroq qilib, boshqa ovora bo'lmasligini tushuntiraman".

...Uyda hech kim yo'q ekan. Qaynotasi bog'chaga ketgan, qaynonasi u kelgach, qo'shninikiga chiqib ketdi, eri hali ishdan qaytmagan. Vaqtdan foydalanib, qo'ng'iroq qildi: "Orani ochib qo'ya qolayin. Ertaga yana yo'limni to'sib yurmasin".

Hamdamning ovozi g'ala-g'ovur shovqinning orasidan zo'rg'a eshitildi. "Ha, oshna, sizmisiz? Yo'qlaganingiz uchun rahmat. Ertaga soat bir yarimlarda "Nafis mollar" do'konining yonida sizni kutaman. Xo'p, sog' bo'ling. Bip-bip..."

U bir og'iz gap aytishga ham ulgurmadi. "Bip-bip"lab yotgan telefon go'shagini lablariga bosib turib, ayvon derazasidan hovliga qaradi. Yetti yildan beri istab-istamay supirib-sidirib yurgan hovlisi ko'ziga bir fayzli, ayni damda birovga qolib ketayotgan omonatga o'xshab ko'rindi: "Bekor bo'ldi hammasi..."

Ertasi kuni yo'l ustidagi "Nafis mollar" do'konining yonida turgan Hamdamning mashinasiga indamaygina o'tirdi. Hamdam juda xursand edi. Mashina sal siljigach, orqaga bir o'girilib jajjigina quticha uzatdi:

– Taqib ko'ring-chi?

– Nima bu?

– Ochib ko'ring-chi.

U qo'rqibgina qutichani ochdi: oppoq fianet toshlar bilan bezatilgan nozikkina bilaguzuk!

U qo'rqib ketdi va sekingina qutichani yopib qo'ydi:

– Men aytmoqchi edimki, munosabatlarimizni shu yerda to'xtatsak. Bu ishlar menga munosib emas. Buni esa olib qo'ying.

– Menga qarang, Nozima! Har bir amerikalikning u oilalimi, yo'qmi, bundan qat'iy nazar, vaqti-vaqti bilan uchrashib turadigan kamida uchta do'sti bo'lar ekan. Bu ularda normal holat hisoblanadi. Siz axir o'qimishli, go'zal ayolsiz, salgina zamonaviy fikr yuritishni ham o'rganing-da. Ko'rib turibman, men ham sizga yoqaman. Siz-ku, jonimga balosiz. Hozir bir joyga olib boraman, sizning ham qo'lingizda bitta kalit bo'ladi. Kelishilgan paytda o'zingiz borib o'tiraverasiz. Men o'z yo'lim bilan

boraveraman. O'sha uyning devorlaridan bo'lak hech narsa hech qachon bizni birga ko'rmaydi. Bo'ladimi?

Nozima indamadi.

– Sovg'am yoqmagan bo'lsa, derazadan uloqtirib yuboring. Men uni kimga beraman?

Shahar chetidagi ko'p qavatli uylarning biriga borishdi. Ikkinchi qavatda joylashgan uy ancha vaqtdan beri yopiq turgani uchunmi, issiq va dim edi.

Hamdam darhol derazalarni ochib tashladi. Qalin pardalar orasidan toza havo oqib kirdi, ammo xonalardagi qimmatbaho mebellar va yumshoq gilamlar ustini qoplagan chang kishini o'zidan itarib turardi.

– Birontasini olib kelib, bir tozalatishim kerak ekan, – uzr so'radi Hamdam. – Endi bu yerga tez-tez kelib turamiz-ku, a?

Qaynoq ehtiroslar bo'g'zilariga tiqilib qolgan bo'lsa-da, ular tez qaytishdi. Ertaga Robiya kampirning tug'ilgan kuni edi. Hamdam ham qayoqqadir shoshib turardi. Shunday bo'lsa-da, norozi bo'ldi:

– Uf-f, buncha tez! Yo'q, bunaqasi ketmaydi. Hech bo'lmasa bir kecha tong otguncha bag'rimga bosib yotmasam, sira xumorim qonmaydi. Onamning uyida yotib qolaman, deb bir kecha keling, iltimos. – Hamdam ostonada Nozimaning bellaridan ushlab bag'riga bosdi. Nozima erkalanib, oltin bilaguzuk yaltirab turgan qo'llari bilan og'zini yopdi:

– Asalning ham ozi shirin, ko'p taltayib ketmang!

Kechki payt qaynonasini buzoq sudrab ketdi...

Nozima har doim sigirni sog'ib bo'lgach, buzoqni bo'shatib, iziga qaytib kelaverardi. Sigirni katta og'ilxonaga, buzoqni alohida og'ilxonaga bog'lash boboning ishi edi. Sho'rlik sigirni aylanib, suti yo'q yelinini nuqul tishlab cho'zg'ilab yotgan buzoqqa qarab, Robiya xolaning yuragi ezilib ketdi, chiday olmay, Sanjarga baqirdi:

– Bobong qay go'rga yo'qoldi. Anavi buzoq sigirning yelinini cho'zg'ilab yeb qo'ydi-ku. Bor, bobongni chaqirib kel.

– Bobomni Dilmurodning bobosi chaqirib ketdi. O'zim bog'lab qo'yaymi buzoqni, momo?

– Senga bosh berarmidi bu buzoq? Shoshma-chi! Bobong lallayib kelguncha, sigirning yelinini yara qilib, yeb qo'yadi, – deb inqillab-sinqillab o'rnidan turdi. Shu payt Nozima chelakdagi sutni

suzgichdan o'tkazib, qaznoqning tagiga qo'yayotgan edi. Bir ko'ngli shu kampirni dovdiratmay, buzoqni o'zim bog'lab kelay, dedi. Yana... Hajga borayotgan boybichaning o'zi bog'lasin, bir buzoqni eplay olmasa, hajda nima qiladi, dedi-da, indamay oshxonaga kirib ketdi.

– Moma-a! – Sanjarning ovozi darvoza oldida mulgib yotgan itni ham cho'chitib yubordi. – Ona-a, momom! Momomga qarang!

Nozima oshxona derazasidan asta engashib, o'g'lining ovozi kelayotgan tomonga qaradi: buzoq og'ilxona oldida kampirni sudrab shatoloq otib, chopib borardi.

– Ona-a! Ona-a-a! – sigirning yonida turgan Sanjar izillab yig'lar edi.

“Uf-f, o'zi o'lay deb yotibdi-ku, arqonga yopishib olganini! Qo'yib yubor, arqonni. Shu buzoq sigirni yeb qo'ysa, yeb qo'ysin”.

Oldidagi peshbandini yechib, hovliga chiqdi. Oldi to'silganidan qo'rqqan buzoq yo'lini orqaga burdi. Agar qo'shnining yaqindagina harbiydan qaytgan o'g'li Sanjarning ovozidan xavotirlanib kelib qolmaganda kampirning holi nima kechishi bir Xudoga ayon edi.

Kampirning qo'liga o'ralib qolgan arqonni bir amallab bo'shatishdi. Qo'shni yigit bilan Nozima kampirning ikki qo'ltig'iga kirib, o'rnidan turg'azishdi, ammo kampir oyog'ini bosa olmay, “dod” deb yubordi. Shu orada hovliqib yetib kelgan Olloqul aka ichkaridan bir stul olib chiqib, kampirni stulga o'tirg'izib, ikki kishi stulning ikki yonidan ko'tarib, ichkariga kirgizishdi.

Uy bir zumda odamga to'lib ketdi. Hamma ayb Nozimaning ustiga ag'darildi:

– Keksa odamni molning tagiga yuborishning nima keragi bor edi?

– Shu katta uydan bitta buzoqni bog'laydigan odam topilmadimi?

Eri yuziga bir shapaloq tushirdi:

– Nima ish qilsang, dumi xurjunda qoladi. Kimdir izingni tozalab, to'g'irlab yurishi kerak. Onamga bir narsa bo'lsa, men seni o'ldiraman!

– O'ldirmoqchi bo'lsangiz, hoziroq o'ldiravering, – naq suyaklarigacha zirillab ketgan Nozima yig'lab yubordi, – Men onangizga buzoqni bog'lang deb buyurganim yo'q.

– Buyurishing shart emas, sen bog'lamaganingdan keyin o'zi bog'lamay nima qiladi?

Namozshom quyoshi alvonrang etaklarini allaqachon yig'ib olgan bo'lsa-da, tog'lar ortidan taralayotgan nur atrofni g'ira-shira yoritib turardi. "Tez yordam" mashinasida kelgan qotma shifokor nadomat bilan bosh chayqadi: "Olib ketmasak, bo'lmaydi. Qon bosimlari juda oshib ketibdi. Ahvol jiddiy".

Momoni bir amallab zambilga solib, mashinaga chiqarishdi. Butun uy g'ala-g'ovur mehmonlari bilan momoning izidan kasalxonaga ketdi. Uyda Nozima qizi bilan yolg'iz qoldi. Bir pasda huvillab qolgan nimqorong'u hovli ham unga "Sen aybdorsan", deb ta'na qilayotgandek edi. Yo'q, buzoqni o'zi bog'lamagani uchun emas... Kelin bo'lib tushib kelgan yili ular bilan yashaydigan qaynog'asi bir tatar ayolga ilakishib qoldi. Ovsin izillab har kun ko'chadan bir gap topib keladi, qaynonasi o'g'lini burchakka qamab, janjal qiladi: "Bola-a! Ko'zingga qara, bizga harom yoqmaydi!". Bir kuni o'sha qaynog'asining uch yashar qizi akasi bilan quvlashmachoq o'ynayman deb kir yuvish uchun qaynatib qo'ygan bir chelak suvga o'tirib qoldi. Qancha yelib-yugurishmasin, qizchani saqlab qolisha olmadi. Ovsin erini ko'chaga haydadi: "Sening gunohing norasida bolamga urdi". Bugun, ehtimol, Nozimaning gunohi qaynonasiga urgandir... Sho'rlik...

Telefon qo'ng'irog'idan cho'chib tushdi. Biqiniga tiqilib, multfilm ko'rib yotgan qiziga xavotirlanib bir nazar soldi-da, sapchib turib, telefonga yugurdi:

– Allo-o!

– "Sevsam o'ldururlar, sevmasam o'lam!.." – go'shakdan Hamdamning xushnud xirgoyisi eshitildi, – Ha, pari-i, hammani kasalxonaga haydab, yolg'iz o'zingiz o'tiribsizmi?

– Siz qayoqdan eshita qoldingiz? – hayron bo'ldi Nozima.

– Biz bechoralarni faqat siz begona sanaysiz. Kuyovingiz bilan singlingiz mensiz kasalxonaga borisharmidi? Qaynonangizni buzoq sudrab ketgan bo'lsa, sizni men sudrab keta qolay, deb qo'ng'iroq qilayapman. Nima deysiz?

– E, qo'ying-e!

– Rost aytayapman. Uydagilaringiz hali-beri qaytishmaydi. Diydor g'animat-da. Bolalaringizni qo'shninikiga tashlang-da, men kasalxonaga borayapman, deb o'zingiz ko'chaning boshiga chiqing. Ikki marta bag'rimga bosaman-da, so'ng qaytarib yuboraman.

– Qo'shnimga nima deyman keyin?

– Taksi bo'lmadi, qo'rqdim, deysiz. E-e, ko'ngilda bo'lsa, bahonadan ko'pi bormi? Faqat istak bo'lishi kerak. Sizni kutayapman.

– Qo'ysangiz-chi! Shunday kunda ko'cha-ko'yda yurishim ep emas. – Nozima bu so'zlarni chin yurakdan aytdi, ammo shu javob barobarida yuragining tub-tubida bir intiq ishtiyok hissini tuydi: "Nima qipti? Bir pasga boradi-yu, qaytadi!"

– Besh daqiqa yetadimi?

– Hamdam!..

– Nima? Ozodbek aytgandek, ko'yingizda xormiz, zormiz va lekin ko'changizda bormiz, sizni kutaveramiz.

– Uf-f, yomon shilqimsiz-da! – u taslim bo'lgan edi. – Balki rostdan ham kasalxonaga olib borib kelarsiz. Butun oila o'sha yerda bo'lganda, yolg'iz o'zim uyda qolishim yaxshi emas. Bo'lmasa, sal nariroqda turing. Bir pasda chiqaman.

Bu Hamdam uchun emas, o'zi uchun aytilayotgan bahona edi.

U borganda Robiya xolani operatsiyaga olib kirib ketishgan, hamma o'zi bilan o'zi, uning kim bilan qanday kelganini birov surishtirmadi ham. Faqat eri bir o'qrayib, "Noilani kimga tashlading?", deb so'radi, qo'shninikida ekanligini eshitib, ichkariga kirib ketdi. Bir pas turgach, qayinsinglisidan iltimos qildi: "Meni eringiz olib borib qo'ysin. Noilani qo'shniga berib kelgan edim". Shohista "Hozir", dedi-da, Hamdamni izlashga tushdi: "Bizning mashinamiz buzilgan edi. Sanjarni ham olib keta qoling. Bola charchadi". Sanjar esa "Men dadamning mashinasida qaytaman", deb unamadi.

Shu orada qayerdandir kelib qolib, gapga qo'shilgan Ahmad jo'rasiga "Yangani birga tashlab qaytamiz", deb mashinaning eshigi tomon yura boshlagan edi, Hamdam "Jo'ra, men qaytib kela olmayman. Dadam uyga kel, deyapti", deb uni qaytarib tashladi.

Nozima Ahmadning rangi o'zgarib ketganini ko'rди, xayolidan "Hamdam jo'rasiga maqtanib qo'ymaganmikin?", degan fikr o'tdi. "Erkak zoti maqtanishni yaxshi ko'radi. Bekor keldim-da". Lekin endi kech bo'lgan edi. U indamay mashinaning orqa o'rindig'iga o'tirdi. Hamdam ham hech narsa bilmaganday "Yanga, eshikni yopdingizmi? Sog' bo'linglar", deb hammaga xayr-ma'zur qilib yo'lga tushdi.

Uyga esa yarim tunda qaytishdi...

Hamdam juda so'zamol, kelishgan yigit edi. Bobosi baxshi o'tgan ekan, u ham har so'ziga qo'shiq qo'shib, askiya qo'shib gapirar, quyuq qoshlari ostida doim kulib turuvchi zangor ko'zlariga qaragan kishi beixtiyor unga asir bo'lib qolar edi. U faqat qaddi qomatini sirib turadigan torgina xorijiy jinsi shim va sport ko'ylagi kiyar, bu liboslar uning ko'rkini yanada oshirar edi.

Nozima allaqachon uxlab qolgan qizini uyiga olib kelib, o'rniga cho'zilar ekan, yuragini achchiq armon hissi o'rtab o'tdi: "Essiz, shunday barno yigit! Buning eri to'ng'illashdan boshqa narsani bilmaydi. Hech bo'lmasa, o'zing uchun o'zingga qarab, yuvinib yur! Yo'q, yuraveradi, tamaki bilan ter sasib!.."

* * *

Operatsiya uzoq davom etdi. Do'xtirlar "Operatsiya yaxshi o'tdi, lekin opa endi bir umr qo'ltiqtayoqda qolib ketadi", degan bo'lsa ham, ertasi kuni Robiya xola devorlari dog'-dug', befoy palatada horg'in ko'zlarini ochganda, Shohista onasi jahannam eshigidan qaytib kelgandek yig'lab yubordi.

– Onajon! – bor dunyosi to'kilib onasining so'lg'in yuzlaridan o'pdi. – Xudoga shukr, onajonim.

– Shohista... – Robiya xolaning lablari qurib qolgan edi. – Suv...

– Hozir, hozir, onajon! – u shoshib yelim idishdagi suvga paxtani namlab, onasining lablarini arttdi, so'ng piyolaga bir ho'plamgina suv quyib, og'ziga tutdi. – Hozircha ko'p suv mumkin emas.

Robiya xola qo'llarini odeyal ostidan oyoqlari tomon uzatdi, belidan boshlangan toshdek nam gips tizzasigacha davom etgan edi. Ich-ichidan toshib kelayotgan faryodni chiqarmaslik uchun pastki lablarini qattiq tishladi. Ko'zlaridan tirqirab oqayotgan yosh ikki chekkasidan sim-sim to'kilib yotar edi.

– Onajon, – Shohista onasining ozg'in yelkalaridan quchib, yuz-ko'zlaridan o'pdi. – Hali ko'rmaganday bo'lib ketasiz, yig'lamang. Eng muhimi o'lmay qoldingiz, boshqa hammasi bekor, siz... siz o'lib qolganingizda men nima qilar edim, ona?

Robiya xola yana suv so'radi, Shohista yonidagi tumbochkadan sochiqcha olib, onasining yuz-ko'zlarini arttdi.

– Ay, bolam-a, shunchalar gunohim ko'pmidiki, Allohga mening niyatim malol kelib, o'zimdan tindim, endi Hajga boraman, degan joyimda oyoqsiz qilib qo'ydi. Nega, qaysi gunohlarim uchun?!

Uning iltijolari Shohistaning yurak-bag'rini o'rtab yubordi:

– Nega unday deysiz, ona?! Sizning gunoh qilishga vaqtingiz bo'lganmi o'zi? Olti bola, er, kolxo'zdagi eng katta birgad! Alloh bandalarini, dunyo berib, mansab berib, dard berib sinaydi, der

edingiz-ku o'zingiz. Mana, sizga dard berib, sinayapti. Oyog'i singan bir siz emas, hali tuzalasiz, ko'rmaganday bo'lib ketasiz. Hajlargayam borib kelasiz.

Uni uyga ham zambilda olib qaytishdi...

O'sha kuni kun bo'yi yomg'ir yog'di. Bir necha kunlik jazirama issiqdan keyingi namgarchilik xuddi Robiya xolaning shu kungi holatidek yurakni ezar va nafasni bo'g'ar edi. Shohista onasining yonida uch kun qolib ketdi. Robiya xola shu qizini boshqacha bir mehr bilan yaxshi ko'rar edi. Shuning uchun ham otasi "Onang yangi hayotiga ko'nikkuncha bir-ikki kun yonida bo'lib tur", deb iltimos qildi. Eri "Uyda kelin bor, otang bor. Kunduzlari kelib, xabar olib turamiz", desa ham unamadi. Uning yuragi g'ash edi. Kayvoni onasining bir umr hamma narsadan norozi bo'lib, bir og'iz gapga ham uch kun arazlab yuradigan kelinning qo'lga qarab, muhtoj bo'lib qolishini hech hazm qila olmas edi. Institutda o'qib yurganlarida bir o'qituvchisi bo'lar edi. Jahlini chiqarganlarni "He, tirik o'lik!" deb so'kar edi. O'shanda bu haqoratning mazmuniga e'tibor bermagan edi. Endi o'ylab ko'rsa: ko'zlari ochiq, dunyoni ko'rayapti, tirik – yeyishi, ichishi, kerak, ammo xuddi o'likdek qo'lidan hech bir yumush kelmaydi. Yaxshiyam, otasi bor ekan, yo'qsa, bechoraning holi nima kechar edi-ya?!

Hamma o'zicha kuydi: "Uf-f!", "Af-f!", "Oh!", "O'h!"

Ammo Robiya xola juda irodali ayol edi. Tunlari yonboshida yotgan qizining goh u yoniga, goh bu yoniga ag'darilayotganiga qarab, bir martagina yonbosh yotsam, yelkalarimga shamol tegsa edi, deb orzulab yotgan bo'lsa ham taqdir peshonasiga yozgan yozig'iga ko'ndi va shukr qildi. "Mening o'rnimda bolalarimdan birontasi bo'lganda, nima qilar edim? Mayli, men bir bekorchi kampirman. Bu dunyodagi hamma ishlarimni bajarib bo'lganman. Endi yotgan joyimda toat-ibodatimni qilib yotaveraman. O'zingga shukr, Allohim".

Faqat keldi-ketdi biroz charchatdi, to'g'rirog'i, har mehmon kelganda kelinining gezarib ketadigan aft-angori charchatdi. Bir umr elning ustida yurib, hammaning izzatiga yetib yurgan kayvoni ayol emasmi, eshitgan odam borki, bir kelib xabar olar edi. Robiya xola "kelinga ham og'ir bo'lib ketmasin", deb katta o'g'lining qizini chaqirtirdi. Uying hamma yumushlari shu qizning zimmasiga ortildi, lekin kelinning chimirilgan qiyofasi yozilmadi.

O'sha kuni bir umr savdoda ishlagan dugonasi singlisi bilan keldi. Yotganiga bir oydan oshgan edi. Biron yumushga urinmay uy ichida yotgan bo'lsa ham butun a'zoyi badani quruqshab, qat-qat kirlanib ketganga o'xshar edi. Nevara qizning latta namlab artishi hammomning ishini bajararmidi? Robiya xola dugonasining yaltillab turgan yuz-qo'llariga havas bilan qarab "Kecha hammomga kirgan bo'lsa kerak", deb o'yladi, keyin yana fikrini o'zgartirdi: "Joni sog'. Har kuni hammomga kirsak kerak."

Mehmonlar uzoq o'tirdi. Kelin uyda edi, chimirilib dasturxon yozdi, qand-qurs, kecha qaynagan sho'rva... Robiya xola juda sergak ayol edi, hadeb eshikka qarayotgan mehmonlarning nimadandir bezovtami, norozimi ekanligini sezdi, ammo bu holatning sababini tushunmadi.

Mehmonlar ketishgach, Sanjar bilan Noila yugurgilab uning yoniga kirishdi. Ikkalasining ham qo'lida mushtdek-mushtdek sap-sariq nok bor edi. Sanjar xonaga kira solib, o'zini momosining bag'riga otdi:

– Momojon! – boladan gupillab manti hidi keldi.

– Nimalar yeb yuribsan, bolam? – beixtiyor so'radi u.

– Manti! – maqtandi bola. – Boyagi momolar shunday shirin manti olib kelishgan ekanki!.. Sizga ham olib kelaymi?

Uning ham manti yegisi kelib ketdi.

– Mayli...

Sanjar yugurib xonadan chiqib ketdi. Bir pasdan keyin kichkinagina likopchaning ustiga ikkita manti qo'yib kirdi.

– Onam bilan Gulzor opam hammasini yeb qo'yibdi, shugina qolibdi.

Dasturxon yig'ishtirgani kirgan Nozima o'g'lining boshiga bir tushirdi:

– Ha, biz yedik, sen yemading-a?

Robiya xola bir mantiga, bir kelinga qaradi. Mehmon nega bezovtalanganini tushundi: "Bemor issig'ida yesaydi" deyishgan bo'lsa kerak. Kelinining ochko'zligidan xijolat tortdi:

– Egalariga ham to'rttagina qo'yish kerak edi, – sovuqqina qilib tanbeh berdi.

– O'zi kamgina ekan. Mehmonlarga olib kirsam, sizga ham berishim kerak edi. Juda yog'li, qo'y go'shtiga qilingan ekan, ichingizni surib yuboradi, deb o'yladim. Bo'lmasa, nima, juda manti yegimiz kelib o'lib turganimiz yo'q edi, – Nozima qaynonasining bir og'iz tanbehiga yuzta iddaoni qalashtirib tashladi.

Sanjar esa mantili likopchani momoning og'ziga tutib turardi:

– Momo, oling... Hech bo'lmasa bittaginasini yeng.

Mantidan juda xushbo'y hid taralib turardi. Robiya xola beixtiyor mantiga qo'l uzatdi. Uning issig'i ketmagan, iliqqina edi. O'zi azaldan xamirli ovqatni yaxshi ko'rardi. Qo'li xamirdan chiqmas edi. Mazza qilib mantilarni yedi, manti haqiqatan yog'ligina ekan, butun vujudi yog'langandek bo'ldi.

Ko'p o'tmay tashqaridan shang'illagan ovoz eshitildi:

– Sanjar, tarelkani olib kel!

“Shu mantini yeganim unga yoqmadi. Bir pas turib o'zim yeyman, deganmi?”

Momosini mehmon qilganidan mamnun bo'lgan Sanjar likopchani olayotib, shivirladi:

– Hozir men sizga nok olib kelaman. Mazza qilasiz.

Ammo sal o'tmay quruq qo'l bilan so'ppayib qaytib keldi.

– Momo, noklarni yashirib tashlabdi. Juda ko'p nok bor edi, yolg'ondan tugadi, deyapti. Yashirib qo'yg'an. Siz o'zingiz so'rang. Ularni sizning dugonalarigiz sizga olib kelgan-ku.

Momo g'alati bo'lib ketdi. Nevarasining qovurg'alari sanalib turgan nozik yelkalariga qoqdi, sochlarini silab-siypadi:

– Mayli, o'g'lim, tugagan bo'lsa, tugagandir. Bilasan-ku, men nokni uncha yaxshi ko'rmayman.

Mantidan keyin choy ichgisi keldi, qani, bittagina shokolad ham bo'lsaydi. Ilgari yog'li ovqatdan so'ng issiq choy bilan qimmatbaho shokoladlar yeyishar edi. Qanday huzurbaxsh edi o'sha kunlar! Hozir ham bordir shirinliklar. Shuncha odam kelib-ketayapti, hech kim quruq qo'l bilan kelmaydi, albatta. Ammo... Ha, mayli, shu kunlar ham peshonasida bor ekan, bundan battarini ko'rsatmasin, boriga shukr.

– Bolajonim, boya mehmonlarga damlangan choydan bir piyolagina olib kel.

Sanjar chopib tashqariga chiqdi.

Bir pasda Nozimaning shang'illagan ovozi eshitildi:

– Hoy, bola, piyolani joyiga qo'y.

– Momomga choy olib borayapman.

– Qo'y-e, burningni artib ol, avval, – u shang'illagan ko'yi Sanjarning qo'lidan olib qo'ygan piyolani qaynonasining boshiga qo'yib ketdi. – Shuni o'zimga aytsangiz bo'ladi-ku, choy issiq bo'lsa, kuyib qoladi, qoqilib ketsa, piyola sinadi. Bir parcha bolaga buyuriladigan ishmi shu?!

Robiya xola keliniga bir og'iz ham javob ayta olmadi. Nima desin? Bola uniki. Birining qaynonaligini, birining kelinligini inobatga olmasa, aytganlarining hammasi to'g'ri. Ammo kenja bolasi tengi kelinning bunchalik yuziga yopishishi unga juda alam qildi. "Qarisang menday bo'l, qora yerday bo'l", deganlari shu-da aslida. Uyam qora yerday bo'lib yotibdi, hamma, hatto yuziga tik qaramasligi lozim bo'lgan kelin ham bemalol ko'ksidan bosib o'tmoqda.

U juda chanqagan edi, yetib kelgunicha to'kilib, yarim bo'lib qolgan choyni ichmadi, ichkisi kelmadi. To'rt qadam narida oshxona, to'rt qadam yurib borib, bitta gugurt chaqsang, kifoya, bir zumda vajillab bir chovgum choy qaynab qoladi. Keyin mazza qilib choyni ichish mumkin. Faqat oyoqlari sog' bo'lsa!..

Bola deganlari ham bekor ekan. O'g'il yeb, o'rga ketar, qiz yeb, qirga ketar, deganlari rost. Hammasining o'z ishi bor. Bu yerda Robiya bir qultum suvga zor bo'lib yotibdi, ular esa hammaginasini o'z yumushi bilan!

Ona deganlari ham bekor ekan. O'tiribdi uyida o'z tashvishlari bilan. "Senikida nima qilaman, qo'sh qaynona bo'lib? Qo'limdan bir yordam kelmasa!". Qay daraxtga o't tushsa, o'zi yonadi, o'zi o'chadi.

Bir payt peshob qistadi. Baxtga qarshi eri dorixonaga ketgan, nevara qiz ham necha kundan beri "uyimizga bir borib kelay", deb yurib, bugun ketgan edi. "Kelib qolishar". Tiq etgan ovozdan umid qilib, tishini tishiga qo'yib yotaverdi. Vaqt o'tgan sayin qovug'idagi tang holat butun vujudiga yoyilib borardi. U chuqur-chuqur nafas oldi, ammo foydasi bo'lmadi. Damba-dam darvoza tomonga quloq tutar, ammo aksiga olib, hamma yoq suv quygandek jim-jit etdi. Ahvoli daqiqa sayin og'irlashib borardi. Birdan ko'zi yostig'ining yonida taxlanib turgan sochiqqa tushdi. Uni taxlagan ko'yi butlarining orasiga oldi: "Ozgina bo'shatib olay". Bildiki, to'shakka ham o'tib ketdi: "E-e, nima bo'lsa, bo'ldi!". Shu payt eshikdan Sanjar ko'rindi.

– Bolajonim, hovliga suv sepadigan chelakni olib kel.

Chelak ko'targan bolasining izidan kirgan Nozima shalop etib chelakka tushgan ho'l sochiqni ko'rib, qichqirib yubordi:

– Voy, xola, nima qilib qo'ydingiz? Sochiqqayam siyadimi odam? Chelak ham harom bo'ldi!

Bo'shanib, yengil tortgan bo'lsa ham ho'l bo'lib qolgan to'shagidan ijirg'anib yotgan Robiya xolaning qahri kelib ketdi: "Hey, kimsan o'zi? Bu yerga chelak olib kelganmiding?!"

– Ovozingni pasayt. Sochiq ham, chelak ham o'zirniki. Qo'lingni ham urma, boboy kelib, o'zi yuvadi.

Bir oydan beri ko'zlari javdirab, nima qilsa, ma'qul topib yotgan kampirning vajohatini ko'rib, Nozima cho'chib tushdi. Qaynonasi dunyoni poyi-piyoda kezib yurgan soppa-sog' paytida ham unga bunday baqirmagan edi. Endi... Yotgan joyida... "E-e, bilganini qilmaydimi? Juda bo'lmasa, o'g'liga aytib, haydatib yuborar. O'zimam bezor bo'ldim shu g'urbatxonadan".

– Sochig'ingiz ham, chelagingiz ham o'zingizga buyursin, xola. Men sochig'ingizni uyimga olib ketmoqchi emasman. Bir og'iz aysangiz, o'zim yoziltirib olar edim. Fu-u, hamma joy sasib ketibdi, – u eshik-derazani ochib tashladi. Ostonada chelak ko'tarib, anqayib turgan o'g'liga baqirdi. – Nimaga serrayib turibsan, bor, tashqariga chiqar.

Robiya xola peshob to'kilgan to'shagida ilondek to'lg'andi: "Shunchalar gunohim ko'pmidi, Alloh! Meni kimlarga muhtoj etding!"

Yelvizakda qolgan tanasini odeyalga o'rab yotib, momosining joynamoz ustida qiladigan iltijolarini esladi: "O', qodir egam, birovga muhtoj qilma. O'lgunimcha o'zimning xizmatimga o'zim yarab yuray", der edi doim. "Birgad", "deputat" nevara momoning ustidan kular edi. "Faqat o'zingizni o'ylaysiz-a, momo". Momo esa xudbinlarcha tilagidan zarracha xijolat tortmas edi: "Bolam, o'zini qo'llagan avliyo ham zo'r avliyo. O'lgunimcha o'zimning suyagimni o'zim ko'tarib, o'zimning hojatimga yarab yursam, bo'ldi".

Mana bugun o'z kuniga yaray olish ham katta baxt ekanligini anglab yetgan edi.

Ayniqsa endi hech qachon mustaqil yura olmasligini eshitgan kun dardi dunyosi qop-qorong'u bo'ldi. "Mayli, hech bo'lmasa, tezroq mana shu gipsdan qutulib, qo'ltiqtayotqda bo'lsa ham hovliga chiqadigan bo'lsa edi!" Ammo bu hasratli kunlar cho'zilgan sayin qaynona-kelin o'rtasidagi munosabatlar cholg'uchining sozlanayotgan toridek tobora taranglashib borardi. Robiya xola uying bir chetida harakatsiz yotgan kampir bo'lsa ham, o'g'li bilan kelinining munosabatlari yaxshi emasligini, hatto ular o'zaro gaplashmasligini bilib oldi. Sanjar otasi bilan onasining joyi ham alohidaligini aytdi:

– Dadam mehmonxonada yotadi.

Bir holi vaqt topib, o'g'liga gina qildi:

– Nima gap, bolam? Tinchgina yashasanglar bo'lmaydimi? Mening yarimjon bo'lib qolganim kamlik qilayaptimi? Shu ahvolimizda kelin haydab, bolalarni chirqiratish yetmay turibdimi?

Sardor bir muddat yerga tikilib qoldi. Robiya xola qahr bilan javob kutib, o'g'liga qarab turarkan, Sardorning boshidagi moshkichiri sochlarni ko'rib hayron bo'ldi: "Buning sochi qachon oqarib ulgurdi?". Yelkalari ham ixchamgina bo'lib qolibdi. Ustidagi ko'ylagi tarang bo'lib turardi, halvirabgina turibdi.

– Ena, men bu bilan yashay olmayman.

– Nega? – bu savol mutlaqo o'rinsiz edi. Shunday bo'lsa ham qaysarlik bilanmi, nimalardandir umid qilib o'g'lining og'ziga tikildi. Sardor chuqur xo'rsindi:

– Ena, meni qiynamang, iltimos. Unga mening, sizning, bolalarning umuman keragi yo'q. Unga "eri bor" degan nom, bir boshpana kerak. Uyiga qaytib boray desa, ikki bola bilan qo'sh kelin buni sig'dirmaydi. Ilojsizlikdan shu yerda turibdi. Agar joy topsa!.. Bir kun ham bu joylarda qolmas edi.

– Qo'y, bolam.

– Bir oy bo'ldi joyimiz bo'lak bo'lganiga. Nega bunday bo'layapti, erim biron o'ynash-po'ynash topib olgani yo'qmikin, deb xavotirga ham tushmaydi. Unga desa, izim qumdan oshib, butunlay yo'q bo'lib ketmaymanmi? Unga baribir. Xullas, biroz o'zingizga kelib oling, ajrashaman.

– O'zimga kelganimda, hovli supurib, kir yuva olarmidim? Bolalaringga kim qaraydi?

– Xavotirlanmang, ena, qaraydigan odam topiladi. Sizning qo'lingizni sovuq suvga ham urdirmayman.

– Qo'y, bolam. Besh kunligim bormi-yo'qmi, shu paytgacha bola-chaqa dedim, davlatning ishi dedim, qarigan chog'imda bu falokatni topdim. Yer yuzida chiritma meni. Ayol kishining ko'ngli nozik bo'ladi, yumshoqroq gapir, ko'nglini ol, bir narsalar sovg'a qil. Lekin zinhor ajrashaman degan gapni aytma. Bolalarni o'yla.

– E-e, ena, shunday demang. Bolalarni deb o'zimni shunchalar xor qilib qo'yayinmi? Xotin bo'lsa, sidirg'a xotin bo'lsin, bo'lmasa, yo'q bo'lsin. Siz hech xavotirlanmang, hammasi joyida bo'ladi.

Sardor dadil-dadil gapirayotgan bo'lsa ham, ich-ichidan sinib, to'kilib, quruq suvratga aylanib borayotgani ko'rinib turardi. U onasining ustiga egilib, yuzlaridan ohistagina o'pib qo'ydi: "Biron narsa kerak bo'lsa, aytarsiz. Bugun o'zim uydaman".

Havo unchalik issiq bo'lmasa ham butun vujudi olovli iskanjada qolganday qizib ketdi. Badanining gips qoplagan joylarida nimalardir o'rmalab yurganday bijiray boshladi. Yonboshida turgan uzun simni olib, gipsning orasiga tiqib, jonini ayamay qashladi. Lekin, o'rmalayotgan narsalar borgan sari

sim yetmaydigan joylarga ichkarilab ketayotgandek edi. Uning yuragi siqilib ketdi: “E-e, Xudo, nega ona qilib yaratding?!”.

Shu kundan Robiya xolaning ichiga bir o't kirdi. Erta-yu kech kelinning ko'ziga qaraydi. U o'lgur ham chimirilib bir kiradi-yu, eshik-derazani sharaq-shuruq qilib ochib, uyni bir supurib chiqadi-da, sharpaday sidirilib yo'q bo'ladi. Yetti yildan beri biron marta yoniga kelib, “Xola-yov, anavi manovday ekan”, deb gurung qilgan odam emas. Buyog'i o'ziga yarasha keldi-ketdi, birov kelib, birov ketib turibdi. Kelin bilan xoli qolib ikki og'iz gaplashish nari tursin, o'zi bilan o'zi qolishga ham imkoniyat yo'q. Ammo kunora nevaralarini so'roqqa tutadi:

- Dadang kechasi qaysi xonada uxlayapti?
- Mehmonxonada. Kiyimlarini ham mehmonxonaga chiqarib olgan.
- Dadang bilan onang gaplashyaptimi?
- Yo'-o'q, ular faqat urishishadi.

Robiya xolaning oyoqlari yurmay qolgandan buyon bor kuch-quvvati ko'zlari bilan quloqlariga joylangandek edi. Yoniga kim kirsam, ko'ziga qaraydi, tiq etgan ovoz chiqsa, butun vujudi quloqqa aylanadi. Ilgarilari ham shundaymidi yoki kampir yotib qolganidan buyon e'tibor qilayaptimi, negadir telefon ko'p jiringlaydi. Bobo yoki bolalar olsa, hech kim gapirmaydi. Kelini olsa, gapiradi. Kelini ham negadir juda past ovozda, bir narsadan cho'chiyotgandek juda qisqa gaplashadi. “Onasi! Har kuni bir axborot so'ramasa, bo'lmaydi. Esi yo'q to'qol. Qizim borgan joyda botib, shuniki bo'lib qolsin, demaydi hech. Qachon qarasang, yiring kavlab, buzg'unchilik qilib turadi. Onasi “Eringdan ajrash, endi bir umr kasal kampirga tuvak tutib o'tmaysan”, deyayotgan bo'lsa kerak”.

Nevarasidan kelinini chaqirtirdi.

Kelin idish-tovoq yuvayotgan ekan, shekilli, yog'li qo'llari bilan eshikdan qaradi:

- Ha? – uning betakalluf nazari kampirning suyaklarini zirillatib yubordi.
- Shohistaga telefon qilsang. Ertaga ertalab bir kelsin.

Kelin na “xo'p” dedi, na “yo'q” dedi. “Nima ishingiz bor edi?” deb ham so'ramadi. Indamay burilib, chiqib ketdi. Momoning ko'ngli xit bo'ldi. Bir arziyas ish uchun shu bexayr kelinga sarg'ayganidan ezildi: “Tezroq gipsini yecha qolsaydi. Qo'ltiqtayotqda bo'lsa ham eshik oraga chiqib, qo'lidan kelgancha o'z yumushini o'zi qilib yursaydi”.

Oradan ancha o'tgach, ayvondan kelinining ovozi eshitildi:

– Yaxshi o'tiribsizlarmi? Ertaga ertalab bir kelib ketarkansiz. Bilmadim, onangiz aytayapti. Bir kelib ketsin, dedi.

“Onangiz!” O'-o', bu kelin rostdan ham aynibdi.

Kun ayni namozshom edi. Kunduzgi issiqdan lohas bo'lgan borliq kechki dim havoda zo'rg'a marraga yetib kelgan qariyadek hansirab turardi. Hatto qushlar ham og'rinibgina chug'urlashayotgandek edi. Robiya momo to'liqib derazaga qaradi. Osmonning yuzi qorayib borardi, xuddi uning ko'ngliday.

Shohista nonushtagacha hovliqib yetib keldi. Hali xona yig'ishtirilmagan, havosi og'ir, nevara qiz yotgan to'shak o'rtada yoyilib yotardi. Shohista onasining to'shak bilan bitta bo'lib yotgan yelkalarini bag'riga bosar ekan, yig'lab yubordi:

– Boshingizda shunday ishlar bor ekan, meni erga berib nima qilar edingiz? Allakimlarning cho'riligini qilib, gapini eshitib yurguncha, sizning xizmatingizni qilib yuraverardim.

– Qo'y, bolam, unday dema. Otamning o'lishini bilsam, bir qop kepakka almashtirib yuborardim, degan ekan bir bechora. Yiqilishimni tush ko'ribmanmi?-kampirning ko'zlarida ham yosh g'iltilladi.

– Tinchlikmi, ena, nimaga chaqirtirdingiz? – Shohista onasining ko'zlarini artib, og'ziga tikildi.

– O'zim, seni sog'indim, – dedi kulimsirab kampir.

– Yo'-o'q, siz sog'inganingiz uchun qiz chaqirib o'tiradigan xotin emassiz, sizni bilmasam ekan. Choy-poy ichdingizmi? – Shohista sumkasidan kichkinagina tuguncha chiqardi. – Yo'ldan ikki six qiymali kabob olgan edim. Issiqqina, shuni yeb oling. Gulzor qaysi go'rga yo'qoldi, joyini yig'ib ketmaydimi?

U kabobni onasining qo'liga tutqazib, xonani yig'ishtirishga tushib ketdi. Eshikni yopib, derazani ochib qo'ydi. Derazadan xonaga muzdek toza havo kirdi. Kampirning yuragi kengayib ketgandek bo'ldi. Kabob yumshoqqina va juda totli edi, bittasini nevaralariga ilindi.

– Bunisini olib qo'y, qornim to'ydi.

– Qorningiz to'ydimi, nevaralaringizni o'ylab, tomog'ingizdan o'tmay qoldimi?

– Yo'g'-e, nevaralarim yemay o'tiribdimi? O'zing yegin bo'lmasa?

Shohista kuldi:

– Mayli, enajon, nevaralaringiz yeya qolishsin. – u derazadan boshini chiqarib, bolalarni chaqirdi. – Sanjar-uv! Noila-a!

Sevimli ammalarining kelganidan bexabar qolgan bolalar tapir-tupur kelib, ammaga yopishib ketishdi. Amma ularning cho'ntaklarini yaltiroq konfetlarga to'ldirdi:

– Avval kabobni ikki bo'lib yeb olinglar, keyin konfet yeysizlar. – U bir pasda saxovatli sehgarga aylanib qolgan edi.

Bobo ularni bir amallab ammasidan ajratib, bog'chaga olib ketdi:

– Amma, biz kelguncha uyingizga ketib qolmang.

– Agar, aldasangiz, ko'rasiz...

Xonada bolalarning izidan bir yorug' kayfiyat qoldi.

– Xonim ko'rinmaydilar, – anchadan so'ng piching bilan so'radi Shohista.

– U ishga ertaroq ketadi. Birinchi soat darsi bo'lsa kerak. Shu Gulzor kelmaganda qiynalib qolar edik.

– E-e, qo'ying, ena, odamning ko'nglida bo'lsa, hammasiga ulguradi. Uning ko'nglida yo'q. Avval men bor edim, menga qarab, qo'lini sovuq suvga urgisi kelmay yurardi. Endi Gulzorga qarayotgandir-da.

– Bilmasam, bolam. Akang bilan oralari ham soz emas. Menimcha, ajrashaman deb yuribdi. Har kun telefonda onasi bilan pichir-pichir qiladi. Onasini ham bilasan-ku. Ajrash, deyayotgan bo'lsa kerak. Xudoning bergan kuni onasinikiga yuguradi. Uyda kasal qaynonam bor, keldi-ketdi bo'lib turibdi, demaydi. Ketsa, bir kecha yotmasdan qaytmaydi.

– Voy, megajin-ey. Shunday ham noshukr, bexayr inson bo'ladimi? Uying, joying, boshingda ering, xizmatkor cholu kampir bo'lsa, oydek kasbing bo'lsa, yana nima kerak unga? Shu keliningizga hech tushunmadim-tushunmadim, ena.

– Shunga... – ovozi pasaytirdi kampir.

– Nima "shunga"?

– Anavi telefonni olayotganimda sotuvchi, "istasangiz, siz yo'q paytingizda telefoningizda bo'lgan gurunglarni ham yozib olishingiz mumkin", degan edi. Yozib oladigan tugmachasini bosib qo'y,

shularning g'iybatlarini yozib olib, onasini bir qizartiray, degandim. Otang bilan akangni aralashtirgim kelmadi. Gap bolalab yurmasin, dedim.

Shohista onasini birinchi marta ko'rib turganday qiziqsinib qarab qoldi. Ular bolalikdan onasini hamma narsaga qodir, qudratli suyanchiq deb o'sishgan bo'lsa-da, keyingi oylar ichida qachon kelsa, javdirab turgan nigohlarga to'qnashaverib, onasining begoyimligini esidan chiqarib qo'yayozgan edi.

– Xo'p, ena! Ammo o'sha qudangiz bilan kelingizning qizarishini bilmadim-ov. Bu juda qiyin masala.

Shohista telefon apparatini uzib keldi. Bir daqiqada momo aytilgan holatga keltirib qo'yildi, hatto sinab ko'rish uchun katta opasiga qo'ng'iroq qilib, keyin suhbatlarini eshitib ko'rishdi.

– Yo, qudratingdan! Magnitofonning o'zi ekan-ku bu, – yoqasini tutamladi Robiya kampir.

– Kichkina magnitofonli telefon bu, – onasining so'zini to'g'irladi, – o'ziyam ancha pulga olgandirsiz?

– Bilasan-ku, chiroyli narsalarni yaxshi ko'raman. Narxiyam picha bor edi, qarasam, juda chiroyli ekan, ko'zimni chirt yumdim-da, olaverdim.

– Essiz... Shunday uy... Bu uyda shunchaki olingan narsaning o'zi yo'q. Hamma jihoz bir san'at asari. Lekin doim norozimiz... – Shohista ko'zlarini yumib, afsus bilan bosh chayqadi.

– Qo'yver, bolam. Bir ko'ngliga yetmagan joyimiz bordir-da. Gipslarni oldiray, bir cho'miltiringlar. Keyin yonimga olib, bir gaplashaman. Xafa qilgan, o'tkazgan joylarimiz bo'lsa, aytsin. Xatolarimiz bo'lsa, uniyam aytsin. Ammo ro'zg'orlarining buzilishiga yo'l qo'ymayman.

– Enajon, men ishga borishim kerak, – Shohista yig'ishtirina boshladi. – Menda boshqa gapingiz yo'qmi?

– Sen oradan uch kun o'tkazib, yangang ishda bo'lgan vaqtida bir kel. Anavining magnitofonini eshitib ko'ramiz.

– Xo'p, enajon!..

Qaynonasi bolalarini "Mening "xo'p"chi bolalarim" deb suyar edi. Robiya xolaning o'zi "xo'p" degan so'zni yaxshi ko'rardi. Bir umr kattaga ham, kichikka ham "xo'p" deb yashadi. Bolalariga ham shuni o'rgatdi. Hozir ham ellikka kirib, soch-soqoli oqargan o'g'illariga bir ish aytsa "xo'p, enajon", deyishadi. Bu kelin bo'lsa, aytilgan ishning faqat teskarisini qilishga harakat qiladi.

“Omon-omon” kunlarda ham “Nozima, bugun bir chuchvara qil”, desa, “E-e, charchab borayapman, chuchvara juda mayda ish”, deb, boshqa ovqat qilar edi. “Bir osh yegim kelayapti” desa, u “mening sira osh yegim kelmaydi”, deb burnini jiyirardi. Cholu kampir allaqayerlardan mashinani to’ldirib bozor-o’char qilib kelganini ko’rsa, qaynona “Nozima, manavilarni tashishgin” desa ham nimanidir bahona qilib, ichkariga kirib ketar edi-da, to bozor-o’char tashib bo’linmaguncha tashqariga chiqmas edi. Shunday paytlari Sardor onasiga qarab, “Biz sizning buyurganlaringizni qilmaslikka, “xo’p” demaslikka qasam ichganmiz. Ming yaxshi gapiravering, hech o’zgarmaymiz”, der edi piching qilib. Kampir esa qo’l siltab, kulib qo’yardi: “Mayli, bolam. Charchab holdan toyib borayotganing yo’q, tashiyver”.

Ammo bugungi rejasi shuncha yildan beri erka kelinining hamma kamchiliklaridan ko’z yumib, amal-taqal qilib qurgan saltanatni vayron qilib tashlashini bilganida sirayam bu ishga qo’l urmagan bo’lar edi.

Shu kuni Olloqul bobo ham kampirini nevara qizga tashlab bozorga ketgan edi. Shohista odatdagidek onasiga ikki sixgina qiymali kabob olib kelgan ekan. “Shoshmang, o’sha g’iybatlarni eshitasiz-da!..”, deb, avval kabobni yedirdi, so’ng choy damlab kelib, onasiga bir piyola choy ichirgach, telefonni uzib olib keldi.

– Mana, endi miriqib o’zingiz haqingizdagi g’iybatlarni eshiting, – yozuvli tasmani bor ovozi bilan qo’ydi.

– Asalim, qandaysiz? – Erkak kishining ovozini eshitib, ona-bola hang-mang bo’lib qolishdi.

– Yaxshi, ona. O’zingiz yaxshi yuribsizmi? – ikkinchi tomondan Nozimaning xavotirli ovozi eshitildi.

– Hah, odobli qizimdan-da, – erkak kishi masxara qilganday hirlinglab kuldi. – Kuningiz qattiq sizning. Uzuk yoqdimi?

– Ha, judayam, rahmat sizga.

– Quruq rahmatga qorin to’ymaydi. Haqini qachon berasiz?

– Nomarddan qarz olma, qarz olsang ham xarj qilma, deyishgan.

– To’g’ri aytishgan, – erkak kuldi. – Sizni degan chog’ men nomardman. Sabr-toqatim tugab borayapti. Tezroq bir chorasini topib, onamnikiga deb chiqasizmi, dugonamnikiga deb chiqasizmi, ikki soatga kelib keting.

– Ko’raman, ona.

- “Ko’raman”ni cho’ntagingizga solib qo’ying. Menga “xo’p bo’ladi, begim” deng.
- Xo’p bo’ladi, sal turib o’zim qo’ng’iroq qilaman. Uydagilarga salom ayting.
- Hah, jonidan. Siz o’qituvchi emas, aktrisa bo’lishingiz kerak edi.

Shohista titrab turgan barmoqlari bilan telefonning tugmachasini bosib qo’ydi:

- Axir, bu Hamdam-ku! – uning rangi devordek oqarib ketgan edi.
- Hamdaming kim? – quloqlari shang’illab qolgan Robiya xola bir yutinib, tanglayiga yopishib qolgan tilini zo’rg’a ajratib, so’radi. – Kim u, Hamdam?
- Erimga kuyovjo’ra bo’lgan bola!

Shohista o’rnidan sakrab turdi, u bir zumda yarador sherga aylangan edi:

- Ena, men ularni yorib tashlayman. Iflos, qanjiq, qanday jur’at qildi bizning yuzimizga oyoq qo’yishga?! Men uni o’ldiraman, o’z qo’llarim bilan bo’g’ib o’ldiraman. Hamdamni ham o’ldiraman. Keyin erim bilan ajrashaman. Uning hamma gapdan xabari bo’lgan. Har doim “Yangang juda chiroyli-da, bizning oshnalarning yuragidan urib qolgan”, deb piching qilar edi. Bilib turib, indamagan, aytmagan! Qo’shmachilik qilgan! Uniyam o’ldiraman! – uning ko’zlaridan tirqirab yosh oqardi. – Ena, o’g’lingizning ko’zi ko’rmi, nahotki xotini bizni shuncha sharmanda qilib yurganini bilmasa? Siz qo’lidagi uzukni ko’rib, so’ramadingizmi, qayerdan olding, deb. Shunday ham lapashang bo’lasizlarmi?

Qizining ahvolini ko’rib, kelinining xiyonatini ham bir nafas unutgan ona jon-jahdi bilan Shohistani tinchitishga urinar edi:

- E-e, uzugi boshidan qolsin. Mening oldimga uzuk taqib kirarmidi u. U kuni Gulzor “Yangamga onasi yangi uzuk olib beribdi”, degan edi.
- Onasi! Voy, sodda enam-a! Shunda ham hayron bo’lmadingizmi? Uning onasi bitini sotib, qiziga uzuk olib beradimi?

Robiya momo yotgan joyida uzalib qizining etagidan ushladi. Uning ko’zlari to’la g’ilt-g’ilt yosh edi. Yutindi, lekin gapira olmadi. Qo’llari bilan “O’tir” deb ishora qildi: “O’tir, o’tir-a, juvonmarg, manglayi qora! Erga tegmay o’lg’in, sen badbaxt. Eshigimga kimlarni ergashtirib kelding?”

Shohista onasining rangiga qarab, birdan jim bo’lib qoldi, so’ng yugurib tashqaridan bir piyola muzday suv olib keldi:

– Ena, bir ho'plam iching.

Ona bosh chayqadi: “Kerak emas!”

Shohista piyolaga barmoqlarini tiqib, onasining yuzlariga suv sepdi.

Robiya momo anchadan so'ng o'ziga keldi. Shundayam behol, bemajol edi, ko'p gapirmadi: “Sen, bolam, jim o'tir. Akangga ham aytib o'tirma. O'zi qiziqqon, xotinini bir narsa qilib qo'yib, qamalib ketmasin. Nozima (“yangang” deyishga tili bormadi) bilan o'zim gaplashaman, – u hansirab zo'rg'a nafas olar edi.

Shohista yana yig'lab yubordi:

– Nimasini gaplashasiz, ena? Hali uni olib qolmoqchimisiz? Akam bilan yashatmoqchimisiz?

– Bolalar bor, bolam, – chuqur xo'rsindi kampir.

– Ena-a-a!.. Ena!

– Jim, bolam. Bosh yorig'i do'ppi ostida. Ularning o'rtasida nima bo'lganini birov ko'rib turgani yo'q.

– Ena, balki biz hammadan keyin eshitgandirmiz bu gaplarni. Balki odamlar allaqachon ustimizdan kulib yurgandir. Erta bir kun yuzimizga ham solishadi. O'shanda necha pullik odam bo'lamiz, qanday bosh ko'tarib yuramiz?

– Tuhmat, deymiz. Dushmanlarimiz to'qib chiqarishgan, deymiz. Men bolalarni yetim qila olmayman, qizim.

Kampir zo'rg'a gapirayotgan bo'lsa ham, so'zlarida shunday qat'iy ohang bor ediki, unga qarshi chiqishga Shohistaning jur'ati yetmadi. Haqiqatan ham Nozimani bir narsa qilib qo'yib, akasi qamalib ketsa, onasi uni hech qachon kechirmaydi. U ko'zlarini bir nuqtaga tikkancha, tizzalarini quchoqlab o'tirib-o'tirib, so'ng bir so'z demay, o'rnidan turdi-da, hovliga chiqib ketdi.

Onasi hamisha Amir Temur navkarlarining ro'zg'orini saqlab qolish uchun o'ylab topgan tadbirni qoyil qolib gapirib yurar edi. Emishki, sarkarda uzoq davom etgan janglardan qaytayotib, hamisha bir oqshom navkarlarini shahar tashqarisida saqlar, ularga kelganliklarini ma'lum qilish uchun, gulxan yoqib, uyum-uyum o'tin to'plab, olov qo'yishni buyurar ekan. Bundan maqsad eri jangda yurganida o'zini tuta olmay, xiyonat ko'chasiga kirib ketgan ayollar bo'lsa, erining qaytganidan xabar topib, orqa-oldini yig'ishtirib olsin, yonida jazmani bo'lsa, javobini berib yuborsin, der ekan. Biron navkar yarim tunda uyiga qaytib borib, to'shagida boshqa erkakka duch kelib, shuncha qirg'inbarotlardan eson-omon qaytib, o'z uyida ruhan shahid bo'lmasin, deb shu ishni qilar ekan.

Onasi gap kelib, shu tadbirni aytsa, akasining jahli chiqib ketar edi:

– Ena, bu bilan nima demoqchisiz? Ayollar erlariga xiyonat qilaversin, faqat erlari bilib qolmasa bo'ldi, demoqchimisiz?

– Yo'q, bolam. Amir Temur qanday dono, tadbirkor bo'lganini aytmoqchiman. Xotinini xiyonat ustida ushlagan navkar hech qachon oldingiday jasorat bilan jang qila olmaydi, jismi butun bo'lsa ham, ruhi bir umr mayib bo'lib qoladi. Demak, sarkarda bitta navkaridan ajraladi. Bundan tashqari, odam kechirimli bo'lishi kerak.

– Nimalar deyapsiz, ena? Birovning qo'ynida yotgan xiyonatkorni kechirish kerakmi? – tutoqib ketadi Sardor o'zini navkarning o'rniga qo'yib.

– Qo'y, bolam, aytdim, qo'ydim-da. O'sha davrda har bir navkar hisobli bo'lgan.

Shohista oldingi safar kelganida Nozimaning qo'lida yaraqlab turgan bilaguzukni ko'rib, hayron bo'lgan edi. Hazillashib, "Ha, yangaposhsho, bizdan berkitib yurganlaringizni endi taqayapsizmi?", dedi. Nozima ham "Berkitib yurganlarimizni ham yig'ib-terib olib ketdingiz-ku, yana gapirasiz. Bir-ikki kun taqay, deb, ko'nglim ketib, dugonamnikini olgan edim, shuniyam ko'rib qoldingizmi?" deb chaqib oldi.

Endi sho'rlik onasi nima qilar ekan? Ikki bola bor. O'lsa ham ajratmaydi. Ammo xiyonatkor kelinni qanday qilib, o'g'lining qo'ynida, uyining to'rida saqlaydi?

Shohista hovli o'rtasidagi supaning temir panjarasiga suyanib, uzoq turib qoldi. Hamisha sog'inib, shoshib keladigan qadrdon ota hovli ko'ziga juda ivirsiq va befayz ko'rindi. Kelinning kayfiyati hovlidan ham ko'rinib turardi. U haqiqatan ham hamma narsadan voz kechganga o'xshar edi. Yo'laklarning chetlarida ko'rpa bo'lib yotgan ajriqlar, hovlining u yer-bu yerida to'nqayib yotgan bo'sh chelaklar, har doim yaltillab turuvchi oftobalarning bo'g'iq rangi... Ko'cha tomondan otasining tomoq qirganini eshitib, hushyor tortdi. Darvoza ochilib, ikki xalta bozorlik bilan otasi kirib keldi. Uylariga mehmon kelishi kerak edi. Bir pasga deb chiqqan edi, qaynonasidan baloga qoladi endi. Otasi bilan shoshib so'rashdi-da, ichkariga kirdi. Quyosh ko'tarilib, xona isib ketgan, onasi ko'zlarini shipning allaqaysi burchiga tikkancha, jim yotardi.

– Ena!

Kampir indamadi.

– Ena, o'zingizga tashladim. Menga qolsa, sira kechirmagan bo'lar edim. Dunyoning yarmi qovushib, yarmi ajrashib yotibdi. Bir sizning o'g'lingiz ajrashgani bilan hayot to'xtab qolmaydi.

Bolalar ham yo'lini topib ketadi. Hammamiz qarashamiz. Yana ham o'zingizga havola, sizga aql o'rgata olmayman, o'zingiz hal qiling.

Kampir yana indamadi.

– Men endi ketaman. Uyga mehmon kelishi kerak edi. Siz siqilmang.

– Xo'p, bolam, yaxshi bor.

– Otam ham keldi.

– Bildim, – kampir xona o'rtasida qo'qqayib turgan telefon apparatiga ishora qildi. – Manavini ko'zimdan yo'qot.

Shu kuni Robiya momoga hech kim, hech narsa kerak emas edi. Kimsasiz bir dashtu biyobon bo'lsa, dunyoni boshiga ko'tarib, o'kirib-o'kirib yig'lasa, yig'layversa!.. Hech kim "nega yig'layapsan?" deb so'ramasa. Axir nima deydi? Bu savolning javobi og'ir, juda og'ir. Ich-ichidan toshib kelayotgan faryod bo'g'zidan chiqib ketmasligi uchun lablarini qattiq tishlab, qo'llarini musht qilib oldi, ammo ko'zlarini idora qila olmadi. Ko'z yoshlari yuzining ikki chekkasidan quyilib ketaverdi, ketaverdi, quloqlari ham suvga to'lib ketdi. Ammo yig'lasang, darding yengillashadi, deganlari bekor gap ekan. Momoning yuragi juda behalovat bo'ldi. Yotib qolgandan buyon tezroq kunning kech bo'lishini, uyda oila a'zolarining jam bo'lishini yaxshi ko'rar edi. Bugun esa kun kech bo'lib, hammaning yig'ilishidan yuragi cho'chib turardi. "Endi qanday qilib kelinining yuziga qaraydi? Gaplashib olmoqchi, ammo qanday qilib gaplashadi? Nima deydi u nobakorga? Essiz!.. Ha-a, manglayi qora, badbaxt to'qol! Boshida shunday eri bo'la turib, shu ishni qilsa-ya. Ikki bolang bo'lsa, muallim degan oting bo'lsa, musulmon farzandi bo'lsang! E-e, besharm, behayo!"

Nozimaning kelganini beton yerga urilgan poshna ovozlaridan bildi. Taq-tuq ovozlari ayvon ostonasiga kelib tindi, "g'iyq" etib, eshik ochildi-da, kirgan odam yengilgina yurib, uyning narigi tomoniga ketdi. "Nozima". U ancha payt xonasida qolib ketdi. "Dam olayapti, shekilli". Ancha vaqtdan so'ng avval ayvondan, so'ng hovlidan shovur eshitildi: "Turdilar. Bir kirib, til uchida bo'lsa ham, yaxshi yotibsizmi, deb qo'ysa, haqqi ketib qoladiganday. Betarbiya, na ketayotib, xayr, deydi, na kelib salom beradi".

Kampir yotgan joyida kelinining chimirilgan qiyofasini ko'z oldiga keltirdi. Ishdan horib-tolib kelgan holimda shularning hovli-joyini yig'ishtirishim kerak, kirini yuvib, ovqatini qilishim kerak, sigirini sog'ishim kerak, degan iddao bilan yurgandir, albatta. Avvallari kampir sog' paytida, keksa bo'lsa ham qo'lidan kelganicha, hamma yoqni saranjomlab, yengilroq ovqatlarni qilib o'tirardi. Endi kampirning o'zi ham ish bo'ldi.

Shu bilan Nozima kampirning xonasiga kechqurun kirdi. Xuddi kimdir bo'yniga ip solib, majburlab olib kirganday, diltang qiyofada salom berib, xonadagi idish-tovoqlarni yig'ishtirib ketdi, keyin nevara qizdan labi uchgan kosada yarim kosagina ovqat kirgizib yubordi. Uning labi uchgan idishni juda yomon ko'rishini yaxshi biladi. Bilib turib... Bir chaqib olish uchun... Nima qilsin, indamaygina yotgan kampir bilan shang'illashib urisha olmasa... Bu kampir ham o'lmasa, yitmasa, oyog'i yo'q, biron joyga bosh olib ketmasa... Dardisar, yeydi, yotadi!

Robiya kampir yurak hovuchlab erta kunni kech qildi. Oldiga hali unisi, hali bunisi kirib chiqayapti. Nozimaning o'zi kelmasa ham chaqirtirishga imkon bor edi. Jur'at qila olmadi. Avval aytmoqchi bo'lgan gaplarini ko'ngliga taxlab chiqdi. So'ng o'zini birin-ketin bahonalar bilan aldadi: ovqatini qilib bo'lsin, sigirini sog'ib bo'lsin, hovlini yig'ishtirib bo'lsin... Nevaralari, o'g'li kelgandan so'ng bugun uchun imkoniyatlari batamom tugaganligidan negadir yengil nafas oldi: "Bunday gaplarni xoli gaplashish kerak".

U ovqatga qo'l ham urmadi. Idishlarni nevara qiz olib chiqib ketdi. O'zicha "Nega ovqat yemadingiz?" degan savolni kutdi. Yo'q, hech kim hech narsa demadi. Eri bilan o'g'li uning kosasini ko'rmagan, kelinga esa baribir. Kosadagi ovqatni shartta yuvindi chelakka ag'dargan-qo'ygan.

Robiya momoning yonida choli o'tirgan edi. Ayvonda yana telefon jiringladi. Kampirning yuragi qinidan chiqib ketay, dedi. Butun vujudi quloqqa aylanib, ayvon tomonga qaradi. Boboning gapini ham to'xtatib qo'ydi: "Bir pas jim turing. Kim telefon qilayapti?". Boboning achchig'i keldi: "Kim bo'lardi, qudag'ayingdir-da. Nozima shu atrofda yuribdi, o'zi oladi". Haqiqatan ham telefon qo'ng'irog'i o'chib, ayvondan Nozimaning istig'noli ovozi eshitila boshladi: "Ha, onajon. Yaxshi, onajon. Xo'p, ona. Hech qo'ymadingiz-da, ona, xo'p, dedim-ku. Ertaga darsim yo'q, oldingizga o'taman. Xo'p, onajon, sog' bo'ling".

Kampirning eshigi yopiq bo'lsa ham devorlar shuncha yupqamidi, yo kampirning ko'zlari shunchalar o'tkirmidi, Nozimaning so'zlaridagi emas, ko'zlaridagi nozu firoqni ham aniq ko'rib turardi: "Diyonatsiz. "Onajon" emish".

Gurungi bo'linganidan xafa bo'lgan chol qudasini yozg'irdi: "Bu qudag'aying hech qo'ymaydi. Qachon qarasang, chaqirib turgan kuni. Sen birovning uyi deb, bitta telefon qilishga ham tortinarding, u bo'lsa, ertayu kech "jiring-jiring"! Qo'l telefonlari ham arzon bo'lib qopti, ba'zi uylarda har bir odamda bir telefon emish. Kelining ham shu telefondan bitta olsa, keyin kechayu kunduz onasi bilan gaplashib, uydagi hamma axborotlarni yetkazib turadi".

– Uyaling-e, erkak boshingiz bilan kelinni g'iybat qilgani, – kampir o'zicha erini urishgan bo'ldi, ammo qo'l telefonlari haqidagi yangilikni eshitib, yuragi shuv etib ketdi: "Quribgina ketsin, iloyim. Ayvondagi gurunlar-ku, nazoratida edi. Ammo qo'l telefoni olsa... Oladi. Tillo uzuk olib bergan boyvachcha telefon ham olib beradi-da. Sharmanda! O'sha yigit ham ahmoq ekan. Bu tasqaraning

nimasiga uchgan? Ikki bolali birovning xotiniga osilguncha o'zingga munosib biron bo'y qiz top. Qiz zotiga qirg'in kelmagandir, axir. Ko'cha to'la qiz. Yo'q, yigitlar qizlardan qo'rqadi. Qiz bolaning javobgarligi bor. Erli xotin bo'lsa, besh-olti kun ermak qilib-qilib, joniga tekkach, e-e, bor-e, deb tashlab ketaveradi. Vijdonsiz!"

– G'iybat emas, bor gap. Kelining ham shu onaning bolasi. Telefon jiringlasa, og'zidagi og'zida, qo'lidagi qo'lida qolib ketadi. Uchib borib, telefonning yonida paydo bo'ladi. Hey, anavi yerda erim turibdi, manovi yerda qaynotam turibdi, demaydi.

– Qo'ying, – kampir og'ir yuk ostida qolganday chuqur xo'rsinib, ustidagi ko'rpani olib tashladi, peshonasiga tepchigan terlarni artdi. – Ertaga qo'l telefoni olsa, gaplashganini ham ko'rmaysiz.

– E, kampir, bilganini qilsin, – bobo behafsala qo'l siltadi. – Sen bilan biz o'tib ketayotgan odam. Shu, erta-yu kech qovoq-boshini uyub yuradigan ichi qora odamlarni yomon ko'raman. Nima darding bo'lsa ayt, qo'limizdan kelgancha yordam beraylik. Yo'q, qachon qarasang, quyunday to'ntarilib yurgani yurgan. Qarab tursam, eriga ham hech o'ng gapini aytmaydiganga o'xshaydi. Sardorga ham qiyin bo'ldi.

Kampir choliga hayron bo'lib, qarab qoldi. Hech zamonda birovning na g'iybati, na sifatini qilmaydigan odamning gaplari uni dahshatga soldi: "Ha, Sardorga rostdan ham qiyin bo'ldi".

Olloqul bobo o'rnidan turib, derazaning pardasini surib qo'ydi. "Ozroq toza havo kirsin". Bir piyola choy quyib, kampirining yoniga qo'ydi. "Manavi shokoladdan bittagina yeb ol, ustidan choy ichasan", bitta konfetni archib, og'ziga olib bordi. Kampirning yupqagina lablari titrab ketdi, ko'zlari yoshga to'ldi.

Chol indamay, kampirning mijjalarini artdi, keyin yonboshida turgan qo'lini kaftlari orasiga oldi: "Siqilma, onasi. Senga bu gaplarni aytmagligim kerak edi. Yotgan joyingda ham hammasini ko'rib-bilib yotibsan, bilaman. Bir gap kelganda aytib yubordim-da men ham. Hali hammasi yaxshi bo'lib ketadi, yosh-da bular. Foyda-ziyonini bilmaydi.

Kampir indamadi.

– Ikki kundan so'ng gipslaringni yechamiz, – chol kampirning ko'nglini ko'tarish uchun yaxshiliklarni yodga oldi. – Qizlaringni chaqiraman, yaxshilab cho'miltirishadi. So'ng o'tirib, ovqatingni yeydigan bo'lasan, keyin asta-sekin yurib ketasan. Avval qo'ltiqayoqda, so'ng o'zing... Shuncha erkalik qilib yotganing yetar, keyin qozon-tovoqni o'zing qilasan. Sening ovqatlaringni sog'inib ketdim. Xo'pmi?

Kampir ko'zlarini yumib, ochdi: "Xo'p".

– Endi yig'lamaysan-a? Men bir tashqarilab kelay.

– Boravering, – uning ovozi nihoyatda xasta edi.

Chol ostonadan ortiga qaytdi:

– Hey, sening juda mazang yo'qqa o'xshaydi-ku. Do'xtir chaqiraymi? Qon bosiming oshib ketgan bo'lmasin yana. Yo yuraging bezovta qilayaptimi?

– “Bilmasam... Nima bo'lganda ham o'lmayin-da. Men o'lsam, Sardor bilan ikki nevaraning holi nima kechadi?”

– Menga qara, – Olloqul bobo kampirining ko'zlariga yana sinchiklab qaradi, – Mazang yo'q bo'lsa ayt, do'xtir chaqiraman.

– Mayli, chaqiring, – kun bo'yi davom etgan asabiy holat kampirni butunlay holdan toydirgan edi. Xuddi oyoqlaridan joni chiqib ketayotgandek bo'ldi.

Bir pasda “Tez yordam”ning do'xtirlari yetib keldi. Boshiga oq qalpog'ini bostirib kiyib olgan o'rta yoshlardagi do'xtir “E-e, momo, bu nima yotish? Qo'ying-e, bu erkalik sizdek dongdor birgadga yarashmaydi”, deya hazil-huzul qilib, qon bosimini o'lchadi, yuragini eshitib ko'rdi. So'ng yordamchisiga qandaydir dorilarning otini aytib, ukol qilishni buyurdi. Momolarining boshida yurak hovuchlab, diydirab turgan nevaralarni tashqariga chiqarib yubordi. “Nima bo'пти, do'xtir uka?” deb qayta-qayta o'smoqchilayotgan boboning kiftiga qoqib, tinchitgan bo'ldi. Ukollar qilib bo'lingach, yana momoning yonboshiga o'tirdi:

– Ozgina qon bosimingiz ko'tarilibdi. Picha toriqqan ko'rinasiz. Bir umr yelib-yugurib yurgan odam yotib qolsa, yomon. Ammo siz juda kuchli ayolsiz. Besh-olti kun yotganingizga siqilmang.

– Ikki kundan keyin gipsni ham olib tashlashadi, – izoh berdi bobo.

– Mana ko'rdingizmi, ikki kun sabr qilsangiz, hammasi o'tib ketadi. O'zi, aka, biz do'xtirmiz, bizga bunday gaplarni aytish yaxshi emas, – u Olloqul akaga yuzlandi. – Lekin bemorlik ham yaxshi bir davr. Sog'-omon yelib-yugurib yurganda na Xudoni, na bandani o'ylaymiz. Besh-olti kun yotib qolsak, Alloh deymiz, tavba qilamiz, hayotning, sog'likning qadriga yetamiz, hech kimni yotgulik qilmasin-u, ammo bemorlikning shunday tomonlari ham bor. Endi, buni momo yaxshi biladilar-u, shunday bo'lsa-da, bir aytdim-da. Alloh suygan bandasiga dard berar ekan.

– Shunday, – ma'qulladi Olloqul bobo.

– Shunday bo'lsa, ruhni tushirmasdan, olg'a! Hali sizlarning bu hayotda qiladigan ishlaringiz ko'p. Bolalarni joylashtirdik, bo'ldi, demanglar. Nevaralar bor. Bolaniki o'sguncha, nevaraniki o'lguncha, deyishadi. Tak chto!.. Peryod!

Chol-kampir kuldi:

– Ma'qul.

Do'xtir ketgach, yana hamma yopirilib, momoning xonasiga kirdi:

– Endi, yaxshimisiz, ena?

– Momo, choy damlab kelaymi?

– Momo, sizga nechta ukol qildi?

Faqat Nozima na yoniga kirdi, na ahvol so'radi.

Ukoldan keyin tanasi bir oz yumshadi, boshidagi og'riq tarqaganday bo'ldi. Bobo hammani tashqariga haydadi: "Ozgina dam olsin". Devordagi tunchiroqning zaifgina nuridan g'ira-shira yorishib turgan xonada ko'zlarini shipga qadab yotib, yana kelinini o'yladi: "Bir kirib ahvol so'ramadi-ya. Men unga bir og'iz yomon gapirgan bo'lmasam... Shunday iflos yo'llarda sang'ib yurgan odam aybini yashirish uchun atrofdagilarga xushomad qilib turishi kerak emasmi? Yoki men hayotni bilmaymanmi? Balki kelinimni bilmasman. Balki unga baribir bo'lib qolgandir. Erini ajrashaman, deyish darajasiga olib borgan xotinning o'zi avvalroq ajralishga qaror qilib qo'ygandir. Nimadir bu qarorning amalga oshishiga xalal berib turibdi. Nima ekan o'sha narsa?"

Do'xtir ancha kuchli dori bergan ekan, shekilli, ko'p o'tmay uyqu elitdi.

Ertalab tiniqib uyg'ondi, yaxshi dam olgan edi. Ochiq qolgan derazadan kirayotgan muzdek havo badanini junjiktirdi. Turli-tuman qushlarning chug'ur-chug'uri bolga to'lib turguvchi bog'larni yodiga soldi. Yerni, osmonni, bog'larini ko'rmaganiga qancha bo'ldi. U yotganidan beri daraxtlari yana o'sib, chiroyli bo'lib ketgandir-a. Hammasi o'sgan, o'zgargan, faqat u yer bilan yakson, chilparchin bo'lib yotibdi. U "chilparchin" degan so'zni hayotida ming marta ishlatgandir, ammo bu so'zning ma'nosi haqida hech qachon o'ylab ko'rmagan ekan. Chindan qirq parchin degani-da asli. Yaqindagina Robiya Soatova bo'lib, elning ustida yurgan ayol bugun qirq emas, ming bo'lakka bo'linib, ming parcha bo'lib, yerga singib, yer bo'lib ketdi. Oh, sho'r bo'lgan sho'r jonim-a! Shunchalar yozug'ing ko'pmidi sening?

Hovlidan mollarning mo'ragani eshitildi, izidan Olloqul bobo tomoq qirdi: "Har kim egasiga arzi-hol qiladi-da. Oh, men kimga arzi-hol qilay, Alloh? Yuraklarim yonib ketdi, kimga dardimni aytay? Oh,

egasini sharmisor etguvchi dardim-a!”

U yonida terlab-pishib, qalin ko’rpaga burkanib yotgan nevara qizini uyg’otdi:

– Tur, bolam. Maktabga borishing kerak. Hovlilarga bir suv sepib, supurib, chiroyli qilib qo’y. Birov yarim kelib qoladimi? Birdan joyingni ham yig’ib ket. Bobong kirganda yoyilib yotsa, yaxshi bo’lmaydi.

– Xo’p, momojon, – qiz uyqusirab turib ham xonani bir pasda saranjom-sarishta qilib chiqib ketdi. Bir ozdan so’ng yuz-qo’lini yuvib, supurgi ko’tarib kirdi:

– Momo, bir supurib chiqaymi?

– Mayli, bolam, – kampirning zimiston ko’ngliga bir qatim nur sizib kirganday bo’ldi. – O’zimning dastyor qizimdan aylanay. Keyin hovlini ham supur. Oshxonaga qara. Yangang turgandan so’ng, ayt, menga bir qarasin.

Oradan olamjahon vaqt o’tgach, eshikning pushtirang pardasi surilib, kelinning boshi ko’rindi: u allaqachon ko’chalik kiyimlarini kiyib, pardoz-andoz qilib olgan edi.

– Assalomalaykum, – bu salom bir-biriga yopishib qolgan lablari orasidan zo’rg’a chiqdi. – Ha?

Kampir bir zum sarosimaga tushib, kalovlanib qoldi:

– Senda gapim bor edi, – ovozidagi yalinchoq ohangdan o’zi nafratlanib ketdi.

– Nima gap? – kelin pardaning ichkari tomoniga o’tdi. Ovozida zarracha takalluf yoki qiziqish yo’q edi. Shunchaki so’radi: “Nima gap?”

– Ishlaringni bir yoqli qilib, bolalarni bog’chaga jo’nat. Keyin gaplashamiz.

– Mening boradigan joyim bor.

– Qanday joy u? – achchig’i chiqqanidan ovoziga biroz jon kirdi.

– Onamnikiga bormoqchi edim.

– Onangniki buguncha turib turadi. Undan muhimroq ish bor.

– Nima ish ekan u? – Nozimaning jahli chiqdi. “Yotgan joyida menga xo’jayinlik qilishini!..”

– Keyin bilasan, – kampir “endi bor, boraver”, degandek yuzini ters burib oldi.

Nozima bir pas ostonada serrayib turdi-da, so’ng indamay chiqib ketdi.

Hamma kampir bilan birin-ketin xo’shlashib, o’z yumushiga ketdi. Nozima hammadan keyin kirdi, u ko’chalik kiyimlarini yechib, egniga yangi guldor xalat kiyib olgan edi. U xonaga kirib, qo’llarini orqasiga qilgancha, deraza tokchasiga suyanib turib oldi:

– Tinchlikmi?

– O’tir, – kampir uning oyoqlari ostidagi ko’rpachaga ishora qildi.

– Menga shunday qulay, turaveraman.

– Nozima!

– Ha?

– Men hammasidan xabardorman. Bilsang, sen gaplashadigan telefonni men sotib olganman. Sotgan odam hamma amallarini aytib sotgan edi. Men sening pichir-pichiringdan gumonsirab, yozib oladigan uskunasi ishlatib qo’ygan edim.

Nozimaning rangi oqardi. Qoshlarini chimirib yerga qaradi.

– Sendan nimani kutsam ham, bunday ahmoqchilikni kutmagan edim. Nima xayol bilan bu ko’chaga kirding, bilmayman. Lekin ikki bola bo’lmasa, o’g’lim xotinsiz o’tib ketsa ham, hammasidan voz kechib yuborar edim. Ammo men nevaralarimni ko’chaga tashlab qo’ya olmayman. Sen yo bu o’yinlarni to’xtatasan, yo uydan chiqib ketasan.

Nozima yerga qaragancha, ancha vaqt jim qoldi. Lekin boshini ko’targanda ham ko’zlarida zarracha sarosima yo’q, mutlaqo xotirjam edi.

– Bu yerda siz o’ylagan narsa yo’q. Biz u yigit bilan shunchaki do’stmiz. O’zi yosh bola, hatto uylangani ham yo’q. Hazilkash. Siqilib yurgan vaqtlarim u bilan gaplashsam, ko’nglim yoziladi.

– Tillo taqinchoqlarni ham hazillashib olib berganmidi?

Yolg’onlari befoyda ekanligini anglab yetgan Nozima yuzidagi eng so’nggi pardani ham yirtib tashladi:

– E-e, menga qarang, maqsadingiz nima?! Meni haydashmi? Bilaman, shu uyga kelganimdan buyon sizga yoqmayman, meni yo‘qotish uchun bahona izlab yurasiz. Uch oydan beri yotqizib, ovqat berganimning mukofotiga shu tuhmatni o‘ylab topdingizmi? Ketishimni judayam istayotgan bo‘lsangiz, har xil narsalarni to‘qib o‘tirishning hojati yo‘q. O‘zim zo‘rg‘a yurgan edim. Shunday ham ketaveraman.

Kechadan buyon ichi zahar-zaqqumga to‘lib, azob bilan ilondek to‘lg‘anib yotgan bo‘lsa-da, maqsadi murosa edi. Bu behayo esa!.. Ham g‘arlik, ham peshgirlik ekan-da... Kampir ichi yonib turgan bo‘lsa-da, yana murosaga chaqirdi:

– Bolalar-chi? Bolalarga nima deysan?

– Buni siz o‘ylang. Onangiz buzuvq ayol edi, shuning uchun haydab yuborganman, desangiz, harqalay sizdan minnatdor bo‘lishmasa kerak. Qolaversa, bolalarni deb shu g‘urbatxonada bir umr yashash hech aqlga to‘g‘ri kelmaydi, – u shunday dedi-yu, zipillab xonadan chiqib ketdi.

Robiya momo yotgan joyida hang-mang bo‘lib qolaverdi. Yugurib borib to‘xtatay desa, buning oyog‘i yurmaydi, iziga qaytar, desa, uning insofi yo‘q.

* * *

Nozima qaynonasining oldida o‘zini har qancha bamaylixotir tutgan bo‘lsa-da, xonadan chiqquncha adoyi tamom bo‘lgan edi. Bu o‘lgur qari kalamush nimalardandir is olib yurganini sezar, o‘ziga ham yoqmayotgan turmushi nihoyasiga yetib borayotganini his etar, ammo bu sezgilari uni unchalik cho‘chitmas, hayotidagi bir xillik, sadoqatli kelin rolini o‘ynash joniga tekkan edi. U azaldan yo‘llarining, yo‘ldoshlarining yangilanib turishini, safarlarga chiqishni, yangi-yangi sarguzashtlarni yaxshi ko‘rardi. Teng-to‘shlari chet ellarga chiqib, jaraq-jaraq pul topib kela boshlaganida onasi uni allaqachon uzatib yuborgan edi. Har kimning yurishidan bir nuqson topadigan qaynona, ko‘r ko‘zlar ochilganda ham qovog‘i ochilmaydigan er, bolalar uning yurar yo‘llarini batamom berkitib qo‘ydi. Ba‘zan qizlar bilan o‘tirganda “O‘h, boshimda dardisar erim bo‘lmaganda bormi, bu yerlarda ovora bo‘lib yurmas edim. Dunyo kezar edim, ham sayohat, ham tijorat. Ham dunyo ko‘rar edim, ham pul ishlar edim”, der edi doim. Bir qo‘shnilarining qizi sakkiz yildan beri Gretsiyada yuribdi. O‘zi Gretsiyada, buyoqda uning uchun qasr qurildi, eng zamonaviy jihozlar bilan jihozlandi. Bir nosqovoqday qiz, butun aka-ukalarining homiysiga aylandi, qaysiga uy olib bergan, qaysinisiga mashina olib bergan. Har kelganda Gretsiyaga qiz olib ketadi, o‘zi odamlarni ishga joylashtirishdan boshqa yumushi yo‘q ekan. Gretsiyada ham uy-joyi, mehmonxonasi bor ekan. Ana, hayot! Nima, Nozima shuncha aqli, shuncha husni bilan o‘sha nosqovoq eplagan ishni eplay olmaydimi? Juda eplaydi. Faqat avval manavi “toshturma”dan chiqib olish kerak, keyin o‘z-o‘zidan yo‘llari ochilib

ketadi. Lekin bu yoqda Hamdam ham bor. Bu boyvachcha yigit unga hech narsa va'da bermayotgan bo'lsa ham, u bilan birga bo'lish unga juda yoqar edi. Ehtimol, Nozima uning hayotidagi yagona ayol emasdir, shunchaki ko'ngil xushi uchun uni izlayotgandir, lekin baribir bir gapirib, o'n kuladigan bu dilbar yigitning maftuniga aylangan edi.

Agar chet elga ketsa, undan voz kechishi kerak. Bu esa juda qiyin. Hamdam bu rejasidan xabar topsa, tish-tirnog'i bilan qarshi chiqishi aniq. Unda nima qiladi, Termizda qolaveradi. Shaharning har burchagida otasining bittadan uyi bor boyvachcha yigit uni chet elga yubormasa, bitta uyini beradi. Uylanmasa ham ta'minlab qo'ysa bo'ldi, yashayveradi, o'zi xon, o'zi bek bo'lib!

Lekin qaynonasining bilib qolgani yomon bo'ldi. Eri bilan biron janjal chiqarib, uydan chiqib ketishi kerak edi. Endi ovsin-ajinlar eshitadi, ulardan qo'ni-qo'shnilar, boshqa qarindosh-urug'lar... Yuzi shuvit bo'ladigan bo'ldi-da. Yaxshisi, kirib kechirim so'ragani ma'qul, "Haqiqatan ham oramizda hech gap yo'q. O'zi shilqimlik qilib yuribdi. Shu daqiqadan orani ochaman. Men ota-onamning yuzini yerga qaratishni istamayman", deydi. Keyin Hamdam bilan gapni bir joyga qo'yib, boradigan yeri aniq bo'lgach, eri bilan bir janjal chiqaradi-da, bolalarini olib, uydan chiqib ketadi. Birov bir narsa desa, "Erim odam emas, yeb qo'ydi. Qaynonam ham yotgan joyida zaharli ilondek chaqib, ko'zimni ochirmadi", deydi. Ishongan odam ishonsin, ishonmagan o'zi biladi.

Tushga yaqin qaynonasining oldiga choy damlab kirdi. Kampir ko'zlarini yumib, lablarini qattiq qimtigancha, chalqancha yotardi. Qadam tovushlarini eshitib, ko'zlarini ochdi, uning ko'zlari qizarib ketgan edi, og'riqli nigohlarida nadomatga o'xshash bir ifoda paydo bo'ldi. Nozimaning unga rahmi kelib ketdi. Choyni kampirning yonboshiga qo'yib, o'zi karavotning yoniga to'shalgan ko'rpachaga cho'kkalab, qaynonasining serajin qo'lini kaftlari orasiga oldi:

– Meni kechiring, xolajon. Haqiqatan ham bizning oramizda siz o'ylagan narsa yo'q. U shunchaki bir shilqim yigit. O'zi yosh bola, hatto uylanmagan. Hazil-huzul qilib yuradi. Bir uzuk bergani ham rost. U juda boy, uning uchun bir uzuk, bir quti gugurtdak gap. Tug'ilgan kuningizga deb qo'ymadi, oldim. Ammo shu daqiqadan boshlab orani ochaman. Faqat bu gap ikkovimizning oramizda qolsin.

Uning tavbalarini tinglayotib, ko'zlaridan tirqirab yoshlar chiqib ketayotgan qaynonasiga qarab, haqiqatan ham bosib o'tgan barcha yo'llaridan, oromini o'g'irlagan orzu-niyatlaridan butkul yuz o'girishni istayotganini his qildi. Haqiqatan ham odamlar o'zimga bir boshpana quray, bir mashina olay, deb, chet ellarda sarson-sargardon bo'lib, kim qullikni, kim fohishalikni bo'yniga olib, azob-uqubat chekib yuradi. Uning shunday uyi-joyi bo'lsa, mashinalari ham bor, eriga o'ng gapirsa, er ham, mashina ham xizmatida bo'ladi. Bir cholu kampirning ikkita kosasini yuvishdan qochib, shunday malomatlarni bo'yniga olishi shartmi?

Kampir qo'lini uning kaftlari orasidan chiqarib olib, qo'llari ustiga qo'ydi va ohistagina silab, bosh irg'adi:

– Xo'p, boraver.

Lekin Nozima qaynonasining oldidan ko'ngli xijil bo'lib chiqdi:

"Ilonning yog'ini yalagan jodugar! Ishonmadi menga. O'g'lining ro'zg'ori buzilib, nevaralari yetim bo'lib qolmasligi uchun o'zini ishongandek ko'rsatdi".

Ammo shu kuni hech qayerga chiqmadi. Telefonning simini butunlay uzib qo'yib, uylarni bir boshdan tozalab chiqdi.

Qaynonasining usti-boshini almashtirdi. Kir yuvdi. "Bir kun erta-kechining farqi bormi? Gipslarini bugun ola qolsin. Bugun cho'miltiramiz. Bir tanlari yayraydi", deb qo'yarda qo'ymay erini do'xtirga jo'natdi. O'zi orada telefonni bir ulab, Shohistaga qo'ng'iroq qildi: "Bir kelib keting. Xolamning gipsini olishadi bugun. Gulzor bilan ikkovlaringiz cho'miltirmasalaringiz, mendan tortinadi. Hammomni yoqib, suvlarni isitib qo'ydim". Shohistaning oldida odam bormidi, gapni qisqa qildi: "Bo'pti, o'taman".

Ammo uyga kelganida uning qarashlaridagi sovuq ifodani ko'rib muzlab ketdi: "Hammasidan xabardor ekan-da, bu kishiyam. O'h, bu yosuman kampir do'st emas, do'st bo'lsa, shu go'dakning sirini yana birovga aytib nima qilar edim, derdi. Bu darrov erka qizini chaqirib, g'iybat qilgan!"

Gips olinadigan kunni momolari bilan birga orziqib kutib yurgan Sanjar momoning ahvolini ko'rib, yig'lab yubordi. Kampirning butun a'zoyi badani yara-chaqa bo'lib ketgan, uch oy ichida tanasi yangi holatga moslashib qolgan, na beli, na tizzasi bukilar, turib yurish nari tursin, hech bo'lmasa, oyoqlarini osiltirib karavotida ham o'tira olmas edi.

Yerga ikki qavat odeyal to'shab, uning ustiga momoni zambilda ko'targandek choyshabda ko'tarib, odeyalning ustiga qo'yishdi. So'ng xuddi mayyitni yuvgandek – yotgan joyida u yoq-bu yoqqa ag'darib, cho'miltirib olishdi. So'ng yana bir choyshabga o'rab, ikkinchi choyshabga zambildek yotqizib, karavotiga chiqarishdi. Kampir baribir, ancha yengil tortdi. Ammo Sanjarni yupatish qiyin bo'ldi, u momosining boshida o'tirib, yig'ladi: "Gipsni olgandan keyin yurib ketaman, degan edingiz-ku. Siz meni aldadingiz". Unga qarab, Nozimadan boshqa hammaning ko'zi yoshlandi.

– Nega aldaysiz, ena, shunday katta odamni ham aldab bo'ladimi? – masxara qildi Shohista.

– Aldaganim yo'q. Bugun yurmasam, erta-indin albatta yurib ketaman. Asta-astachilik bilan-da, bolam, – astoydil o'zini oqlar edi momo.

– Aldaysiz, aldayapsiz, – yana yig'ladi bola.

– E-e, bo'ldi-e, buncha sho'rqillaysan, – Sardor o'g'lini urishib tashladi. – Momong bir balodan qutildi, deb hammamiz xursand bo'lib o'tirsak, kayfiyatni buzasan. Jim bo'l, bo'lmasa, hozir tashqariga chiqarib tashlayman.

Sanjar otasiga bir qarab, ko'zlarini artirdi, so'ng burnini torta-torta orqa tomondan momoning ko'rpasiga kirib, quchoqlab oldi.

Nozimaning rejalari Shohistani ko'rgan daqiqadayoq o'zgargan edi: "Ketaman. Saltanati o'zlariga buyursin". Shohistani kuzatib ham qo'ymadi. Qizchasini olib, xonasiga kirdi-da, yotib oldi: "Ertaga Hamdamni topishi kerak! Masalani ko'ndalang qo'yadi. Uni deb ro'zg'ori buzilayapti. Uning maqsadi nima? Uylanmoqchi bo'lsa, uylansin. Bo'lmasa, bir boshpana topib, uni bolalari bilan o'z himoyasiga olsin. Rost-da, na yurgani, na turgani qo'yadi. Ikkita tilla taqinchoq bilan bir insonning qora chaplangan nomini oqlab bo'lmaydi".

Hamdamni topishdan osoni yo'q edi. U "Nafis mollar" do'konining yonida ikki yigit bilan gaplashib turardi. Nozimani ko'rishi bilan ularga xayr-xo'sh qilib, Nozimaning yoniga yugurib keldi:

– Ha, yanga, yaxshi yuribsizmi? Kecha akam kelaman, degan edi. Kelmadi, tinchlikmi? – u atay atrofdagilarga eshittirib baland-baland ovozda gapirardi. – Rosa xavotirlandim.

– Bugun soat o'n ikkilarda boraman, deyayotgan edilar. Borib qolsalar kerak, – dedi Nozima ham va so'ng xayr degandek bosh irg'ab, yo'lida davom etdi.

Hamdam undan biroz keyinroq keldi, bir qo'lida mayda-chuyda solingan yelim xalta, ikkinchi qo'lida yarimlagan "Kola". Eshikni o'zining kaliti bilan ochib, ostonada Nozimaning poyafzalini ko'rib, suyunganidan xirgoyi boshlab yubordi: "Chorlamasam kelmadingiz, kutganimni bilmadingiz, oymi yo kunmidingiz, o'zingiz sevgilim".

Boshqa payt bo'lganda Nozima o'rnidan sakrab turib, ming bir noz-istig'no bilan oshig'ining qo'yniga kirib, qo'lidagi "Kola"ni yulqib olib, ostonadayoq bir to'yib simirardi. Ammo bugun yo'lakdan kiruvchi eshik ko'rinib turadigan kresloda oyoqlarini chalishtirgancha qovoqlarini uyub, indamay o'tiraverdi.

Hamdam ichkariga kirib, qo'lidagilarni stolning ustiga qo'ydi. Xonaga tandirdan yangi uzilgan somsaning totli hidi taraldi. Nozima shunda ham o'rnidan qo'zg'almadi.

– Ie, – Hamdam uning yoniga o'tib, yelkalaridan quchdi. – Oydan ham, kundan ham go'zal ekan-ku, bizning sevgilimiz. Bu nima o'tirish? Qanday burga chaqdi sizni?

– Sizga hazil-mazax bo'lsa bo'ldi?

– Nima qilay bo'lmasa? O'h, juda yomon burga chaqqanga o'xshaydi-da o'ziyam. Lekin sho'rlik burgayam sizni chaqqandan so'ng joyida til tortmay o'lgan bo'lsa kerak. O'lay agar, sizning zahringizga mendan boshqa hech bir jonzot dosh bera olmaydi.

– E-e, – Nozima yelkasidan Hamdamning qo'lini olib tashladi, – sizga balo urarmidi? Yo'limni to'sib, ko'chadan o'tkazgani qo'ymadingiz, uyingizga olib borib qo'yaman, deb allaqayerlarga olib qochib ketdingiz. Endi mening otim yomonga chiqib, qaynonam uydan haydayman, deb o'tiribdi.

– Nima? – Hamdamning yuzidagi tabassum o'rnini sarosima egalladi. – Qanday qilib? Qaynonangiz qayerdan bilibdi?

– Bir antiqa telefonlari bor edi. Yotgan joyida mendan gumonsirab, shu telefonning zapis qiladiganini ishlatib qo'ygan ekan...

– Ie! Keyin nima bo'ldi? Nima dedi?

– Nima deydi? Sizning kimligingizni ham aniqlab olibdi, – Hamdamni yaxshilab qo'rqitish uchun yolg'on ham qo'shib qo'ydi. – Sharmandangni chiqarmasimdan uydan chiqib yo'qol, deyapti. Kecha gipsini olishdi. Ketmasang, o'sha yigitning ota-onasining oldiga boraman, deyapti. O'sha uyda bir daqiqa ham turgim yo'q, ammo boradigan joyim yo'q mening. Onamning uyida qo'sh kelin, bir etak nevara, bir-birining go'shtini yeb yotadi. U yerga boradigan bo'lsam, boshim g'alvadan chiqmaydi. Undan ko'ra bolalarni yetimxonaga topshirib, chet elga ketganim yaxshi.

– Qo'ysangiz-chi! – Hamdam uni birinchi marta ko'rayotganday hayron bo'lib qarab qoldi. – Chet elga! Sizga chet elda nima bor? Sizga uy kerakmi? Mana uy! Istagancha turaverishingiz mumkin. Keyinchalik o'zingizga biron uy olarmiz. Hozircha shu yerda turib turing. Bolalarni yetimxonaga topshirguncha, otalariga tashlab keling, bobosi, momosi bor, qarayveradi.

– Nima?! – Nozimaning ko'zlari katta-katta bo'lib ketdi. – Ikki dunyoda bolalarimni ularga bermayman. Ularga berguncha bo'g'ib o'ldirib tashlashim mumkin, ammo bermayman. Men yomon, bolam yaxshimi? Men ularni shu bolalarning tirnog'iga zor qilaman.

– Bu yog'i o'zingizga havola, – Hamdam Nozimani tinchitish uchun darrov yon bosdi. – Ish, ikki bola bilan o'zingiz qiynalib qolasizmi, deyman-da.

– Siz-chi? Siz yordam bermaysizmi?

– Mening qo'limdan nima ish keladi? Onalarini bag'rimga bosib, tishlab-tishlab olishdan boshqa hech narsa va'da qilolmayman, – Hamdam asta-sekin xotirjam tortayotgan Nozimaning yuzlarini

siladi. – Ana boring-ki, ro'zg'or qilishga yordam beraman, lekin men ularni bog'chaga olib borib, bog'chadan olib kelib yura olmayman.

– Bog'chaga olib borib yurishingiz shart emas. Bozor-o'charimizga qarashib tursangiz bas, qolganini o'zim eplayman.

Hamdam Nozimani bag'riga olib, kuldi:

– Qandingni ur, Hamdam! Ahmadning to'yida aytgan gapimga farishtalar "omin" deb yuborgan ekan-da.

– Qanday gap? – Nozima o'sha to'ydagi mojaroni sira eslashni istamas edi.

– Ko'tarasiga savdo qilamiz, degan edim, esingizdami? Mana, ko'tara savdo bo'ldi-qoldi. Ikki bolangiz bilan qo'shib olayapman.

"Olayapman" degan so'z Nozimaning kayfiyatini ko'tarib yubordi. Boshini Hamdamning ko'ksiga qo'yib, ko'zlarini yumib oldi.

– Lekin bir narsa yodingizdan chiqmasin, – gapida davom etdi Hamdam. – Siz bu uyda ijarada turibsiz, qo'shnilar yoki bizning uydagilar kelib so'rab qolishsa, ijarachiman, deysiz. Onam rus bo'lsa ham, opalarim g'irt o'zbek, ularni momom tarbiyalagan. Joyi kelsa, otamga aql o'rgatishadi, onamga tanbeh berishadi. Shuning uchun ehtiyotroq bo'lishimiz kerak.

Nozimaning tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketdi: "Olayapman, emish!"

Bir qarashda hammasi joyida, uy-joyi bo'ladi, qarashib, ko'nglini olib turadigani ham bo'ladi. Lekin bularning hammasi turli xil ranglar bilan tovlanib turgan sovun ko'pigidek omonat ekanligi ko'rinib turardi. Nozimaning ko'ngli g'ash bo'ldi, ammo o'zidan to'rt yosh kichik, uylanmagan yigitdan bundan ortiq nima ham talab qilishi mumkin. To'g'ri, Hamdam uni holi joniga qo'ymadi, yosh qizni olib qochganday olib qochdi, tilla taqinchoqlar olib berdi, ammo hech qachon "Senga uylanaman. Uvol-savobingga o'zim javobgarman", degan gapni aytgan emas. Bu yigit unday narsani bilmaydi, bunday gaplarni hech kimga aytmaydi ham. O'zbek kampir tarbiyalagan bo'lsa ham o'ris! Hatto shu o'risga ham zimmasiga tushayotgan mas'uliyat uncha yoqmadi, garchi hazil-huzul qilib, Nozimani erkalagan kishi bo'lib o'tirgan bo'lsa-da, gaplari ham, harakatlari ham unchalik qovushmayotgani ko'rinib turardi. Nozimaning batamom ruhi sindi: "O'ynashimga ishonib, ersiz qolgan voy boshim!"

Yelim xaltada xushbo'y hid taratib turgan somsalar turgan joyida sovib qoldi. Ikkisida ham somsa yeyishga rag'bat bo'lmadi. Ko'p o'tmay ikkisi ham qaytmoqchi bo'lib qoldi:

– Qaynonam uyga kirgizmay qo'ymasin yana, tezroq keta qolay.

Hamdam unga hayron bo'lib qaradi:

– Hali sizda uyga kirish imkoniyati bormi?

Nozimaning achchig'i keldi:

– Nima qilishim kerak, ket desa, yugurib ketib qolmayman-ku. Hamma gapingiz tuhmat, dedim.

– Malades!

Uning maqtoviga javoban Nozima bir o'qrayib qo'ydi: "Endi mendan qutulish yo'lini izlaydi bu".

Ertasi kuni maktabga Shohista bordi. Xuddi atay qilganday bo'sh soatida borgan edi. Ular maktab hovlisining adog'ida oqadigan kichkina ariq bo'yiga borishdi. Bu sokin burchakda maktabning mehnat darsi o'tiladigan sinfxona, partalar ta'mirlanadigan ustaxona joylashgani uchun mehnat muallimi ariq bo'yiga, baho qo'yish bahonasida bir nechta uzun-uzun o'rindiqlar o'rnattirgan edi. To ariq bo'yidagi o'sha o'rindiqlardan biriga joylashmagunlaricha ikkalasi ham bir og'iz gapirmadi. Ariqning suvi loyqa, yuzi xas-xashakka to'lib oqar, ammo suv chetidagi daraxtlar hisobiga yon-atrof salqin va bahavo edi.

– Men erim bilan urishdim, – anchadan so'ng gap boshladi Shohista, – u hammasidan xabardor ekan.

Nozima yerga qaradi.

– To'y kuni uni sensirab masxara qilganingiz yodingizdami? O'sha kuni yigitlar bilan bahs boylashgan ekan: "Izimdan itdek ergashtirmasam, otamning bolasi emasman", deb. Erimga "Biz endi boja bo'lamiz", deb maqtanibdi. Erim, "unday dema, qaynog'am juda yaxshi yigit", desa, "xotini ham yaxshi narsa ekan, xotin kishiga masxara bo'lish menga to'g'ri kelmaydi", debdi.

Nozima yana indamadi.

– Hey, menga qarang, erli, ikki bolali kap-katta xotin bo'la turib, ukangiz qatori uylanmagan yigit yur, desa, yetaklashib ketaverdingizmi? Mayli, eringizni, bizni o'ylamang, hech bo'lmasa, o'zingizni o'ylasangiz bo'lasmidi?

Nozima tamom bo'ldi: "Nahotki?!" Ammo qayinsinglisining ko'zlariga tik qarab, bosh chayqadi:

– Hammasi tuhmat! Biz u bilan faqat do'stmiz. Oramizda hazil-mutoyibadan boshqa hech narsa yo'q. Siz onangiz bilan meni haydamoqchisizlar. Ammo bolalarimni yetim qilib, hech qayerga ketish niyatim yo'q mening.

Shohista hang-mang bo'lib qoldi:

– Esingiz joyidami sizning? Qanday tuhmat? Hey, mening qo'limda telefondan yozib olingan ovozlaringiz bor. Hozir direktoringizning oldiga kirib, o'sha yozuvni stoliga qo'yaman. Bolalarga ta'lim-tarbiya berayotgan o'qituvchisining kimligini bilib qo'ysin.

– Siz bunday qila olmaysiz, – g'azabdan uning ko'zlari qisilib ketdi. – Bunday qilishingizga yo'l qo'ymayman. Agar shunday qilsangiz, ikki bolamni ham o'ldirib, o'limimizga qayinsinglim sababchi, deb xat qoldiraman-da, so'ng o'zimni osaman. Keyin ko'ramiz holingiz nima kechishini. Onangiz bilan akangiz sizni kechirarmikin?

Shohista o'rnidan turib ketdi, qani, yosh bola bo'lishsa, yonida turgan manavi cho'ltoq supurgining sochini bittalab yulib, o'zini ariqning loyqa suviga otib yuborsa!..

– Qiyshiq mo'ridan sassiq tutun chiqadi, deganlari shu-da. Sizning qo'lingizdan faqat shunday ishlar keladi. Chunki onangizdan zo'r tarbiya olgansiz.

– Onamga til tekkizmang. Men sizning onangizni gapirayotganim yo'q. Umuman, meni tinch qo'ying, mening hayotim bu menga tegishli mulk, unga aralashishga hech kimning haqqi yo'q.

“Shu bilan gap tamom” degandek Nozima o'rnidan turdi.

– Hey, menga qarang, sizda na yuz bor, na vijdon, na nafsoniyat! Akamning yuziga oyoq qo'ydingiz, lekin akam Hamdam hezalakka o'xshab garov boylashib, sizning nomingizni bulg'amagan. Siz enamning aytganlariga uchmang, enam “o'zimizdan boshqa hech kim bilmaydi, yopig'lik qozon yopig'ligicha qolaveradi”, deb kalta o'ylab yuraveradi. Erkak zoti bir xotinning bilagidan ushlasa, belidan ushlab, quchoqlab o'pdim, indamadi, deb maqtanadi. Hamdam hezalakni men bilmaymanmi, xotinchalish! Dunyoda qizbashara erkakni yomon ko'raman. Tfu! Aytib, maqtanmagan odami qolmagandir, Robiya Soatovaning kelinini unday-qildim, munday qildim, deb.

– Bo'ldi, bas qiling. Bu sizning fantaziyangiz. Menda boshqa gapingiz yo'qmi?

– Gapim shu – ketasiz. Enam Sanjarni juda yaxshi ko'radi. Sanjarni tashlab ketasiz.

– Voy, ko'nglingizning ko'chasidan-ey! – Nozima qayinsinglisini masxara qilib kuldi. – Sanjar mening bolam, uni men tuqqanman.

– Hali shoshmay tur, senga sichqonning inini ming tanga qilmasam, Shohista otimni boshqa qo'yaman, – Shohista tez-tez yurib, maktab darvozasi tomon ketdi.

– Qo'yaver! Bilganingni qil! – qichqirdi Nozima shallaqi ayollarga o'xshab. Qayinsinglisi burilib ketib qolgach, dami chiqqan pufakdek bo'shashib, yana o'rindiqqa o'tirib qoldi. Shohista to darvozadan chiqib, ko'zdan g'oyib bo'lmaguncha, undan ko'zini uzmay qarab o'tiraverdi. U juda qaysar qiz edi, har daqiqada fikrini o'zgartirib, iziga qaytib, maktab direktorining oldiga kirishi mumkin. Ana unda Nozimaning o'zini osishdan o'zga yo'li qolmaydi.

Yangi darsgacha hali vaqt ko'p edi. Nozima ariq bo'yida uzoq qolib ketdi: "Nahotki?! Bu ehtiroslar, kuyib-yonishlar – barcha-barchasi garovda yutqizib qo'ymaslik uchun, qasd olish uchun uyushtirilgan sahna bo'lgan bo'lsa?! Nahotki?.. Kimni nimaga almashtirding, badbaxt Nozima?!" U atrofga qaradi, kirligidan asl rangi qandayligini ham bilib bo'lmaydigan darajaga kelib qolgan bir ko'ylak kiygan farrosh ayol u bilan kulib so'rashdi:

– Ha, Nozimaxon, nimaga xilvatda xayol surib o'tiribsiz?

Ayolning hazili unga juda botdi: "Tavba, bo'lgani bir farrosh, meni o'ziga teng ko'rib, gap tashlashini qara!" U ayolga bir o'qrayib qarab qo'ydi-da, indamay yuzini boshqa tomonga burdi. "Qani, bo'kirib-bo'kirib yig'lasang, atrofingda hech kim bo'lmasa, yig'layotganingni hech kim ko'rmasa. Hech kim yupatmasa seni, hech kim ustingdan kulmasa!.." Chiqish qo'ng'irog'i chalindi, maktab hovlisi bir zumda qiy-chuvga to'ldi. U sudralib sinf tomon ketdi. Ayni paytda uning ko'zlari ko'rmas, quloqlari hech narsani eshitmas, butun fikri-xayoli Shohista aytib ketgan gaplarda edi. Qani imkoni bo'lsa, hoziroq Hamdamni topib, orani ochib olsa-yu, yuziga tupurib, so'ng hayotini yangidan boshlasa. Ketadi, gapdan qolmaslik uchun Shohistaga ketmayman, dedi-yu, ammo endi ketmasa bo'lmas. U tog'ning tepasidan pastga qarab, yugurib emas, yumalab ketayapti, endi to o'zi bironta toshga urilib to'xtamaguncha, to'xtay olmaydi. Jarayon boshlangan. Ortga yo'l yo'q.

Talabalik yillarida ham shunga o'xshash bir voqea bo'lgan edi. Kursdoshlar yig'ilib, toqqa chiqadigan bo'lishdi. Elektrichkadan tushishlari bilan tiniq osmonning yuzida qora-qura bulutlar aylanib, yomg'ir yog'a boshladi. Ular yomg'irdan qo'rqadigan yoshda emas edilar. Tog' yon bag'irlari kelib-ketuvchilarning oyoqlari ostida ezilib, xunuk bo'lib qolgan edi, bu yerda lola tugul, qad rostlab turgan bir giyohni ham uchratish mahol ko'rindi.

– Bolalar! Hech kimning oyog'i tegmagan cho'qqilar tomon olg'a!

Yigitlar oziq-ovqat solingan sumkalarni ko'tardi, qizlar ularga ergashdi.

– Bir quchoq lola termaguncha qaytish yo'q, – ahd qildi Nozima ham.

Yomg'ir kuchaygandan kuchaydi. Eng ichki kiyimlar ham, yelim xaltalarga solingan oziq-ovqatlar ham suvda ivib ketdi. Ust-boshlaridan sizib tushayotgan yomg'ir suvlari poyafzallarini ham to'ldirib yubordi: "g'arch-g'urch!" Ammo lolali cho'qqilardan darak yo'q edi.

– Bolalar! Biz lola terib borib, biznes qilamiz, deb chiqqanimiz yo‘q-ku. Qo‘yinglar shu lolalarni, ular hu, qorli cho‘qqilarning naryog‘idadir balki, u yerga chiqish uchun vertolyot zakaz qilish kerak. Biz siz bilan dam olish uchun chiqqanmiz. Shu yerda to‘xtab, dam olaylik. Qorinlar ham tatalab ketdi. Ovqatlanганиmizdan so‘ng, istovchilar gul tersin, xohlaganlar yotib dam olsin, – kurs sardori bolalarni to‘xtatib, murosaga chaqirdi.

Hamma charchagan edi. Uning taklifi hammaga ma‘qul tushdi. Shu atrofda g‘orga o‘xshash bir o‘ngir topib, uning ichiga joylashishdi. Darhol suv to‘lib qolgan poyafzallar, ustki kiyimlar yechilib, dasturxon yozildi. Qorin to‘ygach, yigitlar yonbosh tashlab, qarta o‘yiniga tushib ketdi, qizlar gul tera boshladilar, Nozima hammadan ko‘p gul terdi.

Bir payt sardor yana vahima qilib qoldi: “Tez yig‘ishtiringlar, hali zamon elektrichka kelib qoladi”.

Hamma norozi bo‘ldi:

– Hali ikki soat vaqt bor-ku. Endi joylashgan vaqtimizda...

Sardor ularning injiqliklarini qat‘iy rad qildi:

– Yo‘q, tez yig‘ishtiringlar! Chiqishdan tushish qiyin!

Tushish haqiqatdan qiyin bo‘ldi. Yomg‘ir hamon yog‘ardi. Bir soatlik hordiq payti selgigan kiyimlar yana jiqqa ho‘l bo‘ldi. Poyafzallar qadimiy qo‘shig‘ini aytadi: “g‘arch-g‘urch!”. Ularning kursida Dono ismli bir qiz bor edi. O‘zi juda chiroyli, ismi ham Dono, ammo aqli sal anaqaroq qiz edi. Shu qiz ba‘zan ariya aytar edi, ovozi ham juda o‘tkir, o‘zidek go‘zal edi. Shu yerda kimdir turtki berdimi yoki tumanlar ichra qad kerib turgan cho‘qqilar orasida ilhom kelib ketdimi, qo‘llarini ikki yonga yozib kuylay boshladi: “O-oo-o-a! O-oo-o-a!” Cho‘qqilardan aks-sado qaytdi: “Xo-oo-o-a!” Ariyachi Dono qiz bundan yanada zavqlandi: “O-oo-oo!” Dononi Nozimaning azaldan jini suymasdi. Hammaning usti boshi jiqqa ho‘l bo‘lib zo‘rg‘a kelayotgan bir paytda pastga olib tushadigan torgina so‘qmoqda turib olib, “O-o”lagani asabini buzib yubordi. Yo‘l yomon, hamma bir-birini ushlab zo‘rg‘a kelayotgan edi. Nozima qo‘llarini ikki yonga yozib, zavq bilan kuylayotgan Dononing yelkasiga qattiq nuqidi: “Qoch-e, yo‘ldan. Ariya aytadigan vaqtingni qara, sening!” O‘zi oldinga o‘tib olish uchun ikki qadamni tezobroq tashladi, keyin o‘zini to‘xtata olmay qoldi, enish yo‘l yugurtirib ketdi. Qayerdadir nimagadir qoqilib, yiqilib tushdi. Shu ko‘yi bir amallab tergan gullarini mahkam bag‘riga bosgancha qandaydir bahaybat toshga urilmaguncha dumalayverdi-dumalayverdi...

So‘ng bolalar uni ko‘tarib, elektrichkaga solishdi. Ikki hafta joyidan qimirlay olmay, shipga qarab yotdi. Tentak Dono kelib, kechirim so‘radi. “Hammasiga o‘zim aybdorman”, deya olgandi o‘shanda u mardona, lekin baribir ich-ichidan Dononi ayblardi: “Agar shu yomg‘ir ostida ariya aytmaganda!..”

Endi-chi, endi? Ortga yo'l yo'q. Xuddi o'shandagidek to bir xarsangga urilmagunga dumalagani-dumalagan. Lekin bu o'pqondan omon qolsa, Donoga aytgani kabi "Hammasiga o'zim aybdorman" degan iqrorni ayta olarmikin? Yo'q, bu safar iqror bo'lish oson emas.

U garchi bu ishi hech narsani hal qilmasa ham tezroq Hamdam bilan ko'rishib, Hamdamning iqrorini, to'g'rirog'i, o'zini oqlashini eshitishni istar edi. Ammo bugun Hamdam bilan uchrashib bo'lmaydi. Kecha salgina kech qolgani uchun qaynonasining qovoq-tumshug'i osilib qolgan edi. Bugun ham kech borsa, yaxshi bo'lmaydi. Biroz sabr qilib turgani ma'qul. Hamdam ham yurak oldirib qo'yganmi, o'tgan ikki kun ichida bir marta ham qo'ng'iroq qilmadi. Sal sog'insa, "Nafis mollar" do'konining yonida paydo bo'lib qolar edi, bu yerda ham qorasini ko'rsatmadi. Katta tanaffus vaqti direktorning qabulxonasiga kirib qo'ng'iroq qildi: "Onajon, yaxshi yuribsizmi? Bugun soat o'n ikkilarda bormoqchi edim. Uyda bo'p turing".

Ikkinchi tomonning gapini eshitib ham o'tirmadi. Darhol go'shakni o'rniga qo'yib, og'ziga qarab, angrayib turgan kotibga rahmat aytib, xonadan chiqib ketdi.

Uning asablari joyida emas edi, butun boshli maktab o'quvchilari sig'adigan keng yo'lakda Mahbuba Sultonovnaga urilib ketdi. Opaning ko'zlari chaqchayib, peshonasini qoplagan reza-reza terlarni kafti bilan sidirib tashlar ekan, unga nafrat bilan qaradi:

– Es-hushing joyidami sening?! Shuncha keng yo'l turibdi-yu, nega mening ustimdan yurmoqchi bo'layapsan?

– Uzi, opa, xayol olib qochibdi.

– Uzringni pishirib ye! Yiqilib ketsam, nima bo'lardi?

Opa juda semiz ayol edi, etaklaridan chiqib turgan kichkinagina oyoqlari yum-yumaloq gavdasini zo'rg'a ko'tarib yurardi. U yiqilsa, sog'-omon tura olmasligi aniq edi.

– Bilmay qoldim, opa...

– Shu ahvolda bunga xalqning bolasini topshirib o'tirganimizni qara, to'g'ri yo'ldan yura olmaydigan merov!

Bunisi endi ortiqcha bo'ldi! Nozimaning jazavasi tutib qoldi. Bir chetda gunohkorona, qo'lini ko'ksiga qo'yib turgan edi, beixtiyor ikki yoniga tushgan qo'llari musht bo'lib tugildi, opaning ustiga endi rostakamiga bostirib bordi:

– Og'zingizga qarab gapiring. Sizga hech kim odamlarni haqorat qilish huquqini bermagan. Bilmasdan urilib ketdim, buning uchun uzr so'radim. Haddingizni biling. Yo'qsa, haqoratingizga

munosib ish qilib qo'yishim hech gap emas.

Uning vajohatini ko'rib, Mahbuba Sultonovna dami chiqqan pufakdek bo'shashib qoldi, rangi gezarib, shartta orqaga burildi-yu, g'o'dranganicha jo'nab ketdi: "Sening masalangni pedkengashga qo'ydirmasam, psix!.."

To'rtinchi soati 7"da edi. Erkatoy bolalar chiroyli muallimalari bilan erkin suhbatlashgisi, erkanib hazillashgisi kelar, opalarining esa yuragiga qil sig'mas edi. Turib-turib shu erkatoylarga dardini aytgisi kelib ketdi. Jurnalni stolning bir chetiga qo'yib, sinfga yuzlandi.

– Bolalar, bugun mening biroz kayfiyatim yo'q. Iltimos, mendan hech narsa so'ramasdan mening kayfiyatimni ko'tarishga yordam beringlar. Mayli, bu ish qo'llaringdan kelmasa, hech bo'lmasa, kayfiyatimni butkul buzmaslikka harakat qilinglar.

Birinchi bo'lib prokurorning o'g'li qo'l ko'tardi:

– Uyga berilgan vazifani "a'lo" darajada tayyorlab kelganman. Xo'p, desangiz, izidan bitta anekdot ham aytib beraman.

Bolalar haqiqatan ham beg'ubor xalq edi. Ham dars bo'ldi, ham hazil-mutoyiba. Nozimaning ko'ngliga botib turgan tosh erimadi, ammo baribir oxirgi soati muammosiz, tinch o'tganiga shukr qildi. Lekin... O'zi istab-istamay yana bir katta muammoni boshlab qo'ydi. Endi Mahbuba Sultonovna pedkengashga masala tayyorlaydi. Ma'ruzasini uning tilla taqinchoqlaridan boshlashi aniq... Bir kelsa, qo'sh-qo'sh, deganlari shu-da. Ehtimol, bu yurtlarda rizqi tugab borayotganining belgisidir bu ham. Birovi uydan haydayapti, birovi ishdan haydamoqchi...

Hamdam bu safar ham undan keyin keldi. Uzoq qolib ketish niyati yo'q, shekilli, qo'lida "Kola"dan boshqa hech narsa yo'q edi. Ammo eshikdan kira solib, poyafzalini ham yechmasdan bir sakrab Nozima o'tirgan kresloning yoniga o'tdi-da, ming yil ko'rishmagandek yutoqib o'pa ketdi. Nafasi qaytib ketgan Nozima urishish uchun kelganini ham unutib, joni og'rganidan tipirchilab, uni o'zidan itarar, yelkalariga mushtlar edi. Nozima bir amallab uning quchog'idan bo'shalib chiqqach, stol ustidagi "Kola"ni olib, yarmini simirdi-da, so'ng o'zini Hamdamning yonidagi kresloga tashladi.

– Ammo lekin siz juda botir ayol ekansiz, – Hamdam chuqur nafas olib, o'tirgan joyida Nozimaga yuzlandi. – Endi sizni hech qachon ko'ra olmasam kerak deb qo'rqqan edim. Uch kundan beri o'zimga o'zim aza ochib, itdek azoblanib yurgan edim. Bugun ovozingizni eshitib, quloqlarimga ishonmadim. Ishonsangiz, ko'chada yuribman, eng yomon, eng xunuk odamlar ham ko'zimga bir chiroyli ko'rinadi-ey...

– Nega? – qoshlarini chimirgan ko'yi uning gapini bo'ldi Nozima. – Endi mening sizga nima keragim bor? Menga erishdingiz, garovda yutdingiz yoki yana biron narsa deb garov o'ynaganmisiz?

Hamdam unga hayron bo'lib qaradi:

– Tushunmadim, qanday garov to'g'risida gapirayapsiz?

– Shohistaning to'yi kuni mening ustimdan o'ynagan garovni aytayapman. Yo yodingizdan chiqib ketdimi?

– E-e, buncha vahima qilmang. Odamning yuragini yorib yubordingiz-ku. U shunchaki gap edi. Shunga shunchami?

– Izimdan itdek ergashtirmasam, otamning bolasi emasman, deganingiz rostmi? Ahmadga “Biz endi boja bo'lamiz, zo'r narsa ekan” deganingiz ham rost. Shuning uchun mening yo'limni to'sib chiqqansiz, shuning uchun menga sevgi izhor qilgansiz, shundaymi? – Nozima o'rnidan sakrab turdi. – Siz meni ahmoq qildingiz, ermak qildingiz. O'zingizning zo'rligingizni namoyish qilish uchun mening otimni bulg'adingiz. Siz iflos, pastkash odamsiz. Men sodda sizning chiroyli ust-boshlaringizga, chiroyli gaplaringizga mahliyo bo'lib, “sevgi” deganlari shu ekan-da, deb oilamni, or-nomusimni oyoq osti qilib, yetti qavat osmonda uchib yuraveribman. Suf, sizga! Endi xayr, meni boshqa izlamang. Nimagayam izlaysiz, ishingiz bitdi. Uch oy izingizdan itdek ergashtirdingiz. Bo'ldi-da, – uning ko'zlaridan tirqirab oqayotgan yosh yuzlarini ho'l qilib tashladi.

Hamdam shoshib qoldi. O'rnidan sapchib turib, Nozimaning yo'llarini to'sdi, yelkasidan quchib, zo'rg'a o'rniga o'tirg'izdi:

– Mening bir og'iz gapimni eshiting. Keyin nima qilsangiz ham o'zingiz bilasiz. Ammo meni eshitmasingizdan men sizni tashqariga chiqarmayman.

– Bo'pti, unda eshitganim bo'lsin. Ayting, gaplaringiz armon bo'lib qolmasin, – Nozima tumtayib o'tirib oldi. Hamdam murosa uchunmi qo'llarining ustiga kaftini qo'ygan edi, siltab tashladi, – gapiring.

– Hammasi rost, Nozima! Sizga to'g'ri yetkazishibdi.

Nozima yalt etib, Hamdamga qaradi.

– Unda... nega meni yo'limdan qaytarayapsiz?

Hamdam yerga qaradi:

– Men ortiq sizni aldashni istamayman. Bunga hojat ham yo‘q. O‘sha birinchi uchrashuvimizgacha men sizni yomon ko‘rardim. Shungacha odamlarning oldida sensirab, obro‘yimni to‘kdi, undan qasdimni olishim shart, deb o‘ylar edim. Keyin... Sizni yaxshi ko‘rib qoldim. Ishonmasangiz, ixtiyoringiz, men sizni chin yurakdan yaxshi ko‘rib qoldim va o‘sha to‘yda aytgan gaplarim butunlay esimdan chiqib ketdi. O‘sha kuni qaynonangizning gaplarini eshitib, tamoman o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. To‘g‘ri, men hozir sizga uylana olmayman. Ammalarim, opalarim naq ajdarhoning o‘zi. Ikki bolali ayol sening tenging emas, deb turib olishadi. Ular sizni burda-burda qilib tashlashadi. Yaqinda ular meni o‘zlariga yoqqan bir qizga uylantirishmoqchi. Mayli, uylantirishsin, keyin mening yo‘lim ochiladi. U uyda o‘tiradi. Men siz bilan yashayveraman.

Uning gaplari juda samimiy edi. Bu gaplarga Nozimaning juda ham ishongisi kelib turar, hayotini alg‘ov-dalg‘ov qilib tashlagan, ertangi kunidan sirayam umidi bo‘lmagan mana shu yigitdan sira ham ajralishni istamas edi.

– Juda ishondim-da o‘ziyam. To‘ydan keyin o‘n sakkiz yoshli nozaninni tashlab, boshi g‘alvadan chiqmaydigan men sho‘rtumshuqni izlab yurishingizga kim ishonadi?

– Ishonmasangiz, o‘zingiz bilasiz. Mening bir oshnam ikki bolali tatar ayolni yaxshi ko‘rib qoldi. O‘ziyam gruzinlarga o‘xshagan, rosa kelishgan yigit edi. Ota-onasi shu tatardan ajrataman, deb bir go‘zal qizni olib berdi. Oshnam ota-onasini xafa qilmadi, uylandi, qizning izzatini ham joyiga qo‘ydi, ammo tatar xotinni ham tashlab qo‘ymadi. Bir kun xotini “Ikkinchi xotiningiz bor ekan”, deb janjal ko‘targan ekan, “Ikkinchi xotin sensan: agar istasang, ketaverishing mumkin, sen aytayotgan ayol sengacha ham bor edi”, debdi. Shu bilan hammasi joyiga tushib ketdi.

Nozima yerga qaradi, ko‘ngli biroz taskin topgan edi. Hamdam uning qo‘llaridan tutdi:

– Meni tashlab ketmang, iltimos.

Nozima yosh qalqib turgan ko‘zlari bilan kuldi:

– Haqiqatdan ham yosh bolaga o‘xshaysiz-ey. Oramizdagi farq ba‘zan shunday bilinib qoladi-ki. So‘ng xuddi ukasini erkalagandek yuzlariga ohista shapatlab qo‘ydi.

– Nima? – Nozimaning erkalashi Hamdamni zavqlantirib yubordi. – Kim yosh bola? Hozir men sizga ko‘rsatib qo‘yaman yosh bolani!..

Davomi 26-betda

Ular har uch kunda tushlik vaqti, yarim soatgagina uchrashishga kelishishdi:

– Bu juda kam, – dod deb qoldi Hamdam, – uch kun kutib, yarim soatgina ko'ramanmi sizni?!

Bular hammasi Nozimaga xush yoqsa-da, o'zi ham bilmagan holda ulkan bir mavhumotning qarshisiga kelib qolganini anglab turardi. Hamdamning muhabbati ham, o'zicha tuzgan rejalari ham Nozima orzu qilgan jannatga boshlab bormaydi. To'g'ri, ro'zg'orida qaynota-qaynona bo'lmas, ammo nari borsa, ikki xonali bir katakdek uy va ikki-uch kunda o'g'ridek pusib, kelib ketadigan er! Bundan tashqari bu muhabbatning umri qancha-yu, uning rejalari qay darajada amalga oshadi – bu ham noma'lum. Lekin uning shunday qaysar fe'li bor edi-ki, bir yo'lga tushdimi, uni hech kim, hech narsa, hatto o'zi ham qaytara olmas edi. Mana, hozir ham noto'g'ri yo'lda ekanligini anglab turibdi, ammo sira ham Hamdamdan voz kecha olmaydi.

“Baribir erimdan ajrashib, chet elga ketaman. Ketgunimcha ko'rishib turay. Keyin shunday kelishgan yigitning o'tli quchog'i yo nasib etadi, yo yo'q”.

Yo'l-yo'lakay qizlari Gretsiyada yashayotgan qo'shnining uyiga kirdi. Dilnozaning telefon raqamini so'ragan edi, xola unga hayron bo'lib qaradi:

– Chetga chiqmoqchimisani?

– E-e, yo'-o'q, – uni tinchitdi Nozima. – Ishxonamizdan bir qiz so'ragan edi. Dilnoza bilan oldindan tanish ekan.

– Qiz bolaga chetda nima bor? – baribir norozi bo'ldi xola. – Dilnozaning yo'rig'i bo'lak. Bolalari bilan ukalarining eshigida turtki yeb yurgandan ko'ra, taqdirimda borini ko'raman, deb ketdi. U bir marta eshak bozordan o'tgan, qiz bolaning ertaga turmushga chiqishi bor, ertaga erining, odamlarning oldida o'zini nima deb oqlaydi. Unga kim ishonadi? Sizlar o'ylaysizlarki, chet elda non topish oson. Qizim “Bir chiqdim endi, hamma kamchiliklarimizni bitkazib olay”, deb yuribdi. O'ziga qolsa, o'sha yoqlarda bir kun ham qolmas edi. Har kelganda yig'lab-yig'lab ketadi.

Xolaning gapi hali-beri tugaydigan emas edi, asta o'rnidan qo'zg'aldi.

– Mayli, xola, qaynonam yo'limga qarab o'tirgandir.

– Ha, bor, qizim. Shu ro'zg'oringdan, qaynonangdan qolma. Qaynonaning tuvagini to'kkan kelinga do'zax o'ti harom ekan. Bosh burmay, xizmatini qil, duosini ol. Mendan ham salom ayt.

– Xo'p, xola. Endi haligi qizga nima deyman? Telefonini bersangiz yaxshi bo'lar edi-da. Borish-bormaslikni o'zlari hal qilaverishadi, – xolaning ko'zlariga umidvor qaradi.

– Mayli edi, qizim, lekin men uning telefonini bilmayman. Men unga hech qachon telefon qilib ko'rganim yo'q, har doim o'zi telefon qiladi.

“Yig‘lab-yig‘lab” ketsa ham o‘zining uy-joyi bor, dollarni taxlab tashlagandir. U ham boradi. Balki o‘sha yerlarda butunlay qolib ketar. Ha, qoladi. Guljahon opaning kelini Amerikaga borgandan keyin eri bilan ajrashib, o‘zining ish beruvchisiga tegib olibdi, nikohdan keyin darrov fuqarolik ham olibdi. Uyam durustroq odam chiqsa, o‘ylab o‘tirmaydi, shartta tegib, o‘sha yoqda qolib ketadi. Keyin “tata-pata” deb asabini buzuvchi qaynonasini ham, o‘ynashining og‘ziga qarab turuvchi direktorni ham hech qachon ko‘rmaydi.

Shu kecha negadir hech uxlayolmadi. Tongga yaqin ko‘zi ilingan ekan, aloq-chaloq tush ko‘ra boshladi. Allaqayerlarda adashib yurgan emish, kiyimlari daraxt shoxlariga ilashib, birin-ketin tushib, u shir-yalang‘och bo‘lib qolibdi. “Tushda yalang‘och qolish yaxshi alomat emas, tezroq kiyimlarim topila qolsaydi”, deb tushida tushini ta‘birlab diqillab turgan emish. Shu payt qayerdandir eri paydo bo‘libdi-da, “Sen hammamizni sharmanda qilding, seni o‘ldiraman”, deb bo‘g‘a boshlabdi. U shunday qattiq bo‘g‘ibdiki, Nozimaning nafasi qaytib, uyg‘onib ketdi. Agar bu tush yana bir daqiqa davom etsa, uning uxlab yotgan joyida o‘lib qolishi aniq edi. U jiqqa terga tushib ketgan edi, o‘rnidan turib atrofga qaradi, allaqachon tong otgan, derazaning harir pardasidan tushib turgan oppoq nur jim jit xonani g‘ira-shira yoritib turardi. Divanning narigi tomonida qizi g‘ujanak bo‘lib, uxlab yotar edi. Nozima peshonasidagi, bo‘ynidagi terlarni artdi, bo‘ynini artayotib g‘alati og‘riqni his etdi: “Tavba, rostdan ham tushmidi u?” Yoki Sardor kirib, alam bilan bo‘g‘dimikin? Yo‘q, u ayol kishiga qo‘l ko‘tara olmaydi! Nozima shu ko‘yi ancha o‘tirib qoldi. Xonaga yana bir qur ko‘z tashladi. Bu xonaga kelin bo‘lib tushgan edi. Divanlarining boshiga ko‘zmunchoqlar qadalgan chimildiq tutilgan edi. Bu devorlar, bu eshik, bu derazalar qanday baxtga, ehtirosga to‘la shivirlarni eshitgan... Sardor uni qanchalar yaxshi ko‘rardi. Bir narsadan nolisa, darrov “Sen bunga boshqacha ko‘z bilan, mehr bilan qara, sevib qol, shunda hech qiynalmay qilaverasan”, der edi. Unga qolsa, sigir sog‘ishni ham, kunda uch mahal qozon osishni ham, har kuni ivirsib kir yuvishni ham, ro‘zg‘orning hech to‘lmaslik kasalini ham sevib qolish kerak edi. Yaxshi-da, der edi u zavqlanib, tashiyverasan, tashiyverasan, hech to‘lmaydi. Agar u to‘lib qolsa, odamzod bekorchi bo‘lib qolar edi. Bekorga uni g‘or deyishmagan, der edi. Nozima esa sevolmadi... Sevishni istamadi.

O‘sha kuni Hamdam bilan uchrashishlari kerak edi. Maktabdan chiqishi bilan taksiga o‘tirdi. Mashinaga o‘tirar ekan, qandaydir savqi tabiiy bir sezgi bilan kimdir unga qattiq tikilib turganini his qildi. Beixtiyor atrofga qaradi. Yo‘lning narigi betida turgan oq jigulining orqasida shapkasini bostirib o‘tirgan odam yuzini teskari tomonga burdi. Shu odamning turishi ko‘ziga issiq uchradi, kimnidir eslatdi, lekin aniq kimligini eslay olmadi: “Halitdan skleroz boshlanibdi”.

Keta-keta negadir orqasiga qaradi, yana haligi oq jiguliga ko‘zi tushdi, u ular bilan izma-iz kelayotgan edi, lekin orqa o‘rindiqda shapkali odam ko‘rinmadi. Keyin jiguli ulardan o‘tib ketdi, lekin juda sekin yurdi. Taksi haydovchining achchig‘i kelib, “Bu bobo buncha imilladi”, deb tezroq haydab, ulardan o‘tib ketdi. O‘tib ketishayotganda, mashinaning orqasida kimdir yotganga o‘xshadi. “Bechora mijozining tobi qochib qolgan bo‘lsa kerak. Shuning uchun sekin haydayapti, shekilli”, deb

o'yladi Nozima. Shu bilan na haydovchi, na Nozima orqada qorama-qora sudralib kelayotgan mashinaga qaramadi.

Nozima taksidan tushgach, odatdagidek qo'ni-qo'shnilarga duch kelmaslik uchun shoshib, ikkinchi qavatga ko'tarildi. Hamdam hali kelmagan edi. Sumkasidan o'zining kalitini chiqarib, eshikni ochdi. U eshikni ochayotgan paytda pastdan qadam ovozi eshitildi. Yo'lakka kimdir kirganday bo'ldi, bu ovoz uni yana ham shoshirdi: "Tezroq kirib olay. Birov yarim tanish-bilish ko'rib qolmasin".

Ichkariga kirib, endi oynani ochayotgan edi, eshik qulfiga kalit solinib, sharaq-shuruq buraldi-da, darang etib, temir eshik ochildi. Hamdam bilan birga yo'lakdan xonaga kabobmi, mantimi, allaqanday shirin taomlarning xushbo'y hidlari kirdi. Nozima yugurib borib, Hamdamning bo'yniga osildi.

– Shoshmang, eshikni qulflab olay. Yo'lakda begona kishini ko'rdim. Men uni eringizga o'xshatdim.

– Nima? Siz erimni qayerdan taniysiz? – yuragi qinidan chiqib ketay dedi Nozimaning.

– Bir marta uzoqdan ko'rsatishgandi. Yana bilmadim, adashgan bo'lishim ham mumkin. Siz qachon kelgan edingiz?

– Hozirgina... – birdan Nozimaning yodiga mashinada o'tirgan shapkali odam tushdi. Axir u Sardor edi-ku. Odam o'z erini ham tanimasligi mumkinmi? Sardor hech qachon shapka kiymas edi, yana bukchayib o'tirib olgan va u qarashi bilan yuzini narigi tomonga burdi. Demak, kasal bo'lgani uchun emas, kuzatayotganini sezdirmaslik uchun yotib olgan.

Ular darhol ichkari xonaga kirishdi:

– Qayinsinglim sotgan, – alam bilan shivirladi Nozima.

– O'zi izingizga tushgan bo'lishi ham mumkin.

– Eshikni ochmaymiz.

– Xo'p, qo'rqmang, eshikni ochmayman. Siz manavi shkafning ichiga kirib oling.

Shkafning ichida kimningdir katta paltosi ilig'lik turgan edi. U ana shu pal'toning ichiga kirib oldi. Endi shkafni ochsa ham uni hech kim topa olmaydi. Uning joylashganini ko'rish uchun shkafni ochgan Hamdamga palto yoqasidan boshini chiqarib, "meni bu yerdan hech kim topa olmaydi, xayr", dedi kulib. Hamdamning ham ko'ngli biroz xotirjam tortdi.

Shu payt eshikning qo'ng'irog'i bosildi. Ichkaridan javob bo'lavermagach, taraqlatib tepila boshladi:

– It emgan Hamdam, eshigingni och! Och deyapman, men ikkovingni ham shu eshikdan kirib ketganingni ko’rdim. Ochmasang, hozir mahalla raisi bilan uchastka nozirini chaqirib, eshikni buzib kiraman. Yaxshilikcha och, deyapman.

Eshikni ochmaslikdan boshqa chora qolmagan edi. Shu taxlit baqiraversa, hali zamon butun mahalla uning eshigi yoniga yig’iladi. Ikkalasini ham ko’ribdi, endi yashiradigan hech narsa yo’q. Hamdam ich-ichini larzaga solayotgan titroqni zo’rg’a bosib, eshikni ochdi:

– Tinchlikmi, aka!

Sardor eshikdan quyundek yopirilib kirdi: qarshisida turib qolgan Hamdamni yoqasidan tutamlab, bir chetga uloqtirib yubordi.

– Qani, u qanjiq?!

– Tushunmadim, kimni so’rayapsiz? – o’zicha yelka qisdi Hamdam. Ichkariga alang-jalang qarayotgan Sardorning ko’zi ostonada turgan Nozimaning tufлисiga tushdi. Tufllilarni xiyonat ustida qo’lga tushirganday alam bilan Hamdamning yoniga tepib yubordi.

– Bu yoqqa chiq, hey qanjiq! Chiq bu yoqqa! Chi-iq!

Ichkaridan hech qanday sado eshitilmadi, katta xonada faqat Sardorning hansirab nafas olishi eshitilib turardi. U bir sakrab ichkari xonaga kirdi. Bo’m-bo’sh xonaga bir qur nazar soldi-da, xuddi birov ko’rsatib turganday burchakda turgan shkafni ochdi va paltoni surib ko’rayotgan qo’llari Nozimaning yelkalariga tegib ketdi. Palto sidirilib kiyim ilgichdan tushdi-da, Nozimaning usti ochilib qoldi.

Sardor bir zum harakatsiz qotib qoldi. U jiqqa terga tushgan, rangi qop-qora bo’lib ketgan, chekkalarida o’qlog’day ko’m-ko’k tomirlar ko’zga tashlanib turardi.

Ikkalasi ham bir-biriga tikilgan ko’yi bir zum tek qotdi. Biri o’zini oqlashga, ikkinchisi yuragiga tushgan o’tni ta’riflashga munosib so’z topa olmas edi. “Hozir ikkalasini ham bo’g’ib o’ldiraman”, deb ikkinchi qavatga ko’tarilgan Sardor so’nggi daqiqagacha, ostonada tanish poyafzalni, kreslo chetida xotinining sumkasini ko’rganda ham ikkilangandi. “Axir zavoddan bittagina nusxada chiqmagandir xotinimning tufлиsi yoki sumkasi”. Ammo Nozimaning javdirab turgan ko’zlariga ko’zi tushishi bilan bor dunyosini yutqazgan qimorbozday birdan bo’shashib shalvirab qoldi. Onaning og’ziga qarab o’sgan hamma yigitlar kabi u odobli va ancha ko’ngilchan edi. Mushtlari qattiq qisildi, badanidagi har bir mo’y tip-tik bo’ldi, ehtimol qorachiq-lari kengayib, olxo’ridek bo’lgandir, ammo oyoqlari turgan yeriga go’yo yopishib qolgan edi.

– Suf, senga! – nihoyat ich-ichidan guldiragan ovoz eshitildi. – Taloqsan, iflos! Uch taloq, ming taloq! Qaytib yuzingni ko'rmay! Taloqsan, taloq!

Taloq so'zi aytilganda Allohning Arshdagi kursisi larzaga kelar ekan, deyishar edi. Shu lahzada yeru osmon larzaga kelganday bo'ldi.

– Taloqsan, taloq! Uch taloq, ming talo-o-oq!

Shu so'zlarni aytib, shahd bilan ortiga burilgan edi, ostonada dag'-dag' titrab turgan Hamdamga to'qnashib ketdi. Ichidan bir narsa uzilib ketganday bo'ldi, tishlari bir-biriga qapishib qoldi. Bir qo'li bilan Hamdamning yoqalarini tutamladi, ikkinchi qo'li bilan lunjiga bir musht tushirdi. Hamdam qalqib ketdi, ammo na qarshilik ko'rsatdi, na chetga o'tdi. Sardor bor qahrini yana mushtiga joylab, ikkinchi lunjiga tushirdi. Yana, yana, yana!..

Hamdam ketma-ket tushayotgan zarblarga bardosh bera olmay, boshini bilaklari orasiga olgancha, cho'kkalab qolgandan keyin ham Sardor o'zini bosa olmadi. Burchakda g'ujanak bo'lib yotgan yigitni tepib-tepib, so'ng tashqariga chiqib ketdi.

Anchadan so'ng Nozima sharpadek sudralib ichkaridan chiqib keldi. Uni ko'rib Hamdam bir amallab yotgan joyidan turib, devorga suyangancha oyoqlarini uzatib o'tirib oldi. Uning yoqavayron ahvolini ko'rib, Nozima chuqur xo'rsindi, ammo o'zining ahvoli ham unikidan durust emas edi: Ich-ichidan horg'in bir nido chiqdi: "Sharmanda bo'ldim". Borib, Hamdamning yoniga cho'kkaladi: "Endi nima qilamiz?"

Hamdam zo'rg'a qo'lini uzatib, uni yelkasidan oldi: "Hali hammasi yaxshi bo'ladi".

– Yashirib qo'ygan pullarim, tillalarim bor edi... Hammasi ularga qolib ketdi.

– Onangizga aytasiz, olib kelib beradi.

Shu topda yuraklari simillab, bolalarini juda-juda sog'inganini his qildi:

– Bolalarni berisharmikan?

– Bermay nima qiladi? Bola hamisha ona bilan qoladi.

Ular shu o'tirishda eshiklarni ham qulflamasdan uzoq o'tirishdi. Ikkalasi ham xufyona uchrashuvlarga qoniqmay, qachon bir-birlariga tamoman tegishli bo'ladigan kunlar orzusida yashar edilar. Shunday kunlar o'z-o'zidan ularni yo'qlab kelganda, intilgan dovonlari yurakka qadaluvchi tikonlarga, ilon-chayonlarga to'la dilozor bir makon ekanligini ko'rib, hafsalalari pir bo'ldi.

...Onasi peshonabandining chetlaridan to'zg'ib ketgan oppoq sochlari chiqib, etaklarini lippasiga qistirib, darvoza oldidagi beton ustida qo'sh gilamni yoyib olib, nevara qizi bilan gilam yuvib yotgan ekan. Boshqa payt bo'lganda "Oqbilak oyimlaringiz qani? Endi shularning shiptirlarini ham siz yuvasizmi?" deb, shartta ishni to'xtatgan bo'lar edi. Bugun indamadi. Sho'rlik onasi endi uning shiptirlarini ham qo'shib yuvadigan bo'ldi.

Iris xola qizining rang-ro'yini ko'rib, tinch emasligini bildi, ichiga bir ilon kirganday bo'ldi. O'zi kichkinagina gilamchalar edi, shularni ham yuvib bo'lguncha, qora terga tushdi. Aksiga olib, nima ishga urinsa, qo'l solishib turadigan katta kelini shu bugun onasinikiga ketgan edi. Kichik kelinga-ku, bir parcha bola bitgan, qo'lqoziq, bahonasi shu, "lu-lu", "lu-lu", uyg'oq bo'lsa, qo'lidan qo'ymaydi, uxlasa, qo'shilib uxlaydi. Bular bola uxlaganda ishlarimni qilib olay, deb yugurib yurishar edi. Hozirgi yoshlar bolasi uxlaganda, o'zlari ham qo'shilib dam olib olishlari kerak.

Yoshgina bo'lib turib, arzimagan ishlardan qochib, bolani bahona qilib, o'zlarini har yonga uraverishidan g'ijini keladi uning. Bugun o'zicha g'ayrati jo'shdi, kir soda bo'lsa, suv sharillab oqib yotsa, bir urinsa, yuvib tashlaydiganga o'xshagandi. Yosh o'tgandan keyin baribir qiyin ekan. Bu yog'i qizining rangi o'chib, kirib kelishi g'ayratini sovutdi. Amal-taqal qilib, ishini oxiriga yetkazib uyga kirganda, Nozima uyning qorong'u burchagiga to'shalgan ko'rpachaning ustida to'ntarilib yotardi:

– Ha, Nozi, nima bo'ldi?

– O'zim... – uning ovozi bo'g'iq chiqdi, izidan burnini ham tortdi. U yig'lab yotgan ekan.

Iris xola oq yem bo'lib ketgan qo'llari bilan terlarini sidirib, qizining boshiga borib, cho'nqaydi.

– Biron gap bo'ldimi?

Nozima o'rnidan turib, onasining bag'riga o'zini tashladi, so'ng o'kirib yig'lab yubordi.

– Enajon, menga taloq tushdi. Erim meni taloq qildi! Men xato qilib qo'ydim.

Iris xolaning hushi boshidan uchib ketdi. Ho'ngrab yig'layotgan qizini bag'ridan ajratib, yuzlariga qaradi:

– Bu nima deganing, badbaxt! Qanaqa taloq? Qanaqa xato?!

– Erim meni ushlab oldi, ena-a-a!.. Endi nima qilaman? Sharmanda bo'ldim men!

Iris xolaning nafasi ichiga tushib ketdi. Beixtiyor savqi tabiiy xavotir bilan eshik tomonga qaradi: "Kelin-pelin izidan kirib, eshitib qolmadimikin?" So'ng hamon jazavaga tushib, o'kirib yig'layotgan

qiziga qaradi:

– Hay, sekin, sekinroq, yer yutkur!

Ammo ayni paytda Nozima o'zini idora qiladigan holatda emas edi. Yig'lab-yig'lab toliqqandan so'ng jim bo'lib qoldi, ko'z yoshlari ham qurigan edi. Nim qorong'u xonada faqat uning burun tortgan ovozi eshitilar edi. Ona-bola ancha payt shu zayilda o'tirishdi. Nozimaning burun tortishi ham tugagandan so'ng Iris xola uning yelkasidan ushlab, o'ziga qaratdi:

– Endi gapir, badbaxt qiz, nima qilib qo'yding? Ering kim bilan ushlab oldi?

Nozima yerga qaradi.

– Sen, boshingda ering, oldingda bolalaring bo'la turib, qaysi aqling bilan shunday ishga qo'l urding? Endi qanday bosh ko'tarib yuramiz?

Nozima yana yig'lay boshladi.

– Enajon, endi men yashashni istamayman, o'zimni o'ldiraman!

“Ichingdan chiqqan ola ilon, ol-da, belingga boyla”. Nima qilgan bo'lsa, qilgan, qilib bo'lgan, endi joniga qasd qilsinmi? O'g'ri ham, ne-ne kazzob-qotillar ham siqqan dunyoga nahot uning shu badbaxt qizi sig'maydi?!

Iris xola surilib, qiziga yaqinroq bordi, sekingina yelkalaridan quchib, uni bag'riga oldi:

– Oldin meni o'ldir, bolam. Senlarning ortingda qolgulik qilmasin. O'zingni qo'lga ol.

– Men tamom bo'ldim, ena, – Nozima ich-ichidan toshib kelayotgan o'kirikni sirtga chiqarmaslik uchun lablarini qattiq tishlab, onasining yelkasiga boshini qo'ydi. – Tamom bo'ldim!

Nozima yig'lab-yig'lab bo'lib o'tgan voqealarni gapirib berdi.

– Bo'ldi, qizim, endi dod-faryoddan foyda yo'q. Peshonangga nima yozilgan bo'lsa, ko'raverasan. Otang bilan ukalaring bilmagani ma'qul, – u qizining sochlarini siladi. – Endi yotib, picha damingni ol. Menam bir pas cho'zilay, yuraklarim to'kilib, sillam qurib qoldi.

Ona-bola uyning ikki tomoniga solingan yakandozga cho'zilishdi, ko'p o'tmay Iris xolaning bir maromda pishillagan ovozi eshitildi. Onasining bir pasda pinakka ketgani Nozimaga alam qildi. Qaynonasi rost aytgan ekan: “Kezi kelganda ona deganlari ham, bola deganlari ham bekor. Qaysi

yantoqqa o't tushsa, o'zi yonib, o'zi o'chadi". Men yonginasida yonib yotibman, bu kishim osuda uyquga ketdilar".

Bu voqea shu bugunning o'zida maktabga yetib boradi. Endi Mahbuba Sultonovnaga yana kun tug'adi. Kengashda maroq bilan ma'ruza qiladigan bo'ldi: "Biz xalqning bolalarini kimning qo'liga berib qo'yibmiz. Bu qizning molparastligini oldindan bilar edim. Hamma barmoqlarini to'ldirib, yaltir-yultir uzuk taqib yurganlarida onasidek bo'lib, bir necha marta nasihat qilganman. Ammo nasihatlarimni olmadi. Mana, natijada nafaqat o'zining, balki butun maktabning yuzini yerga qaratdi. Endi ota-onalar bizning maktabda o'z farzandlarini o'qitishni istamaydi, hokazo, hokazo..."

"Uf-fi!" U sekin o'rnidan turdi. "Ortiq bunday yashab bo'lmaydi" Hovliga chiqib, supa chetida turgan oftobadan yuz-ko'zlarini yuvdi, So'ng sekin og'ilxonaga kirdi, dimog'iga achimsiq go'ng hidi urildi. Ukalarining to'yidan beri pul orttirib sigir ham qilisholmadi. Shuning uchun bu xona ko'zdan pana bir ombor bo'lib qolgan. Otasi juda sarishta odam edi, odamlarning uyida har joyda chuvalashib, dumalab yotishi mumkin bo'lgan narsalar bu uyda joyini topib, tartib bilan terib qo'yiladi, bir qoziqda har xil arqon, bir qoziqda zanjirlar, bir chetda bel, ketmon, panshaxa...

"Ortiq bunday yashab bo'lmaydi!"

Arqonlarda tappi yuqlari qotib qolgan, kir va sassiq edi. U biroz jirkanib, eng yo'g'on arqonni oldi. Bir chetda turgan oxurni o'rtaga surib, uning ustiga chiqdi va arqonni og'ilxonaning vassasidan o'tkazib, ilmoq yasadi. Beixtiyor boshi og'ir bo'lib ketayotganday bo'ldi, chuqur "uf" tortib, boshini chayqab qo'ydi. So'ng bir qo'li bilan arqonga osilib, pastga qaradi. Endi boshini shu ilmoqqa tiqib, oyoqlari ostidagi oxurni bir tepib yuborsa, kifoya. U sekin ilmoqqa boshini tiqdi va shu daqiqada kecha ko'rgan tushini esladi, qaniydi, shu sassiq arqon emas, tushida ko'rganidek, Sardorning qo'llari bo'g'ib o'ldirsa edi. Afsus!.. U shahd bilan oxurni tepib yubordi... Shu choq qayerdandir yoshgina juvonning shang'illagan ovozi eshitildi, kimdir oyoqlarini quchoqlab olgancha, dunyoni boshiga ko'tarib baqira boshladi. Uning esa tobora nafasi bo'g'ilib borardi, ko'p o'tmay hech narsani anglamay qoldi.

U kasalxonada ko'zini ochdi. Boshida onasi hiqillab o'tirardi:

– Voy, bolam-ey! Hammamizni tiriklayin go'rga tiqmoqchimisan? Bu nima qilganing, axir?! Yaxshiyam kelin hovlida bolasini ko'tarib yurgan ekan. Opam og'ilxonada nima qilayapti, deb eshikdan qarasa!.. Voy, bolam-a! Oldin meni o'ldir, keyin nima qilsang, ixtiyor o'zingda.

Nozima bo'ynida qattiq og'riq sezdi, sekin qo'llarini og'riyotgan joyga olib bordi. Bo'yni bint bilan bog'lab qo'yilgan edi.

– Ena! – tomog'i og'rib qolganday zo'rg'a gapirdi, – Borib mening bolalarimni olib keling. Shkafimning eng yuqori tokchasida to'rtta poyafzal quti bor. Eng ichkarisidagi qutining ichida pullarim va tillalarim bor. Shularni, keyin kiyimlarimni olib keling.

– E-e, bolam-ey, pul bilan tilla nima bo'lar edi? Joning omon qoldi, bo'ldi.

– Ena, ko'p javramang, – u qiynalib, sekin gapirayotgan bo'lsa ham nigohlari sovuq va xotirjam edi.
– Mening yashashim uchun pul kerak. Shu bugun Nigorani olib, birga boring-da, aytganlarimni olib keling.

Iris xola bir muddat jim bo'lib qoldi, aslida ko'pam orqa-oldini o'ylayvermaydigan ayol bo'lsa-da, ayni paytda qudalarning uyiga borishga yuzi chidamayotgan edi.

– Bolalarni berishmasa keragov, ular. Robiya kampir nevaralarini berguncha, jonini beradi, – dedi anchadan so'ng sekingina, – yana bilmadim.

– Beradi! – Nozima qoshlarini kerib ta'kidladi. – Bermay ham ko'rsin-chi! Bolalar har qanday vaziyatda ona bilan qolishi kerak.

– Menga qara, bolam, bunday qilsak-chi, – Iris xola astagina qizining qo'llaridan ushladi. – Hozir borib, kiyimlaringni, pullaringni, tillalaringni olib kelsam. Bolalarga picha shoshmay tursak. Besh-olti kun tursa, o'zlari ham bezor bo'lishadi bolalarning tashvishidan. Uyda kasal kampir bo'lsa, shuning tashvishiyam yetarli bo'lib yotgandir. Bizning uyimizda, o'zing bilasan, ikki kelin, to'rt nevara, ularga seniki ham qo'shilsa... Oxiri ajrashgan bo'lsang, bir joy-poy taraddud qil, keyin bolalarni olsang, bemalol bo'ladi. Nima deysan?

Onasining avaylabgina aytgan andishasi uning suyak-suyagidan o'tib ketdi:

– Enajon, nimalar deyapsiz? Nahotki ikki go'dagim bilan ota uyimga sig'masam? Shunday ekan, hayotimni saqlab qolishning nima keragi bor edi? Ana, o'g'illaringiz bola-baqراسi bilan o'tiribdi-ku, pensiyalaringizni ye-eb! Ana o'shalar joy axtarsin, belida belbog'i bor erkaklar! Uf-f! – u alam bilan bosh chayqadi, tomog'ining yo'lida nimalardir qattiq og'ridi, qo'lini bo'yniga qo'yib, zo'rg'a yutinib oldi. – Eh, ena, ena-ya! Qo'rqmang, joy topaman, ketaman, ammo sal o'zimga kelib olgunimcha onalik qilib turing!

– Eh, bolam-a, seni hech kim haydayotgani yo'q-ku! – astoydil kuyundi sho'rlik ona. – Albatta, o'zingga kelguningcha yonimizda turganing ma'qul. Mening aytmoqchi bo'lganim, manavi yangalar erta-bir kun bolalaringni turtsa, oraga sovuqchilik tushadi, ezilasan, deyapman-da. Hayoting izga tushib ketsa, bolalarni sudlashib bo'lsa ham qaytarib olaverasan.

– Yo‘q, ena, – qat‘iy bosh chayqadi Nozima. – Men ularning uyida bir kun ham ro‘shnolik ko‘rganim yo‘q. Necha yildan beri brilliant uzuk, sirg‘a olaman, deb yig‘ib yurgan pulimga singlisiga brilliant olib berdi. Landovur erim otasiga o‘xshab onasining og‘ziga qarab yashaydi. Yana ming‘ir-ming‘ir qilib miyamni egovlagani-egovlagan edi. Shularning qosh-qovog‘iga qarashdan to‘yib ketgan edim. Men u hovlida nafas ololmas edim. O‘zimga hayotdan bir yorug‘lik, nur axtarib, shu ishni qilib qo‘ydim. Aslida hammasiga ularning o‘zi aybdor. Hammasi uchun javob berishlari kerak ular. Endi shu ahmoqlarga bolalarimni dastyor qilib tashlab ketamanmi? A? Yo‘q, hech qachon! Bolalarimni olib kelasiz. Mening o‘z uyim bo‘ladi. Meni shu ko‘yga solgani uchun erimdan ham, Hamdamdan ham qasd olaman. Hamdamning uch xonali uyi bor, shuni beradi. Ungacha bolalarimga siz qarab turasiz.

Iris xola indamay bosh irg‘adi: “Xo‘p”. Uning boshqa iloji ham yo‘q edi.

* * *

Robiya xolaning ko‘ngli ertalabdan g‘ash bo‘ldi. Tushlik yaqinlashavergach, bu g‘ashlik yana ham ortdi. Tiq etsa, eshikka qarab yotaverdi.

O‘sha voqeadan keyin to Nozima uyga kelmaguncha, kishi bilmas, yo‘l poylaydigan odat chiqardi. Nozima taq-tuq yurib, ayvonga kirgandan keyingina ko‘ngli xotirjam tortadi. Nozima ham uning kutib yotganini sezadimi, birinchi bo‘lib uning xonasiga bosh suqadi. Sovuqqina qilib bo‘lsa-da, salom berib, “men keldim, xola”, deb, so‘ng o‘zining xonasiga ketadi. Ammo baribir kampirning ko‘ngli notinch, har kimning insofini o‘ziga bersin, kelin vaqtida ketib, vaqtida kelib yurgani bilan, kim biladi dars vaqtida nima ish qilib yuribdi. O‘g‘li bilan joylari bo‘lak bo‘lsa, gaplashishmasa...

Bir mahal darvoza sharaq etib ochildi, so‘ng hovlida taq-tuq poshna ovozlari eshitildi. Poshnalarning yerga qattiq urilishidan bildiki, bu Nozima emas, Sardor shekilli. Nega u buncha erta qaytibdi? Kampir eshikka qaradi, ammo keluvchi ayvondan to‘g‘ri mehmonxonaga o‘tib ketdi: “Ha, Sardor ekan!” Bir pas yotib, dili o‘ksidi: “Bir kirmadiyam...”

Kun peshindan og‘di. Quyosh uning derazasi tomonga o‘tib, xonani astoydil qizita boshladi. Olloqul bobo kelib, derazaning qalin pardasini tortib qo‘ydi. Xona biroz salqin tortganday bo‘ldi, lekin baribir havo issiq edi.

Kampir amallab tirsagiga tayanib, turib o‘tirdi. Xuddi bir narsa tilayotgan tilanchidek cholineg ko‘zlariga javdirab qaradi:

– Nozima kelmadimi?

- Yo‘q, majlis-pajlisi chiqib qolganmi?
- Boya kelgan Sardormidi? Nega buncha erta qaytibdi? Bir kirib so‘rashmadiyam...
- Bilmasam, kampir, nimagadir kayfiyati yo‘qdek ko‘rindi mengayam. “Ha?”, desam, “o‘zim” dedi-da, uyga kirib ketdi. Mashinasini hovliga kiritishgayam hafsala qilmadi.
- Ishida biron gap bo‘ldimikan-a, – battar siqildi kampir. – Bir yurishni ham o‘rgatmaysiz! Qo‘ltiqtayoqda bo‘lsayam, boshiga borar edim, nima bo‘ldi, deb so‘rar edim. Bu nima o‘tirish endi? Uf-f!
- E-e, kampir, sen bilan mashq qilish uchun bir baquvvat yigit kerak. Iloji bo‘lsa-ku, ikki tomoningda ikki kishi turgani ma‘qul. Yurgizaman, deb yiqitib qo‘yib, bolalaringdan baloga qolib yurmay, deyman-da, – bobo kampiriga nafi tegmaganidan astoydil o‘kindi. – Menga qolsa-ku mo‘ltirab o‘tirgandan ko‘ra, sekin-asta yuraverganing ma‘qul.
- Bolalar ham omon bo‘lsin. O‘g‘il yeb o‘rga, qiz yeb qirga ketar, deganlari shu-da. Olti bolamiz olti bo‘ldi, ammo birovi kelib, men bechoraga yurishni o‘rgatay, demaydi. Hammasining ishi ko‘p, ishi zaril!.. Boring, Sardorni chaqiring, meni yurdirsin.
- Indama, uxlayotgan bo‘lsa kerak. Picha dam olsin, hamisha charchab yuradi.
- Boring, bo‘lmasa, Gulzorni chaqiring. Ikkalangiz ikki qo‘ltig‘imdan kirib, qo‘ltiqtayoqda yurishni o‘rgatasizlar.
- Senga nima bo‘ldi, muncha toriqding? E-e, besabr-ey. – Bobo bosh chayqab-chayqab, Gulzorni chaqirgani ketdi.

Hali og‘riq juda kuchli ekan va negadir sal yurmay charchab, qora terga tushib qoldi. “Voy-voy, ushlanglar, sekinroq ushlanglar!” deb baqira-baqira yotgan xonasining girdini zo‘rg‘a uch marta aylandi.

Joyiga o‘tirgandan so‘ng o‘zidan mamnun bo‘ldi:

- Shuyam katta gap-da. Bugun uch marta aylandik, ertaga besh marta aylanamiz. Sardoringizni kutib o‘tiraversam, umrim to‘shakda o‘tib ketadi. Endi har kuni ikki mahal Gulzor ikkovlaringiz yurgizasizlar.

Sardor ancha kech turdi. Nozimadan esa darak bo‘lmadi. Bolalarni bog‘chadan olib qaytgan bobo ham xavotirga tushgan edi.

- Kampir, kelining kelmayapti-ku.
- Bilmasam...
- Sigirni nima qilsam ekan? Gulzorga aytaman-da, bir balo qilarmiz.
- Sardorni buyoqqa aytib yuboring, – Sardorni ko'rsa, Nozimaning kechikayotganligi sababini bilib oladiganday bo'laverdi.

Sardor haqiqatan ham juda kayfiyatsiz edi. Negadir rangi cho'yandek qorayib ketgan, ko'zlari qizarib turardi. Juda og'ir jazoga hukm qilingan mahkumlarday sudralib xonaga kirdi. Indamay onasining qarshisidagi ko'rpachaga cho'kkaladi.

- Yaxshimisan, o'g'lim? Bu nima yurish?

Sardor yelka qisdi:

- O'zim.
- Nozima qayerda?

Sardor yerga qaradi, shu daqiqada uning yelkalari kichrayib, juda ozib ketgani sezildi: "O'h, shunday bolamni ezib, sil qildi bu megajin!"

- Nozima endi kelmaydi...
- Nega? – kampirning yotaverib hovriqib ketgan ko'zlari katta-katta ochildi.
- Men uni taloq qildim.

– Qanday qilib? Biz bilan bir og'iz maslahatlashmay, o'zingdan o'zing hal qilib qo'yaverdingmi? – kampirning ko'ngliga sovuq bir shamol urildi, butun vujudi muzlab ketganday bo'ldi.

Sardor onasining ko'zlariga qarab, bir zum taraddudlanib qoldi:

- Shunday qilishga majbur bo'ldim, ena. Menga bolalaring bor, degan gapni aytmang. Endi u gapga sira o'rin yo'q. Men uni... ushlab oldim.

Robiya kampir boshqa hech narsa so'ramadi, Sardor ham hech narsa demadi. Faqat xonadan chiqib ketayotib, onasining rang-ro'yidan xavotirlandimi, yerga osilib turgan oyoqlariga engashdi:

- Keling, yotqizib qo'yay, picha dam oling.
- Sardor! – o'g'li ostonaga yetganda yana chaqirdi.
- Ha, ena? – uning ko'zlari oldingidan ham qizarib ketgan edi.
- Sen... uni urib, o'ldirib... qo'ymadingmi o'zi?
- Men unga tirnog'imni ham tekkizganim yo'q, siz sira xavotirlanmang. U yashashi kerak, ertaga afsus qilib, pushaymonlar yeyishi uchun ham yashashi kerak.
- Xudoga shukr, o'ldirib qo'ymagan bo'lsang, bo'ldi.
- Men mashinani kirgizay...

"Dada"lab chopib kirgan bolalarini bir-bir ko'tarib, bag'riga bosdi-da, indamay tashqariga chiqib ketdi.

Kampirni kelinining xiyonatidan ham burun o'g'lining mahzun holati ko'proq tashvishga solayotgan edi. "Haliyam bolamning esi bor. Chavaqlab tashlab, qamalib ketganda men nima qilar edim? Bu megajinni esini yig'ib olgandir deb yursam!.. Ha, juvonmarg. Palakating o'zingdan beri kelmasin, iloyo".

Kampir noxush yangilikka tez ko'ndi: "Qaytamga yaxshi bo'libdi. Bir marta xiyonat qilgan odamning keyin to'g'ri yurishi qiyin. Shunday dahshatli sirni o'g'lidan yashirib, hamisha oshiga pashsha tushganday ko'ngli xit bo'lib yashashning o'zi bo'ladimi? O'zi pishirgan osh, o'zi tanlagan taqdir bu. Aylanib-o'rgilib ichaversin".

Oradan ikki kun o'tib, choshgoh payti kenja qizi bilan qudag'ay keldi. Olloqul bobo darvozaning oldidagi poldan beda o'rayotgan edi. Kelganlarni ko'rib, rangi o'chdi, lekin sipogina so'rashib, ichkariga boshladi. Hamisha bosgan yerim minnatdor, bosmagan yerim ginador, deganday kibr bilan sollanib yuradigan qudag'ay yelkasini qisibgina ichkariladi. Qimtinibgina Robiya kampir yotgan xonaga kirdi. Kampir divanning ustida oyoqlarini yerga osiltirgancha, qo'ltiqayoqqa suyanib, televizor ko'rib o'tirardi. Bu ayolning bugunmi, ertami, shu taxlit kirib kelishini bilgan, kutgan bo'lsa-da, anchayin bir qo'shnini kutganday xotirjam qarshi ololmadi. Pir-pir uchayotgan lablari, tizzalari ustida titrab turgan qo'llari uning ichidagi g'alayonni aytib turardi. "Senga ham, tarbiya bergan qizingga ham ming la'nat!" degan so'zlarni bir amallab ichiga yutdi.

Ular hatto so'rashishmadi ham.

- Uzr, opa, taqdiri qo'shilmagan ekan...

Kampir tutab turgan edi, qudag'ayning bir og'iz gapi bilan lov etib yonib ketdi:

– Uni siz qo'shishni istamadingiz. Qachon bo'lsa, zerikdim, sog'indim bolam, bir kelib ket, deb chaqirishni qo'ymadingiz. Borgan joyingda bot, o'sha uy sening uying, unga mehr qo'y, deyishning o'rniga, qaynonang unday, ering bunday, tor qornimga siqqan, keng uyimga sig'maysanmi, kel, kelaver, deb yo'ldan urdingiz. U bu yerda omonat yashadi, bu uyga ham, uning odamlariga ham mehr qo'ymadi. Shu iflos ishni qilmasa ham, u bir kunmas, bir kun baribir ketar edi.

– Xo'p, opa, u kasalxonaga tushib qoldi. Haligi, o'zini osmoqchi bo'lib... Shunga kiyim-boshlaridan bir-ikkitasini olay, deb kelgandim. Mening ko'ylaklarim unga to'g'ri kelmasa... Singlisining xalatini kiyib yotibdi, uyam tor...

– Menga desa, hammasini olib ketsin. Senlarga narsa kerak. O'zi bir moshin-poshin olib kelib, ko'rpa-to'shagini olib borib tashlanglar, deb turgandim. Hammasini olib keting, bu uyda uni eslatadigan hech narsa qolmasin, – kampir turib-turib jazavaga tusha boshladi. Iris xola o'tiraversa, bundan ham battar beobro' bo'lishini o'ylab, sekin o'rnidan qo'zg'aldi:

– Mayli, biz boraylik.

– Ha-a!.. Iris boybichcha, qizimni ajratib olaman, deb-deb, oxiri niyatingizga yetdingiz. Taqdir yo'llarimizni tutashtirgan kunga ming la'nat. Qaniydi, o'sha kun mening hayotimda bo'lmaganida, manavi ikki go'dak tug'ilmaganida edi...

– Endi-i, qudag'ay, bilasiz, qars ikki qo'ldan chiqadi. Bu yerda kim haq, kim nohaq, bir Xudoga ayon. Lekin eshigingizda qizimning chiroyi ochilib yurganini hech ko'rmadim.

– Men ham yetti yildan beri shu qizingizning qovog'iga qarab charchagan edim. Uning biror kun ko'rgan kunidan, bizdan rozi bo'lib, bizni el bilib, ochilib-sochilib o'tirganini ko'rmadim.

– Opa, o'g'lingiz noto'g'ri tushungan. Biz bir uy olmoqchi bo'lib yurgan edik. Bir hovlida ikki kelin bilan qiynalib qoldik, bir uy surishtir, degan edim. Qizim uy ko'rgani borgan, o'g'lingiz noto'g'ri tushunib, taloq deb yuboribdi.

– E-e, qo'ying, Iris boybicha, – kampir ko'zlarini yumib horg'in bosh chayqadi. – Uy ko'rgani borgan odamning qo'lida kalit nima qiladi, u egasidan oldin uyga kirib o'tiradimi? Menda qizingizning o'sha juvonmarg bilan telefonda qilgan gurunglari yozilgan tasma bor. Buni o'ziga ham aytgan edim. “Hay, kelin, mening hammasidan xabarim bor. O'g'limga aytmayman, chunki bolalar yetim bo'lib qolmasin, deyapman. Orqa-oldingga qarab yur. Oilang buzilib ketmasin-a”, dedim. Nima bo'lsa ham hamma og'irlikni o'zimga olgan edim. Men so'zimda turdim, bo'g'zimga tiqilib, kechalari uxlatmagan sirni o'g'limga aytmadim. Lekin qizingiz so'zida turmadi.

Iris xolaning bu gaplardan xabari yo'q edi: "Yerga soldi, bu badbaxt! Allaqayerdagi ketmonchi nokaslarning oldida tilimni qisiq qildi".

– Bizdan o'tgan bo'lsa, uzr, opa, – Iris xola shu yerdan eson-omon chiqib olish tashvishida qo'llarini ko'ksiga qo'ydi. Kampir shu taxlit shang'illayversa, Olloqulboy yugurib kelib, ularni quvib solishi hech gap emas. Hali Nozimaning kiyim-boshlarini yig'ishtirishi kerak. – Bolamni ham kechiring, qarg'amang.

– Uni Xudo kechirsin. Men hech qachon hech kimni qarg'amayman. Kim qilmag'ay, shul topmag'ay.

O'z oyoqlari bilan yura olgan odam qanchalar baxtli. Iris boybicha sharmandai sharmisor bo'lib o'tirgan bo'lsa ham, yuz karra, ming karra muttaham bo'lsa ham, uning oyoqlari yurib turibdi. Aytar gapini aytib-aytib, haq gapi bo'g'ziga tiqilgan qudag'ayini shiptir hidi o'rnab qolgan dim xonaga tashlab chiqdi-yu, ketdi: "Ajdarho! Oyog'ing yo'q, shuncha bo'kirasan. Oyoqlaring yurgan paytda qizimga kun bermaganing aniq".

Iris boybicha sirib bog'langan ikki tugunni o'zi, ikki tugunni qizi ko'tarib, uydan chiqqanda, Olloqulboy boshini quyiga osiltirgancha, tok soyasidagi supaning bir chetida o'tirar edi. Bobo na boshini ko'tardi, na tugun ko'tarib olganlarga bir narsa dedi.

* * *

Iris xola uyga yetib kelgunicha, qiz tuqqanlariga ming pushaymon yedi: "Shunday qiz tuqquncha, it tug'sam bo'lmasmidi? Ko'ngling yo'q ekan, tinchgina ajral. Odamlarning qiziga o'xshab qaytib kel. Besh-olti oy alohida turib, ajralganing elga ma'lum bo'lgandan so'ng bilgan b... ingni yeb yuravermaysanmi? O'h, meni yerga soldi-ya bu qiz!"

Katta-katta qizil gulli choyshablarga tugilgan kiyim-boshlarni tars etkazib, xonaning o'rtasiga tashladi. Yoqasiga qo'l tiqib, siynabandidan ro'molchaga o'rog'lik to'rt taxlam pul va besh-oltita oltin taqinchoqlarni chiqardi: "Ay, esi yo'q qiz-a, bu pul bilan nima ishing bitishi mumkin. Yana ikki bolani ham o'zi boqar emish!"

Kasalxonada yotgan Nozima onasidan bolalarni olib kelmaganini eshitib, jazavasi qo'zib qoldi:

– Siz bir parcha noningizni qizg'anib atay olib kelmagansiz. Bilaman sizni!

– Sekin, hoy, sekin! Do'xtirlarga tomosha bo'lishimiz shartmi? Shuncha sharmandalik kamlik qilayaptimi bizga? – qizini qaytarib tashladi Iris xola. – Qaynonang qirq yillik dardini aytib, javrab, yeb qo'ydi. Agar bolalarni olib ketamiz, desak, u uydan bir qil ham olib chiqa olmas edik. Orqasi tutib, urib-haydab chiqarardi.

Bir tomondan onasi haq edi.

– Bolalarning kiyimlarini ham olib keldingizmi?

– Ha, qo'lga ilashadigan bor narsangni olib keldim.

– Yaxshi. Kasalxonadan chiqay, o'zim sudga beraman.

Onasi boshqa gapirmadi, boshidagi ro'molini yechib, qaytadan bog'ladi-da, indamay xonadan chiqib ketdi. Aslida bu sho'rlik ayolning qo'sh kelinli g'ala-g'ovur xonadonda o'ziga tegishli bittagina xonasi bor edi. Eru xotin shovqindan bezor bo'lishganda shu xonaga kirib, bir pasgina oyoq uzatib, dam olishar, gurung qilishar edi. Endi o'sha sokin qo'nalg'a ham ke-etdi!..

Kasalxonadan chiqishidan bir kun oldin hovliqib Mastura keldi. Bu paytda Nozimaning bo'yinbog'larini yechib olishgan, ovozi, rang-ro'yi ham ancha o'ziga kelib qolgan edi. Maktabda, Mahbuba Sultonovna pedkengashga qo'ydiraman, degani uchun Nozima o'zini osmoqchi bo'libdi, degan gap tarqalibdi.

– Bechora Mahbuba Sultonovna o'zini qayerga qo'yarini bilmay, rosa pitirlab qoldi. Keyin ering haydab yuborganini eshitib, picha o'ziga keldi. Nega urishding, ering bilan? – Mastura negadir uning ko'zlariga g'alati bir sinchkovlik bilan qaradi.

– O'zim...

– O'zimni osaman, deb arqon izlab yurguncha, shu qaynona bilan erning ko'ngliga yo'l izlasang, hech kam qilishmaydi seni, dugon. Ular izlab kelishdimi?

– Yo'q, – ko'zlarini yumib bosh chayqadi Nozima.

– Haliyam bo'lsa, kech emas. Izzattalab bo'lib yurmasdan, kasalxonadan chiqib, to'g'ri uyingga bor, kerak bo'lsa, kechirim so'ra. Oyday ro'zg'oring, shunday kelishgan ering bor, uni kimga tashlab ketmoqchisan va qayerga borib, qanday joy olmoqchisan?

– Ko'ramiz...

“Nahotki, butun dunyo axborotlaridan boxabar maktab “dom”dagi mojarodan bexabar qolgan bo'lsa?! Xabar topishgandir, faqat o'sha mojaroda ularning Nozimasi sharmisor bo'lganini eshitmagan”. Boisi u “dom”da asosan ruslar yashashar ekan, ko'pchilik bir-birini bilmas, tanimas ekan. Hamdam shuning uchun ham uni o'sha “dom”ga olib borar edi. “Xayriyat!” U ishimdan ham mosuvo bo'ldim deb o'ylagandi... Hozircha ishlab turgani ma'qul, qo'lida bir-ikki so'm puli bo'ladi. Endi Hamdamdan bir uy undirib, bolalarini keltirib olsa bo'lgani.

Haqiqatan ham maktab tinch edi. Hamma uning bo'ynidan nimalarnidir izlab, o'g'rincha qarab-qarab qo'ysa-da, o'zidan hech narsa so'ramadi. Biron gap bo'lib, yana o'zini osib qo'ymasin, deb qo'rqishdimi? Darsdan chiqib, to'g'ri prokuraturaga bordi.

– Bugun qabul kuni emas, – dedi sovuqqina qilib eshik yonida turgan qop-qora zangiday, bilaklari yengiga sig'may, terisi yiltillab turgan yigit.

– Men o'g'illarining o'qituvchisiman. Oldin ham bir marta kelgan edim. Iltimos, kirib bir og'iz ayting, o'g'lingizning o'qituvchisi keldi, deb. Qabul qilmasalar, ketaveraman.

Yigit o'g'il haqidagi gaplardan keyin picha o'ylanib turdi-da, ikkinchi qavatga chiqib ketdi. Ko'p o'tmay pastga tushib, uni ichkariga kirgizib yubordi.

– E-e, sizmidingiz? Keling-keling, – prokuror uni o'rnidan turib kutib oldi.

Keng va shinam xonada yumshoq gilamlarni bosib, unga qarab turgan prokuror tomon borarkan, hayajon va xijolatdan qoqilib ketmaslikdan boshqa narsani o'ylay olmasdi.

Prokuror u bilan qo'l olib ko'rishdi, stoliga taqab qo'yilgan stol yonidagi o'rindiqlarga taklif etdi.

– Marhamat, o'tiring.

Nozima ortga chekinib, xona girdini aylantirib qo'yilgan stullarning biriga o'tirdi.

– Ahvollaringiz yaxshimi? Bizning shumtakalar sizni charchatib qo'yishmayaptimi? Lekin ular sizdan juda minnatdor. Yashang, rahmat sizga. Xo'sh, nima tashvishlar bilan yuribsiz?

Nozima yerga qaradi. Necha kundan beri miyasida ipga tushgan marjon yanglig' tuzib chiqqan so'zlari birdaniga yodidan chiqib ketgan edi.

– Birontasi xafa qildimi? Tinchlikmi?

– Tinchlik. Mening bolalarimni olib qo'yishdi.

– Kim, nega?

– Qaynonam bilan erim.

– Tushunmadim...

– Qaynonam juda boy xotin, bir umr brigadir bo'lgan, olti bolasining har biriga bittadan qasr qurib berib qo'ygan, – asta-sekin uning tili yechila boshladi. – Mening ota-onam oddiy o'qituvchi bo'lgani uchun bizlarni hech nazariga ilmasdi. Kambag'alsan, onang senga durust sep qilmagan deb hech kun bermas edi. Oxiri tuhmat uyushtirib, o'g'liga aytib, haydab yubordi. O'g'lim bilan qizimni o'zlari bilan olib qoldi. Kampirning oyog'i singan, uch oydan beri turolmay yotibdi. Mening bolalarimni yaxshi ko'rishgani uchun emas, kampirga qaratish uchun dastyor sifatida olib qolishdi. Iltimos, menga bolalarimni olib bering.

Prokuror unga tikilgan ko'yi bir zum o'ylanib qoldi.

– Xo'sh, ismingiz nima edi, Nozima? Ha, Nozimaxon, bunday qilsak, men eringizni chaqirib gaplashsam. Qaynonangizga xotin-qizlar qo'mitasining raisini yuboraman. Tushunmagan narsalarini sekin tushuntiramiz. Arzimagan sep-sarpo deb, ikki bolali ro'zg'orni buzib yuborish yaxshi ish emas, axir. Kerak bo'lsa, qonun yo'li bilan ozroq po'pisa ham qilib qo'yishim mumkin. Nima deysiz? Bolalaringizni olib berishdan oson ish yo'q. Lekin ro'zg'oringiz buzilib ketmasin, deyaрман!

– Kerak emas. Ular menga tuhmat qilishdi, otimni buzuqqa chiqarishdi. Shunday nomga teng bo'lgandan ko'ra o'lib ketganim yaxshi deb o'zimni osdim. Baxtga qarshi bir tasodif bo'lib meni qutqarib qolishdi. Bir hafta kasalxonada yotib, bugun ishga chiqdim. Endi ular qabul qilishsa ham, men u xonadonga bormayman. Iltimos, bolalarimni olib bering.

Prokuror o'rnidan turib ketdi. Xuddi o'zining singlisi haqorat qilingandek qahri kelib, qalin qoshlarini chimirdi.

– Unda bunday qilasiz, – dedi u anchadan so'ng. – Hozir tuman sudiga borib ariza yozasiz, raisga o'zim tayinlab qo'yaman. Hech qanday muammo bo'lmaydi, – u “gap tamom” deganday qo'llarini ikki tomonga yozdi.

Nozima ham o'rnidan turdi:

– Rahmat sizga.

– Bizga yana qanday xizmat bo'lsa, bimalol kelavering.

– Rahmat.

Nozima prokuratura binosidan chiqqandan keyingina o'pkasini to'ldirib nafas oldi: “Xotini judayam baxtli ayol bo'lsa kerak...” Prokurorning xonasida kezinib yurgan xushbo'y ifor uzoq vaqt dimog'idan ketmay yurdi.

Uyga kelib Hamdamga qo'ng'iroq qildi. U har doimgiday qandaydir sershovqin joyda yurgan edi:

– Ha, yaxshimisiz, oshna? Nima gap?

Gap ohangidan Nozima bilan durustroq gaplashish niyati yo'qdek ko'rindi. Bu Nozimaning qahrini keltirdi:

– Iltimos, oshna, shovqinli joydan nariroq o'ting, – zaharli piching qildi u. – Vaqtingiz bo'lsa, bir og'iz gapimiz bor edi.

– Xo'p, xo'p, hozir, – darrov xatosini tushundi Hamdam, bir daqiqadan so'ng shovqin-suron eshitilmay qoldi. – Endi gapiravering, boshqa xonaga o'tdim. Tinchmisiz?

– Hamdam! – Nozimaning jahli hali tarqamagan edi, yaxshi-yomon deb so'rashib o'tirgisi kelmadi.

– Men ko'chada qolganimni, bunda sizning ham aybingiz borligini bilasiz-a?

– Bilaman.

– Bilsangiz, menga uy topib bering.

Hamdam ancha vaqt jim qoldi.

– Nega indamaysiz. Yoki sizda hech qanday mas'uliyat yo'qmi?

– Yo'-o'g', nega unday deysiz, – Hamdam biroz duduqlanib qoldi. – Sizni ko'chada qoldirish niyatim yo'q. Uy-ku, ko'p. Faqat ikkinchi opam qayerdandir siz haqingizda eshitibdi, Shohista aytganmi, har balo deb yotibdi. Bo'lmasa, uylarning biroviga "ijarachi" deb kiritib qo'yaverardim.

– "Har balo" deganingiz nima ekan?

– Ayollarni bilasiz-ku, "boraman, sochini yulaman", "unday-munday", shu-da. Sizni uyimizga qo'ysam, albatta, kelib tekshirishadi. Keyin ular meni ham, sizni ham tinch qo'yishmaydi.

– Unda men nima qilay? Turgan-bitganingiz shumi?

– Yo'-o'g', men uy topaman, faqat bir-ikki kun sabr qilib turing. O'zim sizga qo'ng'iroq qilaman.

– Men sizni ko'p kuta olmayman.

– Tushundim.

“Eh, Shohista!.. Shaytonning urg’ochisi! Shoshmay tur, boshingga bir o’yinlar solayki, bu savdolar qayerdan kelganini bilolmay tentak bo’lib yurgin!”

Bir pasdan so’ng yana Hamdamga qo’ng’iroq qildi.

– Ha, tinchlikmi? – aftidan Hamdam tanbeh eshitishdan qo’rqib, xoli joyga chiqib, telefonni ko’targan.

– Menga qarang, sizdan iltimos, shu Shohistadan bittagina qasdimni olib bering.

– Qanday qilib?

– Eriga yelimday yopishqoq bir o’ynash topib bering. U shunday shallaqla bo’lsinki, kerak bo’lsa, kelib Shohistaning sochini yulsin.

Hamdam “xo-xo”lab kulib yubordi.

– O’h, siz xotinlar! Sizlar chatoq.

– Shunday nomzod bormi?

– Topamiz.

– Tezroq toping.

– Xo’p, – Hamdam kula-kula telefonni o’chirdi.

Nozima ham xayoliga kelgan fikrdan ko’ngli yorishdi: “Hali mening sovunimga kir yuvmabsan!”

U sud bo’ladigan kunni hayajon bilan kutdi. Qaynonasi bilan eri hech qachon uning xiyonatini elga oshkor qilmasligiga ishonsa ham, baribir qo’rqdi. Chunki uni onalik huquqidan mahrum qilib, bolalarni o’zlarida olib qolishga shundan boshqa asos yo’q edi. “Tuhmat qilishyapti, deb turib olaman. Ishqilib, telefondagi yozuvlarni olib kelishmasin-da. Yo’g’-e, bunchalik pastkashlikka borishmas”.

Ular sud raisining qabulxonasida uchrashishdi. Nozima endi kelib o’tirgan edi, qabulxonaning eshigi ochilib, avval qaynotasi, so’ng qo’ltiqayoqqa osilib olgan onasining tirsagidan ushlagan eri kirib keldi. Nozima beixtiyor o’rnidan turib, salom berdi. Ammo uning salomiga hech kim alik olmadi. Eri otasi bilan onasini joylashtirgandan so’ng, “Men yo’lakda bo’laman, kerak bo’lsam chaqirtirarsizlar”, deb tashqariga chiqib ketdi. Erining rang-ro’yi bir ahvolda bo’lsa-da, oppoq ko’ylak, kulrang shim, tumshug’i uzun chiroyli tufli kiygan, barvasta qaddi-qomatiga kiyimlari juda

yarashib turardi. Beixtiyor uning ortidan tikilib qolgani esiga tushib, xijolat tortdi, kotibaga bir qarab qo'yib, yuzini har xil xonaki gullar terib qo'yilgan deraza tomon burdi.

Sud Nozima o'ylaganday, katta sud zalida, qora kostyumli salobatli rais, maslahatchilar ishtirokida bo'lmadi. Ularni to'g'ridan-to'g'ri raisning xonasiga taklif qilishdi. Bu xonada rais va ular bilan birga kirgan g'um-g'umalak qorindor yigitdan bo'lak hech kim yo'q edi. Rais Nozimaning arizasini o'qib eshittirgach, birin-ketin so'z berdi. Sardor o'rnidan turganda Nozimaning butun a'zoyi badani muzlab ketdi. Beixtiyor yerga qaradi. Shu chog' bir o'tli xo'rsiniq ich-ichidan yondirib o'tganini his qildi: "Xato qildim, erim yomon yigit emas edi".

Ha, Sardor yomon yigit emas edi. U Nozimani umuman yomonlamadi, ajrashishga rozi ekanligini, lekin xotinining uyida yetarli sharoit yo'qligi sababli bolalarni o'zlari o'rgangan uyda, bobo bilan momo tarbiyasida qoldirishni iltimos qildi.

– Ularning uyida ikki kelin ikki bolasi bilan, singlisi, ota-onasi turishadi. Bular ham borib qo'shilsa, bir uyda o'n bir-o'n ikki kishi bo'lib ketishadi. Onalari ishga ketsa, bolalar tiqilinch, begona sharoitda, o'zlari o'rgangan, mehr qo'ygan yaqinlarini sog'inib qiynalib qolishadi. Bizning uyimizda bobo bilan momodan boshqa hech kim yo'q. Bobo bolalarni o'zi bog'chaga olib borib, o'zi olib keladi. Uyda bir jiyanim turadi. U osh-ovqat, kir-chir bilan shug'ullanadi. Momolari bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Iltimos, bolalar o'z uylarida qolsin. Onasi bilan biron uchrashuv kunini belgilasangiz, ko'rishib turishlariga sira qarshiligimiz yo'q.

– Katta nevaram to'rt yildan beri men bilan yotadi, – bir amallab o'rnidan turgan momo ko'ziga yosh oldi, ovozlari qaltirab, zo'rg'a gapirardi. – Bolaginam bir kun ham mensiz yota olmaydi. Men ham usiz yashay olmayman.

Bobo hech narsa demadi.

Lekin sud... "ikkala tomonni ham eshitib", qonunning "falon-falon" moddalariga asoslanib, "qaror qildi": "Da'vogarning da'vosi qondirilsin".

Nozima uchun shu daqiqada sudyaning xonasidan bexavotirroq joy yo'q edi. Hovliga chiqsa, malomat toshlari tagida qolib ketishidan qo'rqib, o'tirgan joyida qimirlamay o'tiraverdi.

Sardor bir og'iz ham gapirmadi. Lekin qaynonasi chiqib ketayotib, uning ro'parasida to'xtadi:

– Ey, menga qara, senga shu bolalar umuman kerak emas-ku. O'zingdan ortib, shularga qarayolmasligingni ham yaxshi bilasan. Bizni qiynash uchun bolalarni qiynashning nima keragi bor? Axir sen ularning tuqqan onasisan-ku. Nahotki shularga rahming kelmaydi.

Nozima indamadi.

Sardor gapira-gapira yig'lab yuborgan onasining bilagidan ushlab, xonadan olib chiqib ketdi.

Anchadan so'ng kotiba kirib, uni o'z xonasiga taklif qildi.

– Yangi ish ko'rilishi kerak edi, opa.

Nozima shundagina xona to'rida qaqqayib turgan sud raisini ko'rdi.

– Kechirasiz, bugun og'ir kun bo'ldi.

– Hechqisi yo'q, – dedi rais, – Gulbahor, opangga choy-poy qilib ber. Siz xavotirlanmang, bolalarni ijrochilar olib kelib berishadi.

Bolalar oradan bir kun o'tgach, izillab yig'lab kelishdi.

– Men bu yerda turmayman, – bag'riga tortayotgan onasining qo'llarini itarib tashladi Sanjar. – Men o'zimizning uyimizda yashayman. Men bu yerni yomon ko'raman.

– Voy, bolam, unday dema. Men seni sog'inib ketdim. Sen meni sog'inmadingmi?

– Sog'ingan bo'lsangiz, o'zimizning uyimizga yuring. U yerda momom bilan bobom yig'lab qoldi, – Sanjar o'zi ham yig'lab yubordi. – Men sizni yomon ko'raman. Men bu yerda turmayman!

– O'g'lim, sen yig'lama. Erta-indin bizning o'z uyimiz bo'ladi, keyin mazza qilib yashaymiz.

– Menga uy kerak emas, menga momom kerak!

– Ana, – dedi ona-bolaning munozarasini bir chetda kuzatib turgan Iris xola. – Ilonning bolasi ilon, chayonning bolasi chayon, deb shuni aytadilar-da. Bu bolang hech qachon senga el bo'lmaydi. Bu o'sha kampirning tarbiyasini olgan.

Nozima onasiga o'qrayib qaradi.

Qizi indamay bag'riga keldi. Uni rohatlanib bag'riga bosib turib, juda-juda horiganini his qildi.

– Ona, endi biz hech qachon uyimizga qaytib bormaymizmi?

– Borasan, bolam, qachon uyni sog'indim, desanglar, yuboraman.

– Bo‘lmasa, momom nega yig‘ladi? Momom sizning yuborishingizni bilmagan-da. Siz telefon qilib, aytib qo‘ying, bolalaringizni yuboraman, yig‘lamang, deng.

– Xo‘p. Oldin senga o‘zim to‘yib olay.

Hamdam o‘zi aytganidan ham tezroq uy topdi. Koreyada ishlayotgan bir o‘rtog‘ining ikki xonali uyi bor ekan.

– Juda zo‘r bo‘lmasa ham hamma sharoiti bor. Televizor, muzlatkich, konditsioner, karavot... Egasi jihozlari bilan qo‘shib sotgan edi. Bir oz chekkarog‘-u, lekin bo‘ladi, za to tinch. Oldin bir ko‘rasizmi, yo birdan ko‘chib o‘taverasizmi?

– Ertaga ertalab bir taksi yuboring, boradigan joyimizni ham haydovchiga tushuntiring. Biz bolalar bilan ko‘ch-ko‘ronimizni olib, o‘zimiz boraveramiz. O‘zingiz o‘sha yerda bo‘p turing.

Hamma joyini o‘rgimchak to‘ri va chang qoplab yotgan uydin rutubat hidi anqib turardi. Bolalarning birdan qovog‘i uyuldi:

– Ona, biz endi shu xunuk uyda yashaymizmi, – darrov savolga tutdi bijildoq Noila. – Bundan momomning uyi chiroyli edi-ku.

Nozima bir uf tortib, indamay qo‘ya qoldi. O‘ziga ham yoqmayapti. Ammo nima qilsin?

– Onalarning hozir hamma joyini supurib, yuvib, chinniday qiladi. Keyin bu uy ham chiroyli bo‘lib qoladi, – Noilani yupatdi Hamdam.

Nozimaga Hamdamning gapi ham yoqmadi:

– Borib mashinadan yuklarni olib keling.

Sanjar hech narsa demadi. Go‘yo u keyingi bir necha kun ichida bir necha yoshga ulg‘ayib, katta odamga aylanib qolgan, har narsadan o‘zicha xulosa chiqarib, xulosasini ichiga yutib qo‘ya qoladigan bo‘lgan edi. U uyni ham, Hamdamni ham bir qarashda yoqtirmadi, ammo chiqib ketay, desa, onasi qo‘ymaydi, biron chetga o‘tib o‘tiray desa, bu isqirt uyda o‘tiradigan joy ham yo‘q edi. Nihoyat, Xudo onasining o‘ziga aql berib qoldi:

– Bo‘lmasa, bolalar pastdagi skameykalarda o‘ynab o‘tirib turishsin, uyni yig‘ishtirib olgandan so‘ng chaqiramiz... Tag‘in uzoqqa ketib qolmanglar, begona joyda adashib qolishlaring mumkin.

– Xo‘p, onajon.

Bolalar chiqib ketishgach, Hamdam tumtayib turgan Nozimani ohistagina bag'riga oldi, u ham bir so'z demay, yigitning yelkasiga boshini qo'ydi. Ular shu ko'yi ancha turib qolishdi. Na unisi, na bunisi bir og'iz gapirmadi, ular bir-birini so'zsiz tushunib turishgan edi. Boshlariga tushgan sinovlar qaysidir ma'noda ularni bir-biridan uzoqlashtirgan bo'lsa, qaysidir jihatdan bir-biriga yaqinlashtirib qo'ygan edi.

– Vaqtni ketkazmaylik. Begona joyda bolalar ko'chada qolib ketmasin, – birinchi bo'lib Nozima uning yelkasidan qo'llarini olib, quchog'idan chiqdi.

– Ha, tezroq bo'lish kerak, – uni darhol qo'yib yubordi Hamdam ham.

Robiya kampirning uyidagi hashamdor sharoitga o'rgangan Nozima yag'iri chiqib ketgan bu g'aribxonani tozalar ekan, xo'rliqi keldi: “Mendan kechib, kimga yetding, deydilar”. Bu uyda bir uy bola bilan bir sonsiz ayol yashaganligi aniq. Eshik, devorlar bolalarning panja izlaridan dog'-dug' bo'lib ketgan, kim-o'zariga sharikli ruchka bilan har xil rasmlar chizilgan, oshxonadagi qo'l yuvgich va gazning oldi yog'li dog'-dug'lardan sirpanchiq bo'lib qolgan edi. Televizor deganlari gugurtning qutisidan salgina basavlat bo'lib, ichkari xonaning to'rida mung'ayibgina turardi. Kirligidan sarg'ayib ketgan muzlatkichning ichida ham biron tokcha yo'q, kiyim iladigan shkafdek huvillab turardi. “Qaynonasi umrini dalada o'tkazgan bo'lsa ham, nima olsa, asilidan, chiroylisidan olar edi”.

Bu uyni astoydil tozalamoqchi bo'lsa, bolalari kun bo'yi ko'chada qolib ketishini o'ylab, ichkari xonadagi o'rgimchak to'rlarini tozalab, changlarini yuvib, artib, bolalarni uyga kirgizdi. Hali zamon bolalarning qorni ochadi, ularga nimadir tayyorlash kerak. Shu paytgacha hech qachon bozor-o'charning tashvishini qilmagan Nozimaning hayotida yana bir muammo paydo bo'ldi. Biroz xijolat bo'lib, Hamdamga qaradi:

– Ozroq bozor-o'char qilib kelsangiz. Hali zamon tushlik vaqti bo'lib qoladi. Men uydan kiyim-kechakdan boshqa hech narsa olib kelmagan edim.

Hamdam uning yelkasiga qoqdi:

– Hali hammasi yaxshi bo'ladi.

Ertasi kuni yana bir muammoga to'qnashdi: bolalarni kimga tashlab ketadi?

...Uyga tashlab ketdi, Xudo boqsin, deb. Gazlarni o'chirdi, gugurtlarni balandroq joyga qo'ydi. Javdirab turgan bolalariga “Men darrov qaytaman, sizlar televizor ko'rib, qo'rqmasdan o'tiringlar” deb ishga ketdi.

Nozima qirtishlayverib, uyni biroz ochib oldi. Hamdam ham biroz o'ziga kelib, oldingiday hazil-huzul bilan kirib chiqadigan bo'lib qoldi, lekin u hech qachon kechasi yotib qolmas edi. Nozima tunlari uning qo'ynida huzur qilib yotishni, bolalariga "bu sizlarning yangi dadalaring", deb e'lon qilishni juda-juda istar, Hamdam esa "oshiqcha muammoning nima keragi bor, shundayiga ham yaxshi-ku", deb qolishga unamas edi. "Agar yotib qolsangiz, munosabatlarimizni bolalarga ochiq-oydin aytsak, kunduzlari kelganingizda bolalarni ko'chaga haydab yubormasdik", "Ikki soat ko'chada o'ynasa, hech narcha bo'lmaydi. Odamlarning bolasi kun bo'yi ko'chada yuradi. Menam ertadan kechgacha ko'chada yurardim. Momom bechoraning "Hamdam-uv, Hamdam-uv" deb chaqirib yurishlari quloqlarimda qolib ketgan. Chaqirayotganini eshitsam ham eshitmaganday o'ynab yuraverardim", "Baribir, o'z xohishi bilan ko'chada o'ynab yurish boshqa, uylariga bir erkak kelganda ikki soatga uydan chiqib turish boshqa. Bu narsa bir umr ularning yodidan chiqmaydi". "Qo'ysangiz-chi, biz ularga chiqib turinglar, deyayotganimiz yo'q, o'ynab kelinglar, deyapmiz".

O'sha kuni havo juda issiq edi. Nozima maktabdan qaytib, ichkari xonadagi divanga endi cho'zilgan edi, eshik taqilladi. Bolalari joyidan qimirlamadi, bunday payti kim kelishini hamma bilar edi. "Hamdam", dedi Sanjar g'ijini. Bir parcha bolaning bepisand ijirg'anishi Nozimaning achchig'ini keltirdi. Hamdam aka de, boshiga bir tushirdi o'g'lining, bozorlik qilib keling, degandim, obkelgan narsasini zaharingga yeysan, yana "Hamdam", emish. Eshik yana taqilladi. Ochig'ini aytganda, bu bemahal tashrif Nozimaning o'ziga ham yoqmayotgan edi. Ishdan o'lguday charchab kelgan. Tashqari yonib yotibdi. Shu paytda bolalarni ko'chaga chiqarib qo'yishga sira vijdoni chidamas edi. Buyog'i qo'shnilar ham kim kirib, kim chiqqanini ko'rib, kuzatib o'tirishibdi. Juda noqulay.

Og'rinibgina eshikni ochdi. Uning yuzidagi malomat Hamdamga sira yoqmadi:

- Ha, na bo'ldi maning nozli malagimga?
- Hech gap. Ishdan hozirgina kelgan edim, charchab...
- Mening oldimda bunday shalpayib turmang. O'ynab, kiyikday o'ynoqlab turing, tushundingizmi?

"Uf!"

U indamay Hamdamning qo'lidagi yelimxaltalarni oldi. Hamdam esa "Ay, maning nozli yorim, nozli yorim" deb xirgoyi qilgancha ichkari xonaga kirdi. Yerga dumalab televizor ko'rib yotgan bolalarni ko'rgach, uning ham kayfiyati tushib ketdi:

- Eh-he, jamoat jam, bitta biz kam-ku!

Bolalar o'rinlaridan turib o'tirishdi.

- le, salom qani, o'qituvchining bolalari hech salom berishni o'rganmadi-o'rganmadi-da.
- Assalomu alaykum.
- Salom, – singlisining izidan ergashib bazo'r og'iz qimirlatdi Sanjar.
- Qani, televizorni o'chirib, ko'chaga shagom marsh.
- Biz ko'chaga chiqmaymiz, qiziq kino bo'layapti.
- Chiqmaymiz emish, yeshyo kak chiqasan, shunday uchib chiqasanki, qanday chiqqaningni o'zing ham bilmay qolasan. Qani, bir, ikki, uch deganimda, sizlarni bu yerda ko'rmay. le, odam toza havodan ham nafas olishi kerakmi? Kun bo'yi uyda biqinib yotganlaring yotgan!
- Qo'yavering, Hamdam, o'tiraverishsin, – oshxonada turib uni qaytardi Nozima. – Ko'cha yonib yotibdi. Ular hali tushlik ham qilishgani yo'q. Bu yoqqa keling, muzday chalop qildim, biz oshxonada gaplashib o'tiramiz.
- Yo'q, – Hamdamning ham qaysarligi tutdi. – Bilasiz, gapimni qaytarganlarni yomon ko'raman. O'zim chaqirmaguncha qaytmaysanlar. Qani, bi-ir, ik-kki-i, u-uch!

Sanjarning rangi ko'karib ketdi, indamay singlisining qo'ldan ushladi-da, uydan chiqib ketdi. Nozima ularning shu ketishini allaqaysi filmning fojiali yakuniga o'xshatdi. Biram mungli, biram g'arib edi ularning qarashlari, turishlari...

- Och edi-da ular, bekor qildingiz, – Nozima astoydil xafa bo'ldi.
- Menga unday gap qilmang, xonim, – Hamdam uning yoniga borib, bosh barmog'i bilan tumshug'ining tagidan ko'tardi. – Siz uchun, sizning ko'nglingiz uchun qayerlardan tilimni ko'ndalang tishlab, shu xafa bo'lmasin, shuning oilasini buzib qo'ydim, deb kelaman. Siz bo'lsa, bolalaringizni ikki soat tashqariga chiqarishni istamaysiz. Hov, bilasiz, ko'cha to'la qiz!.. Obkeling, chalopni!

Omonat kulbaga ham yana bir darz ketdi.

U chalopni simirgach, ko'ylagini yechib, eshikning tutqichiga ildi-da, o'zi ichkari uydagi divanga borib cho'zildi. Nozima ostonada serryib turib-turib, uning yoniga keldi: "Boravering, o'sha qizlarga" deya olmadi. Bir xo'rsinib, uning yalang'och ko'ksiga boshini qo'ydi. Hamdam uning sochlarini siladi: "Unday emas-da, jonim. Odamning bor shavqini so'ndirib yuborasiz".

Hamdam ancha qolib ketdi, u ketgach, vujudida g'alati toliqish his qildi. Yumshoqqina to'shak o'ziga ohanraboday tortaverdi. Yuvilib, salqinlab olganidanmi, ko'zlari o'z-o'zidan yumilib ketaverdi. Bolalarini chaqirib, uyiga kirgizishga ham hafsala qilmadi: "Hamdamning ketganini ko'rib, o'zlari kirishar". Shu yotgancha qotib qolibdi. Bir payt qaynonasining shang'illagan ovoztidan cho'chib uyg'onib ketdi. Qaynonasi unga qo'ltiqtayog'ini o'qtalib, "Yuzing qursin, sen behayo, benomusning!" deb baqirib yotgan emish. O'rnidan sakrab turib, atrofga qaradi, hech kim yo'q, na qaynonasi, na bolalari. "O'zingning yuzing qursin! Xayriyat, tushim ekan. Yuragimni yordi-ya, jodugar!". Kun tob tashlagan bo'lsa-da, xona dim, u jiqqa terga botib ketgan edi: "Ie, bolalar haliyam kirmabdi-ku!". Uning ko'ngliga noxush xavotir o'rmaladi, shoshib derazadan pastga qaradi:

– Sanjar, Sanjar-uv! Noila! Noila-a!

Uyning oldidagi o'yin maydonchasi bola-chaqaga to'lib ketgan, faqat uning bolalari ko'rinmas edi. Oyoqlariga shippagini ilib, tashqariga yugurdi. Yo'lakning eshigida rangi ayozday zahil, hamisha ilondek zaharga to'lib yuradigan qo'shni ayol – Sharofatga duch keldi.

– Hamsoya, mening bolalarimni ko'rmadingizmi?

Sharofat kinoyali kulimsiradi:

– Bechoralar o'tirishgan edi uylarining bo'shashini kutib. Biron-bir sheriksiz uy axtarib ketib qolishgandir balki.

Boshqa payt bo'lganda unga gap topib bergan bo'lardi, hozir bu chayon bilan talashib o'tirishga na vaqti bor, na quvvati.

...So'ramagan odami qolmadi. Hech kim ko'rmagan, hech kim hech narsa bilmaydi. Axir hamma salqin uyning to'rida jon saqlab yotgan payt edi, kim ham ko'rardi uning bolalarini. Onasinikiga, milisaxonaga qo'ng'iroq qildi.

Oxiri yurak yutib, qaynonasining uyiga telefon qildi. Telefonni qaynonasi oldi:

– Eshitaman.

– Xola-a, bu men, Nozimaman.

Ikkinchi tomon ancha payt jim bo'lib qoldi:

– Xola-a, – yig'lab yubordi Nozima. – Men bolalarni yo'qotib qo'ydim.

– Nozima! Sendan iltimos qilaman, bolalarni bunday ovora qilma. Katta ko'chada yig'lab yurishsa, meni taniydigan birovga duch kelib qolibdi. "Biz Robiya Soatovaning nevaralarimiz, shu kishini axtarib yuribmiz" desa, Xudo yorlaqagur allaqayerlardan uyga olib kelib berdi. Bir yomonlarga duch kelsa, nima bo'lar edi? Yaxshidir, yomondir, yetti yil tuzimni yeding. Sendan iltimos, senga hech qanday ta'na qilmayman, qanday istasang, shunday yasha, lekin bolalarga teginma. Men endi senga bolalarni bermayman.

Nozima bir zum o'ziga kela olmay turdi, boyagina dunyolarga sig'may turgan vujudiga sekin-asta xotirjamlik, halovat indi: "Xudoga shukur-ey!" Ammo shu daqiqaning o'zida ko'nglida boshqa bir istak paydo bo'ldi.

– Xola! Men bolalarimni ko'chaga chiqarib qo'yganim yo'q. Bola, bola-da, sizni sog'inib, uydan qochib ketgandir. Bir og'iz aytsa, o'zim olib borib qo'ymasdim, shuncha yig'lab axtarib yurguncha. Ammo men ham bolalarimni hech kimga bermayman. Yaxshilikcha bermasangiz, yana sudlashamiz.

– Hay, Nozima, o'zingni bos, qahrimni keltirma. Men yaxshi bilaman, bolalar senga umuman kerak emas. Senga bola kerak bo'lsa, bir parcha go'daklarni qoq tushda issiqqa chiqarib qo'yib, o'zing maishat qilib yotmas eding? Sen bizga qasdlashib, bolalarni olib yuribsan. Biz senga nima yomonlik qildig-u, bolalar senga nima yomonlik qildi?

– Xola, u bolalarning onasi menman. Achchig'im kelganda urgandirman, urishgandirman, tashqarigayam chiqarib qo'ygandirman. Onasi sifatida ularni jazolashga haqli odamman, lekin ularning kaftiga bitta tikan kirsam, mening yuragim og'riydi. Chunki ular mening yuragimning yog'idan bino bo'lgan.

– Sen o'sha bolalarni o'ylaydigan ona bo'lganingda jimgina uyingda o'tirgan bo'lar eding. Sen faqat o'zingning maishatingni o'ylaydigan ayolsan. Sudga ber, mana ko'rasan, oldin aytmagan bo'lsam, endi aytaman bor haqiqatni!

– Bilganingizni qiling.

– Qilaman ham.

Ikki tomon ham kelishgandek bir paytda sharaqlatib telefonni qo'ydi. Nozimaning qarshisida yana bir muammo paydo bo'lgan bo'lsa-da, ko'ngli xotirjam tortgan edi: "Topildi-ku bolalari! O'tirishgandir tizzalarda chuldirashib... "Bizni onamga berib yubormang", deb".

Allaqachon tun cho'kib, atrof qop-qorong'u bo'lgan edi. Turib xonaning chirog'ini yoqdi. Eshikni qulfladi. U juda charchagan edi. Bolalarining daragi chiqqach, birdan bo'shashib ketdi. Yostig'ining

tagidan tungi ko'ylagini olib kiydi-da, divanga cho'zildi, ammo sira uyqusi kelmadi. "Yolg'izlikning tunlari bunchalar dilgir!". Aslida u qachonlardan beri yolg'iz, erining uyida ham yolg'iz edi. Lekin u paytlar qo'shni xonada kimdir uni intiq bo'lib kutib yotganini bilar, bu yolg'izlik unga g'urur va lazzat bag'ishlar edi. Endi u intiq, intizor. Kutayotgan odami hech qachon uniki bo'lmasligini bilsa ham, g'ururi oyoq osti bo'lsa ham indamaydi, indayolmaydi. Chunki endi undan boshqa hech kimi, hech narsasi yo'q. Ha, bolalari bor. Kampir senga bola nima kerak, deydimi? O'zi ona bo'la turib, menga shu gapni aytdi-ya. Nahot, menda umuman onalik tuyg'usi yo'q, deb o'ylasa? Unda men ayol bo'lib, inson bo'lib yashab nima qildim? Hatto mushuk ham bir joydan ikkinchi joyga o'tsa, bolalarini tishida tishlab olib o'tadi. Nahot, o'sha hayvonda bo'lgan onalik tuyg'usini menda yo'q deb o'ylaydilar? Ha, ular Nozimani hayvondan ham battar deb hisoblashadi, hali buning uchun javob berishadi!

U bir necha kun atay indamay yurdi, o'zicha biroz dam olmoqchi bo'ldi. Erta turib bolalarga nonushta hozirlash, so'ng ko'ngli xavotirga to'lib, iziga qaray-qaray ishga ketish, "Bolalar nima bo'ldiykin?" deb yugurib kelish, ularga tushlik, kechki ovqat hozirlash, tinimsiz "tek", "qo'y", "jim o'tir"lardan juda charchagan edi. Bu uch kunda yomonlikka Hamdam ham izlamadi. U ham telefon qilmadi. Shu omonat hamrohdan ham dam olmoqchi edi u. Turib-turib zerikdi, o'ylab qarasa, shu bolalar uchun ovqat hozirlar, shular bilan o'tirib o'zi ham nimadir yer, shular uyni to'zg'itar, u yig'ishtirar, shular bilan harakat, hayot bor ekan. Ba'zi oqshomlar umuman chirog'i ham yoqilmadi. Chiroq kerak ham bo'lgani yo'q, qayerda nima turganini bilsa... Bir uxlab turish uchun chiroq yoqish shartmi? Hamdamni ham juda sog'indi. Bu yigit hech qachon uniki bo'lmasligini bila turib ham, uni o'ylashdan, uni kutishdan, uzoq tunlar uni sog'inib ko'z yosh to'kishdan o'zini tiyib turolmasdi. Bir kun kelib uni butunlay yo'qotib qo'yishini o'ylaganda, dunyo ko'ziga zimiston bo'lib ko'rinib ketardi. O'ziga o'zi tushuna olmas edi. Bu nima? Sevgimi? Kirar aqli kirib, chiqar aqli chiqib bo'lgan bir yoshda nahot hech qachon unga tegishli bo'lmaydigan bir yigitni sevib qolgan bo'lsa?! "Yo'q, unga o'rganib qolgan. Ha, shunday. Boshqa hech narsa yo'q. Hozir undan voz kechishning ham iloji yo'q, uy uniki, chet elga chiqish uchun besh-olti so'm pul jamg'arsin, keyin o'ziga ham, uyiga ham etak silkib ketadi, qoladi". Bu gaplar yolg'iz qolgan damlarda o'z-o'ziga taskin uchun aytiladigan shunchaki yolg'onlar edi, xolos. Aslida bu yigitdan hech qachon voz kecha olmasligi o'ziga ham, Xudoga ham ayon haqiqat edi.

To'rtinchi kuni prokuraturaga bordi. Prokuror Sardorni chaqirib, bir vaqtlar Nozimani qo'rqitgani kabi, "qora dori" ko'rsatganmi yo boshqa jiddiyroq gap qilganmi, shu kuniyoq ikki bolani ham Nozimaning onasinikiga tashlab ketibdi.

Shu kuni Hamdam ham keldi. Bo'lib o'tgan voqealarni yig'lab-yupanib gapirib o'tirgan edi, singlisi bolalarni yetaklab kelib qoldi. Hamdam bo'lib o'tgan ishlarda o'zini aybdor sezdimi, bolalarning boshini silab, "Sizlar o'tirib turinglar, bugun bir bayram qilamiz. Bir kilo issiqqina tandir go'sht olib kelay, onalaringga shokolad, sizlarga muzqaymoq ham olib kelaman", deb, chiqib ketdi. Sanjardan tashqari hammaning yuziga tabassum yugurdi.

Haqiqatan bayram edi o'sha kun Nozima uchun. U darrov choy qo'yib, dasturxon yasashga tushib ketdi. Lekin har qancha yalinsa ham singlisi o'tirmadi, "onam bilan bir joyga borishimiz kerak edi", deb ketib qoldi. Hamdam rosa to'lib-toshib keldi, Nozima uchun "Qora marvarid" vinosi, o'ziga idishi ajabtovur aroq ham olib kelgan edi. Rosa mazza qilishdi. Hamdam qo'yarda qo'ymay bolalarga ham sal-sal vino ichirdi: "Bu sizlarni baquvvat qiladi". Hamma mazza qildi, ginalar unutildi, arazlar yozildi, alamlar esdan chiqdi. Biroz kayfi oshgan Hamdam qo'shiq boshlab yubordi:

"Qora xolingga tushgan kipriklaringning soyasi..."

Qolganlar qarsak bilan jo'r bo'ldi.

Shovqin-suron bilan eshikning taqillayotganini ham ancha kech eshitishdi. Davraga qovushmay bir chetda o'tirgan Sanjar nimagadir dahlizga chiqib, eshikning taqillayotgani eshitdi:

– Eshigimizni kimdir qattiq urib yotibdi, – bola qo'rqib ketganidan rangi biroz oqarib turardi.

– Hozir o'zim qarayman, – Hamdam mardona eshik tomon yurdi.

Bir pasdan keyin uning ham rangi oqarib keldi:

– Opam!

– Opangiz? Opangiz bu yerda nima qiladi?

– Birona mehribonimiz bergandir-da adresimizni... Endi nima qilsak ekan?

Eshik tobora qattiqroq taqillar edi.

Nozima shoshib uning qo'lga tuflisini tutqazdi:

– Ayvondagi supaning podvaliga kiring.

O'zi eshikka yo'naldi:

– Kim u? Hozir!..

Eshik ochilishi bilan Hamdamga ikki tomchi suvdek o'xshash bir ayol dovuldek yopirilib ichkariga kirdi:.

– Keling... – ich-ichidan qaltirab ketayotgan bo'lsa-da, mulozamat qildi Nozima.

Dovul uning mulozamatini ham, o'zini ham yo'ldan surib tashlab, poyafzalini ham yechmasdan, hamma xonalarni bir-bir ko'rib chiqdi:

– Qani, Hamdam?! – o'shqirdi hamon dag'-dag' qaltirab turgan Nozimaning qarshisiga kelib.

– Qanaqa Hamdam?

– Mana munaqa Hamdam! – ayol bosh barmog'ini ikki barmog'ining o'rtasidan chiqarib, Nozimaning tumshug'i tagiga tiqdi. – Mashinasi eshigingning tagida turibdi. Stolingda aroq, vino, go'sht! Bu kishi Hamdam qayerdaligini bilmasmish. Ikki haroming bilan sen ham otamning topganiga sherik bo'ladigan bo'ldingmi? Megajin!

Ayol uning yoqasidan olib, yumdalay ketdi. Qo'rqib ketgan Nozima o'zini himoya qila olmay qoldi, ayol qattiq itarib yuborgan edi, u gup etib yiqilib tushdi. Shundan keyin ayol uning ustiga o'tirib olib, boshiga mushtlay boshladi. Nozima hech narsani sezmay qoldi, qulog'iga faqat qizchasining "Ona" deb chinqirib yig'layotgan ovozi eshitilib turardi. Bir vaqt ustidagi ajdarho "gurs" etib orqaga yiqildi va birdan jimib qoldi. Nozima hayron bo'lib, atrofga qaradi. Uning oyoqlari uchida Sanjar katta o'qlog'ni mahkam quchoqlagancha, bilinar-bilinmas qaltirab turardi.

Nozima bir amallab yiqilib yotgan ayolning tagidan chiqib, uning boshiga bordi. Ayol behush edi, boshining tagida halqob bo'lib turgan qonni ko'rib Nozima qo'rqib ketdi.

– Hey!.. Opa!.. – astagina yelkasidan turttdi Nozima.

– Suv!..

Nozima yugurib Hamdamning yoniga keldi:

– Sanjar boshini yorib qo'yibdi.

Rangi oqarib ketgan Hamdam yarim emaklab, supaning tagidan chiqdi-da, changdan oqarib qolgan shimini yengil-elpi qoqqan bo'lib dahlizga chiqdi: "Hech tinch kun yo'q ekan-da." Borib hamon ko'zlarini yumib yotgan opasining boshi ustiga engashdi.

– Ha, opa, sizga nima bo'ldi? Bu yerda nima qilib yotibsiz?

Opa ohistagina ko'zlarini ochdi:

– Balo bo'ldi, dard bo'ldi. Sen o'zing nima b... yeb yuribsan bu yerda?

– Men shu yerda yashaydigan bir oshnamnikiga kelgan edim. Qarasam, eshik ochiq, choʻzilib yotgan kim boʻldi, deb kirsam... Qani turing, oʻzim sizni doʻxtirga olib boraman.

U opasini avaylabgina turgʻizib, qoʻltigʻiga kirdi-da, tashqariga olib chiqdi.

Hamdam kechqurun qoʻngʻiroq qilguncha Nozima necha oʻlib, necha bor tirildi. Yoʻlakdan eshitilgan har bir qadam tovushi uning yoniga kishan koʻtargan milisalarni boshlab kelayotganday boʻlaverdi.

– Opam sizni sudga berib, qamatib yuboraman, deyapti, – uning ovozi juda horgʻin edi. – Bir amallab tinchitdim. Men uch-toʻrt kun yoningizga borolmayman, bular izimga odam ham qoʻyishlari mumkin. Yolgʻiz oʻgʻil boʻlish hamisha qiyin boʻlgan. Bir oʻzimga yuzta nazoratchi. Biroz sabr qilib turing, uyni oʻzgartiramiz.

– Xoʻp.

– Oʻzingiz ham uch-toʻrt kun onangiznikiga borib tursangiz, yaxshi boʻlar edi.

– Xoʻp.

– Nozima...

Shu payt timirskilanib yurgan Sanjar telefonning orqasida turgan qutichani olaman deb, telefonni tushirib yubordi. Aloqa uzilib qoldi. Nozima sharaqlab yerga tushgan apparatni olib, oʻgʻlining yelkasiga oʻsha apparat bilan bir tushirdi: “Kasofat! Har doim bir narsalarni agʻdar-toʻntar qilib yurmasang, boʻlmaydi”. Keyin telefonni joyiga qoʻyib, yana jiringlashini kutdi, lekin qaytib, qoʻngʻiroq boʻlmadi.

Kutaverib, siqilib ketdi. Toriqib, ayvonchaga chiqdi. Allaqayerdan musiqa ovozi eshitildi. Toʻy boʻlayapti, shekilli, “yor-yor” aytilayotgan edi: “Qat-qatgina qatlama, qatlanadi, yor-yor. Qizni olib yangalar otlanadi, yor-yor...”

Endi “opa”lar Hamdamning toʻyini ham tezlashtirishadi. Sardor ham uylanadi. Shunday oqshomlarning birida uning uyiga “yor-yor” sadolari ostida yangi kelin sollanib kirib keladi.

Bolalarning tez ovunishi tez unutishlaridan boʻlsa kerak. Bolalari kunduzgi sharmandagarchiliklarni allaqachon unutib, uyni boshlariga koʻtargancha, quvlashmachoq oʻynashar edi. Bolalarining baxtiyorligi unga juda malol keldi.

Daqiqa sayin zaharga toʻlib borayotgan Nozima ayni damda shu bolalarni oʻldirib qoʻyishga ham tayyor edi: “Dardisarlar! Shu bolalar boʻlmaganda allaqachon chet elga ketib qolar edi. Ishlab,

shaharda bitta qilib, uy qurdirardi, mashina olardi, hamma orzu-havaslariga yetarli pul jamg'argandan keyin erga tegardi..."

Sharaqlagan ovoz xayollarini bo'lib yubordi. Sanjarning oyog'i telefonning simiga ilashib qolib, yana telefonni yerga tushirib yuborgan edi. Nozima uchib, xonaga kirdi. Uning vajohatini ko'rgan Sanjar yig'lab yubordi:

– Urmang, onajon, bilmasdan qildim. Momomnikidan yangi telefon olib kelib beraman. Iltimos, urmang.

"Momo"ning tilga olinishi Nozimaning jazavasini qo'zitdi:

– Momong senga telefon beraman, dedimi? Mana senga telefon!

U bolaning ko'z yoshlaridan ho'l bo'lib ketgan bir burdagina yuziga tarsaki tortib yubordi. Bola gandraklab orqaga yiqilayotgan edi, uning nozikkina bilaklaridan changallab ushlab, yana bir tarsaki tushirdi. Endi uni to'xtatib bo'lmasdi. Yana, yana, uraverdi, uraverdi! Bola endi onasining oyoqlarini quchoqlab yig'lar edi:

– Onajon, urmang, urmang, onajon! Boshqa bunday qilmayman, meni kechiring.

Nozima bolani bir siltab, o'zidan ajratib oldi-da, yerga itarib yubordi. Yarador qush misol yer bilan bitta bo'lib yotgan bolani bir tepib, yana ayvonga chiqib ketdi. U bir pas derazadan kelayotgan muzday havoga ko'ksini tutib turdi, uning yuragi yonib ketayotgan edi. Hali kelin taxtiravoniga joylashmagan shekilli, ezma san'atkorlar hamon "yor-yor"ni cho'zib yotishar edi: "Hay-hay o'lan, jon o'lan ey..." Nozima zarda bilan deraza qopqasini itarib yubordi. Deraza oynalari zirillab ketdi. U xonaga qaytib kirganda Sanjar xonaning bir chetida, tagidagi ko'rpaning yarmini ustiga yopib, qunishibgina yotar edi: "Yuzing qursin!"

Bir chetda tizzalarini quchoqlagancha hurpayib o'tirgan Noila ham ko'ziga irkit mushukdek yoqimsiz bo'lib ko'rindi.

– Nega dushmaningga qaraganday pusi-ib qaraysan? Qaysi go'rdanam senlarni tug'dim? Senlar bilan hech qayerga sig'mayman.

Qiz hamon qilt etmasdan onasiga tikilib o'tirardi. Uning nigohidagi qo'rquv va begonalikka o'xshash g'alati ifoda uning qahrini keltirdi:

– Yot-t! Hozir bir tepib, devorga yopishtirib tashlayman.

Qizcha qo'rqib ketganidan shoshib, o'tirgan joyiga yota qoldi. Yotganda ham muqarrar tushishi mumkin bo'lgan tepki zarbidan qo'rqib, g'ujanak bo'lgancha, onasidan ko'z uzmay yotar edi.

– Ahmoq! Odam o'z onasidan ham shunday qo'rqadimi? Momong senlarga shunday o'rgatgan-da: onangdan ehtiyot bo'linglar, urib o'ldirib qo'yishi mumkin, qovurib yeb qo'yishi mumkin. U odam emas, odamxo'r hayvon, deb! E-e, momongga o'xshamay o'! – u oshxonaga o'tayotib, qizchani yarmi ochilib qolgan do'mboqqina sonlariga bir tepdi. Zarbning kuchidan qizchani bir hovuch jussasi to'p etib devorga urildi. Ammo qiz g'iq etgan ovoz chiqarmadi, boshini nozikkina bilaklari orasiga olgancha, siljib borgan joyida g'ujanak bo'lib yotaverdi.

Nozima muzlatkichdan boya Hamdam ichib boshlagan aroqni oldi-da, piyolaga to'ldirib quydi. Piyolani tik turgan holida bo'shatdi. Ichimlik muzday edi, ammo ichini yondirib yubordi. Kosaga bir kapgir osh solib, stolga qo'ydi. O'zicha bir-ikki qoshiq osh yegan bo'ldi, yana aroq quydi. Aroq endi yuraklarini kuydirib o'tdi. Yana quydi, endi butun jonu jahoni kuydi. Ezma qo'shiqchi hamon kelinposhshani yupatish bilan ovora: "Ostonasi tillodan uy seniki, yor-yor...", "Ha, allaqanday oyimtilla uning uyiga ega bo'lib oladi. Bu esa bolalari bilan shu omonat katakdan ham quvilayapti! Jodugar qaynonasi avval boshdan uni haydash payida bo'lgan. Shuning uchun ularni na zagsdan o'tkazgan, na uyning ro'yxatiga kiritgan. Bir-ikki marta aytsa, "Shungayam men yuraymi, eru xotin qilaveringlar", deb bosh qo'shmadi. O'shanda nikohing ham, uying ham boshingdan ordona qolsin, deb bekor qilgan ekan. Mana endi uning da'vosi hech qayerga o'tmaydi. Noqonuniy xotin! O'zlari berishmasa, hech qanday mulkka sherikchiligi yo'q bolalar! O'h-h, jodugar! Bir umr changga botib, tuproq kechib, kesakka surinib yurgan bo'lsa ham ilonning yog'ini yalagan ekan, bu kampir!"

Oyoqlarini uzatib yotgisi keldi, bir amallab o'rnidan turarkan, boshi gir aylanib ketdi, devorlarga suyana-suyana xonaga o'tdi. Toliqqanidanmi, ko'zlarini zo'rg'a ochib yurardi. Shu ahvolda ham hamon g'ujanak bo'lib yotgan "koptokcha"ning qo'rquv to'la ko'zlari ochiq ekanligini ko'rdi: "E-e, o'l-e, dardisar!" O'tayotib, bolani o'xshatib bir tepdi. Oyoqlari juda ham yumshoq narsaga tegdi, biqinigami, qornigami, bola naq yarim metr joyga siljib ketdi. U yotgan joyida cho'zib ingrandi, lekin yig'lamadi.

Ertalab tomoqlari qaqrab uyg'ondi, kecha ko'p ichganidanmi, ko'ngli behuzur bo'layotgan edi. Kun choshgoh bo'lib, uyning ichi quyosh nuridan qizib, dim bo'lib ketgan edi. Shoshib yuz-qo'lini yuvib, ishga otlana boshladi. Kecha ham ishga bormagan edi, bugun bormasa, bo'lmaydi. Shusiz ham direktorning oyimchasi har kuni bir asabini buzadi.

U shoshib, o'g'lining boshiga keldi:

– Sanjar, hoy, Sanjar! – bolaning ustidagi ko'rpani olib, qo'lidan tortdi, – Tur, kun peshin bo'lib ketibdi. Men ishga ketayapman. Ukang bilan o'zlaring ovqatlanaveringlar.

O'g'lini silkilayotib, negadir kafti qizib borayotganini his qildi. Hayron bo'lib, bolaning peshonasini ushlab ko'rdi. U alangai otash bo'lib qizib yotar edi. Shundagina uning yuzlari ham bo'g'riqib ketganini payqadi:

– Sanjar, o'g'lim!

Cho'kkalab, o'g'lini ko'tarib uyg'otmoqchi bo'ldi, ammo bolaning boshi shilq etib pastga tushib, osilib qoldi, o'zi zo'rg'a ko'zini ochdi:

– Suv...

– Noila, hay, Noila! Tur, bir piyola suv olib kel.

Noiladan hech qanday sado chiqmagach, bolani joyiga yotqizib, o'zi oshxonaga yugurdi, Sanjar bir qultum suvni zo'rg'a yurtdi.

U Sanjarni tinchitgan bo'lib, Noilaning boshiga yugurdi. "U hamisha hammadan oldin uyg'onar edi. Unga ham bir gap bo'lgan bo'lmasin". Qizchaning ko'zlari ochiq, pastki lablarini tishlab, indamay yotar edi. Nozima uning peshonasini ushlab ko'rdi, "isitmasi yo'q".

– Senga nima bo'ldi, qizim?

Qizcha lablarini yana ham qattiqroq qimtdi, qizarib ketgan ko'zlariga qalqqan yosh chekkalaridan oqib, yostiqqa tushdi.

– Ichi-im og'riyapti, – dedi u anchadan so'ng juda zaif ovozda.

– Nega og'riydi? Iching o'tayaptimi?

– Yo'-o'q, o'zi... og'riyapti...

"Ana, kerak bo'lsa! Shunisi yetmay turgan edi, xolos. Bu yog'i uyni bo'shatishi kerak. U yoqda ish, endi ikkalasi baravar yotib oldi. Ularni davolatish uchun qancha pul, qancha vaqt kerak!"

Ikki bolaning o'rtasida hayron serryib turib-turib, xayoliga kelgan fikrdan ko'ngli yorishib ketdi: "Sevimli momolariga qo'ng'iroq qilaman. Kelin izlab yurguncha, o'g'li bilan kelib, nevaralarini davolatsin".

Telefonni kampirning xonasiga o'tkazib berishgan shekilli, yana kampirning o'zi oldi. Muloyimgina qilib, "Ha, eshitaman!" dedi. Nozimaning tovushini eshitib, birdan ovozi dag'allashdi:

– Ha, tinchlikmi?

– Bolalarning mazasi yo‘q. “Tez yordam”ga olib ketayapman. Dadasi borsin.

– Nima bo‘ldi ularga? – baqirib ketdi kampir. – Kecha uyimdan soppa-sog‘ kuzatgandim. Sen juvonmarg bir narsa qilib qo‘ygandirsan-da!

– Xola, ko‘p boshimni og‘ritmang, – Nozima kampirning gapini qaytarib tashladi. – Men sizning gapingizni ko‘tarishga majbur emasman. Hozir bir narsa deb, gapingizga yarasha gap qaytarsam, bir umr ko‘kayingizdan ketmay yuradi. Bola kerak bo‘lsa, bolam desa, borsin. Bormasayam, sadqai sar, taqdirida borini ko‘raveradi, – u sharaq etkizib go‘shakni o‘rniga qo‘ydi.

* * *

Bu yoqda Robiya kampir javrab qoldi:

– Sadqayi bola senga! Gulzor, hoy, Gulzor! Tez, bobongni chaqir. Anavi juvonmarg bolalarni bir narsa qilib qo‘yganga o‘xshayapti. Sho‘rim qurib qoldi-ya, tez bo‘l!

Gulzordan oldin hovliqib bobo kirib keldi:

– Nimaga vahima qilayapsan? Nima bo‘ldi?

– Tez, Sardorning ishxonasiga qo‘ng‘iroq qiling. “Tez yordam”ga borsin. Anavi bolalarni “Tez yordam”ga olib borayotgan emish. Ko‘chadan menga bir mashina tutib keling, biz ham boramiz. Bo‘ling, bo‘ling tez!..

Kampir bir pasda hammani oyoqqa turg‘izdi. Har tomondan yo‘lga chiqishgan bo‘lsa-da, kasalxonaga Nozimalar chiqqan “Tez yordam” mashinasidan oldin yetib borishdi. Kampir bolalarni zambilda tushirishayotganini ko‘rib, hushidan ketib qolay dedi: “Ha, yashshamagur!” Sardor onasining yelkasidan bosib, o‘tirg‘izib qo‘ydi: “Ona, tomosha ko‘rsatishdan foyda yo‘q”. O‘zi bolalarning izidan ketdi. Ko‘p o‘tmay yo‘lakda yugur-yugur boshlandi, qizchanning ahvoli og‘ir edi: “Jigar qopchasi yorilib, jigari ezilib ketgan, tezda operatsiyaga olish kerak”.

Sanjarning hamma joyi ko‘karib, qontalash bo‘lib ketgan, savollarga zo‘rg‘a, duduqlanib-duduqlanib javob berardi.

– Bularni kim bu ahvolga tushirgan? – ularni qabul qilgan do‘xtir Sardordan so‘radi. – Xulosalar tayyor bo‘lgach milisaga xabar berishimiz kerak.

Sardor Nozimaga qaradi, Nozima yerga qarab, biroz sarosimalandi, ammo tezda o'zini qo'lga olib, duduqlana-duduqlana do'xtirni murosaga chaqirgan bo'ldi:

– Qo'shni bolalar bilan urishishgan, bular ularni urgan, ular bularni! Ulardan qochib kelayotib, qizimiz bir toshning ustiga qattiq yiqilib tushibdi. Bolalarning janjali uchun qo'shni bilan milisalashib yuramizmi?

– Bu ishni yosh bola qilmagan, yanga!

– Ha, sal yoshi kattaroq ekan, baribir bola-da. Qo'shni, birga o'ynashadi.

– O'g'lingiz oldindan duduqmidi?

– Yo'-o'g'-e, nega duduq bo'lar ekan?

– Bolangiz hozir duduq. Uni o'sha bola qattiq qo'rqitgan, shekilli. Bu asorat bir umrlik bo'lishi ham mumkin. Shuni hisobga olinglar.

– Tushunarli, – Nozima yana yerga qaradi.

Sardorning qo'llari beixtiyor musht bo'lib tugildi, tishlari g'ichirlab ketdi, lekin indamadi: "Qani, zamon ko'tarsa edi!"

– Hammasini qonuniy yo'l bilan hal qilish kerak, – do'xtir Sardorning rangi o'zgarib ketganini ko'rib maslahat bergan bo'ldi. – Agar da'vo qilmoqchi bo'lsalaringiz, ekspertiza xulosalarini beramiz.

– Hojati yo'q, – Sardor do'xtir yozib bergan dorilar ro'yxatini olib, tashqariga chiqib ketdi.

Operatsiya uzoq davom etdi. Nozima bilan Sardor operatsiya xonasining eshigi oldida, Robiya kampir Sanjar yotgan palatada operatsiyaning tugashini kutishdi. Bu yerda Nozima bilan hech kim gaplashmasa ham, Nozimaning hech bir ishda nafi tegmasa-da, u keta olmas, boshqalar kabi "Operatsiya yaxshi o'tdi, jonlantirish bo'limiga o'tkazishdi", "Bemor ko'zini ochdi", "Sanjarning isitmasi tushdi" kabi yangiliklarni eshitish uchun sharpadek sudralib, goh u eshikning yonida, goh bu eshikning yonida sassiz-sadosiz turaverardi. "Ha, u xato qildi. Judayam katta xato qildi. Taqdirning sitamlari uchun alamini o'zining bolalaridan olmasligi kerak edi. Ammo u bilmay qoldi. O'zini idora qila olmadi. Lekin u baribir bolalarini yaxshi ko'radi. Ularning ahvoli o'nglanganini o'z ko'zi bilan ko'rmaguncha, bu yerdan keta olmaydi".

Endi uning kampirida ham hech qanday alami qolmagan edi. Chunki bolalarini ishonib tashlab ketsa bo'ladigan yagona inson – shu ayol edi. "Men o'zimni ham, bolalarimni ham eplaydigan bo'lib qaytib kelgunimcha o'lmasin shu kampir. O'sha paytda bolalarim o'gay ona zulmidan bezib, mening

gunohlarimdan kechib, ehtimol sog'inib yurishgan bo'ladi. O'sha kunlargacha o'lmay, qarab bersa bo'lgani!".

Nozima ertasi ham, indini ham, har kun keldi. Noila o'rnidan turib, yengilroq sho'rvalar icha boshlagach, bolalarini bir-bir bag'riga bosib, yuz-ko'zlaridan o'pdi.

– Meni kechir, Sanjar. Men seni juda ham yaxshi ko'raman.

– Meni kechir, Noilam. Men seni juda ham yaxshi ko'raman. Bilmasdan, achchiq bilan urdim. Judayam afsusdaman. Endi momolaring bilan yashaysizlar. Momolaring sizlarni hech kimga xafa qildirib qo'ymaydi.

– Meni kechiring, xola. Endi men sizlarni boshqa bezovta qilmayman.

U yig'ladi. Sanjar bilan kampir hech narsa demadi. Faqat Noila onasining yoshli ko'zlarini jajji qo'lchalari bilan artib, uning ham momosinikida yashashini iltimos qildi.

Shu bilan Nozima kasalxonaga qaytib kelmadi.

Qiyin-qiyin, Robiya kampirga qiyin bo'ldi. Kasalxonada bolalarga qarayapman, deb yotganda, huzur qilib yotgan ekan. Kuniga necha odam issiq ovqat ko'tarib keladi. Yuvilgan-yuvilmagan idish-tovoqlarni, kir chalgan kiyimlarni iziga qaytarib yuboraveradi. Uyga kelgach, hamma ish cholu kampirga qolib ketdi. Gulzor ham mustaqil ish qilib ko'rmagan bo'y qiz, bir ish buyursang, izidan yurish kerak yoki tepasida turish kerak. Bolalar kasal va injiq, uncha-muncha ovqatni yemaydi, Noila uchun alohida qozon qaynatish kerak, u faqat parhez taom yeydi. Xullas, Robiya kampir juda charchadi. Har doimda bir kelib, ahvol so'rab ketadigan bolalar "Onajon, sizga qiyin bo'пти-da", deyishdan nariga o'tmasdi. "Ha, qiyin bo'layapti. Sizlar bola bo'lib, oson qilib bermasanglar". "Qanday qilib oson qilamiz biz? Ana, Sardoringiz uylansin. Yo olti bola bilan ko'chib kelaylikmi?", "E-e..."

Uylansin, degan gapni aytish oson. Shuncha gap-so'zlardan keyin, haqoratlardan keyin yana bir begona ayolga ko'ngil qo'yish, "Jufti halolim bo'ling" deb aytish oson emas. Ayniqsa, pokiza uyingda yashab, rizqing pishadigan qozon-o'choqning boshida turgan ayolni xiyonat ustida qo'lga tushirganingdan keyin...

Robiya kampir o'yda qoldi. O'g'lini-ku unisi-bunisi o'rtaga olib, uylanishga ko'ndirar, ammo bolalar nima bo'ladi? Ko'ngli yarim duduqqinasi, haliyam ranglari sarg'ayib yurgan Noilasi... Ularning tashvishlari, erkaliklari o'z onasiga yoqmagan edi, o'gay onaga yoqarmikin? Nozima shu bolalarga bir tarsaki tushirsa, momoning yuragi bandidan uzilib tushgandek titrab ketardi, o'gay ona bu dardmand bolalarga bir og'iz gapirsa, o'gaylik qilsa, keyin momo kirgudek ochiq go'rni qaydan

topadi? Bolalar-chi, bolalar? Ular halitdan onalarini sog'inishayapti. Ertaga otalarining qo'yniga o'zga bir ayol kirsay-yu, ularni jerkib gapirsa, siltab tashlasa, boringki, bir xato ishi uchun to'g'ri tanbeh bersa, urishsa, bular qanday ahvolga tushadi? Axir, oilada busiz mumkin emas, o'z bolangni ham urishasan, joyi kelsa, urasan, ammo o'zingnikining o'mganiga tepsang ham o'tmaydi, kishinikiga kishmish bersang ham turmaydi.

So'ng... Ikki o'rtada hammaning dili xira, Sardor darg'azab, bobo xafa, momo o'ksingan: "Nahot shu ikki go'dak o'z uyiga sig'masa?!". Kelin ming andishali ayol bo'lsa ham o'zini oqlaydi: "Axir men bularga nima qilayapman?" Andishasizroq bo'lsa, yuzingizni yirtib, bor haqiqatni aytadi-qo'yadi: "Tuqqan onalari chet elda mazza qilib yursin, biz bu yerda bolalarining shaltog'ini yuvib o'tiraylik. Erta bir kun odam bo'lganda "bolam-bo'tam"lab keladi-da, ega chiqadi".

Shundaylar desa, keyin momoning tiriklayin o'lgani shu.

O'sha kuni o'zining tagiga bir kursini, tog'oraning tagiga bir kursini qo'yib, kir yuvib o'tirgan edi. Momo azaldan kirni mashinada yuvishni yomon ko'rardi. "Halolni ham, haromni ham aralashtirib yuboradi", derdi. U o'tirib yuvaverdi, Gulzor chayib-chayib yoyaverdi. Momoning qo'llari oq yem bo'lib ketdi, o'zi jiqqa terga tushdi, lekin jovdirab ochilgan tor-tor kirlarga qarab huzur qildi. Keyin oshxonaga kirib, kursini qozonning yoniga qo'yidirdi.

– Endi ovqat qilamiz. Qani, yog' bilan go'shtni olib kel. Birga-birga qilamiz, qilganing menga foyda, o'rganganing o'zingga.

Endi ovqatning tagini tayyorlab, suvini solgan edi, Sanjarning yig'layotgan ovozi eshitildi:

– Ie, Sanjarmi? Bor, qara, nima bo'пти?

Usti-boshi changga belangan bola yig'lab kelib, tuproq va ko'z yoshidan dog'-dug' bo'lib ketgan yuzlarini momosining tizzalariga bosdi.

– Ha, bolam, ha? Senga nima bo'ldi?

– A-asad!..

– Nima, Asad?! Nima qildi, Asad? Urdimi?

– S-soqov d-dedi, s-s-sening o-onangning o'-o'ynashi b-bor, o'-o'ynashi b-bilan ch-chet e-elga k-ketgan, d-dedi...

– Ha, yashshamagur! Hali shoshmay tursin, men uning tilini sug'urib olaman. Sen yig'lama. Hali seni o'zim Toshkentga, katta do'xtirlarga olib borib, davolatib kelaman. Ko'rmaganday bo'lib

ketasan. U ahmoq, onangning o'ynashini qayerda ko'ribdi? Sening onang chet elga ishlagani ketgan, buning sira ham aybi yo'q. Bizga chet eldan ishlagani kelishadi, biznikilar chet elga ketishadi. Bitta sening onang emas, qanchadan-qancha odamlar chet elda ishlab yuribdi. Buning sirayam ayb joyi yo'q. Ana, Gulnoza bilan Shohruhning onasi ham necha yildan beri Gretsiyada yuribdi. Nima qipti, shunga? Hali borib, o'zim onasi bilan gaplashib kelaman. Sen borib, yuz-ko'zlaringni yuv. O'zi senga ko'chada nima bor? Singlingga qarab, uyda televizor ko'rib o'tirsang bo'ladi-ku.

– U-uningiz o'-o'ynamaydi, f-faqat yo-yotadi.

– Singlisi zerikib yotsa, akasi uning yolg'iz o'zini tashlab ko'chaga chiqib ketaverishi kerakmi?

– E-endi h-hech q-qachon k-ko'chaga ch-chiqmayman, – dedi Sanjar yuzini yuvгани ketayotib.

Norasida go'dakning bu alamli qarori momoning yuragini nayza misoli teshib o'tgandek bo'ldi. Ovqat bir qaynab chiqqach, ro'molini qaytadan o'rab yuz-ko'zini qoplagan reza-reza terlarni artib, o'sha bilag'on zumrasha Asadlarning uyiga jo'nadi. Momosining qayerga ketayotganini sezgan Sanjar chopib chiqib, yo'lini to'sdi:

– M-momo, b-bormang.

– Nega?

– K-keragi yo'q. E-endi m-men u-ular b-bilan o'-o'ynamayman.

– E, bolam, shoshma. Shuning onasi bilan bir gaplashib kelayin. Bolasiga qanday tarbiya berayotganini bilib qo'ysin.

– Y-yo'q, m-momo, b-bormang, – Sanjar kampirning tizzalaridan quchoqlab oldi.

– Meni yo'ldan qaytarma. Bor, uyga kir. Hozir qaytib kelib, ovqat suzib beraman.

Asadlarning uyi ko'chaning narigi boshida edi. Sog' paytlari kampirga bu uylar bir qadam bo'lib ko'ringich edi. Endi o'sha uyga qo'ltiqtayoq bilan yetib olguncha qo'ltiqlari qavarib ketdi. Asadning onasi oshqovoqdek sap-sariq, semiz juvon supaning chetiga o'tirib olib, tikish qilayotgan ekan. Qo'ltiqtayoqda kelayotgan bo'lsa ham momoning o'ziga yarasha salobati bor edi. U momoni ko'rib, shoshib qoldi. O'zicha bir narsalardan xavotirlandi.

– Keling, xola. Assalomu alaykum, – yugurib borib, momoning yelkasidan olib ko'rishdi. Supaning yoniga boshlab kelib, ko'rpachaga o'tirg'izdi. Qo'ltiqtayoqlarini olib, avaylabgina bir chetga qo'ydi. Zing'illab uyga kirib, dasturxon olib chiqdi.

– Tashvish qilma, Jumagul boybichcha, – kampir unga dasturxonini yozdirgani qo'ymadi. – Men bir gapning izidan gap quvib keldim. Bilaman, ish quvgan g'aznaga, gap quvgan baloga yo'liqadi. Lekin hozir mening boshqa ilojim yo'q.

– Nima gap, xola? – Juvonning rangi o'chib ketdi.

– Asading nevaramga sen soqovsan, onangning o'ynashi bor, sizlarni tashlab o'ynashi bilan chet elga ketgan, debdi. Bizning birovni soqovi bilan ham, merovi bilan ham ishimiz yo'q. Qayoqqa ketgan, kim bilan ketgan, surishtirib ham yurmaymiz. Bir parcha bolaning ko'ngli yarim bolaga shunday gap qilishi yaxshimi? Bu bolang bunday gaplarni qayerdan topgan o'zi? Yo o'zlaring o'rgatib qo'ygansizlarmi?

– Ha-a, xola, shu gapga shunchami? – Juvon birdan xotirjam tortib, labining bir chetida zaharxanda kulgi paydo bo'ldi. – Soqovni soqov, deydi, merovni merov, deydi. Bir narsaga talashib, jahlini chiqargan bo'lsa, aytsa aytgandir. Keyin kelingizning kimligini, qayoqqa ketganini hamma biladi. Oyni etak bilan yopa olmaysiz-ku. Uni bolamga men aytishim shart emas. Shuning uchun shuncha yo'ldan qo'ltiqtayoc bilan mening boshimga keldingizmi?

– Ha-a, shundaymi, Jumagul boybichcha, – kampir juvonning ko'zlariga qahr bilan tikildi. – Sening singling ikki shisha “Kola” uchun bir yigitga ergashib ketib, onang izillab yig'lab kelganda, onang bilan bir haftalab hamma fohishaxonalarni axtarib chiqqanim ham esimdan chiqqani yo'q. Shu singling qayerda ekanligini na sen bilasan, na onang! Hushi tutganda uyga bir kelib ketarmish. Tubdan ishtoni yo'q, tizzasi yirtiqqa kuladigan zamon ekan-da. Singling hammamizga isnod bo'ldi, deb bir og'iz gapirdimmi senga? Agar soqovni soqov deyish shart bo'lsa, isnodini isnodi deyish kerak bo'lsa, seni nima deb ayta, singlingni-chi? Hov, boybichcha, ko'zingni ochib yur, bolamning ko'ngli yarim. Bolang tilini tiyib yurmasa, butini yirib tashlayman!

Momo o'tirgan joyida bir uzalib qo'ltiqtayoqlarini oldi-da, xayr-ma'zurni ham nasiya qilib, hovlidan chiqdi-ketdi. Uyiga yetguncha bo'lari bo'ldi. Bir umr odamlarga ish buyurib, oylik berib, vag'-vug' qilib yurgan bo'lsa ham, birovning dilini og'ritish, birov bilan jangarilik qilib urishishni uddalay olmas edi. Tilini yasab, chulchunqlab unga aql o'rgata boshlagan Jumagul boybichchani qoc manglayidan otib qaytgan bo'lsa-da, uyga kelib, mazasi qochib qoldi. Gulzorni yoniga olib, hammaga bir cho'michdan ovqat suzib berdi-da, o'zi xonasiga kirib ketdi: “Ha, Nozima-ya! Sen faqat o'zingga qilmading, hammamizning peshonamizga tamg'a qo'yib ketding. Endi bolalaringga bu joylarning suvi harom bo'ldi. Uni sen bulg'ab ketding. Men sho'rlik qo'ltig'im qavarib, qaysi bir Jumagulning og'ziga elak bo'laman. Bu aqlga sira sig'maydi. Buning iloji yo'q”.

Kechki payt ovqatdan so'ng bolalar televizor ko'rgani kirgach, odatdagidek cholu kampir supada yolg'iz qolib ketdi. U yoq-bu yoqdan gurgung bo'ldi, lekin kampir yuragiga toshdek botib turgan gapni

aytmadi, aytoilmadi, lekin aytishi kerak, ammo qanday aytadi? Oxiri bo'lmadi, bosh iring'ab o'tirib-o'tirib, muhim gapi bordek choliga yuzlandi:

– Bobosi, Sardorni bir aytib kelsangiz. Birgalashib gaplashib olmasak bo'lmaydi.

– Ha, nima gap?

– Aytib keling. Sizga bir, unga bir aytib o'tirishga hech kuchim yo'q. Birgalashib eshitingizlar.

– Xo'p, xo'p, kampir.

Sardor yozuv-chizuv qilib yotgan ekanmi, peshonasidan ko'zoynagini ham olmasdan ularning yoniga kelib o'tirdi:

– Nima gap, ena?

Robiya kampir gap boshlashdan oldin chuqur nafas oldi.

– Endi gap bunday, ko'chaning boshidagi Jumagulning bir parcha bolasi Sanjarni soqov debdi, sening onang buzuq, chet elda buzuqlik qilib yuribdi, deb bolalarning oldida yig'latibdi. Men Jumagulning oldiga borib tit-pit qilib keldim. Ammo bu ko'chada Jumagul bitta bo'lsa ekan? Ertaga yana birovi shunday deydi. Keyin nima qilamiz? Shuning uchun bu yerdan olisroqqa ketmasak, bolalarga qiyin bo'ladi. Sen daryo jiyakdagi tomorqani sot, adirning ustidagi uyimiz bo'sh yotibdi. Eshigining oldida bir dunyo yeri bor. Ko'chkin bobo ekin ekib, hosil olib, mazza qilib yuribdi. O'sha yerga ko'chib borib, shu daromadni o'zimiz qilsak ham bo'ladi. Tomorqaning puliga uyni ta'mirlat. U uyda qaynona-qaynota, eru xotin olti bola bilan turganmiz. Rosa xonalari ko'p. Xuddi shahardagiday sharoit qil. Bir xonasini unitazli hojatxona, bir xonasini tahoratxona, bir xonasini oshxona. Hammasiga quvurdan suv kelib tursin. Biror narsa izlab, tashqariga chiqib yurmay.

– Nimalar deyapsiz? Birinchidan, sizga adirning ustida nima bor? U yoqqa sizni kim yuboradi? Ikkinchidan, adirning ustida suv nima qiladi? U yoqda svet bo'lmasa, gaz bo'lmasa?

– E-e, bolam-ey, sen yosh bo'lsang ham televizor ko'rmaysan, gazeta o'qimaysan, hayotdan orqada qolib ketgansan. Butun dunyo quyosh batareyalariga o'tib ketdi-ku, yuzlab xonadon yashaydigan uylar shunday batareyalar bilan isitilib, yoritilar ekan. Bitta batareya qo'yasan, bitta quduq qazdirib, nasos qo'ydirasan, olam guliston. Tog'angnikida yigirma yetti metrdan suv chiqibdi. Suvimiz shuncha tez, deydi, o'n beshlik shlankadan bir ariq suv keladi, deydi. Hozir yerning ostiga temir quvur ham shart emas, anavi rezinga o'xshagan qattiq shlanka bo'lsa bo'ldi. To'rt yuz ming so'mga suv chiqarib beribdi. Boringki, bizning sharoit picha og'ir deylik, besh yuz olsin, roziman. Tepaga ikki tonnalik bir idish qo'yib bersang, otang har kechqurun bir to'ldirib beradi, kecha-kunduzi bilan

suv, svet! Gazni balon gaz qilamiz. Uyni shunday ta'mirlatginki, ko'rgan odam shu uy meniki bo'lsaydi, desin. Yangi eshik, yangi derazalar qo'y, shuvoqlarini yangila, eshigining oldini sement qil. Xullas, bolalar ham yaxshi ko'rib qolsin shu uyni, dadam bizni shu yerga olib kelib tashladi, demasin. Seni uylantiramiz, kelin bilan shu uyda yashayverasan. Xafa bo'lma, men bu uyni sotolmayman, uni qancha orzu-havaslar bilan qurganmiz. U bizdan keyingi avlodlarga meros bo'lib qolishi kerak.

– Ena, menda qanday qasdingiz bor? Anavi iflosning shuncha yerga solib ketgani kammi? Sizni qo'ltiqtayog'ingiz bilan ikki bolamga qo'shib shu adirning tepasiga olib borib qo'yib, keyin o'zim qanday bosh ko'tarib yuraman?

– Sen o'g'lim, katta odamsan. Qaysi gapga parvo qilish kerak, qaysisiga parvo qilmaslik kerakligini yaxshi bilasan. O'g'ling bilan qizingning qo'lidan ish kelguncha jiyanlaring qarashib turadi. Eh-he, u yerda suv bo'lsa, qancha yer bor, qanday ishlar qilsa bo'ladi. Bog' qilamiz, asalari qo'yamiz, besh-oltita qo'y-echki qilamiz. Qo'yib yuborsang, o'zlari qornini to'yg'azib kelaveradi. Sigir kerak emas, echki sog'amiz, kuniga to'rt kosa sut bo'lsa bo'ldi. Tovuq qilamiz, ularni ham qo'yib yuborsang, o'zlari rizqini terib, yeb yuraveradi, – momo o'zining gaplaridan o'zi jo'shib borardi.

– Shunday xazinani tashlab, nega bu yoqlardan uy qurdingiz?

– U paytlar zamon boshqa edi, hamma shaharga intilar edi. Yerning bahosini hammayam bilavermas edi. Shundayam shu uyni sotgim kelmadi. Otang"Ko'chkinboy so'rayapti, sotaylik" desa ham, "yo'q", dedim, "dacha qilamiz" dedim. Dach bo'ladi-da endi, hammalaring bizni ko'rish bahonasida borib, dam olasizlar. Biz dachaning qorovuli bo'lamiz.

– Yo'q, ena! Men bunga hech qachon rozi bo'la olmayman. Mayli, uylan, desangiz, uylanaman. Ko'chaylik, desangiz, boshqa biron joydan uy topaman, lekin sizni kimsasiz adirning ustiga olib borib qo'ya olmayman.

– Nega kimsasiz bo'lar ekan? Ko'chkin bobong-chi?

– Ko'chkin bobo qayerda, orada bir chaqirim joy bor.

– Qo'ysang-chi? O'zlaring Ko'chkinboyning uyidan chiqmas edilaring. Qorong'i tushgandan so'ng zo'rg'a chaqirib kelar edik.

– Baribir, yo'q! Yo'q!

Robiya kampir chuqur xo'rsindi:

– O‘g‘lim, yana bir andisha bor. Ertaga bu uyga kelin kelsa, u bolalaringga o‘gay ona bo‘ladi. To‘g‘ri tanbeh bersa ham o‘gaylik qilayapti, deb bizga yoqmasligi aniq.

– Bolalarimga qaramasa, menga unday xotinning nima keragi bor.

– Ana! Shunday gapdan dilxiraliklar chiqadi-da. Qo‘y, bolam, bularning ko‘ngli yarim, bir umr onasidan tayoq yeb o‘ydi, yana bunday savdolar boshlariga tushdi. Endi bular gap ko‘tara olmaydi. Bularga birov qovog‘ini uysa, men ham chiday olmayman. Bolajonim, shuginalarni birovning qovog‘iga qaratib, mung‘aytirguncha, yoki seni “Nega bolalarimni o‘gaylayapsan?” deb, xotining bilan yaxshi-yomon bo‘lib, ikkinchi ro‘zg‘oringga ham dilxiralik aralashganini ko‘rgunimcha, o‘sha adirning ustida ro‘zg‘or qilib o‘tirganim yaxshi. Mana, otang bor. Bolalaring dastyor bo‘lib qoldi. Bizni qiynalmasin, desang, biz aytgan sharoitlarni qil. Boshqa gapni qo‘y.

Olloqul bobo yonboshlagancha ona-bolaning munozarasini jimgina tinglab yotardi. Nima ham desin? O‘g‘liga bir narsa deyin desa, kampirining rejasidan butkul bexabar. Kampiriga qarshi bir narsa deyin desa, bu momo aytganini qilmay qo‘ymaydi.

– Biz otang bilan erta sahardan yarim kechagacha dalada yurardik, momong sho‘rlilik, go‘rlari to‘la nur bo‘lsin, bir ko‘r kampir olti bolani qog‘ozga o‘rog‘lik qandday qilib, saqlab o‘tirardi. Onam bilan yigirma yil yashagan bo‘lsam, qaynonam bilan ellik yil yashadim. Onam maktab bo‘lsa, qaynonam dorilfunun bo‘ldi men uchun. Nima dedingiz, bobosi? – erining indamay yotishi unga erish tuyuldi.

– Ma‘qul.

– Nima ma‘qul? Siz ham munday mening yonimda turib, o‘g‘lingizga gapirsangiz-chi?

– Uylangani ma‘qul-da. To‘rt yilda yana ikki bolali bo‘ladi. Asta-sekin yaralari ham bitadi. Dasht deganing ham ma‘qul. Xalaqit beradigan hech kim bo‘lmaydi, qariganda qo‘l ushlab yuraveramiz. Narigi dunyoda ham qo‘l ushlab birga-birga ketamiz.

– Yo‘, yo‘, yo‘q! – darrov cholining og‘ziga urdi. – Hali u yoqqa borish niyatim yo‘q. Oldin Sanjar bilan Noilani maktabda o‘qitamiz, keyin institutda o‘qitamiz. Ularning ikkalasi ham do‘xtir bo‘ladi, to‘qqiz yil o‘qiydi. Keyin birini uylantiramiz, birini uzatamiz. Bu ishlarni bajarish uchun yigirma yildan oshiqroq vaqt kerak. Keyin desangiz, mayli, qo‘l ushlab birga-birga ketishim mumkin. Ungacha ketolmayman, ketolmaymiz, chol! Men bolalarga qarayman, siz menga qaraysiz. Ma‘qulmi?

– Ma‘qul, ma‘qul, – soqollarini tutamlab, miyig‘ida kuldi chol. – Lekin yigirma yil ko‘p vaqt-da, kampir.

– Hechqisi yo‘q. Saksonning nari-berisida bo‘lamiz. U kuni to‘qson yashar kampirni ko‘rdim, avtobusdan tushayotgan ekan, “keling”, deb birov qo‘l uzatgan edi, “yo‘q” dedi, qo‘lini ushlatmadi, o‘zi tushdi. Men ham hali manavi qo‘ltiqayoqlarni tashlayman, keyin Noilani uzatguncha qo‘l ushlatish yo‘q.

– Bo‘ldimi, ona? Ishlarim ko‘p edi, – cholu kampirning beg‘ubor hazillari ham Sardorga yoqmadi.

– Sen bo‘ldi, desang, bo‘ldi. Tezda tomorqaga xaridor top-da, qirdagi uyga usta tashla. Bir gazo‘choq bilan qozon-tovoq olib borib bersang, ovqatlarini o‘zlari qilib, yeb, ishlashaveradi. Birinchi, suv bilan suvdonning taraddudini ko‘r, har ishga suv kerak. Keyin, u yoq-bu yog‘ingga qara, turmushning past-balandini ko‘rgan, bosiqqina, insofli-diyonatli poshikasta bo‘lsa, darrov bu ishni ham bitirib qo‘yamiz.

Sardor indamay turib ketdi.

– Gaplaring menga-ku ma‘qul, lekin o‘g‘lingga ma‘qul tushmadi, – dedi uning orqasidan qarab qolgan ota.

– O‘zini bilsa, uning foydasini ko‘zlab shu og‘irlikni o‘zimga olayapman, chol. “O‘gay” degan so‘zning o‘zi odamning ko‘krigidan itaradi. Ertaga bir ko‘ngilsizlik bo‘lsa, Xudo ko‘rsatmasin-u, yana bolamning ro‘zg‘ori buzilmasin, nevaralarim o‘ksimasin, deypman. Bo‘lmasa, qo‘ltiqayoq bilan adirning ustida menga nima bor?

– Qo‘yaver, kampir, hali biz u yerni jannatga aylantiramiz. O‘zim bor, xavotirlanma. Rejalaring menga yoqdi.

Sardor ham nimani o‘ylagan, nimani qo‘ygan, bir kun eshitishdi-ki, tog‘asining oldiga borib, quduq qazgan ustalarning manzilini surishtiribdi, kimdandir ikki tonnalik suvdon olibdi. Xullas, onasiga hech narsa demasa ham, uning aytganlarini bajarayotgan edi. Aftidan, unga hali kelmagan o‘gay ona zug‘umidan ko‘ra ko‘chadagi bolalarning ta‘nalari ko‘proq ta‘sir qilgan edi. Har kechqurun ishdan kelib, bolalari bilan gaplashib, ular bilan har xil o‘yinlar o‘ynaydigan odat chiqardi.

Robiya kampir tomorqalarining bir qassobga sotilganini ham orqavarotdan eshitdi. O‘g‘li bu ishlar haqida nega onasi bilan gaplashgisi kelmayotganini tushunmadi, surishtirib ham o‘tirmadi: “O‘zi biladi. Mening aytgan ishim bajarilsa, bo‘ldi”, dedi. Kampirning azaldan odati shunday, bolalarini hadeb tergayvermaydi, bir gap aytadi-yu, arqonni bo‘sh qo‘yib qo‘yadi. Bir kun arqon tortilganda, aytgan ishi bajarilmagan bo‘lsa, jazo qattiq bo‘ladi.

Lekin kelin topish haqidagi topshirig‘i bajarilmasligini yaxshi bilar edi. Sardor yigit bo‘lib, “Ona, falonchi qizning qoshi qora” degan odam emas. Endi, shuncha gap-so‘zlardan keyin “Bir qiz bor

edi...” deb kelarmidi? Kampir shularni o’ylab, bu ishni qizlar bilan kelinlarga topshirdi: “Birovning yesiri bo’lmasin, bosar-tusarini bilmagan yosh qiz bo’lmasin. O’zi ma’qul bo’lsa ham, tortinchoqligidanmi, baxti chopmaganidanmi, tengi chiqmay, yanga-yu kelinlarning eshigida siqilib yurgan, yoshi o’tinqiragan qizlar bo’ladi. Bunday qizlar o’zining ham, birovning ham qadriga yetadi. Shunday qizlar bo’lsa, aytinglar”, dedi.

Ko’p qizlar aytili. Dunyoda o’tirib qolgan qizlar ham ko’p ekan. Ko’pi kampirning didiga to’g’ri kelmagani uchun Sardorga borib ham yetmadi. “Namuncha, unga siz emas, Sardor uylanadi-ku, Sardor ham bir ko’rsin”, deyishsa ham, o’ziga yoqmagan nomzodlarning otini ham aytmasdi.

Nihoyat “nomzod”larning biriga to’xtalishdi. “Obkom” tarqatilguncha ko’p yillar obkomda ishlagan Kenja Hamidovich degan kishining katta xotinidagi qizi ekan.

– Oldin borib, o’zim onasi bilan gaplashib kelay.

Qizning yoshi yigirma yettida ekan, institutni bitirganiga ham to’rt yil bo’libdi. Onasi odamning ko’zlariga jovdirabgina qarab turadigan, muloyimgina ayol ekan. Kelganlarni ko’rib, anchadan beri kutgan odamlari kelganday tavoze bilan ichkariga taklif qildi, qalin patgilamlar to’shalib, qimmatbaho mebellar yaltirab turgan billur qandilli mehmonxonaga olib kirdi. Ayolning ustidagi yenglari uzun odmigina ko’kish ko’ylak va boshidagi oqish chit ro’mol bilan mehmonxonadagi hashamat o’rtasidagi nomutanosiblik kampirni hayron qoldirdi: “Biron yaqini vafot etgan bo’lsa kerak”. Uyda hech kim yo’q shekilli, choyni ham o’zi olib kirdi.

Bir-ikki ho’plam choydan so’ng, kampir maqsadga ko’chdi:

– Egachim, biz qulchilikka kelganmiz. Bizning bir o’g’limiz bor, sizda qiz bor ekan.

Ayol qo’lini ko’ksiga qo’ydi:

– Bosh ustiga, opa.

– Lekin, bizning bir aybimiz bor, ko’nglingizga kelmasin, o’g’limiz uylangan, ikki bolasiyam bor, turmushi bo’lmay, ajraldi.

Ayol bir nafas jim qoldi:

– Endi-i, bilmasam, opa, – dedi anchadan so’ng. – Yoshlar bir-birini ko’rishsin, gaplashishsin, bir-birlariga mehri tushsa, biz rozi.

– Ha, rahmat. Bir narsani so’rasam, aybsitmang, nega qizingizni shu yoshgacha uzatmadingiz?

Ayol labining bir cheti bilan iymajibgina kuldi:

– Og‘zimning solig‘i yo‘q, qizimning qilig‘i yo‘q, deyishadi. Mening qizim ham o‘qishga yuborsam, faqat o‘qish bilan, ishga yuborsam, faqat ish bilan bo‘ladigan qizlardan. Institutga kirgan yillari bir-ikki sovcilar ham keldi, o‘qishni bitirib olsin, dedim. Keyin-keyin hech kim kelmay qo‘ydi. Bu qizning esa parvosiga kelmaydi. Ishiga boradi, keladi, yuraveradi. Endi bu tengi uylanmagan yigitlar qolmadi, hisob. Xotin qo‘ygan, xotini o‘lgan birov yarimdan ora-sira odam kelib turibdi. Shular bilan uchrashay, ko‘ray ham demaydi, tortinadimi, o‘zingiz yaxshilab surishtiring, deydi.

– Otasi... ham kelib turadimi?

Ayol yana kulimsirab, yerga qaradi:

– Avval obdon surishtirgan ko‘rinasizlar. Men u kishiga o‘g‘il tug‘ib bera olmadim. Bir o‘risga uylangan edilar. O‘ris bir o‘g‘il tug‘di. Ikki uyning o‘rtasida yurardilar, bizni, qizlarini hech tashlab qo‘yganlari yo‘q. Men ham “obbo, shunday qildingiz” deb bir og‘iz gapirgan odam emasman. Yaqinda o‘sha o‘g‘illari o‘n besh yoshga kirib, o‘lib qoldi. O‘ris kundoshimiz g‘am bilan butunlay yolg‘iz qoldi, shundan keyin otasi umuman kelmay qo‘ydi. Buyog‘i ishsiz qolgan. Bir umr oyog‘i uzangida yurgan odam o‘zini har joyga uradi, qani, durustroq bir ish topilsa. Odamlar puxtalik qilib, qo‘sh-qo‘sh uchastka, do‘konlar qilib tashlagan. Ishdan ketsa ham ular sarmoyasiz qolmaydi. Bu kishim bo‘lsa, kommunist proletar bo‘lishi kerak, deb faqat ishni o‘ylaganlar. Yaqinda qizim otasini ko‘rgani boribdi, u kishining picha kayfi bor ekan, qizini ko‘rib, rosa yig‘labdi. Bechora erim, qo‘shxotinlikda ayblab, partiyadan o‘chirib yubormasin, deb, o‘g‘liga na ismini, na familiyasini bermagan ekan. O‘g‘li Sergey Ivanovich Baturin bo‘lib yashab, shunday o‘tib ketibdi. Bolaning sinfdoshlari “sening otang o‘zbek-ku, nega Ivanovich Baturinsan” deb masxara qilishar ekan. Ivan Baturin onasining otasi ekan. Bola bechora ko‘chadan ezilib kelib, uyda janjal qilar ekan: “Dada, siz meni yomon ko‘rasiz. Bo‘lmasa, menga familiyangizni bergan bo‘lar edingiz”, deb. Mana endi partiya ham yo‘q, o‘g‘il ham yo‘q. Faqat armonlar bor. O‘ris xotinni yolg‘iz tashlab kelishga bechora erimning vijdoni yo‘l qo‘ymaydi, shekilli. Mayli, qayerda bo‘lsa, omon bo‘lsin.

– Nega bunday... ko‘k kiyib yuribsiz? Biron yaqiningiz?..

– Endi... otasi kelib qolsa, ko‘ngliga kelmasin, deb odmiroq kiyinib yuribman-da. Nima bo‘lganda ham qizlarimning ukasi...

– Ha-a, ma‘qul, ma‘qul... – momoning ko‘ngli to‘ldi. – Bo‘lmasa, bolalar bir ko‘rishishsin. Ular bir-birining ko‘nglini topsa, boshlarini qovushtirib qo‘yamiz. Ungacha bir-ikki oy o‘tadi, xo‘jayiningizning yaralari ham picha eskiradi. Ha, egachim, yana bir gap, biz katta to‘y qila olmaymiz. O‘g‘lim yoshi o‘ttizdan oshganda kostyumining cho‘ntagiga oq gul taqib, bazmning to‘rida o‘tira olmaydi. Sizlar ham azador ekansizlar. Oddiygina qilib, nikohdan o‘tib, besh-olti qarindosh-urug‘ni chaqirib...

– Qizim dabdabalarga qiziqmaydi, to‘rt yuz-besh yuz kishini yedirib-ichirib, keyin qarzga boti-ib yurishning nima keragi bor ekan-a, deydi doim. Bu endi ikkinchi darajali masala, oldin bir ko‘rishishsin... Biz ham qarindoshlar bilan maslahatlashib olaylik.

Kampir uyga g‘azna topganday bo‘lib qaytdi.

– Agar maymunga o‘xshagan bo‘lsa ham, shu xotinning qizini olganim bo‘lsin.

Chol kuldi:

– Esli-hushli qiz bo‘lsa, adirga ko‘chib nima qilasan?

– Yo‘-o‘q, yaqindagi tishlashar, olisdagi kishnashar, chol. Tishlashguncha kishnashib yurgan ma‘qul. U o‘g‘limga zo‘r xotin bo‘la olishiga imonim komil, lekin nevaralarimga qanday ona bo‘lishini bilmayman. Bilasiz, ko‘zim yetmagan narsaga tavakkal qilmayman. Insof qilib, ona bo‘laman, desa, shu yerda turib ham, onalik qilaveradi. Haftada bir tandir non qilib yuborsin, borib kirlarimni yuvib bersin. Tansiqroq ovqat qilganda, bir tovoq ko‘tarib borsin. Mehr beraman, desa, kim uning yo‘lini qaytarardi?

– Yaxshi, lekin qiyin ishni zimmangga olayapsan, kampir. O‘ylab-o‘ylab, ba‘zan o‘yimning oxiriga yetolmayman. Bu bolalar maktabga qanday qatnaydi. Yo‘l olis bo‘lsa...

– Siz-chi, bobosi. Bir eshak olamiz, eshakka mingashtirib, olib borasiz, olib qaytasiz. Hali shoshmay turing, chol! Hali to‘g‘ri qilgan ekansan, senga rahmat, kampir, deysiz.

– Hey, bilmadim-da.

Qiz Sardorga ham ma‘qul tushdi:

– O‘zlaringiz bilasizlar, sizlarga ma‘qul kelgan bo‘lsa, menga baribir. Lekin ular azador ekan-ku.

– E-e, bolam, el yig‘ib, “dangur-dungur” qilib yotish niyatim yo‘q. Borib zagsdan o‘tib kelasizlar, to‘rt qarindoshni chaqirib, nikoh o‘qitamiz, bo‘ldi. Onam nikoh to‘yini hech qanday sabab bilan ham kechiktirmaslik kerak, nikohga shayton aralashib, buzaman, deb turar ekan, shuning uchun to‘y boshlanayotganda qari-quri birov-yarim omonatini topshirib qolsa ham, mayyitning yuzini yopib qo‘yib, nikoh to‘yini o‘tkazaverish kerak, der edi.

– Unda o‘zingiz bilasiz.

– Sen adirdagi uyni tezroq sozla. Xonangdagi yotoq mebelini bir xonaga, mening xonamdagini bir xonaga joylashtir. Otang bilan Sanjarga bir yotoqxona, Noila bilan menga bir yotoqxona bo‘ladi.

Mehmonxonaga yangi jihozlar ol. Barnoga aytsang, parda tikuvchi qizlaridan ikkitasini beradi, o'lchab ketib, parda tikib beradi. Hammasi tayyor bo'lgandan keyin bir osh qilib, opa-akalaringni o'sha yoqqa chaqiramiz-da, bizning ko'chganimizni ma'lum qilamiz.

– Enajon, – Sardor onasining yelkasidan quchdi. – O'zingizga jabr qilayapsiz-da. Meniyam noqulay ahvolga solib qo'yayapsiz. Bir umr "tiq-tiq" tinmadingiz. Qarigan chog'ingizda sizga nima jabr shu ishni bo'yningizga olib? Kenja Hamidovichning qizi yomon qizga o'xshamaydi. Yana shu yerda men turib, siz turib, shu bolalarni turtkilashga tashqaridan kelgan birovning haddi sig'armidi?

– Mayli, bolam. Odamning boshi tegirmonning toshi. Bu bosh sening boshingdan ko'ra ko'proq savdolarni ko'rdi, kechirdi. Borib xabar olib turasan. Bir qo'l telefon olib berasan, kerak bo'lsang, zing'illatib chaqirib olaveraman. Rossiyada butun-butun qishloqlarda faqat qariyalar yashar ekan. Ularning-ku, holidan xabar oladigan odami yo'q, bolalari nonini topib yeydigan bo'lgach, shaharlarga ketib qolishadi. Qaytib kelishmaydi. Xudoga shukr, mening yonimda otang bor, "huv" desam, chopib keladigan olti bolam bor. Adir qochib ketibdimi, telefon bilan taksi chaqirib, o'zimiz ham kelib ketaveramiz. Sen bo'shashib o'tirguncha, ishni tezashtir. Hammasi tayyor bo'lgach, avval meni olib borasan. O'zim bir ko'rayin.

– Goskomissiya!.. – kuldi Sardor.

Ammo haqiqiy "goskomissiya" kimligi adirda osh tashkil qilingan kuni ma'lum bo'ldi. Nikohdan ikki hafta o'tgan edi. Uy, jihozlar, sharoit, hammaga juda ma'qul bo'ldi.

– O'h-hu, Sardor, senga gap yo'q! Buncha pulni qayerdan topding?

– Ajoyib fazenda bo'пти. Bog'ni kengaytirib, bir odam qo'ysang, bir umrlik daromad manbai bo'ladi. Sarflagan pulingni yuz hissa qilib chiqarib olasan.

– Uka, ota moli sherik, deganlar. Shu joyni menga ber. Qilgan xarajatlaringni o'zim to'layman.

Robiya kampirning qarorini eshitishgach, hamma bir bo'lib Sardorni talay ketdi:

– Uka, erkakmisan o'zi? Yarimjon kampirga ikki bolangni berib, shu adirga haydadingmi?

– Enam o'z uyiga sig'may qolgan bo'lsa, o'zim obketaman, sen bolalaringni olib qol.

– Uka, xotin topiladi, ona topilmaydi.

Ta'na-dashnomlar kishi bilmas tobora chuqurlashib borar, aybsiz aybdorlar – yangi kelin bilan ikki bola asosiy nishonga aylanib borardi.

Kampir o'rtaga chiqmasa bo'lmaydigan bo'ldi:

– Huv, bolalarim, bu uyni sozlatish kelin kelishidan ikki-uch oy oldin boshlangan edi. Bu yerga kelish mening irodam, mening xohishim. Qariganimda boy bo'lishni xohlab qoldim. Qancha yer bo'sh yotibdi. Bir yordamchi olib, mol qilamiz, asalari qo'yamiz, bog'ni yana to'rt baravar kengaytirsam bo'ladi. Qishloq to'la bekorchi, chaqirib, ish bersang, ular xursand. Ishim bitganidan men xursand. Yer deganlari xazina-ku, ota-bobolaringdan qolgan xazinani tashlab qo'yib, yuribsanlar, arziyas maoshning izidan quvib. Sizlar Sardorni urishguncha, Sardorga rahmat aytinglar, – keyin kulib-kulib qo'shimcha qildi. – Yaxshisi, Sardorga havas qilinglar. Sardor kenja bo'lgani uchun bu yerdan olinadigan daromadning ellik foizi Sardor bidan kelinniki bo'ladi.

“Goskomissiya”ning nafasi ichiga tushib ketdi. Yangi kelin bilan Gulzor oshdan bo'shagan idishlarni yig'ishtira boshladi.

– Baribir, men noroziman, – kimgadir nimadir alam qildi. – Katta bo'ldik, gunohkor bo'ldikmi? Sardoringizga shaharda bir uy, adirda bir uy, shuncha bog'-rog'i bilan. Uning bor-yo'g'i ikkita bolasi bor. Kelin ham oylikchi. Biz jo'jabirday jon bo'lsak, bir o'qimagan qizni olib bergansiz, shuning kamini to'ldiraman, deb...

– Haliyam oling, bir o'qiganini! Boshingizda yong'oq chaqsiz.

– Ena, o'zingiz bizni hamma masalada arrani to'g'ri tortishga o'rgatgansiz. Nega endi o'zingiz arrani qiyshiq tortayapsiz? Ota, sizam bir narsa desangiz-chi?

Ota esa odatdagiday yonbosh tashlagancha, kulib yotardi.

– Biz hazrati oliylarining so'zini ikki qila olmaymiz.

– E-e, ota!..

Ular “vag'-vug” to'polon bilan tarqalishganda, kun kech bo'lib, quyosh bepoyon adirlar uzra o'zining mayingina nurlarini sochar, g'ir-g'ir esib turgan shabada allaqanday adir gullarining xushbo'y hidlarini keltirib dimoqqa urar, olis-olislardan yovvoyi qushlarning yoqimsiz qag'illagan ovozlari eshitilib turardi. Sardor bilan yangi kelinni zo'rg'a jo'natishdi. Ular “Shu yerda qolaylik, ertalab nonushtalaringni qilib berib, keyin qaytamiz”, deb turib olishdi. Kampir “Mol-hol bor, boringlar, o'z uylaringga mehr qo'yinglar”, deb qo'ymadi. Oxiri kelin “Xo'p, onajon, yaxshi dam olinglar”, deb, Sardor bilan yo'lga tushdi. Kelinning muomiaasida, qarashlarida eriga nisbatan bir intiqlikni ko'rib, kampirning ko'ngli o'sdi. O'zining kelinlik davridan qolgan, keksa tutning soyasiga qo'yilgan supada qo'ltiqayoqlariga suyangani ko'yi uzoq o'tirdi. O'tirgan joyida yonboshidan joynamozini olib, shomni ham o'qib oldi. Bolalar bobolari bilan ichkarida qandaydir yangi filmni

ko'rib yotishar edi. "Allohga shukr", kampirning ko'ngliga xotirjamlik inganday bo'ldi, o'zicha hayotidagi hamma tashvishlarni yengib, tokchama-tokcha taxlab chiqqandek edi.

Kino tugagach, joy talashish boshlandi:

- M-momom bilan men yotaman.
- Men yotaman, momom bilan! Sen o'g'il bolasan, sen bobom bilan yotishing kerak. To'g'rimi, momojon!
- Y-yo'q, momom bilan men yotishim k-kerak, men har doim momom bilan yotaman, ana, momomning o'zi aytsin. S-sen Gulzor opam bilan yot!
- Momo, ayting, kim bilan yotasiz?

Momo ularga qarab, kuldi:

- Ikkovlaring ham men bilan yotasizlar.
- Ur-re!
- Ur-re!
- Yo'q, momo, Sanjar bobom bilan yotsin. Ikki bola sizni bosqilab tashlaydi. Erkalatavermang shularingizni.
- Indama, karavotimiz katta, bular menga qarab yotadi.

Momo o'rtada, ikki bola ikki yonga joylashdi:

- Momo, endi ertak!..
- Hozir kino ko'rib chiqdilaring, kino ham ertak-ku, yana ertak kerakmi?
- Kerak, kerak! Sizning ertaklaringiz kinolardan ham zo'r.
- Mayli, mayli, qaysi ertakni aytay?
- T-toshbo'l bilan Erkenjani!
- Yo'q, Zumrad bilan Qimmatni!

– Xo‘p, ikkalasini ham aytamiz. Avval “Zumrad bilan Qimmat”ni aytamiz. Chunki biz singillarni hurmat qilamiz, yaxshi ko‘ramiz. Hali katta bo‘lib oylik olgan vaqtlaringda ham xotiningga bir narsa olsang, singlimga ham olay shu narsadan, deb turishing kerak. Tushundingmi? Qadim o‘tgan zamonda...

Noila tez uxlab qoladi. Sanjar ikkinchi ertak tugaganda ham uxlamaydi, uxlayolmaydi.

– M-momo, ch-charchamadingizmi?

– Yo‘q, nimaydi, bolam.

– Ya-yana bitta ertak aytib bering. Faqat uzunidan, hech tugamaydiganidan. Sh-shoshmang, avval orqamni bir qashlab qo‘ying.

Momo uning yumshoqqina tungi ko‘ylagini ko‘tarib, orqasini qashladi, suyib-suyib yelkalarini, nozik bilaklarini, oyoqlarini uqalab qo‘ydi. Bola momoning pinjiga kirib, uzoq jim qoldi.

– M-momo, – anchadan so‘ng yana kampirga so‘z qotdi.

– Ha, o‘g‘lim?

– M-momolar onaga o‘xshaydi-ya?

– Ha, bolajon, momolar ham aslida ona-da. Ular ham bola tuqqan, bola o‘stirgan.

Bolaning savoli kampirni o‘ylantirib qo‘ydi: “Onasini sog‘inibdi, shekilli. Ona, baribir ona-da. Momomning qatlamasidan onamning shapatisi shirin, deb bejiz aytishmagan-da. Sen onasiga o‘xshashing mumkin, lekin hech qachon onasining o‘rnini bosa olmaysan”. Kampirning ko‘ngli g‘alati bo‘lib ketdi: “Mayli, o‘lmasin”.

– Ha, bolam, onangni sog‘indingmi?

Bola yana ancha payt jim qoldi, u chamasi momosidan tortinayotgan edi:

– U-urishmaysizmi, – dedi anchadan keyin sekingina.

– Nega urishaman, bolam? Odamning o‘z onasini sog‘inishi sira gunoh emas.

– M-men onamni juda sog‘indim. N-noila ham sog‘ingan. M-momo?

– Ha, bolam?

- Sh-shu onamni chet eldan chaqirib olsak, shu yerda biz bilan yashasa bo'lmaydimi?
- Bolam, onang bunday qishloq joylarni yomon ko'radi. U hozir juda chiroyli katta shaharda yashayapti. Unday chiroyli joylarni tashlab, bizning cho'ldagi uyimizga kelmaydi-da. Kelsa, qaniydi...
- M-momo?
- Ha, bolam?
- M-men katta bo'lsam, kim bo'laman, deyinmi?
- Kim bo'lasan?
- Sh-shaharlar quradigan arxitektor.
- Voy, bolaginam-ey, arxitektor shahar qurishini qayerdan bilib ola qolding.
- M-multfilmimdan. K-katta bo'lsam, shu adirning ustidan katta shahar quraman.
- Yo'q, bolam, sen do'xtir bo'l. Qara, hammamiz kasalmiz. Men kasal, bobong kasal, singling kasal. Bizga o'zimizning do'xtir kerak. Shahar quraman, deb, kunning issig'ida quruvchilar bilan kuyib-yonib yurasanmi? Do'xtir bo'lsang, salqingina xonalarda oppoq xalatlar kiyib, odamlarni davolab yurasan, keyin sen davolagan odamlar mening oldimga kelib, "Robiya momo, bir ajoyib nevarangiz bor-da, shunday bolani tarbiyalaganingiz uchun rahmat", deyishadi.
- M-mayli, unday bo'lsa, do'xtir bo'laman.
- Yasha.
- M-momo, aslida men ham kasalman-a? H-hali maktabga borsam, bolalar ustimdan kulishsa kerak. O'-o'zimni davolash uchun ham do'xtir bo'lishim kerak.

Kampir nevarasining yelkasiga qoqdi:

- Sening kasaling sal narsa. Yozda dadang Toshkentga obborib, katta do'xtirlarga ko'rsatib keladi. Maktabga borguningcha yaxshi bo'lib ketasan, Xudo xohlasa.
- R-rostdanmi?
- Albatta. Endi uxla. Sen bolaning uyqung uchib ketdi, shekilli, savoling ko'paydi.

– X-xo‘p, m-momo.

Aslida qadrdon uyga kelib, o‘zining ham uyqusi uchib ketgan edi. Bu uyning har burchagi bir hikoya aytadi, umrining yosh, go‘zal, sog‘lom damlarini yodga soladi. Sardor bu yerda katta ish qilgan, hamma narsani yangilagan, lekin aslida hammasi o‘sha-o‘sha edi. Adirlar o‘sha, adirlarga soya tashlab turuvchi tog‘lar o‘sha, bir issiq mehr bilan dunyoga qarab turgan hovli-joy o‘sha. Faqat Robiya boshqa edi! Ikki kunlab etik yechmay dalada yurib ham charchamaydigan Robiya o‘sha dalalarda bir umrga qolib ketdi.

Qaynonasi dongdor sut sog‘uvchi edi. Bir kuni rais kelib, “Opa, kelingiz bir birgadni olsin. Raykom xotin-qizlardan birgad qo‘y, deb yotibdi. Ularning aytganini qilmasam, qo‘ymaydi. Lekin har kimni ham sostavga kirgizib bo‘lmaydi. O‘ylab-o‘ylab, shu kelinga kelib to‘xtaldim, siz bir sinashta odamsiz. Onasiyam insof-diyonatli ayol edi. O‘g‘lingizni tabelchi qilib qo‘yaman. Qayerga borsa, birga borishadi, birga yurishadi. Uvol-savobi o‘zimning bo‘ynimda”, dedi.

Qaynonasi rahmatlik ham “Buning olti bolali ro‘zg‘orini qanday eplayman”, demadi. “Xo‘p, rais bobo, siz nima desangiz shu. Lekin bilib qo‘ying, biz mol talashmaymiz, or talashamiz”, dedi. Rais ham “xo‘p” dedi. Shu-shu eri bilan dalaga chiqib ketdi. Ko‘p o‘tmay kampirning ko‘zlari ojiz bo‘lib qoldi. Shunda ham olti bolani bog‘chasiz, enagasiz o‘zi katta qildi. “Men ularga, ular menga qaraydi”, der edi sho‘rlik doim. Endi o‘sha qismat Robiya kampirning hayotida takrorlanayapti. O‘sha uy, o‘shanday yarimjon kampir, bolalar... Kampir bolalarga qaraydi, bolalar kampirga qaraydi. O‘ylab qarasa, bolalari bilan nevaralarining taqdirida qandaydir o‘xshash jihatlar bor ekan. U birgad bo‘ldi, kunduzlari dalada, kechalari goh xirmonda, goh suvning boshida o‘tdi, u uydan chiqib ketayotganda ham, uyga qaytib kelganda ham bolalari uxlab yotishgan bo‘lar edi. Uning o‘rniga qaynonasi bolalariga mehr berdi, ulg‘aytirdi. Ehtimol, uning bolalari ham o‘sha ko‘zi ojiz kampirning qo‘ynida yotib, “Momo, momolar ham onaga o‘xshaydi-ya”, deb uni sog‘inishgandir.

Uning bolalariga atalgan mehrini paxta dalalari yeb qo‘ydi. Nevaralariga atalgan mehrni nima yedi? Nozima nega adashdi? Nega u hamisha hamma narsadan norozi bo‘lib yurardi? Atrofidagilarga yovga qaragandek qarardi, bir og‘iz gapdan to‘mtayib olardi. Hatto o‘z bolasidan araz urib, dasturxonni silkib, turib ketgan paytlari ko‘p bo‘lgan. Nega shunday edi u? Robiya kampir gazetalarda “Qilmish-qidirmish” deb qo‘yiladigan sarlavhalarni ko‘p ko‘rgan. Mana, yana bitta “Qilmish-qidirmish”. Qildi-qildi, o‘ziga qildi. Yo‘q, begunoh bolalariga ham qildi.

Ertalabki nonushtadan keyin tutning tagida yonboshlab yotgan cholining oldiga bir tuguncha olib keldi. Chol savol nazari bilan bir tugunchaga, bir kampirga qaradi. Kampir joylashib o‘tirib olgach, tugunchani yechib, undan yaltillab turgan qalin, qadimiy bilaguzuk chiqardi-da, cholining oldiga qo‘ydi:

– Taniyapsizmi? – kampirning ovozi titrab ketdi.

Chol bilaguzukni avaylabgina qo'liga oldi-da, xuddi birinchi marta ko'rayotganday sinchiklab qaradi. Ko'zlarini yumib, bosh irg'adi: "Ha".

– Onangizga sovg'a qilgan edim. Umrining so'nggi kunlarigacha taqib yurdilar. Jon berayotganlarida ko'zlari ko'rmasa ham "Robiya" dedilar-da, qo'llaridan yechib, qo'limga taqib qo'ydilar. Men buni hech kimga berolmay, o'zim ham taqolmay yurgan edim. Bir kun Noilam katta bo'lsa, shunga beraman, dedim oxiri. Bugun uning joyi chiqdi. Buni olib, Uldon tillochiga borasiz, vaqtida o'zidan olgan edim, bu molning qimmatini u yaxshi biladi. Asl, toza, qadimiy mol. Puliga yigirma quti asalari olasiz, asbob-uskunalarini ham birdan oling. Qolganini Sardorga bering, Sanjarni Toshkentning do'xtirlariga olib borib kelsin.

– E-e, kampir, Sanjarga nima qilibdi? Yaxshi-ku, kayfiyati yaxshi bo'lsa, tili ham asta-sekin to'g'rilanib ketadi.

– Yo'q, bobosi, bola erta-indin maktabga chiqadi. Oshnalarining oldida duduqlanishidan qisib yurmasin. Bering, borib kelishsin. Bahona-da shahar aylanib keladi.

Olloqulboy bilaguzukni kaftiga qo'yib, uzoq tomosha qildi.

– U enamning qo'llarida juda chiroyli turar edi, – dedi keyin sekingina.

– Boshqa ilojimiz yo'q, bobosi. Xudo xohlasa, ertaga asalning pulidan o'nta bilaguzuk olasiz.

– E-e, senam gapirasan-da.

– Gapirsam-gapirmasam, sizni bilmadim-u, mening qaynotam asalarichi o'tgan. Bu ishning hadisini olganman, hisobini ham bilaman.

– Ha, bo'pti, gapirmadik.

– Asalarini har kimdan olmang, Jaloliddinboydan so'rang, ularda bo'lmasa, Qambarxon eshonning ham asalarilari yaxshi bo'ladi.

– Brigadir momo, buyurishni yaxshi ko'rasiz-a, – masxara qildi bobo.

Kampir ham kuldi:

– Buyursam, begonaga buyurayapmanmi? O'zimning tabelchimga buyurayapman. Birovlarga nega malol keladi?

– Ha, tabelchi bo'lmay, biz o'laylik. Tabel qilmay qo'yganimizga ming yil bo'ldi, niqtovingizdan qutulmaymiz.

– Shukr qiling, chol. Shu kampir yoningizda bor ekan, javrab, zeriktirmay o'tiradi. Yo'q bo'lsam, nima qilar edingiz, quloq-burningiz kesilganday bo'lib o'tirarmidingiz?

– Shukr, shukr, kampir.

Sardor ham ko'ngliga tugib yurgan ekanmi, qo'liga pul tegishi bilan, Sanjarni olib, Toshkentga jo'nab ketdi.

Ular ketishi bilan Noilaning tobi qochib qoldi. O'zi parhezdagi nimjongina bola edi, butunlay hech narsa yemay qo'ydi. "Ichim, ichim"lab, bosh ko'tarmay yotgani yotgan. Bobosi mashina chaqirib, do'xtirga ham obborib keldi. Bir dunyo dori-darmon olib kelib, muolajani boshlab yuborishdi hamki, qani, bola beri qarasa, og'ziga bir ushoq olsa...

Kampir adoyi tamom bo'ldi. Kecha-kunduzi bilan boshida kiprik qoqmay o'tirar edi.

– Momo, o'tirganingiz bilan ahvoli yaxshilanib qolmaydi. Yoniga o'tib yoting, qarab yotasiz, – o'zicha unga mehribonlik qilardi Gulzor.

– E-e, yo'q, o'tirganim yaxshi. Yotsam, men to'qol uxlab qolamanmi?

O'sha oqshom bola alahsiray boshladi. Kampirning yuragi yorildi:

– Yo, qodir egam, shu norasidaning o'rniga mening jonimni ol. Bu go'dak dunyoga kelib, hali nimani ko'rib ulgurdi. Hatto ona mehriga ham to'ygani yo'q. Men oshimni oshadim, yoshimni yashadim. Men sendan roziman, Allohim, shu norasidaning o'rniga mening jonimni ol. O'tinaman, Allohim. – Kampir qiblaga qarab, yig'lab iltijo qildi, keyin xuddi jon berishga chog'langandek joyiga o'tib, cho'zilib yotib oldi. Yotgan joyida ham yig'lab-yig'lab uxlab qoldi. Yarim tunda qornining pastki qismidagi qattiq og'riqning azobidan uyg'onib ketdi. Yonboshidagi tunchiroqni yoqib, qo'ltiqtayoqlarini oldi-da, bir amallab, qo'shni xonadagi hojatxonaga kirdi. Og'riq kuchaygandan kuchayib borar, butun a'zoyi badanidan muzdek ter quyilar va negadir qayt qilgisi kelar edi. U bir amallab kafti bilan peshonasidagi terni sidirib tashladi. "Ha, Alloh iltijolarimni eshitibdi. Bu jonteri bo'lsa kerak. Ha, vaqti soatim yetibdi, shekilli. Nima bo'lsa ham pokiza to'shagimda jon beray". Sekin o'rnidan turib, qo'ltiqtayoqlariga osilib oldi. Kalimai shahodatni qaytara-qaytara, tahoratxonaga kirdi: "Betahorat ketmayin". Xonasiga kirayotib, qo'ltiqtayog'i bilan cholining eshigini ikki marta urib qo'ydi: "Bexabar qolib ketmasin". Keyin kirib ohistagina joyiga cho'zildi-da, ko'zlarini yumdi. Og'riq hamon butun vujudini larzaga solardi.

Bir lahzada bobo hovliqib kirib keldi.

– Ha, kampir?

Kampir bo'g'ziga tiqilgan og'riqni yutib yuborib, bir narsa deguncha, Noila momosini chaqirib qoldi:

– Ha, qizim? – bobo uning boshiga yugurib bordi.

– Suv...

Bobo darhol uning boshida turgan ma'danli suvdan quyib, og'ziga tutdi, bir qo'li bilan boshini ko'tarib turdi:

– Mana, ich, qizim.

Qizcha suvni yaxshigina ichdi.

Bir pasdan keyin yana momosini chaqirdi:

– Momo...

– Ha, qizim?

– Qornim ochib ketdi, kasha yeyman.

Robiya kampir yotgan joyida karaxt bo'lib qoldi. Og'riqlar umuman sezilmay, a'zoyi badanini qoplagan reza-reza ter muzlab qoldi. Faqat nimagadir hamon ko'ngli aynir edi. U bir amallab o'rnidan turdi:

– Sut bormidi, bobosi?

Bobo kampirining ahvoli yaxshi emasligini ko'rib, uni qaytarib joyiga yotqizdi:

– Hamma narsa bor, momosi. Besh minutda pishirib kelaman. Sen bolaning yonida yotib tur. Yolg'iz qolmasin.

Bobo bir pasda piyola bilan qoshiqcha ko'tarib qaytib keldi:

– Qani, enajonim, boshingni sal ko'taraylik, – qizning yostig'ini biroz ko'tarib qo'ydi. – Endi og'zimizni ochamiz. Qani-i, he, yasha, yana bir qoshiq, yashang, yana...

Bir pasdan keyin qoshiqning bo'sh piyolaga "taq-taq" urilgani eshitildi.

– Endi, og'izlarni artamiz. Suv ichmaysanmi, enajon? Ozgina... Bo'ldi. Endi yotib dam olamiz. Malades.

Bobo qizni joyiga yotqizib qo'ygach, kampirining boshiga o'tdi:

– Ha, kampir, senga nima bo'ldi?

– Hech narsa. Mengayam bir piyola suv bering.

– Xo'p bo'ladi, mana, kampir.

Kampir suvni yutoqib ichdi.

– Bo'ldimi?

– Ketmang, shu kecha yonimizda qoling.

Bobo divan-karavotning adog'iga to'shalgan ko'rpaga cho'zildi.

Kampir yana terga tusha boshladi, ammo endi uning o'lgisi kelmay qolgan edi, garchi bu biroz kulgili bo'lsa ham, yana yig'lab Allohga iltijo qila boshladi: "Yo, Qodir Alloh, men o'lsam, bu go'daklar kimga qoladi? Iltimos, jonimni olma, shu ikki go'dakni voyaga yetkazib, o'z nonini o'zi topib yeydigan kunlargacha yonlarida sog'-salomat yuray. Marhamatingni darig' tutma, Allohim!.." Va!.. qornining pastidagi og'riq asta-sekin tarqab, ko'ngil aynishi ham to'xtadi, o'zi uxlab qoldi.

Kampir ko'p yillar o'sha kecha ro'y bergan voqealarni birovga aytishdan uyalib, ammo bu voqealarning rost-yolg'onligiga o'zi ham ishonib-ishonmay yurdi. O'sha kechaning yagona haqiqati shuki, Xudo Noilasini qaytib berdi. Shu kechadan boshlab, Noila bir piyola-yarim piyoladan taom yeb, asta-sekin ovqatga kirib, oyoqqa turib ketdi.

* * *

Nozima qizi Gretsiyada yurgan qo'shnisinikiga singlisini ko'p marta yubordi. Qo'shni bir borganda u dedi, ikkinchi borganda bu dedi, xullas, qizining telefonini bermadi. Oxirida "Olti oylardan so'ng o'zi keladi, shunda o'ziga uchrashasizlar", dedi. Ham erdan, ham bolalardan, ham o'ynash bergan omonat boshpanadan mosuvo bo'lgan Nozimaning bor umidi shu javobdan edi, nazarida u orzu qilgan jannatning eshigi aynan Gretsiyada edi. Gretsia ham bo'lmadi. Olti oy shu taxlit, sharpadek

sudralib yurish osonmi? Shunday dunyolarga sig'may yurgan kunlarning birida singlisi gap topib keldi: "Sayyora degan dugonamning opasi Dubayga ishlagani ketayotgan ekan".

Ular shu kuniyoq Sayyoralarnikiga borishdi. Sayyoraning opasi – bir bolasi bilan eridan ajrashgan do'ndiqqina juvon ularni juda shodon kutib oldi: "O'zi rosa siqilib yurgan edim. Ra'no opani menga Xudoning o'zi ro'para qildi. Na viza uchun, na yo'lkira uchun pul yo'q edi. Qiynalib yurgan ekansan, hozircha o'zim to'lab turay, borgandan keyin ishlab qutulasan, deb, hammasini o'zi to'lab yubordi". Unga qarab Nozimaning ham kayfiyati ko'tarildi: "Singiljonim, shu ayol bilan meni ham uchrashtiring. Men ham sizga o'xshab boshpanasiz qolganman, bir-ikki so'm ishlab kelmoqchi edim". Juvon uni darhol Ra'no opasi bilan bog'lab berdi, shu yerning o'zida ular uchrashadigan joylarini belgilab olishdi. Xuddi ertaklardagidek, nihoyat baxt eshiklari bir-bir ochilayotgan edi.

Ra'no opa burni bigizday, bo'ylari uzun, qotma tatar ayol ekan. Nozimaga boshdan oyoq razm soldi. So'ng:

– Qo'lingizdan nima ishlar keladi? – deb so'radi.

– O'zim o'qituvchiman, maktabda ona tilidan dars beraman. Boylarning xonadonida enagalik qilishim mumkin. Kompyuterni yaxshi bilaman, kompyuter markazlarida ishlashim mumkin.

– O'h-hu, ishtahangiz yaxshi-ku, – kuldi ayol. – U yoqqa borgandan keyin ish tanlamaydilar, ish sizni tanlaydi. Qaysi ishga to'g'ri kelsangiz, o'sha ishni berishadi. O'qituvchilik, enagalikni esa orzu ham qilmang, u yoqdagilar bolalarini allaqayerlardan kelgan allakimlarga topshirib qo'yishmaydi.

– Yo'-o'q, mayli, opa! – darhol gapini to'g'irladi Nozima. – Men ish tanlamayman. Qanday ish bo'lsa ham qilaveraman. Menga pul kerak. Yaxshi haq berishsa, bo'ldi.

– Ana, bu gaping ma'qul. – Ra'no opaning chiroyi ochilib, birdan sensirashga o'tdi. – Ishlaganda qulday bo'l, yashaganda bekday bo'l. Xo'sh, hozir qancha puling bor? Vizaga, biletkaga, ishga joylashtirishgani uchun...

– Bor ozroq, yetmasa, tilla taqinchoqlarimni sotaman...

– Mayli, viza bilan biletkaning pulini qilib ber. Qolganini o'sha yoqda olgan maoshingdan uzilasan. Viza bir oylarda hal bo'ladi, pasportingni menga keltirib ber. O'zing ishlaringdan bo'shab, tayyor bo'lib tur.

Maktabdagilar hang-mang bo'lib qolishdi: "O'qituvchi odamga Dubayda balo bormi?", "Shu ayolga hayronman, binoyiday ro'zg'orini tashlab, onasinikiga ketib qolgan edi. Endi chet elga ketarmish. Tavba. Qanoat yo'q-da ba'zi ayollarda... Essiz".

Mastura tish-tirnog'i bilan qarshi chiqdi: "Dugon, Ra'no tuzuk xotin emas, sen unga ishonma. Xor-zor bo'lib, o'sha yoqlarda o'lib ketasan".

Nozima unga quloq tutadigan kayfiyatda emas edi: "E-e, qo'ysang-chi, bir chetga chiqib olsam, bo'ldi. Ular tavsiya qilgan ish yoqmasa, o'zim ish axtaraman. Arabiston yoqmasa, Amerikaga ketaman. Meni bilasan-ku, hech qachon o'zimni xor qildirib qo'ymayman".

"Dugon, bu yerdagi gaplar u yoqlarga to'g'ri kelmaydi. Arabistondan Amerikaga borishning o'zi bo'ladimi? Hech bo'lmasa, biletga puling bo'lishi kerakmi?"

"Pulni topaman. Ishlayman. Men uchun qanday ish bo'lishining farqi yo'q. Pol yuvishmi, yuk ko'tarishmi, qilaveraman. Onam, "Eh, yosh bo'lmadim-da, men ham borar edim, ham pul ishlaysan, ham dunyo ko'rasan", deb havas qilib o'tiribdi. Agar ishlarim yaxshi bo'lsa, boshqa mamlakatlarga ham borib, tomosha qilib qaytaman. Undan ko'ra, bolalaringni onangga topshir-da, o'zing ham men bilan yur!"

Ular uch qiz ekan. Dubayda qop-qora chodraga o'rangan o'rta yoshlardagi bir ayol kutib oldi. Chiroyli mashinada shahar ko'chalari bo'ylab ketishar ekan, Nozima o'zini osmonning yettinchi qavatida yurganday, oyoqlari ostiga oppoq parqu bulutlardan poyondozlar to'shalgandek, quloqlari tagida yulduzlarning shivir-shiviri eshitilayotganday bo'lardi. Ular uzoq yurishdi, aylanib-aylanib, allaqanday tor ko'chaga kirib borishdi. Ko'p qavatli bo'lsa ham uylarning suvoqlari ko'chib yotganiga qaraganda, bu joylar shaharning kambag'alroq qatlami yashaydigan bir chekkasi bo'lsa kerak. Mashina to'xtagan uydan chiqqan badqovoq kishi arab tilida nimalardir deb g'o'ldiragancha ularni uyning ikkinchi qavatida joylashgan bir xonaga boshlab kirdi. Xonada to'rtta karavot va bitta shkaftdan boshqa hech qanday jihoz yo'q edi, xona juda issiq va dimligidan Nozimaning ko'ngli ozib ketdi. Chodrali ayol ularning pasportlarini olib, ancha payt yo'q bo'lib ketdi. Eskirib ketganidan asl rangi qanday bo'lganligini ham bilib bo'lmaydigan deraza pardaga qarab, negadir Nozimaning kayfiyati tushdi. Sekin borib karavotlarning biriga o'tirdi, beixtiyor Noilasi, oxirgi marta xayrlashayotganda kichkinagina barmoqlari bilan ko'z yoshlarini artgani yodiga tushdi. Safar hayajoni bilan yurib, bolalarining oldiga bir kirishga hafsala qilmaganiga afsuslandi. Noilasi juda mehribon va muloyim edi...

Bir vaqt chodrali ayol kirib, tartib-intizomni tushuntirdi:

– Ovqatlaringni olib kelib berishadi, hojatga qo'shni xonaga chiqasizlar. Derazalarni ochib, tashqariga qarash, ruxsatsiz tashqariga chiqish mumkin emas. Hozir yotib, dam olinglar.

– Bir yuvinib olsaydik... – xonaning dimligidan ular jiqqa terga tushib ketishgan edi. Qizlardan biri biroz erkin nafas olib, halovat topmoqchi bo'ldi, shekilli.

– O‘zimiz olib boramiz, – dedi ayol sovuqqina qilib.

– Ishimiz qachon hal bo‘ladi? – Nozima hammaning ko‘nglidagi savolni aytdi.

Bu diqqinafas xonada hech birining ortiqcha bir daqiqa qolishga ham hushi yo‘q edi.

Chodrali ayol unga o‘qrayib qaradi:

– Sabr yaxshi narsa, – dedi chiqib ketayotib. – Buncha betoqat bo‘lma.

O‘sha kuni ikki marta yuvindiga o‘xshash bir-bir kosa ovqat olib kirishganini aytmasa, ularni hech kim yo‘qlamadi. Ovqat yeyish uchun ham na dasturxon, na patnis, na stol bor edi. Bir kosa ovqat bilan ikki bo‘lak nonni qo‘llariga tutqazib ketishdi.

– Xuddi qamoqxonaga o‘xshaydi-ya, – dedi qizlardan biri o‘lganining kunidan iljayib.

– Sabr yaxshi narsa, – chodrali ayolning gapini takrorladi Nozima. – Qarab turaylik-chi, taklif qilgan ishlari yoqsa, “xo‘p-xo‘p”, yoqmasa, o‘zimiz ish izlayveramiz. Faqat pasportimizni qaytarib berishsa, bo‘lgani.

– Begona joyda ish topish osonmi? – qizlar allaqachon umidsizlikka tushib bo‘lishgan edi.

– Topiladi, g‘am yemanglar, – qizlar orasida yoshi kattarog‘i ham, dadilrog‘i ham Nozima edi.

Davomi 24 betda

“Ish beruvchilar” tomonidan birinchi izlangan odam ham Nozima bo‘ldi. Nonushtadan so‘ng chodrali ayol uni birinchi qavatga olib tushdi. Bu qavat shinam va yorug‘ edi. Ular kirgan xona ham keng, xona sathiga qalin, yumshoq gilam to‘shalgan, derazalariga och rangli nafis pardalar ilingan edi. Xona to‘ridagi katta kresloda o‘tirgan yoshi o‘tinqiragan chiroyli ayol unga boshdan oyoq razm soldi, yoshini, oilaviy ahvolini surishtirdi va keyin chodrali ayolga qarab “Bo‘ladi” degandek bosh irg‘ab qo‘ydi. Lekin uni yangi ish joyiga olib ketish uchun tushga yaqin yoshgina yigitcha keldi. U qizlar bilan xayrlashib ketayotib, chodrali ayoldan pasportini so‘radi: “Opa, hujjatlarimni ham birdaniga olib ketay. Harqalay, begona mamlakat. Ertaga biron so‘rab qolsa, men sizni qayerdan izlab topaman, na ismingizni, na manzilingizni bilmayman”. Chodrali ayolning ingichka qoshlari ostidagi ko‘zlari g‘azabga to‘lib ketdi: “Sen qiz juda ko‘p gapirar ekansan. Sen avval bor, ishla, bir-ikki rial pul top. Seni bu yoqqa yuborganlar bor, sen uchun ish izlab topganlar bor. Avval shularning haqqini berasan, keyin pasportingni olasan. Men hamisha shu yerdaman, hech qayerga yo‘q bo‘lib ketmayman”.

Bu javob Nozimaga yoqmadi, ammo na iloj. Injiqlik qilib turaversa, tayyor ishdan ham ajralib qolishi mumkin. Nima bo'lganda ham endi taqdiri shularning qo'lida. Uni shinamgina mehmonxonaga olib borishdi. Butunlay boshqa tilda gaplashib yurgan odamlarni ko'rib, nafasi ichiga tushib ketdi: "Endi nima qiladi? Na arabchani, na inglizchani biladi?" Uni foyening bezakli devori to'sib turgan burchakdagi xonaga olib kirishdi, u yerda xuddi o'ziga o'xshash o'zbek qizlarni ko'rib, suyunib ketdi: "Voy, Xudoga shukr-ey. Endi ona tilimda bir og'iz gapira olmay o'lib ketamanmi, deb o'ylagandim. Lekin men na ingliz tilidan, na arab tilidan bir og'iz so'z bilmayman, mijozlarga qanday xizmat qilaman?".

Uning hayajoni qizlarga yoqmadi. Yelkasidagi tor-tanqis libosi kindiklarini ham yopa olmagan, ranglari biroz siniqqan, ammo o'zi juda yoqimtoy qiz "Bu yerda ishlash uchun til bilish umuman shart emas", deb piching qildi. Nozima bu pichingni tushunmadi: "Nega?" Qiz "uf!" tortdi, so'ng "Ishlasangiz, ko'raverasiz!", dedi-da, karavotiga uzala tushib yotib oldi. Qolgan ikki qizning ham u bilan gaplashish niyati yo'q edi, biri oyna yonida o'tirib, pardo-andoz qilar, ikkinchisi deraza tokchasiga tirsaklarini qo'ygancha, ko'chaga tikilib, xayol surib o'tirardi. Nozimaning ko'ngli yomon bir narsani sezganday bo'ldi. Agar uni bir oshxonaga olib kirib, bir uyum idish-tovoqlarning boshiga qo'yib, "Sen shu yerda idish-tovoq yuvasan", desa, yoki mehmonxonaning bir qavatiga chiqarib, qo'lga shvabra bilan pollattani tutqazib, "Shu qavat ozodagarchiligi uchun sen javobgarsan", desa, boshqa gap edi. Hamxonalari ham g'alati edi, uni nazariga ilishmadimi? Bir begona yurtida shunday munosabat qilish insofdanmi? Undan ko'ra oldinroq kelgan hamshaharlarga o'xshab, unday qil, munday bo'l, deb, unga to'g'ri yo'l ko'rsatishmaydimi?

Kechqurun unga 7-xonaga qahva olib borishni tayinlashdi. Oshxonada unga kichkinagina finjonga solingan qahvani bejirim patnisga qo'yib berishdi. Eshik og'asi ikkinchi qavatga kuzatib qo'ydi. U patnis ko'tarib, 7-xonaning katta qora eshigi ro'parasiga kelganda oyoqlari butunlay o'ziga bo'ysunmay qo'ygan edi. Ayniqsa, mehmonxona xodimlari kiygizgan tor va etaklari kalta ust-bosh, yangi poyafzalda o'zini juda noqulay his etayotgan edi. Uning ahvolini tushunganidanmi, yo'lak boshida turgan eshik og'asi yugurib kelib eshikni ochib berdi. Nozima bor jur'atini to'plab, ichkariga kirdi. Nimqorong'u yo'lakdan keyingi xona keng va yorug', katta divanda o'tirgan qop-qora semiz kishi u kirishi bilan nigohini televizordan olib, unga qaradi va qarab turib, negadir jilmaydi, o'zining tilida chuldirab, nimadir dedi. Nozima garchi uning tiliga tushunmagan bo'lsa-da, zimmasiga yuklatilgan vazifani risoladagidek bajarish niyatida mehmonga yengilgina ta'zim qilib, uning oldidagi bejirmgina stolga patnisni qo'ydi. So'ng yana bir bor ta'zim qilib, ortiga burilib ketayotgan edi, mehmon o'z tilida bir narsalar dedi.

Nozima uning gaplariga tushunmasa ham iziga qaytib, unga savol nazari bilan qaradi, u til bilmasa, hatto "xo'sh, xizmat?" ham deya olmasa, so'zsiz og'ziga termulishdan boshqa nima chorasi bor? Mehmon ham uning ahvolini tushundi shekilli, endi unga gapirmay qo'ya qoldi. Bir kulib, go'shtdor qo'llarini "kel" degandek havoda aylantirib, yonidan joy ko'rsatdi: "O'tir". Nozima nima qilishini bilmay qoldi. Burilib, ketib qolay, desa, unga "mehmonni xafa qilish mumkin emas", deb

tayinlashgan. O'tiray desa, "xafa qilinmasligi kerak" bo'lgan kishi shu qadar yoqimsiz ediki... U barmoqlarining qaltirayotganini sezdirmaslik uchun qo'llarini qovushtirib olgancha mehmonning qarshisiga kelib to'xtadi. Uning keng, go'shtdor yuzi, qavat-qavat bo'lib, osilib yotgan baqbaqalari, tugmalari ochiq ko'ylaklari oldida gumbazdek do'ppayib turgan qorni va ko'zlaridagi odamni yerga urar darajadagi bepisand chorlovni ko'rib, badanlari junjikib ketdi. Mehmon esa o'rnidan turib, lapanglab uning yoniga keldi-da, nozik bellaridan ushlab, ichkariga boshladi...

* * *

Unga yarim tundan keyin javob tegdi. U muzdek suvning tagiga kirib, bir soat yuvindi, boshi uzra to'kilayotgan muzdek suvga cho'mildimi, ko'zlaridan tirqirab oqayotgan qaynoq nomus yoshlarigami, bu faqat yaratganga ayon. Oxiri ertadan kechgacha deraza oldida xayol surib o'tiradigan qiz yuvinish xonasiga kelib, eshikni ura boshladi: "Chiq, hay, chiqsang-chi!".

Nozima u yerdan ko'zlari qip-qizil bo'lib chiqdi. Haligi qiz yana uning "yangi" yarasiga tuz sepdi: "Bu suvlar bilan biz endi o'zimizni poklay olmaymiz. Biz faqat o'zimizni emas, yetti pushtimizni yerga soldik", dedi. Nozima endi to'shakka kirib, boshiga ko'rparasini burkab oldi-da, tong otguncha yig'ladi. Tong mahal ko'zi ilindi. Tushiga Noilasi kiribdi, u do'ndiqqina qo'lchalari bilan ko'zlarini artayotgan emish.

Ertasi kuni "Enaboshi" – qop-qora chodraga o'rangan baland bo'yli kekxa ayol ularning xonalariga kelib, uning yelkalarini silab, o'z tilida bir narsalar deb qizlarga gaplarini tarjima qilib berishini so'radi. Ma'lum bo'lishiga, kecha Nozima xizmat qilgan kishi Dubayning eng badavlat biznesmenlaridan biri bo'lib, uncha-muncha joylarga boravermas ekan, Nozimaning sharofati bilan kecha juda xursand bo'lib ketibdi va bu oqshom yana mehmon bo'lishini aytibdi.

– Lekin u o'zini juda yaxshi tutdi, – dedi enaboshi u haqda. – Ba'zi qizlar o'zini har tomonga urib, o'ziga ham, boshqalarga ham muammo keltirib chiqaradi. Bu esa o'zini shu qadar osoyishta, muloyim tutdiki, go'yo bir umr fohishalik bilan shug'ullangan ustasi farang ayollardek.

Bu gapni eshitib, Nozima hang-mang bo'lib qoldi.

– Sen nima deb o'ylaganding? – dedi xayolparast hamxonasi uning hayrat va uyat hissidan katta-katta ochilgan ko'zlariga qarab. – Bir xonaning burchagida bo'layotgan ishlarni o'zimdani boshqa hech kim bilmaydi, deb o'ylaganmiding. Har bir xonaga, hatto yo'laklarga ham kuzatuv kameralari o'rnatilgan. Sen nima qilayapsan, nimani o'ylayapsan, hammasini kuzatib o'tirishadi.

– Ifloslar!

Kechqurun uni yuvintirib, sochlarini ham o'zlari turmaklab qo'yishdi. Kechagidan ham chiroyli liboslar kiydirishdi, keyin qo'llariga ikki finjon qahva qo'yilgan patnis bilan ostonagacha kuzatib qo'yishdi: "Sen uning ko'nglini ol, kerak bo'lsa, xushomad qil. Shunday avraginki, u bizning mehmonxonamizdan chiqa olmay qolsin". Enaboshining gaplarini tarjima qilib berayotgan "xayolparast" hamxona qo'shimcha qildi: "Agar men sening o'rningda bo'lganimda shunday avrar edimki, u meni mana shu ifloslarning qo'lidan qutqarib olib ketishga majbur bo'lar edi".

Nozima esa jiqqa terga tushib, harsillab yotadigan "bir qop go'sht"ga xushomad qilib, avrash emas, basharasini ham hech qachon ko'rmasam, hansirashlarini hech qachon eshitmasam, der edi.

Ammo, na iloj!..

Lekin bu safar qaytib kelgach, yig'lamadi.

Ertasi kuni ertalabdan "qahva" buyurishdi. O'ttiz yoshlarga kirgan, bo'ylari baland, kelishgan yigit edi. Avvalgi Nozima bo'lsa, uni uchratib qolsa, "o'h, buncha chiroyli yigit ekan", deb ko'ngli bir sust ketishi aniq edi. Ammo bir begona yurtda, har qancha barno yigit bo'lmasin, bir og'iz so'ziga tushunmasa... Shunday bo'lsa ham yengilgina ta'zim bilan patnisni yigitning oldiga qo'ydi. Yigit qahvani qo'lga olib, bir-bir ho'plab ichar ekan, jonsiz bir jismni tomosha qilayotgandek uni kuzatar edi. Finjonni bo'shatgach, lablarini artgan qo'lsochiqni stolning ustiga otib yubordi-da, sakrab o'rnidan turdi. Hamon qarshisida itoatkor mulozimlardek qo'l qovushtirib turgan Nozimani bilagidan ushlab, yotoq bo'lmasiga deyarli sudrab kirgizib ketdi...

Nozimaning ilojsizlik tufayli ko'rsatayotgan itoatkorligi sabablimi yoki mehmonxona mijozlariga yoqib qoldimi, ba'zi kunlari enaboshi uni o'n martalab qahva olib kirishga majbur qilardi.

– Charchadim, tinka-madorim qurib qoldi, – astoydil iltijo qilar edi u enaboshiga, so'ng tarjimonlik qilayotgan hamxonasiga yalinar edi, – ayting, haqiqatan ham ilojim yo'q.

– Bu yerda charchash mumkin emas! – enaboshining qahri kelar edi. – Sening erkaliging, inijqliging tufayli mehmonxona mijozlarini yo'qotishiga shunchaki qarab tura olmayman.

Bir kuni u haqiqatan ham o'rnidan tura olmadi, juda toliqqan, butun a'zoi badani qaqshab og'rir, ko'zini ochishga ham holi yo'q edi. Enaboshi tepasiga kelib, baqirdi, chinqirdi, silkilab, urib ham tashladi. U baribir turmadi, tura olmadi. So'ng uni kartoshka-piyozlar saqlanadigan zax, qorong'u oshxona omboriga kirgizib tashladi. U to'shaksiz muzdek beton ustida yotib, chor-atrofida nimalardir yugurib yurganini, qitir-qitir qilib, bir narsalarni kemirib yeyayotganini eshitib yotar edi. "Sichqon bo'lsa kerak", o'zicha o'yladi u. "O'rnimdan turib, hech bo'lmasa, biron narsaga suyanib o'tiraydim. Yotaversam, quloqlarimning ichiga kirib ketishi ham hech gap emas". U bir amallab o'rnidan turdi. Sal narida qandaydir qog'oz qutilar taxlanib turardi. U o'tirgan joyida siljib-siljib,

olamjahon yo'l bosgandek terga tushib, o'sha qutilarning yoniga yetdi, so'ng bir xo'rsinib, qutilarga orqasini berdi-da, oyoqlarini uzatgancha, ko'zlarini yumdi: "Sal bo'lsa-da, bexavotir-da". Bir vaqt yumshoqqina bir narsa oyoqlarining ustidan yugurib o'tganday bo'ldi. Ko'zlari yarq etib ochilib ketdi. U jon-jahdi bilan oyoqlarini tortib oldi va vahima bilan atrofni kuzata boshladi. Ko'p o'tmay shundaygina besh-olti qadam narida no'xatdek ko'zlarini lo'q qilgancha uni kuzatib o'tirgan qop-qora kalamushni ko'rdi, allaqayerlardan yana chiy-chiylagan ovozlari keldi, demak, u yolg'iz emas. Nozima bolalikdan kalamushdan juda qo'rqar edi, u qalt-qalt qaltiragancha tizzalarini quchoqlab oldi. Kalamush esa qilt etmay, uni kuzatishda davom etardi. Ko'p o'tmay uning yoniga yana bir kalamush keldi, o'zaro chiy-chiylashib, allanimalar haqida gaplashishdi, so'ng birgalashib, omborning qorong'u burchaklariga o'tib ketishdi.

Ha, enaboshi, unga juda oqilona jazo belgilagan edi. "O'ylab ko'r, xonalarga qahva olib kirish osonmi, kalamushlar bilan yotish osonmi? Agar mijozlarga xizmat qilishdan bosh tortsang, kalamushlarga yem bo'lasan!".

Kalamushlar odam go'shtini yermikin-a, o'yladi Nozima. Albatta, yeydi. Shu o'tirgan joyida o'lib qolsa, uni ham...

Bir ko'ngli o'rnidan turib, ombor eshigini qoqib, uni chiqarib olishlarini iltimos qilmoqchi bo'ldi, yana fikridan qaytdi. Sababi, birinchidan, eshikkacha borishga madori yo'q, ikkinchidan "qahva tashib" yurguncha shu yerda o'lib qo'ya qolgani ma'qul. O'lganidan so'ng kalamush yeydimi, boshqa narsa yeydimi, nima farqi bor? O'zicha shunday qarorga kelib, behol ko'zlarini yumdi-yu, lekin ustixonlarini kalamushlar kemirayotganday, yana seskanib ko'zlarini ochdi. U juda majolsiz edi, yana ko'zlari o'z-o'zidan yumilib ketaverdi. Shu taxlit to hushidan ketib qolguncha o'tiraverdi, oyoqlari ustidan necha bor kalamushlar sakrab o'tganini bilib o'tirar, lekin oyoqlarini yig'ib olishga unda na mador, na xohish bor edi...

Ertasi kuni uni yana xonasiga olib chiqishdi. Yuvintirib, oldiga bir-biridan shirin ovqatlar qo'yishdi:

– Tuzuk-tuzuk yeb, o'zingga kelib ol. Hali sening qiladigan ishlaring ko'p.

Uning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi. Enaboshi qoshlarini chimirgancha unga qarab turdi-da, qizlarga yuzlanib, o'z tilida allanimalar dedi. Qizlardan biri o'rnidan turib bir piyolani to'ldirib, sharob quyib uzatdi:

– Ma, ich. Tezroq yaxshi bo'lasan.

U indamay piyolani oldi-da, sekin-sekin ho'plab ichdi. Sharob juda xushbo'y va yoqimli edi, muzlab yotgan a'zoi badani biroz qizishganday bo'ldi. Qizlar majburlab, uch-to'rt qoshiq sho'rva ichirishdi, bir-ikki tishlam non yedirishdi, keyin yana sharob tutqazishdi. Keyin o'z-o'zidan ishtahasi ochildi va

qorni juda ochganligini his qildi. O'zi qaltirayotgan qo'llarini taomga uzatib ovqat yeya boshladi, qizlar esa sharob quyib turishdi. Ko'p o'tmay juda charchaganligini his qildi, ko'zlari o'z-o'zidan yumilib ketaverdi. Kimdir tizzasidagi patnisni oldi, kimdir sekingina to'shagiga yotqizib qo'ydi. U ko'zlarini ochib, o'rnidan turolmas, ammo butun vujudini huzurbaxsh halovat egallagan edi.

– Buning juda narxi oshib ketdi,-dedi qizlardan biri.

– Muxtor Kamol uni yoqtirib qolibdi. Qayta-qayta so'rab yotgan emish, – dedi ikkinchisi. – Agar men uning o'rnida bo'lganimda o'sha odamning ko'nglini olib, unga tegib olardim-da, bu yerdan qutular edim.

– Muxtor Kamol fohishani olarmidi? Nimalarni orzu qilmaysan-a?

– Ko'ngil buyursa, olaveradi. Hech bo'lmasa, cho'ri qilib olar!

– Qiyin...

Nozima ularning gaplarini eshitib yotar, ammo nimadir deb suhbatga qo'shilmoqqa na holi, na rag'batli yo'q edi: "Ha, shunday qiladi! Kuniga o'n kishiga oyoq osti bo'lgandan ko'ra yoqimsiz buqalamun bo'lsa ham bitta odamning ko'nglini topib, shu yerdan tezroq qutulib ketgani ma'qul. Buning uchun tezroq kuch yig'ishi kerak. Kamroq odam kelsa ekan".

Ertasi kuni kechqurun Muxtor Kamol keldi. U qahvalarni stolga qo'ydi-da, sekin mehmonning yoniga o'tirib, ko'kragiga boshini qo'ydi, keyin o'zini idora qila olmay qoldi, ko'zlaridan duvillab yoshlar quyilib ketdi. Muxtor Kamol uning boshini rapidadek kaftlari orasiga olib, yuziga hayron boqdi, o'z tilida allanimalar dedi. Qaniydi, Nozima hech bo'lmasa "Meni bu yerlardan olib keting", degan so'zlarni arab tilida ayta olsa edi! Ayta olmaydi. Yuzlarini arabning go'shtdor ko'ksiga yashirib yig'lar ekan, o'ziga o'zining rahmi kelib ketdi. Bu esa alamini yana ko'proq oshirdi, ko'z yoshlarini to'xtata olmay qoldi. Arab uning sochlarini, yelkalarini silab o'zining tilida allanimalarni g'o'ldirab, uni yupatgan kishi bo'ldi. Bir muddat shunday o'tirishgach, uni ichkariga boshladi...

Ertasi kuni enaboshi kirib, uning oldiga yashil jildli pasport tashladi. Nozimaning yuragi bo'g'ziga tiqilgudek bo'lib, pasportga yopishib, uni varaqlay boshladi: bu uning pasporti edi. Hamxona qizlar enaboshining gaplarini tarjima qilib berishdi:

– Seni Muxtor Kamol sotib olibdi. Uning uyida oqsochlik qilasan, lekin zinhor oila a'zolariga bu yerdagi munosabatlaring haqida churq etib, og'iz ochmaysan.

Nozima sevinganidan o'rnidan sakrab turib, pasportini boshi uzra baland ko'targancha, irg'ishlab sakray boshladi.

Enaboshi bir narsalar deb g'udrandi. Qizlar yana unga tayinlashdi:

– Tushundingmi, bir og'iz ham! Oila a'zolari oldida sohibdan iloji boricha uzoqroq turasan. Sohib kerak payti o'zi senga aytadi va uchrashish uchun sharoit yaratadi.

“Nima bo'lsayam, mayli! Shu yerdan chiqib ketsa, bo'ldi”.

– Men axir ularning tilida bir so'z ham deyolmayman-ku, qanday ham gapirishim mumkin. Men gung va karman! Eshitdinglarmi, gung va kar!

“Xayolparast” hamxonaning unga havasi keldi. Qolgan qizlar hasad qilibmi, uni masxaralashdi: “Bu hali uyingga qaytding, degani emas. Muxtor Kamol “shu sho'rlik uyini sog'ingandir”, deb, senga shuncha pul to'lagani yo'q. Uning uyida oqsochlik qilib, haqiqatan ham oq soch kampirga aylanib, qarib-chirib, o'lib ketishing mumkin. Bizda “Xudo yo'lga, savob” deb besh so'm-o'n so'mdan kechib yuborishlari mumkin, ammo bu yerning biznesmenlari bir tiyinni behuda, maqsadsiz ishlatishmaydi”.

Ammo ularning gapi Nozimaning kayfiyatiga zarracha ta'sir qilmadi.

– Bu yerdan ketyapman. Eng muhimi shu.

– Ko'p sevinaverma, qordan qutilib, do'lga tutilib qolma yana, – bu gapni “xayolparast” hamxona aytdi. – O'zingni hamisha eng yomon, eng og'ir qismatga tayyor qilishni o'rgan. Balki uning xotini ikki oyoqli ajdarhodir, nimanidir sezib qolib, kuningni bir tutam qilar. Uning uyidagi sharoitni hali sen bilmaysan-ku. Shuning uchun yaxshi xabarni ham, yomon xabarni ham bosiqlik bilan qabul qilishni o'rgan. Bir qirday, bir sirday bo'l, deyishadi-ku. Shunday bo'l.

Xullas, unisi “u” dedi, bunisi “bu” dedi, uning ko'nglidagi hovurni bosishdi. “Ichi qoralar! O'zlari qolib ketishayotgani uchun alamzada bo'lishyapti!”

Muxtor Kamolning xotini eriga nisbatan juda yosh, nozikkina qoracha ayol edi. Uni ochiqqina qarshi oldi, qora kostyum-shim kiygan gavdali kishiga o'z tilida allanimalar deb buyruq berdi. U Nozimaning sumkasini olib, o'zini hovliga olib chiqib ketdi. Hovli nihoyatda sarishta, tartib bilan ekilgan daraxtlar, gullar hovlining ko'rkiga ko'rk qo'shib turardi. Haligi kishi uni hovlining bir chetida arg'uvon daraxtlari orasida zo'rg'a ko'rinib turgan bir qavatli binoga boshlab bordi va hovliga qaragan eshiklarning birini ochib, ichkariga kiritdi: bittagina karavot bilan bir shkaf, stol va ikkita stul qo'yilgan choqqina xona edi.

– Bu sizning xonangiz, – dedi uni boshlab kelgan kishi qo'lidagi sumkani shkafning yoniga qo'yar ekan.

Nozima xazinaga duch kelgan odamday sevinib ketdi, chopib borib yonida turgan begona birovni tavof qilgisi keldi:

– Siz... o'zbekmisiz?

– Ha. Bir zamonlar ota-onamiz shu yerga kelib qolishgan.

– Xudoga shukr-ey. Mening tilimni biladigan bir odam bo'lsa ham bor ekan-ey.

– Siz arab tilini o'rganishga harakat qiling, shunda hammaga oson bo'ladi. Mening ismim Hasan. Siz joylashib oling, keyin sizni bajaradigan ishlaringiz bilan tanishtiraman.

– Xo'p-xo'p.

– Shkafda xizmatkorlar uchun maxsus uniformalar bor, o'zingizga to'g'ri kelganini kiyib oling.

Unga xonalarni tozalash, oshxona yumushlariga ko'maklashish vazifasi yuklatildi. Hasanning aytishiga qaraganda besh yuz dollar maosh ham belgilashibdi. Bu juda quvonchli xabar edi. "Yig'ilib turaversin, uyga ketayotganda olib ketaman". Baribir birovning qosh-qovog'iga qarab, oqsochlik qilib yurish juda ham yoqimli ish emas edi. Muxtor Kamol-ku, uylariga kelganidan buyon umuman Nozima bilan gaplashmas, hatto u tomonga ko'z qirini ham tashlamas edi. Bu bir tomondan yaxshi, ammo erta bir kun boshqa ish topib bu xonadondan ketish uchun uning Nozimaga nisbatan xayrixohligi juda muhim edi: "Biron korxonada ishlasaydim..." Bu istak Hasanga yoqmasdi: "Siz bu bilan sohibga nisbatan behurmatlik qilgan bo'lasiz. Turar joyingiz, osh-ovqatingiz, maoshingiz tayin bo'lsa, yana sizga nima kerak?"

Unga erkinlik kerak edi. Xuddi ilgorigidek, ishga ariza yozib kirsam, nimadir yoqmay qolsa, yana ariza yozib, bo'shab ketaversa... Bu yerda esa hammasini sen uchun kimdir hal qiladi!

Yakshanba kuni butun oila a'zolari qayoqqadiri ketdi. Hamma, hatto oilaning o'z odamlari bo'lib qolgan xizmatkorlar ham yayrab qolishdi. Kechki payt qayerdandir hovliqib Hasan yetib keldi: "Sizni bir qarindoshingiz yo'qlayapti. Tez kiyinib chiqing". Nozimaning yuragi uvishib ketdi: uning qayerdaligini faqat uni shu yerlarga olib kelgan ayollar bilishadi, uni ulardan boshqa kim ham yo'qlashi mumkin? Ular nega yo'qlashlari mumkin? Pul talab qilishsa kerak...

– Yo'q, men hech qayerga bormayman, – oyog'ini tirab turib oldi Nozima.

– Borasiz, bu sohibning buyrug'i.

Nozima sohib haqida eshitib, biroz xotirjam tortdi, ammo baribir yuragi g'ash edi. Hasan uni shaharning ko'rkam ko'chalaridan birida joylashgan ko'p qavatli chiroyli uyga olib bordi. Birinchi

qavatdagi, marmar zinapoyalari oppoq tutqichlar bilan bezatilgan xonadonga kirgizdi-yu, o'zi tashqariga chiqib ketdi. Katta billur qandil osuda nur sohib turgan xonada hech kim yo'q edi. Nozima ostonada nima qilishni bilmay, serryib turib qoldi. Biroz o'tib, ichkaridan iljaygancha Muxtor Kamol chiqib kelganda, u quvonishini ham, xafa bo'lishini ham bilmay qoldi. Muxtor Kamol kelib, uning belidan quchib, o'ziga tortdi:

– Sog'indim, – dedi quloqlariga shivirlab arab tilida.

Arab tilini sekin-asta o'rganayotgan Nozima uning ko'ksini ohista silab, bir kulib, boshini uning yelkasiga qo'ydi va shu daqiqada mana shu buqalamundek odamga o'rganib qolganini his qildi.

– Agar mehmonxonadan ketaman, deb yig'lamaganingda, biz har kuni ko'rishib turgan bo'lar edik. Endi biroz qiyin bo'lib qoldi. Lekin baribir yaxshi. Hamisha uyimdasan, sendan ko'nglim xotirjam.

Nozima uning gaplarini taxminan shunday deb tushundi. Bu gap unga yoqmagan bo'lsa ham ilojisiz iljayib, sohibining osilib turgan go'shtdor yuzlaridan sekingina o'pib qo'ydi. Ammo insof bilan aytganda, Nozima bu odamdan har qancha minnatdor bo'lsa, arziydi. Uning Nozimaga bo'lgan munosabatini ham sira ayblab bo'lmaydi. Ko'ngil ishi-da, bu. Ko'ngil qo'ydi va ko'ngil qo'ygani ayolini mardlarcha qancha mablag' sarflab, jahannam olovidan olib chiqdi! Shunday holatda uning beo'xshov qaddi-qomatiga qarab, ko'krigidan itarib, lab burishi sira insof-diyonatga to'g'ri kelmas edi. Qolaversa, Nozima mehmonxonadagidek yana bir "yig'lab", biron korxonaga ishga o'tib olish niyatida edi. Buning uchun esa uning ko'nglini ko'proq avaylash kerak.

Hammasi yaxshi ketayotgan edi. Har yakshanba kuni Hasan uni "qarindoshi"ning uyiga olib borar, Nozima u yerdan xushbaxt kunlar ostonasi nihoyatda yaqin qolganini his etib, quvonchga to'lib qaytar edi. Bir kuni unga xonim chaqirayotganini aytishdi. Xonim kiraverishdagi katta xonada yolg'iz o'tirar edi, uni ko'rib o'rnidan turdi. Uning juda darg'azab ekanligi chimirilgan qoshlaridan, qattiq qimtilgan lablaridan ko'rinib turardi. Nozima sal beriroqda to'xtab, yengilgina ta'zim bilan salom berdi:

– Xizmat, xonim?

Xonim bir muddat unga tikilib turdi-da, so'ng yoniga keldi va sharaq etkizib, yuziga tarsaki tortib yubordi. O'zi kichkinagina bo'lsa ham, qo'li juda qattiq edi, Nozimaning ko'zlaridan o't chiqib ketganday bo'ldi.

– Sen hali uyimda turib, nonimni yeb, yuzimga oyoq qo'yib yuribsanmi?! – so'ng lablari pir-pir uchib, – Hasan!-deb qichqirdi.

Hasan oshxonada ekan, rangi bir ahvolda yugurib chiqdi:

– Labbay, bekam!

– Manavi iflosni qaysi fohishaxonadan olib kelgan bo'lsang, o'sha yoqqa olib borib tashla. Qaytib bu yerda qorasini ko'rmayin!

Nozima xonimning Dubaydagi eng yirik tadbirkorlardan birining qizi ekanligini, otasining qudrati tufayli Muxtor Kamol ham hamisha xotinidan hayiqib turishini xizmatkorlardan eshitgan edi. "Tamom!" Uning boshidan bir chelak qaynoq suv quyib yuborishgandek bo'ldi. Oyoqlari orasidan nimadir shuv etib, to'kilib ketdi, u qo'rqqanidan peshob qilib yuborgan edi. Xonimga kim nima degan bo'lsa ham, bir og'iz gapi bilan Nozimaning Dubaydagi bor sarguzashtlariga so'nggi nuqtani qo'ygan edi.

Hasan nima qilishini bilmay, serrayib turgan Nozimani yelkasidan turtib, hovliga olib chiqdi-da, unga:

– Tezroq ust-boshingni almashtirib, pasportingni olib chiq, uyingga jo'natib yuboraman, – deb o'zi mashinalar turadigan bo'lma tomon yugurib ketdi.

Nozima kiyim-boshini almashtirib, kichkinagina sumkaga yana ikki sidra kiyim soldi va yostig'ining ichki jildiga solib, yashirib qo'ygan pasportini olib, hovliga chiqdi. Hasan allaqachon mashinasini o't oldirib, darvoza oldida turardi.

Ammo Hasan uni qandaydir xilvat ko'chada joylashgan bir uyga olib keldi.

– Birinchi qavatdagi uchinchi eshikka kirasan.

Nozimaning rangi oqarib ketdi:

– Uyingga jo'natib yuboraman, degan edingiz-ku.

– Keyin... Hozir aytganimni qil. Seni sohib kutayapti. Sen bilan xayrlashmoqchi.

Uyiga olib boradigan yo'lda ko'ndalang turgan sohibning muhabbati ham unga malol keldi: "Uf-f! Shartmidi shu?!" U shoshib o'zini uchinchi eshikka urdi. Oppoq kresloda yastanib o'tirgan Muxtor Kamol uning istiqboli tomon yurdi. U har qancha oliyhimmat, mehribon bo'lsa ham Nozima, qaytib uning quchog'iga kirishni istamas edi. Ikki qadam berida to'xtab, salom berdi. Muxtor Kamol sekin yurib, uning yoniga keldi. Bir qo'li bilan yelkasidan tutib, ikkinchi qo'lining barmoqlari bilan ohistagina yuzlarini siladi:

– Sen juda go'zal va odobli ayolsan. Men seni chin yurakdan sevib qolgandim. Agar ixtiyorim o'zimda bo'lganda sendan sira ham voz kechmagan bo'lar edim.

Nozima yerga qaradi.

– Sen o'zingni ehtiyot qil. Pul uchun o'zingni xor qilma.

Ular bir zumda Dubay aeroportiga yetib kelishdi. Hasan uning pasportini olib, ichkariga kirib ketdi. Nozima mashina oynasidan aeroportni tomosha qilib o'tirar ekan, roppa-rosa bir yil avval shu aeroportga qo'nishganda qanchalar quvonganini esladi. Qaniydi, inson umrini kino tasmasidek ortga qaytarish, keraksiz joylarini o'chirib tashlash mumkin bo'lsa edi. Nozima o'sha aeroportga kelgan kunidan shu bugungacha bo'lgan kunlarni butunlay hayotidan o'chirib tashlagan bo'lar edi.

Hasan aeroportga qanday yugurib kirgan bo'lsa, shunday yugurib chiqdi. Uning qo'lidagi pasportning ichida uzun qog'ozchipta bor edi. Nozimaning ko'zlarida yosh halqalandi: "Nihoyat!"

– Toshkentga chipta ololmadim, ammo Moskvaga oldim. Shu yerdan eson-omon chiqib olsang, bo'lgani. Seni uchirib yuborganimizni xonim bilib qolmasligi kerak. Qo'lingga pul beraman, Moskva aeroportining o'zidan Toshkentga chipta sotib olasan. Tezroq bo'l, ro'yxatdan o'tkazishni boshlashdi.

Nozima Hasanning qo'lidagi pasporti bilan samolyot chiptasini olib, Moskvaga ketuvchi yo'lovchilar chiqarilayotgan bo'lma tomon yugurib borarkan, Hasandan uzr so'radi: "Men uchun sohibdan gap eshitadigan bo'ldingiz-da. Endi unga nima deysiz?" Hasan unga qarab qo'l siltadi: "Xavotirlanma. Men sohibning buyrug'ini bajaryapman".

Samolyot yerdan ko'tarilib, qoramtir bulutlar ustiga chiqib olgandan keyingina endi dasti uzun xonimning qo'li unga hech qachon yetmasligiga va nihoyat ko'ziga surtib yurgan tillalarini sotib, ne-ne orzular bilan yetib kelgan beshafqat shahardan bir umrga qutulganligiga ishonch hosil qildi: "Xudoga shukr".

Demodedovo aeroporti nihoyatda gavjum edi. Hammaning qo'lida katta-katta jomadonlar, hamma qayoqqadir shoshgan. Toshkentga bilek olish uchun aeroportni bir aylanib chiqdi, nihoyat bilek sotadigan bo'lmalarni topgan joyida ko'nglida yangi bir istak paydo bo'ldi: "Qup-quruq qo'l bilan so'ppayib uyga qanday kirib boraman? Hech bo'lmasa, shu yerda ishlab, bir-ikki so'm topay, keyin uyga borsam, sal tuzuk bo'ladi". Bir amallab Masturaning telefonini esladi. Aloqa xizmati ko'rsatish bo'limiga kirib, avval onasiga, so'ng Masturaga telefon qildi: "Yuribman Moskvada yallo qilib. Ha, bir tadbirkor dugonam shu yerdan do'kon ochgan ekan, senam yur, degandi. Xafa bo'lmasin, deb birga keldim. Ozroq ishlay-chi, boraman-da. Hay, menga qara, sening ering ham Moskvada edi-ya, telefonini bersangchi, dam olish kunlari uchrashib, bir sizlarni g'iybat qilib, xumordan chiqarmidik..." Telefon raqamlarini olgach, o'tirib har qancha o'ylamasin, "pochcha"ning ismini eslay olmadi. Ko'z yoshlarga ishonmaydigan bu katta shaharda o'sha ismi noma'lum "pochcha"dan bo'lak ilinji yo'q edi, ilojisiz qo'ng'iroq qildi, o'ylab ko'rsa, gaplashish uchun ismini aytish umuman shart emas ekan?

Masalan, shunday deydi: “Assalomu alaykum, men Masturaning dugonasi Nozimaman, biz birga ishlar edik. Uylaringizga ham borar edim-ku. Bir tanishim bergan manzil bo'yicha Moskvaga kelgan edim, uning telefoni javob bermayapti. Qayoqqa borishni bilmay, sizga qo'ng'iroq qilayapman. Yoningizda biron ish yo'qmi?”

Shunday dedi, ammo “pochcha” biroz xijolat bo'ldi: “Nahotki, ayol boshingiz bilan begona shaharga yolg'iz o'zingiz kelgan bo'lsangiz? Har qanday betayin odamning gapiga ishonib ham yo'lga chiqaveradimi kishi? Lekin ming afsus, men sizga yordam bera olmayman. Yonimda hech qanday ish yo'q. Hozir o'zim ishdaman, biz turgan joy aeroportdan juda uzoq, borib sizni olib kela olmayman. UZR, opa!”, “Uzringni pishirib ye”. U bo'shashib, o'rindiqlarning biriga o'tirib qoldi. “Yaxshisi, uyga ketaman. Binoyidek ishlab yurgan edim. Maoshim ham yomon emas edi. Nima jin urib, bu sargardonchiliklarni bo'ynimga oldim? Qanday uyim, qanday erim bor edi. Ertalab turib, supur-sidir, peshindan so'ng pishir-kuydir qilishdan bo'lak tashvishim yo'q edi. O'sha kunlardan ham norozi bo'lib yurgan ekanman-a”. Endi u kunlar bir ertak, shunday ertakki, voqealarida hech qanday fojia bo'lmasa ham eshitib yoki aytib bo'lganingizdan keyin mung'ayib qolasiz.

– Singlim...

U shoshib ovoz kelgan tomonga qaradi: bir o'rindiq narida yoshi elliklardan oshgan to'lagina qoracha kishi o'tirardi.

– Yaxshimisiz? Ish izlab yuribsizmi, deyman.

Nozima yerga qarab, bosh irg'adi.

– Meni ham boplab tushirishdi. O'tgan yili o'g'lim kreditga “Lasetti” olgan edi. Kutilmaganda xotinim oyog'ini sindirib uyda yotib qoldi. O'g'lim yangi mashinada kira qila boshladi. Mashinaga ichimiz achiydi, ammo shu bilan ham qaniydi kreditni yopa olsak? Bir kuni bir yigit bilan tanishib qoldim. “Beg'amboy, Moskvada ishlayman, boring, oyiga ming dollar beradigan ish topib beraman”, deb va'da qildi. O'ylab-o'ylab, og'aynilardan qarz olib, yo'lkira qildim, yangi topgan oshnaga tandir kabob, pista-bodom, qatlama-patir oldim. U meni kutib olib, bir dachaga olib bordi, ikki kun olib borgan narsalarim bilan maishat qilib yotdik. Uchinchi kuni “bir aylanib kelay, keyin sizni ishga olib boraman”, deb ketgancha yo'q bo'ldi. Telefon qilsam, javob bermaydi, ertasi kuniyoq dachadan quvildim. Necha kundan beri ish izlab sarsonman. Bu yerda yosh yigitlarning bozori chaqqon ekan, bizga o'xshagan o'rta yasharlar hech kimga kerak emas. Shu yerda ishlayotgan bir qaynim bor, uning oldiga borsam, qarzga yo'lkirangizni berib turishim mumkin, ammo ish topib bera olmayman, dedi. Xotinga qaytib boraversam-chi, deb telefon qilsam, o'zi qarz bilan ketgan edingiz, ishlab yuborgan pulimdan uzaman, deb, yana qarz bilan qaytmoqchimisiz, kelsangiz, peshonangizni urib yoraman, deb o'tiribdi. Kecha Qozon vokzaliga bordim, ish izlab och-nahor, sarson-sargardon bo'lib yurgan odamga to'lib ketgan. Shu yerda bir o'ris yigit ish taklif qildi, besh yuz dollar oylik, dedi,

menga birdan o'n kishi kerak, deyapti. Odamlarning ko'pi u bilan ketishga qo'rqdi. Sakkiz kishi yig'ildik, o'ris "kam" deb ketib qoldi. Ertaga yana kelar ekan. Agar xohlasangiz, biz bilan yuring. Sarson bo'lib yurguncha bir-ikki so'm ishlab olamiz.

Nozima o'ylanib qoldi. O'sha chug'urchuq bozordek g'ala-g'ovur uyini, onasini, bolalarini juda sog'ingan edi, ammo ularning oldiga qanday quruq qo'l bilan boradi. Qo'lidagi pul yo'lkirasidan ortmasa...

– Bo'pti, boraman.

Shu oqshom aeroportda tunadilar.

Ular vokzalga borganda talabgorlar o'n kishi bo'lib, haligi o'risning ixchamgina avtobusiga chiqishayotgan ekan. Bular ham yalin-yolvor qilib, qo'shilib olishdi.

Boradigan joylari juda chekkada shekilli, ancha yo'l yurishdi. Ishlari tayin bo'lganidan xursand yo'lovchilarga yo'lining uzoqligi ham sezilmadi, vag'ir-vug'ur gurung avjiga mindi. Faqat Nozimagina gurungga qo'shilmas, negadir ko'ngli g'ash, adog'i ko'rinmayotgan yo'lining tezroq tugab, tezroq qanday ish qilishlarini ko'rishni istar edi. "Yaxshi ish bo'lsa, biron yil chidab, biroz sarmoya to'plab ketar edim".

Avtobus bepoyon sayxonlik o'rtasida to'xtaganda, hamma "obbo, mashina buzilib qoldi", deb o'yladi, ammo o'ris yigit kabinadan sakrab tushib, eshikni ochdi: "Vi'xodite!"

Atrofdagi uyum-uyum axlatlardan bo'lak hech narsa yo'q edi. Yigit ularga tushuntirdi: "Shu yerdan temir-tersak yig'asizlar. Rangli metall alohida, alyumin alohida, oddiy metall alohida yig'iladi. Har kimning yiqqan mahsulotiga qarab, maosh beriladi".

Yigit olislarda qorayib turgan vagonchalarni ko'rsatdi: "Ana shu vagonlarda yashaysizlar, erkaklar uchun alohida, ayollar uchun alohida vagon qo'yilgan".

Talabgorlardan biri o'rta chiqib: "Men bu yerda ishlamayman", degan edi, o'ris qo'ynidan yaltillab turgan to'pponcha chiqardi: "Seni bu yerga hech kim majburlab olib kelgani yo'q. O'zing xohlab keldingmi, endi men xohlaganda ketasan". Shu bilan burnini jiyirib turgan boshqalarning ham uni o'chdi.

– Davayte, na rabotu! Vremya idyot!

Ularni yuklarini qo'yib kelish uchun vagonga yubormadi: "Vecherom!"

Hammaning o'ziga yarasha yuki bor edi: kimda sumka, kimda jomadon. Ular yuklarini bir joyga yig'ib qo'yib, o'zlari axlat uyumlarini oralab ketishdi. Axlatlar to'kilgan joy keng sayxonlik bo'lsa ham uyumlardan taralayotgan badbo'y hid dimoqni yorar darajada o'tkir edi. Nozima bolaligidan hidga bo'lmas edi. Paxta hashariga eskiroq avtobusda borishsa ham boshi og'rib, ko'ngli aynib qolardi. Birov-yarim oldidan arzon-garov atir sepib o'tsa, burnini jiyirardi. Endi...

– Narigi tomondagi uyumlar quruqqa o'xshaydi, – negadir nafasi qisib, yo'tala boshlagan Nozimaga rahmi kelgan Beg'amboyning unga yaxshilik qilgisi keldi. – Quruq axlat unga sassiq bo'lmaydi, yuring, shu tomonni aylanamiz.

Nozima yo'tala-yo'tala qo'lidagi qoplarni sudrab, unga ergashdi. Endi quruq uyumlarni titib boshlashgan edi, ish boshining hayqirig'i eshitildi.

– Tam nechego vremya teryat. Vernites! Tam uje provereno!

“Ha-a!.. Demak, ulargacha ham bu yerda odamlar ishlagan, yashagan...”

O'zlari chala tushda yetib kelishgan edi, quyosh bir pasda tikkaga keldi. Vaqt bo'lgani uchunmi, kayfiyat tushib ketganidanmi, hammaning qorni ochib ketgan edi. O'zini demokrat sanaydigan birovi ishboshiga qarab, “Nachalnik, obed! Kogda obedayem?” deb haqqini talab qilgan bo'ldi. Mashinaning soyasiga kichkinagina yig'ma kursi qo'yib, haydovchi bilan sigaret tutatib o'tirgan ishboshi unga qarab: “Obed? Xorosho, obedayte togda”, debdi beparvogina. “Gde obedat?” dedi demokrat. Ishboshi qo'llarini yozib, axlat uyumlariga ishora qildi: “Von skolko obed. Naydite sebe yedu i kushayte na zdorovye. V vashem rasporojeniye pol chasa”. “Eto je musor! Vi' nad nami izdevayetes!..” isyon qildi demokrat. Ishboshi to'pponchasini chiqardi: “Kto ti' takoy? Ti' toje musor! Proklyati'y chernojopi'y!

Shu bilan demokratiya o'yini butunlay tugadi. Shu kuni hech kim tushlik qilmadi. To qosh qorayguncha axlat uyumlari orasida kim o'qchib, kim yo'talib izg'idi, ammo kechki ovqat haqida ham hech kim og'iz ochmadi. Vagonlarning yonida ikki bochkada suv bor ekan: “Mojete, slegko umi'tsya. No, vodu nado sekonomit. Pit toje budete etu vodu”.

Suv juda kam edi. Hamma qancha charchagan bo'lsa, shunga chanqagan edi.

– Qo'llarni avval tuproq bilan ishqalab, tozalab olaylik. Keyin suv bilan salgina yuvib qo'ysak ham bo'laveradi, – taklif qildi yoshi ulug'lardan biri.

Shunday qilishdi.

Chanqoqlar qondirilgach, ular yashash joylariga kirishdi, vagonning girdi aylantirilib, kichkinagina sim karavotlar qo'yilgan, ularning ustiga lattasi yirtilib, kir uvada paxtalari to'zg'ib yotgan ko'rpalar to'shalgan edi. Ishboshi kutilmagan zaruratlar uchun bo'sh chelak qo'yib, ularning ustidan qulflab ketdi.

– “Nohaq qamaldim”, deganlarini ko'p eshitganman. Ammo men, o'rtoqlar, haq qamaldim, – dedi ish boshlaganlaridan beri churq etib og'iz ochmagan xushro'ygina juvon.

Hamma unga hayron bo'lib qaradi.

– Binoyiday ishim bor edi, hamshiralar ko'payib ketib, navbatchiliklarim kamayib ketdi, dedim. Lekin uyda bo'lsam ham mahalladoshlarim bir daqiqa tinch qo'yishmasdi. “Bolam kasal”, “Onam kasal, bir ukol qilib bering”. Hech kim quruq qo'ymas edi: ham rahmat aytar edi, ham “qo'l haqi” deb qo'yarda qo'ymay, cho'ntagimga pul tiqishardi. Men bo'lsa, hech to'ymadim, ko'proq, yana ko'proq bo'lishini istadim. Momoginam Xudoning zorini qildi: “Hoy, bolam. Bizda ilgari ayol kishining non izlab, ko'chaga chiqishi or sanalgan, kim ko'chaga chiqsa, falonchining qizi, falonchining ayoli, deb erkaklariga ta'na qilingan. Illo, ko'chaga chiqib oylikchi bo'lib yurishmagan. Oh, biz ham qo'limizda o'z pulimiz bo'lsaydi, erkaklar qatori shu uydin bir uzilib chiqib, ishlab kelsak ekan, deb orzu qilar edik. Mana, o'qiding, kasbing bor, ishlab yuribsan, eringdan ham ko'proq pul topasan. Ering bechora “Xotinboy” deb og'zingga qarab turadi. Senga nima yetmayapti o'zi? Shunday chiroyli juvon begona ellarga borib, cho'rilik qilib yurishdan or qilmaysanmi? Ular seni ko'rib, hamma o'zbek shunday beor, bechora ekan deb, hammamizning ustimizdan kulmaydimi?” dedi. “Ko'zimga surtib o'stirgan nevaramning allakimlarning eshigida xor-zor bo'lib, bechora bo'lib ishlab yurishidan or qilaman”, dedi. “Or qilsangiz, uyimni qayta qurib bering, mashina olib bering”, dedim. Endi o'ylab qarasam, men noshukrlik bilan o'zimni xor qilib, o'zimga, kasbimga, meni yaxshi ko'radigan bemorlarimga, qishloqdoshlarimga, momomga, bolalarimga xiyonat qilgan ekanman. Ilgari og'ir jinoyatlar uchun o'rislarning yurtiga surgun qilishgan. Mana, men ham o'zimni surgundaman, deb hisoblayapman va o'zimga o'zim sen bundan ham og'irroq jazoga munosibsan, deyapman.

– Siz sirayam hamshiraga o'xshamaysiz, – dedi tor shimi va kindiklari ko'rinib turadigan yengsiz, yoqasiz ko'ylagi bilan hammaning g'ashiga tekkan qiz.

– Nega? – hayron bo'ldi hamshira.

– Siz ko'proq o'qituvchiga o'xshaysiz. Bir muallimimiz bo'lar edi: “Menga xiyonat qilsang ham o'zingga, o'zligingga, o'zbek degan nomga xiyonat qilguvchi bo'lma”, deb miyamizni qotirar edi. Maktabni tugatib, shundan qutuldim, deb yursam, Xudo bu yoqda sizni ro'para qildi. E-e, Xudoyim-ey, och qoringa bunday balandparvoz gaplar nimaga kerak?

– Rostdan ham, onam ilon chaqqan uxlaydi, och odam uxlayolmaydi, der edi. Ochlik yomon narsa ekan.

– Hamma yog'imga axlatlarning badbo'y hidlari o'rnashib qolgandek...

– Uf-f!

Sim karavotlarning g'ichir-g'ichiri ancha vaqtgacha eshilib yotdi. Qizlar uxlayolmayotgan edi, ammo baribir charchoq ochlikdan ham, xo'rlikdan ham ustun keldimi, birin-ketin "oh", "uf"lar to'xtab, sokin pishillash va yakkam-dukkam xurraklar eshila boshladi. Nozima qorni ochiqqanini umuman his etmas, nimagadir ko'ngli aynir, qayt qilgisi kelardi: "Ha, hamshira qiz to'g'ri aytdi. U ham xiyonatkor. O'ziga, bolalariga xiyonat qildi". Shu yerlarda shunday yurguncha bolalarining yonida qaynonasining tuvagini to'kib yurgani yaxshi emasmi? Ko'pincha ertalab va kechqurun qaynonasining tuvagini ko'tarib chiqayotgan qaynotasiga duch kelib qolardi, lekin hech qachon "Bering, bobo, erkak boshingiz bilan tuvak ko'tarib yurasizmi?" deb, uning qo'lidan tuvakni olmagan. "Shuncha ishini qilganim kammi, endi tuvagini ham ko'tarib yurishim kerakmi?" der edi ichida. Endi!.. "Kuning qursin, Nozima!"

Nozima bolalikdan ikki qo'lini juftlashtirib, chakkasiga qo'yib, yonbosh yotishni yaxshi ko'rar edi. Bugun esa qo'llariga o'rnab ketgan qo'lansa hid nafasini siqar, hamma qatori chalqancha yotsa, uxlayolmas edi.

Ertalab hamma tushkun kayfiyatda ish joylariga tarqaldi. Nonushta haqida na savol, na talab, na taklif bo'ldi, ammo kim bir quti pechenye, kim bir yelim xalta qotgan non, kim ochilmagan baliq konservasi topib, o'zlaricha "uvolni bilmagan o'rislarni" yomonlab-yomonlab, nonushta qilib olishdi. Bora-bora axlat mashinasi kelgach, shoshib, talashib yemak topib, bir-birlariga maqtanib yeyishga odatlanishdi. Bu joylarning yozi juda qisqa bo'lar ekan, kuz boshlanishi bilan qishning zahri sezilib qoldi. Yengil-elpi kiyimda kelgan "mehmon"lar endi axlatlar ichidan o'zlariga issiqroq ust-bosh izlay boshlashdi. Nozima ham o'ziga binoyidek jemper, palto, issiq ishton va etikcha izlab topdi. Albatta, bu yerda ularni yuvishning iloji yo'q edi. Topilganiga shukr qilib, yaxshilab qoqib-qoqib kiyib oldi.

Bir kun Beg'amboy yoniga keldi: "Uydagilar tushimga kirib, hech uxlayolmayapman. Erkaklar o'zaro maslahat qildik, Vladikning galini olib, haydovchisi shaharga ketgan kun o'ldiramiz-da, qochamiz".

Nozima qo'rqib ketdi: "Mayli, qochaylik. Lekin kimnidir o'ldirib, emas. Olti erkak nahot bir erkakni ushlab, oyoq-qo'lini bog'lab tashlayolmaysizlar? U bo'shab olguncha, biz ketib bo'lamiz".

"Yo'q, yigitlarning ko'zi qonga to'lgan, o'ldiramiz, deyapti".

“Qo‘ying, aka. Unday qilmanglar, jinoyat qilmasdangina shu yerlardan ketib olaylik. Erkaklarga o‘zingiz tushuntiring”.

Uning gapi Beg‘amboyga ma‘qul tushdi.

Erkaklarni ham shunga ko‘ndiribdi.

Axlat uyumlari orasida qochish rejasi ishlab chiqildi, kuni belgilandi.

Qochiladigan kun choshgoh payti “demokrat” axlat titib yurib, “voy-voy”lagancha yiqilib qoldi. Ishlayotganlarning hammasi har yoqdan “yordam”ga yugurib bordi. “Demokrat” esa ko‘zini ochay demas, g‘ujanak bo‘lib olgancha, bor ovozi bilan dod solar edi. Kimdir “hovliqib” ishboshining yoniga yugurdi: “Yemu ochen ploxo. Skoriy nado vi’zvat!”. Kursisida o‘tirib, ularning harakatini kuzatayotgan ishboshining jahli chiqdi: “Kakoy skori’y tebe? V takoy dal skori’y ne vi’zovish. On ne bolen, a prosto yemu len. Seychas ya sam yego vi’lechu!”

U axlat uyumlarini oralab o‘tib, “demokrat”ning boshiga bordi. Yaltillab turgan etigining tumshug‘i bilan yelkasiga turtirdi: “Ey!” “Demokrat” unga e‘tibor ham qilmay, dodlayverdi. Ishboshi uning yoqasidan tortib, o‘ziga qaratmoqchi bo‘ldimi, engashib, yoqasiga qo‘l uzatgan edi, har doim Nozimaga o‘g‘riqarash qilib yuradigan polvon kelbat yigit bo‘yniga bir musht tushirdi. Ishboshi shilq etib, yerga quladi. Kimdir chaqqonlik bilan uning cho‘ntagidagi to‘pponchasini olib qo‘ydi, kimdir sumkasidan arqon chiqarib, oyoq-qo‘lini bog‘lab tashladi. “Demokrat” o‘rnidan sapchib turib, bog‘lanib yotgan ishboshini ayamay tepa boshladi. Unga boshqalar ham qo‘shildi. Hamshira esa chirillab ko‘zlari qonga to‘lgan erkaklarning atrofini aylanib yotardi: “Hoy, bo‘ldi! O‘ldirib qo‘yib, qamalib ketasizlar. Bu yerda sizlarni hech kim kechirmaydi. Bo‘ldi. Biron musor mashina kelib qolguncha tezroq qochaylik. Bo‘linglar, tez!”

Mashina kelish xavfi hammani hushyor torttirdi. Shusiz ham yuz-boshi qonga belangan ishboshini tashlab, yo‘lga chiqishdi: “Har kim o‘zicha yursin. Hammamiz birga yursak, shubhalanishadi”.

Har kim har xil yo‘lni tanladi: kim yo‘lning o‘ng tomonidan, kim chap tomonidan, kim dala yo‘lidan, kim o‘rmon oralab...

– Men katta yo‘ldan ketaman, dala yo‘l, o‘rmon menga to‘g‘ri kelmaydi, – dedi qizlardan biri, – hayvonlardan qo‘rqaman.

– Menga katta yo‘l kerak emas, men odamlardan ko‘rqaman, – dedi Nozima.

– Men ham siz bilan ketayin, men yolg‘iz yurishga qo‘rqaman, – iltimos qildi hamshira.

Ular axlat uyumlari oralab, ortga qaytishdi. Ancha yo'l bosishgach, ko'p qavatli uylar ko'rina boshladi. Ikki "hamkasb" suyunib ketdi. Shahar tortgan barcha azoblariga xotima bo'lib ko'rindi, lekin ular juda holdan toygan, ochiqqan edilar. Olisdan cherkovning tilla suvi yuritilgan qubbalarini ko'rib, yana sevinishdi. Axir u yerdan Xudo yo'lga nimadir undirish mumkin-da. Aylanma ko'chalar bilan cherkovga yetib borguncha ikkalasining ham tinka-madori quridi. Qator-qator yog'och o'rindiqlarga to'la hashamatli cherkov kimsasiz huvillab yotardi. Ular ichkariga kirib, nima qilishlarini bilmay, katta sahnning o'rtasida hayron turib qolishdi. Anchadan so'ng qaysidir burchakdan qop-qora libos kiygan salobatli bir kishi chiqib keldi. Hamshira Nozimani turtdi: "Siz gapiring, ruschani mendan ko'ra yaxshi bilasiz".

Nozima ham bilganicha tushuntirdi: "Ish axtarib topa olmadik. Endi uyga ketmoqchimiz. Ochmiz, pulimiz yo'q. Bizga yordam bering".

Ruhoniy ularga bir zum tikilib turdi-da, so'ng cho'qindi: "Sizga Alloh yordam bersin, bolalarim mening. Ikki ko'cha narida sizlarning machitlaringiz bor, o'sha yerga borib, chin ko'ngildan so'rasangiz, balki mushkullaringiz oson bo'lar".

Ikkalasi oyoqlarining terisini shilib tashlagan poyafzallarini yechib olib, ko'rsatilgan tomonga yugurib ketishdi. Kiraverishda hojatxona va tahoratxona bor ekan. Ular sumkalaridan yengilroq poyafzal olib kiyishdi va obdon tahorat qilib, machitning ichiga kirishdi. Ichkarida, xonaning girdini aylantirib qo'yilgan o'rindiqlarda yetti-sakkiz chog'li kishi o'tirar, to'rda o'tirgan o'rta yoshlardagi soqolli kishi Qur'on tilovat qilar edi. Qizlar bir chetga o'tib, tilovat tugashini kutishdi, so'ng yuzlariga fotiha tortib, xona ustunlaridan birining panasiga o'tib, ikki rakaatdan namoz o'qishdi. Ular ibodatni tugatishganda machitni to'ldirib o'tirgan ziyoratchilar tashqariga chiqib ketishgan, imom tasbeh o'girib yolg'iz o'tirar edi. Ularning salomiga ham ovozsiz bosh irg'ab qo'ya qoldi. Negadir shu odam Nozimaning ko'zlariga avliyolarga o'xshab ko'rinib ketdi, u beixtiyor imomning qarshisida tiz cho'kib, yig'lab yubordi:

– Bizga yordam bering, biz xato qildik, adashdik. Endi uyga qaytishga pulimiz yo'q.

Imom kutilmaganda boshini ko'tardi, barmoqlari tasbeh aylantirishdan to'xtadi:

– Uyga ketmoqchimisiz?

– Ha... – yig'lashda davom etdi Nozima.

– Yuguring, hovlidagi odamlarni qaytarib keling, – dedi u sherigining kutilmagan holatidan anqayib turgan hamshiraga. – Boring, boring, ularning mashinasida joy bo'lishi kerak.

Ular buxoroliklar ekan, garchi charchab, holdan toygan uvada qizlarga yoqtirmay nazar tashlagan bo'lishsa-da, imomning iltimosini yerda qoldirishmadi.

– Xudo yo'liga-da, inilar. Bular sizlarning singillaringiz, – dedi imom duo bergandan keyin ham.

– Oh, Buxoro! Axir Buxoro – bu O'zbekiston-ku, O'zbekiston esa qadrdon uy!-hayajon bilan shivirladi Nozima. – Ha, uy! Uy! Allohga shukr.

Haqiqatan ham ularga Xudo qarashgan edi. Sheriklari juda saxovatli, taqvodor kishilar ekan. Butun yo'l davomida ularni ovqatlantirib, hol-ahvol so'rab kelishdi. Buxoroga kelishgach, o'rtadan pul chiqarib, uylariga olib boradigan mashinaga solib yuborishdi.

U uyga kelib, bir hafta yotdi, turmadi, turolmadi. Bir haftadan so'ng saharmardondan turib, chiroyli kiyimlarini kiydi, biroz pardoz ham qildi, ammo oynadagi aksi o'ziga yoqmadi, ranglari juda so'lg'in, ko'zlari mungli ko'rindi.

Rang ko'r, hol so'r. Iris xola shuncha kundan buyon qizidan bir og'iz ham gap so'ramadi. Uning kiyinib, pardoz-andoz qilayotganini ko'rib, biroz ko'ngli yorishdi.

– Ha, bolam?

Nozima yerga qaradi, nimagadir xijolat tortdi.

– Bolalarni ko'rgani bormoqchi edim, – dedi anchadan so'ng, uning ovozi titrab turardi. – Ona, besh-olti so'm pul bering, bolalarimga biron narsa olay, – u pastki lablarini tishlab oldi, lekin ko'zlaridan duvillab yosh to'kildi.

Iris xola qizining yelkalaridan quchdi:

– Yig'lama, bolam.

– Ona, meni ularning uvoli urdi!..

– Unday dema, bolam. Har qanday ota-ona ham bolasiga to'g'ri bo'l, deb urishadi, uradi.

– Yo'q, ona...

Iris xola qizining oldiga bir taxlam pul qo'ydi:

– Ular kampir bilan adirdagi uylarida yashashayotgan ekan.

– Yaxshi.

U g'alati ahvolda edi. Miyasi go'yo muzlab qolganday karaxt, na yurgan yo'lida, na ko'rayotgan narsalarida ma'no yo'q edi. Markazdagi o'yinchoq do'koniga kirdi, qiziga qo'ng'iroqchali chiroyli sumkacha oldi, o'g'liga nima olishni bilmay, uzoq ikkilandi. Uning nimalarga qiziqishini bilmasdi. Buning ustiga endi maktabga borayotgan bo'lsa, unga o'yinchoq kerak ham emasdir. O'ylab-o'ylab, magnitli taxtachaga yopishtirib, har xil shakllar yasash mumkin bo'lgan mozaika oldi: "Otasi shunday narsalarga qiziqar edi". Olgan narsalariga qarab turib, bolalarini juda ham sog'inib ketganini his qildi, ularni tezroq ko'rgisi keldi. Nozima kelin bo'lib tushgan yillari uydagilar bilan adirdagi uyga goh olma tergani, goh xurmo tergani, goh shunchaki yozilib, dam olgani bir necha marta borgan edi. Adashmay topib borishiga ko'zi yetib turgan bo'lsa-da, ich-ichidan nimadir uzilib, oyoq-qo'lidan joni chiqib borayotgandek, tobora bemador bo'lib borardi. Qaynonasi-ku, nima desayam, gapirib-gapirib, "kelib yaxshi qipsan, bolalaring sog'ingan edi", deydi. Bu kampirning nari yog'ligi ham, beri yog'ligi ham bor. U kechirimli. Lekin qaynotasi hech narsa demaydi. Ana shu "hech narsa demaydigan" qaynotaga yuzma-yuz bo'lish hammasidan qiyin.

Taksi haydovchi rosa gapdon odam ekan.

– Ha-a, Robiya momoning qo'rg'onigami? Singlim, ancha ichkarilik ekan, picha qo'shib berasiz, Bo'ladimi?

– Bo'ladi.

– Yashang! – haydovchi shalog'i chiqib ketgan eski "Moskvich"ining eshigini "sharaq" etkizib yopdi.
– Bu qo'rg'onning yo'li juda notekis, shuning uchun mendan boshqa hech kim bormaydi. Lekin men, ishonsangiz, jon deb, mazza qilib boraman. Chunki bu qo'rg'onga hamisha mard odamlar boradi. Olloqul boboga-ku, gap yo'q. Kampir hokim bilan gaplashib, yigirma besh gektar yer olibdi, desangiz. Hamma hayron, bu adirda lalmi bug'doy bilan isiriqdan boshqa hech narsa bitmaydi, axir. Bular shu yigirma besh gektarni ag'dartib, ming tup pista, ming tup bodom, yana qancha uzum ekdi. Bobo bu hovlisida ko'chat yetishtirar ekan, hammasini o'zim tashidim. "Bobo, bu pistalar hosilga kirishi uchun kamida o'n besh yil vaqt kerak, ungacha kim bor, kim yo'q", desam, "O'g'lim, savobi-chi, savobi?" deydi. Suv chiqmagan joylarga chelaklab quyib chiqdi. "Bir tomir oldirsam bo'ldi, keyin qor, yomg'irning suvi bilan yashnab yotaveradi", derdi. Bobosi tushmagur uddaladi. Qoyil! Momoyam juda o'tkir kampir. Sal bo'lsa, telefon qilib, "Safarboy, bizga to'rt yigit kerak, bobongiz charchab qoldi" deydi. Ko'chada nima ko'p, bekorchi yigit ko'p, zing'illatib to'rttasini olib boraman. Bechoralar minnatdor bo'lib qolishadi. Shu ko'chatlarning orasiga bug'doy ekishdi, zig'ir ekishdi. Ham daromad, ham buromad deganday. Ishonsangiz, ko'chatlar bexato olgan, yam-yashil bo'lib yashnab yotibdi. Qoyil qoldim, desangiz. Siz o'zi Robiya momoning kimi bo'lasiz?

– Jiyan... – yerga qaradi Nozima.

– Bolalarigayam gap yo‘q. Biri ketsa, biri kelaveradi. Hammasi tanish bo‘lib qolgan. Stoyankaga kelishlari bilan meni izlashadi, “Safar aka bormi?” deb, xuddi Safar akadan bo‘lak taksi yo‘qday. Yonimdagilarning ichi kuyib qoladi, desangiz. Bir xil paytlari taksidan kechib, shu adirlarga ko‘chib kelgim keladi. Kengliklarga qarasangiz, ko‘nglingiz kengayib ketganday bo‘ladi. Ammo bu joylarda yashash, non topish uchun boshingda Robiya kampirday bir boshchi kerak. Ko‘p emas, ikki yillarda har yili bir mashinaning pulini topishsa kerak. Pistalar hosilga kirsaku, pulning tagida qolishadi. Lekin bizning xotinga bunday tashvishlar yoqmaydi, u kishiga shahar kerak, bozor, do‘kon yonida bo‘lsa...

Adir ustidagi uy, ming qo‘yli Murodalining qo‘rg‘onidek yam-yashil chorbog‘ o‘rtasida viqor bilan qad kerib turardi. Safarboy Nozimaning “hay-hay”lashiga qaramay mashinasini hovli ichkarisigacha haydab bordi. Nozima supada o‘tirgan qaynotasi bilan qaynonasining oldida juda xijolat bo‘ldi: “Obbo-o!”

Mashina to‘xtagach, Safarboy Nozimaga ham qaramasdan mezbonlarning yoniga o‘tdi: “Momo-o, mana sizga yordamchi olib keldim”. Ular bir Safarboyga, bir Nozimaga qarab, hangu mang, so‘zsiz qotib qolishdi. Har ikkalasi bu uchrashuv qachondir yuz berishini bilsalar-da, ammo shunchalar tez, shu holatda, shu kun bo‘lishini, uni Safarboy o‘zining shaldiroq aravasida olib kelishini sira kutmagan edi. Yana... Nozima shu qadar ma‘yus, shu qadar mungli ediki, undan nafratlanish, “senga endi bola kerak bo‘lib qoldimi?” deb quvib solishning hech iloji yo‘q edi. Birinchi bo‘lib kampir o‘rnidan turdi. Qo‘ltiqayoqlarini qo‘ltig‘iga tirab, mashina oldida mung‘ayibgina turgan Nozimaga quchog‘ini ochdi:

– Kelaver, bolam. Safarboy, ko‘rpachaga o‘ting.

– Yo‘, yo‘q, men boray. Hali stayankada qancha odam Robiya momoning qo‘rg‘oniga boraman, deb meni izlab yurgandir.

– Assalomu alaykum.

Nozima supaning yoniga kelib salom berdi. Ming xijolat bilan qaynonasining yelkasidan oldi, dimog‘iga urilgan tanish qalampir munchoq hididan boshi aylanib ketdi, tomog‘iga nimadir tiqildi. Qaynonasi begona bilan ko‘rishayotgandek nomigagina bag‘riga olgan bo‘ldi, sekingina yelkalariga qoqib qo‘ydi, so‘ng ko‘rpachaga taklif qildi:

– Ko‘rpachaga o‘t.

Olloqul bobo indamadi.

Bu orada eski mashinaning “pat-pat”lashini eshitgan bolalar ichkaridan yugurib chiqishdi:

– Voy, ona-am! Ona-ajon-on! – Noila oyog'iga ham kiymasdan Nozimaning quchog'iga otildi.

Nozima qizining jajjigina vujudini bag'riga olar ekan, ko'zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi:

– Bolajonim, bolajonginam!-shashqator yoshlar orasidan ostonada eshikka suyanib turgan Sanjarni ko'rdi. Qizini yerga qo'ymasdan unga qarab yurdi. Ostonaga yetganda, Noilani ko'targan holda, o'g'lining yoniga cho'nqanib o'tirmoqchi bo'ldi, ammo negadir munkib ketdi va yiqilib ketmaslik uchun tizzalab oldi:

– Bolam, bolajonim!

Sanjarning ham ko'zlari to'la yosh edi. U lablarini tishlab, yuzini burdi. Nozima emranib, uni ham bag'riga oldi, quchog'i to'lib ketdi:

– Bolajonim! Bolajonlarim! Men sizlarsiz o'lib qolaman!

Sanjar uning bo'ynidan qattiq quchoqlab oldi-da, ho'ngrab yig'lab yubordi:

– O-ona-a! Ona-ajo-on!

Keyin vaqt juda tez o'tdi. Nozima bolalarining izmidan chiqa olmay qoldi:

– Ona, yuring, mening xonamni ko'ring.

– Ona, mening akvariumim bor, baliqlarimni ko'ring.

– Ona, endi ketmaysizmi? Biz bilan shu yerda yashang. Sizsiz judayam zerikayapmiz. Ketmaysiz-a?...

Nozima uy egalaridan qanchalar xijolat tortayotgan bo'lmasin, bolalarining yonida bo'lgani uchunmi, qaynonasining kechirimliligiga ishongani tufaylimi, onasining uyidan topa olmagan xotirjamlik va halovatni shu yerda topganday edi. Xuddi oradan hech narsa o'tmaganday, qaynonasining eski bir ko'ylagini kiyib olib, belini mahkam bog'ladi-da, uylarni yig'ishtirdi, hovlini tozaladi, kir yuvdi. Muzlatkichdagi lahm go'sht bilan dumbani ko'rib, ikki zuvalagina manti qilib tashladi: "Qaribop, yumshoqqina". Mantini ko'rib, bolalar qiyqirib yuborishdi: "Ur-re, manti!" Noila esa onasiga tort buyurtma qildi: "Endi tort pishirib bering".

Kun kech bo'lib qolgan edi. Unga iltijo bilan tikilib turgan qizchasiga qarab, ko'ngli buzilib ketdi. "Nachora. Birovning uyi, u ketishi kerak".

– Bolam, boshqa safar tort qilib beraman. Endi men ketishim kerak.

– Nega ketasiz? Ketmang. Momo, onamga ayting, ketmasin.

Robiya kampir bir nevarasiga, bir Nozimaga qaradi.

– Zarur ishing bo'lmasa, qol. Bularga bir tort qilib ber. Tuxum bor, qaymoq bor.

– Onamga qo'ng'iroq qilib qo'yishim kerak-da. Xavotir olishadi.

Robiya kampir cho'ntagidan yaltillab turgan qo'l telefoning chiqarib, unga uzatdi.

"Bu kampir balo!"

Tort pishgandan so'ng Nozima, Noila bilan Gulzorning yonida yotadigan bo'ldi. Sanjar esa odatdagidek momosining yonida qoldi.

Robiya kampir shu kun biron ishga qo'l urmagan bo'lsa ham juda charchadi. Hech kim indamasa, ko'zlarini yumsa-yu, uxlab qolsa! Ayniqsa Sanjarga ertak aytishga sira holi yo'q edi. Sanjar ham charchagan, qaniydi shu bugun ertak so'ramasa edi.

– M-momo!

– Ha, bolam? – ertak aytmalik uchun bahona izlab, ovoz berdi u.

– M-momo, bir narsa so'rasam, xafa bo'lmaysizmi?

– So'ra, bolam.

– Rostdan ham xafa bo'lmaysizmi?

– Sendan hech qachon xafa bo'lmayman bolam, so'rayver.

– Momo... Men ham onamning oldiga borib yotsam maylimi?

Momo juda g'alati bo'lib ketdi. Bo'g'ziga nimadir tiqildi. Beixtiyor nevarasini qattiq bag'riga bosdi. U qizg'anayotgan edi, ammo shu lahzada o'zidan uyalib ketdi: "Hoy, kimni kimdan qizg'anayapsan? Bolani o'z onasidan qizg'anayapsanmi?"

– Mayli, bolam. Bor, bora qol.

Sanjar momosining yuzidan o'pdi:

– Faqat bir kechaga. Ertaga yana siz bilan yotaman. Siz qoʻrqmaysizmi? Sizning oldingizga Gulzor opamni yuboraymi?

– Mayli, bolam. Yubora qol.

Sanjar xonadan uchib chiqib ketdi: “Onasi-da!..”

Nozima juda erta uygʻondi. Ikki yonida yotgan bolalarini yuraklari orziqib oʻpdi, yelkalarini siladi, soʻng asta sirgʻalib pastga tushdi. Jim-jit hovlida muzdek musaffo havo qalqib turar edi. Uyning ortiga oʻtib, Safarboy maqtagan pistazor-u, bodomzorlarga qaradi. Tuya oʻrkachidek past-baland adirliklar ustida daftar chizigʻidek bir tekis qilib ekilgan koʻchatlarni qoplagan barglar erta-indin bu joylar gurkiragan bogʻ boʻlishidan darak berib turardi. Ohistagina yerga choʻkkaladi. Dimogʻiga namxush tuproq hidi aralash allaqanday yovvoyi gullarning yoqimli hidi urildi. Qayerdadir toʻrgʻay sayradi, ot kishnadi. Hamisha ot kishnashini eshitganda beadogʻ kengliklar koʻz oʻngida namoyon boʻladi, yuragi kengayib ketgandek, vujudida bir betakror halovat his etadi. Hozir ham shunday boʻldi. Adirlar ortidagi osmon bilan tutashib turgan togʻlarga, qarshisida yastanib yotgan qir-adirlarga, oyoqlari ostida gʻimirlab yurgan chumolilarga xuddi soʻnggi bor koʻrayotgandek yuraklari orziqib tikildi. Ancha oʻtib, hovlidan qaynotasining tomoq qirgani eshitildi. Oʻrnidan turib, hovliga oʻtdi. Qaynotasi qoʻylar yotadigan qoʻraning eshigini ochayotgan ekan, borib salom berdi, qoʻylar pastga enib ketguncha, polizga oralab ketmasin, deb, ekinzor tomonni toʻsib turdi. Shundayam bobo hech narsa demadi, na salomiga alik oldi, na biron soʻz aytdi. Uning xoʻrligi keldi. Indamay oshxonaning ortida yotgan supurgini olib hovlini supurdi. Choy qoʻydi. Kechqurun qaynonasi koʻrsatgan sigirni sogʻib, sutini pishirdi. Bolalarining turishiga deb, yumshoqqina sutli shavla osib qoʻydi, soʻng qaynonasining yoniga kirdi. Robiya kampir allaqachon turib, ichkarida tahoratini olib, namozini ham oʻqib boʻlgan, televizorini sekingina qoʻygancha, qandaydir kinoni tomosha qilib oʻtirgan edi. Nozima kirgach, Gulzorni turgʻizdi.

– Kel, oʻtir, – dedi Nozimaga sovuqqina qilib.

Nozima biroz oʻngʻaysizlanib, Gulzorning joyini toʻgʻirlagan boʻldi-da, karavotining bir chetiga oʻtirdi:

– Choy qildim. Qayerga dasturxon qilay, deyayotgan edim...

– Bolalar turishsin-chi... Sen... qancha vaqtga kelding?

Nozima yerga qaradi:

– Men... endi ketmayman.

– Nega?

– Bolalarimni sog'indim, – boshqa hech qanday javob kampirning ko'nglini yumshata olmas edi, shu lahzada kampirning ko'ziga yaxshi ko'ringisi kelib ketdi.

– Shundaymi?

– Xola, men juda ko'p xatolar qildim, ishoning, birini bilib, birini bilmay qildim. Qaysar, ahmoq fe'lim bilan sizning ham dilingizga ko'p ozor berdim, bolalarimni ham qiynab qo'ydim. Mana, o'zim ham boshi berk ko'chaga kirib qoldim. Na uyim bor, na ishim bor. Sizga bolalarimni bering ham deya olmayman, uysiz, pulsiz ularni qayerga olib boraman? Ularni shuncha azobga qo'yganim ham yetar. Siz menga ko'p yaxshiliklar qildingiz, bolalarimga onalik qilayapsiz. Faqat mening bolalarim uchun issiq uyingizdan kechib, shu adirlarda yashab yuribsiz. Men o'zimni o'ylab, chet ellarga ketdim, siz mening bolalarim uchun yarimta joningizga jabr qildingiz. Sizning oldingizda uyatliman, qarzdorman. Bir umr eshigingizda cho'rilik qilsam ham qarzimni uza olmasam kerak. Hammasi uchun rahmat.

Bu Robiya kampir uchun butunlay kutilmagan tazarru edi. Kampir avvaliga Nozimaga hayron-hayron qaradi. Qarshisida o'tirib, tavba qilayotgan juvon o'sha o'zi bilgan Nozima ekanligiga sira ishongisi kelmas edi. Ammo eshitayotganlari shu qadar mahzun va samimiy edi-ki, beixtiyor ko'zlariga yosh keldi. Nozima gapini tugatgandan keyin ham ancha jim qoldi. Nihoyat qaynonasining uzrini qabul qilmagandek jim o'tirishidan o'ng'aysizlanib, o'rnidan turayotgan Nozimaga qarab, xayollarini yig'ib oldi:

– Nozima, joyingga o'tir, – kampir namlangan mijjalarini artidi. – Menga qara, bo'lari bo'ldi. Agar xo'p desang, shu yerda qol. Nevaralarim uchun hech kim sening o'rningni bosa olmaydi. Bor-yo'g'imizni shu adirlarga sochdik, Hajga atalgan pullarimiz ham shu yerga ketdi. Yarim jon holimda Hajda nima qilaman, dedim. Shu pul nevaralarimning kelajagiga yarasin, dedim. Bu joylarni biz xazinaga aylantirdik. Maktabingni ham qo'y, shu yerdagi ishni boshqar. Bo'lmaganda ikki yilda mashina minasan, topgan rizqing o'zing, bola-chaqangdan ortib, birov-yarim beva-bechoralarga muruvvat ko'rsatishga ham yetadi.

Endi Nozima hangu mang bo'lib qoldi. Bir zum kampirga hayrat bilan tikilib turdi-da, so'ng o'rnidan sapchib turib, kampirni quchoqlab oldi:

– Rostdanmi? Rostdanmi, onajon?! Shu yerda qolsam bo'ladimi?

– Albatta, bu uy, bu bog'lar Sanjar bilan Noilaniki, demak, u seniki ham!

– Yo'g'-e?! Lekin bobom rozi bo'larmikin? O'g'lingiz ham...

– Hammasini o'zimga qo'yib ber.

* * *

O'sha kuni ham ertalabdan oyoq-qo'li qaqshab og'ridi. Bomdodga ham tura olmadi. Kun yoyilgach, bir amallab turib, hovliga chiqdi. Hassaga suyanib, keksa tutning soyasiga qo'yilgan supaga borib o'tirdi. Asalari qutilarining atrofida timirskilanib yurgan bobo ham kampirining yoniga keldi. Dasturxonning bir chetida bostirib qo'yilgan choynakning ustini ochdi:

– Nozima yumshoqqina sutli shavla qilgan ekan. O'zi bozorga ketdi. Yarim kosagina suzib kelaymi?

– E-e, yo'q, negadir hech narsa yegim kelmayapti.

– Kampir, sen meni qo'rqitma. Onam ham ketishidan oldin hech narsa yemay qo'ygan edi, – hazil qildi bobo.

Kampir kuldi:

– Si-iz, qo'rqmang, bobosi. Mening hali-beri ketish niyatim yo'q. Sizni, shunday uy-joylarni kimga tashlab ketaman? Yo'q, ketmayman.

– Ha, bo'lmasa, chatoq ekan, – o'zicha o'yga botdi bobo.

– Nima, biron rejangiz bormi? Meni jo'natib, biron yoshrog'ini olib kelmoqchisiz, shekilli-a?

Bobo kuldi:

– Yo'g'asam, cho'zilib yotavermay, mundog' qimirla-da.

Soylikdan keladigan yo'lda oq mashina ko'rindi.

– Ie, biznikiga mehmon kelayotir-ku, – o'rnidan qo'zg'aldi bobo, – Asalga odam kelayotgan bo'lsa kerak.

– Kim biladi, asalgami, o'zingizgami? Kampirim og'ir yotibdi, degan bo'lsangiz, omonatini topshirib bo'lgandir, deb...

Mashinadan ikki barvasta yigit tushdi.

So'rashuvdan so'ng, bobo mehmonlarning yuziga savol nazari bilan qaradi:

– Kelinglar, nima tashvishlar bilan yuribsiz?

– Biz bundan besh yil avval sizlarni biroz tashvishga qo‘yganmiz, – dedi yoshi kattarog‘i. – Biz bir tuhmat bilan qamoqqa tushib qolganimizda, bir hoji birodarimizga ancha kun uyingizdan joy bergansiz, obro‘yingizni tahlikaga qo‘yib, kerakli odamlar bilan uchrashtirgansiz. Hoji akamiz sizlar haqingizda ko‘p yaxshi gaplar aytgan edilar. Ilojini topsangiz, yaxshiliklarini qaytaring, degan edilar.

Cholu kampirning ko‘zlari hayratdan katta-katta bo‘lib ketdi.

– Siz... Sizlar otuvga hukm qilingan edilaringiz-ku? – dedi kampir choliga navbat bermay.

– Ha, shunday bo‘lgan edi. Biz appelyasiyaga berdik. Hoji birodarimizning sa‘yi harakatlari bilan “dori”ning haqiqiy egasi topildi. Keyin bizni ozod qilishdi.

– Yo‘g‘-e!

– Rostdanmi? Ko‘p ajoyib ish bo‘libdi-da.

– Ha, Allohga shukr. Shunga sizlarni izlab kelgan edik. Biron xizmat aytinglar, ko‘ngillaringizni olaylik.

– E-e, yo‘g‘e, bizning hech qanday ishimiz yo‘q, hamma narsamiz yetarli, – dedi bobo mehmonga choy quyib uzatar ekan. – Shu balolardan eson-omon qutulibsizlar, biz shunga xursandmiz.

– Momoning picha tobi yo‘q, deyishdi. Agar “xo‘p” desangiz, Dushanbeda ajoyib shifoxonalar bor, olib ketib, davolatib kelimiz.

– Yo‘g‘-e, men momongizsiz bir kun ham yashay olmayman, – kuldi bobo.

– Istarsangiz, sizni ham birga olib ketamiz. Bizda bahavo joylar ko‘p, aylanib, dam olib qaytasiz.

– Yo‘q, yo‘q. Sizlar bahuzur, bizdan hech xijolat bo‘lmanglar. Biz juda katta xizmat ham qilganimiz yo‘q. Mehmoningiz bir parcha joyda yotib turdi, yarim kosa ovqatimizga sherik bo‘ldi. Kecha-kunduz namoz o‘qirdi, Allohdan sizlarning duoi jonlaringizni so‘rab... Biron yaxshilik qilmoqchi bo‘lsangiz, o‘sha birodaringizga qiling.

Keluvchilar bir nafas jim qoldi.

– Qaniydi iloji bo‘lsa!-chuqur “uf” tortdi yoshrog‘i yerga qarab. – U kishi o‘tib ketdilar.

– Nega?

- O‘zlari biroz betobroq edilar. Yana bizning tashvishimizda ko‘p aziyat chekdilar. Bizning avf qilinganimizni eshitdilar, ammo ozodlikka chiqqanimizni ko‘ra olmadilar.
- Afsus... Alloh rahmatiga olgan bo‘lsin.
- O‘zlari shoir odam edilar, uch-to‘rt kitoblariyam chiqqan. Adolatsizlikka chiday olmas edilar. Hamma narsani yuraklariga olar edilar.
- U kishini biznikiga jo‘natgan Abdurahmonboy degan akamiz “Biz bilan ishlaydi”, degan edi-ku.
- To‘g‘ri, institutda ishlagan edilar, lekin o‘zlari shoir edilar. Bizlar asli qo‘qonlikmiz, bobolarimiz Qo‘qonda katta shoir o‘tganlar. “Quloq-quloq” davrida otalarimiz Tojikiston tomonlarga o‘tib ketishgan. Shundan bizlar ham tojikistonlik bo‘lib ketganmiz.
- Ha-a, taqdir-da, inim.

Mehmonlar ketayotib, supaning chetiga bir taxlam pul qo‘yishdi: “Quruq qo‘l bilan kelgan edik. Nevaralarning kamu ko‘stiga ishlatarsizlar”.

Bobo pulni qo‘yarda-qo‘ymay qo‘llariga tutqazdi: “Unday demang, nevaralarning ota-onasi bor, shunday hovli-joyi, bog‘-rog‘i bor. Buni olib qo‘ying”.

Mehmonlar qattiq o‘tindi: “Yo‘q, demang, bobo. Og‘ir kunimizda bizga yaxshilik qilgan odamlarni biz ham bir izladik, izzatiga yetdik, deb ko‘nglimizni tinchitishimiz uchun shuni oling”.

“Mayli, bo‘lmasa”.

* * *

Sanjar Toshkentga ketgan yili bobo qattiq og‘rib qoldi. Ayniqsa, tiramohning oxiriga borib, yotgan joyida hazil-huzul qilib yotgan bo‘lsa ham, ko‘zlari so‘nib borayotgani ko‘rinib turardi. Bir kuni to‘ng‘ich qizi kelib, rosa janjal qildi:

– Ena, bo‘ldi-da endi. Adirning ustida so‘ppayib o‘tiraverasizlarmi? Nevaralarimni o‘gaylatmayman, deb shu yerlarga kelgan edingiz. Nevaralaringiz ham egalik bo‘ldi. Hammamizning yuzimizga oyoq qo‘ygan bir ayolga shunday uy-joy, bog‘-chorbog‘ingizni topshirdingiz. Yo‘q joydan boybichchaga aylandilar u xonim. Taglarida mashina, qo‘llarida jaraq-jaraq pul. Mayli, bolalar uchun biz rozi. Alloh ham kechirimli bandalarini suyar ekan. Ammo shuncha o‘g‘il-qizingiz bo‘la turib, kelinning bo‘sag‘asiga yopishib yotavermay, pastga tushing, adirga qatnayverib, charchab ketdik.

Kampirning ham avvalgi shashti yo'q, ammo:

– Hay, bolam-a, kalta o'ylaysan-da doim, – deydi nursiz ko'zlarini olislarga tikib. – Sanjarim Toshkentga ketdi, katta do'xtir bo'lishi uchun to'qqiz yil o'qishi kerak ekan. Hali zamon izidan Noila ketadi. Ikki bolani manavi pista-bodamlarning daromadi bo'lmasa, Toshkentda o'qitish osonmi? Ikki bolasi ketsa, mushtday poshikastani adirga yolg'iz tashlab, qanday ketaman? U akang bilan yashamayotgan bo'lsa ham odamlar "Robiya kampirning kelini" deydi uni, bolam.

– E-e, ena, bilganini qilsin. Qaytam sizlar bo'lmasangiz, erga tegib ketardi.

– Bolam, men avval boshdan uning yo'lini ochib qo'yganman. Nevaralarimga ola qaramaydigan birov yarim bo'lsa, turmushga chiqaver, deganman.

– Ha, bu sho'rning ham og'zi kuydi-da o'zining yengiltakligidan. Anavi Hamdam yer yutgur ham necha yo'lini to'sib chiqibdi. Bu rozi bo'lmabdi. Uning ham otasi ishdan ketib, bir notarius opasi bor ekan, ikki yuz ellik million kamomad qilib qo'yibdi. Bor-yo'g'ini sotib, shu kamomadni to'lashib, qip-yalang'och bo'lib qolishibdi.

– Qilma toparsan, deyishgan-ku.

– Endi butun oila Rossiyaga, onasining yurtiga ko'chib ketganmish.

– O'sha yoqlarda yo'q bo'lib ketsin, iloyim.

– Yo'q bo'lsa, yo'q bo'lsin. Nozima ham yosh bola emas. Endi siz taxta-o'qlog'ingizni yig'ishtiringda, pastga tushing.

O'sha kuni kechki payt bobo og'irlashib qoldi.

Momo Noilani xonasida qoldirib, boboning yoniga o'tdi:

– Odamni qo'rqitmang, bobosi. Sanjarning o'qishga kirishini kutib yurganmidingiz?

– Yana qanday ishing qoldi, kampir? Bolalarning hammasini uyli-joyli qildik, nevaralarning ham oldi uyli bo'ldi. Bir xavotiring Sanjar bo'lsa, ana, o'qishga kirdi. Endi qo'l ushlab...

– Yo'-yo'q, bobosi! Hali u to'qqiz yil o'qishi kerak. Izidan Noila boradi. O'ylab-o'ylab, shu uyni sotib, Toshkentdan bir uy olib bersakmi shularga, deyaqman. Ular o'qib, katta do'xtir bo'lsa, bu adirda nima ish qiladi? Katta do'xtirlar katta joylarda ishlashi kerak. Toshkentdan uy olsak, to birini uylantirib, ikkinchisini uzatguncha, biz ham o'sha yerda turib turamiz. Dom, issiq-sovuq suv, hamma sharoiti bor. Mana shunday yotsangiz ham mayli, faqat iltimos, o'lmay turing.

– Men bilan ketmaslik uchun yolgʻondakam iltimosmi bu? Zoʻr artistsan-da, momosi.

– Yoʻq, bobosi, chin yurakdan aytayapman. Shularni katta qilguncha ozmuncha qiynaladingizmi? Endi oʻzlari choyimizni damlab, ovqatimizni qiladigan boʻlishdi. Biz faqat yonlarida dalda boʻlib tursak boʻldi.

– Yoʻq, momosi, mening safarim qaridi. Sen hali koʻz tegmasin, bardamsan. Inqillab-sinqillab yurganlaring bir bahona ekan. Yoki xotin kishining joni qirqta deyishgani rostmi? Mayli, men bilan ketmaganing ham maʼqul. Bolalar senga juda oʻrganib qolishgan. Oʻzingni ehtiyot qil. Mendan rozi boʻl, – bobo ogʻir yutindi, oʻzi kulib turgan boʻlsa ham mijjalarida yosh aylandi.

Momo uning qoʻllaridan ushladi:

– Unday demang, bobosi. Huzur-halovat koʻrib, endi oʻzimiz uchun yashaydigan davrga yetib keldik-ku. Meni tashlab ketmang.

– Men sen bilan bir umr huzur-halovatda yashadim. Men sendan roziman. Sen nevaralarga juda keraksan, – qoʻllarini tortib olib, momoning serajin yuzlarini siladi. – Sen xuddi farishtalarga oʻxshayapsan. Mendan rozi boʻl.

– Men sizdan mingdan ming roziman, bobosi, lekin siz shoshmay turing, – momo yigʻlab yubordi.

– Men bolalaringizni chaqiray. Ulardan baloga qolib ketmayin yana.

Bobo pichirlab kalima qaytardi, soʻng qayeridir ogʻriyotganday lablarini tishladi va koʻzlarini yumdi, kipriklari orasidan bir tomchi yosh sizib chiqdi.

Momoning yuragi bandidan uzilib tushganday boʻldi. Birdaniga dunyo huvillab qoldi. Ohista egilib, oltmish yillik uzangi yoʻldoshining koʻksiga bosh qoʻydi. Uning koʻksi oyoqlari ostidagi adirlardek keng tuyuldi. Koʻzlaridan duvullab yosh quyildi:

Mungʻayganda mungdoshim, voy toʻramov, kunimov,

Suringanda sirdoshim, voy toʻramov, kunimov,

Sensiz dunyoni ne qilay, voy toʻramov, kunimov,

Koʻnglimdagi quyoshim, voy toʻramov, kunimov.

Kampir go'yo cholining qulog'iga aytayotganday shivirlabgina yo'qlayotgan bo'lsa ham, yuragi ezilib, sel bo'lib oqardi:

Osmondagi oq bulut, voy to'ramov, kunimov,

Yuragimga yog'ib o't, voy to'ramov, kunimov,

Bosh egamdan ayrildim, voy to'ramov, kunimov,

Qanotlarim qayrildi, voy to'ramov, kunimov...

Momomning xavotiri Noiladan edi: "Uxlab yotgan bo'lsa, qo'rqib ketmasin". Bir vaqt kimdir kelib yelkasidan quchoqladi: "Momojon!.."

Robiya momo ortiga o'girilib, yig'lab turgan Noilani ko'rdi. Noilasi shuncha katta qiz bo'lganini ilgari sezmagan ekan, "xuddi ammalarining o'zi!" O'zini nevarasining bag'riga tashladi: "Bobongdan ayrilib qoldik, bolam. Bor, onangni uyg'ot".

Jamila ERGASHEVA

"Yoshlik", 2013 yil, 2-4-sonlar

 [PDF shaklida yuklab olish](#)